L. PETRENKO
B. SAFAROV
A. TANIYEV
I. AYUBOV

Moliya va soliqlar

DARSLIK



SAMARQAND

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

L.D.PETRENKO, B.SH.SAFAROV,
A.B.TANIYEV, I.I.AYUBOV

MOLIYA VA SOLIQLAR

SAMARQAND–2022

CamScanner yordamida skanerlangan

UDK: 336.1: 336.2
BBK: 65.261(5Uz)
S 21

L.D.Petrenko, B.Sh.Safarov, A.B.Taniyev, I.I.Ayubov. Moliya va soliqlar //Darslik//. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 428 b.

Darslikda moliya tizimi, moliya mexanizmi, sug'urta, davlat moliyasi, davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar va ularning ahamiyati, soliq nazariyasi, soliqqa tortish amaliyoti, umumdavlat va mahalliy soliqlar bo'yicha asosiy masalalar yoritilgan. Har bir bobdan so'ng nazorat savollari, testlar, o'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar keltirilgan.

Darslik iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining 60310100 – Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan magistrlar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, korxona va tashkilotlarning moliyaviy menejerlari ham foydalanishlari mumkin.

***

В учебнике раскрыты такие понятия как, финансовая система, финансовый механизм, финансовая политика, страховой рынок, государственные финансы, местные бюджеты и их роль в рыночной экономике, а также социально-экономическая политика государства. После каждого раздела приводятся краткие ответы на вопросы по основным темам, тесты и контрольные вопросы для повторения и обсуждения.

Учебник предназначен для студентов высших учебных заведений, обучающихся по направлениям бакалавриата 60310100 – «Экономика», а также для преподавателей, магистров, слушателей курсов по повышению квалификаци и для всех интересующихся. Учебник может быть использован для самообразования.

***

The manual is opened concepts the financial system, the financial mechanism, the financial policy, financial strategy, the financial control, the insurance, public finances, the budget, taxes, the local finance, local budgets and their and social and economic policy of the state in market economy. After each section short answers to questions on the basic themes, tests and control questions for repetition and discussion are resulted.

The manual is intended for students economic high schools trained on directions of a bachelor degree 60310100 - «Economic», teachers of professional colleges and practices, as well as for all interested, employees and specialists in financial departments, students of advanced training courses, can be used for self-education.

Mas'ul muharrir: Kushatov R.X. – i.f.n, dotsent.

Taqrizchilar:
D.A.Nasimov – i.f.d, professor;
X.Turdibekov – i.f.n, dotsent.

Darslik Samarqand davlat universiteti kengashining 2022 yil 14 iyundagi 12-son qarori bilan nashrga tavsiya etildi

ISBN 978-9943-8180-3-3

© L.D.Petrenko, B.Sh.Safarov, A.B.Taniyev, I.I.Ayubov, 2022.
© SamDu nashriyoti, 2022.

CamScanner yordamida skanerlangan

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Maxkamova Mamlakat Abdukadirovnaning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi

KIRISH

Moliya – murakkab iqtisodiy fan sifatida iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, pul muomalasi va kredit va bank tizimini o'zida qamrab oluvchi bilimlar sohasidir. Shu boisdan ham jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida, bozor munosabatlarining ajralmas qismi sifatida ahamiyatga molikdir.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi iqtisodiy o'sishning jadal suratlariga erishishni ta'minlash, moliyaviy risklarni kamaytirish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga, soliqlarning undiriluvchanligini yanada oshirish va samarali soliqqa tortish konsepsiyasini amaliyotga keng tatbiq qaratilganligidir. Ushbu masalalarning hal etilishi "Moliya va soliqlar" fanini o'qitishda innovatsion usullarni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa moliya va soliqlar sohasida innovasiyalar ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish mamlakatimizda zamonaviy iqtisodiy ta'limni rivojlantirishning tub mohiyatiga aylangan.

Shuning uchun ham iqtisodiy ta'lim yo'nalishida ta'lim beruvchi institutlarning sifatli ta'lim xizmatlarini taklif etish darajasini oshirish va innovatsion o'qitish usullarini joriy etishga keng e'tibor qaratish lozim.

"Moliya va soliqlar" fanini o'rganish natijasida talabalar iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, moliya tizimining bo'g'inlari va ularning alohida tavsifi, turli mulkchilik shakllarida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari moliyasining xususiyatlari, sug'urta munosabatlarining moliyaviy jihatlari to'g'risida bilim ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Xalqaro moliyaviy munosabatlar va uning hozirgi globallashuv sharoitidagi rivojlanish tendensiyalari, soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar to'g'risida bilim, malaka va ko'nikmalariga ega bo'ladilar. "Moliya va soliqlar" fani iqtisodiy rivojlanishning bugungi sharoitida milliy iqtisodiyotda moliya tizimining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligi va moliyaviy resurslarni vujudga kelishi va uni sarflanishining umumiy qonuniyatlari hamda mavjud mexanizmi to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni qamrab oladi.

Ushbu fan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan byudjet-soliq siyosati va uning ustuvor yo'nalishlarining ilmiy-nazariy asoslarini, soliq

CamScanner yordamida skanerlangan

siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ko‘zda tutilgan masalalarni ham qamrab oladi. Umuman fan davlatning moliya-soliq tizimi va uni hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi isloh qilishning ilmiy- nazariy asoslarini o‘zida ifodalaydi.

Darslik talabalarning fanni o‘zlashtirishini yanada soddalashtirishga qaratilgan bo‘lib, har bir mavzu yakunida nazorat savollari, mustaqil ta’lim topshiriqlar va uy vazifasi uchun topshiriqlar berilgan. Har bir bob o‘z ichiga mavzu doirasida 5 ta test topshiriqlarini ham olgan holda o‘rganilayotgan paragraflarning yanada yoritilishini ta’minlaydi.

Mazkur darslikning soliqlar qismi O‘zbekiston Respublikasi soliqlar tizimi, soliqqa tortishni nazariy va amaliy jihatidan o‘rganish va talabalarda mazkur fan bo‘yicha mustahkam bilim ko‘nikmalarini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Darslikda keltirilgan soliqlar va soliqqa tortish bo‘yicha yoritilgan mavzular O‘zbekiston Respublikasi soliqlar tizimi, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish va ularni undirish tartibi, umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar hamda yig‘imlar tarkibi, ularni hisoblash hamda byudjetga to‘lash, O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi, davlat soliq xizmati idoralari tizimi, soliq sohasidagi ishlarni yuritish, soliqlar bo‘yicha imtiyozlar, rivojlangan xorijiy chet el mamlakatlarining soliqlar tizimi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatadi.

Darslikda qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olingan:

– iqtisodiy islohotlar sharoitida yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar turlari, ularni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan yoritish;

– soliqlarni tuzilish tizimi va soliqqa tortish amaliyotini tashkil etish uslublarini o‘rgatish;

– soliq qonunchiligi va soliq sohasidagi ishlarni yuritish bo‘yicha qo‘shimchalar, o‘zgarishlarni kuzatib borish.

Darslik avvalo, 60310100 – Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan tashkilot rahbarlari, magistrlar, korxona va tashkilotlarning moliyaviy menejerlari ham foydalanishlari mumkin. Ayniqsa, iqtisodchilar, buxgalterlar va auditorlarning ish faoliyatida dasturamal va amaliy qo‘lanma vazifasini ham bajaradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

1-MAVZU. MOLIYANING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

Reja:

1. **Moliyaning mohiyati va zarurati.**
2. **Moliyaning funksiyalari.**
3. **Moliyaviy bozorlar va institutlar.**

Kalit so'zlar: YaIM, qiymat, tovar, pul, foyda, moliya, narx, moliya tizimi, moliya mexanizmi, nazorat funksiyasi, taqsimot funksiyasi.

1. Moliyaning mohiyati va zarurati

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar vujudga keladi.

Moliya (arabcha-pul, mablag'lari) barqaror tovar-pul muomalasi sharoitlarida davlatning rivojlanishi va uning resurslariga bo'lgan ehtiyojlarining ortishi natijasida paydo bo'ldi. Moliya terminining kelib chiqishi yuzasidan iqtisodchi olimlarning turli fikrlari mavjud. Ba'zi bir mualliflar fikricha, mazkur termin dastlab XIII-XV asrlarda Italiyaning savdo shaharlarida yuzaga kelgan, keyinchalik Xalqaro miqyosda tarqalgan va aholi bilan davlat o'rtasida pul munosabatlari tizimi bilan bog'liq tushuncha sifatida qo'llanila boshlangan. Boshqa mualliflarning ta'kidlashlaricha, mazkur tushuncha muomalaga fransuz olimi J.Boden tomonidan uning 1755-yildagi "Respublika haqida olti kitob" nomli asarida ilk bor kiritilgan. Shuningdek "moliya" sozi fransuzcha "finans" lotincha "financia" sozlarining ekvivalenti hisoblanib "daromad", "pul mablag'lari" yoki "to'lov" degan ma'nolarda ham ishlatiladi.

Iqtisodiy munosabatlar kishilik jamiyatining moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash va taqsimot jarayoni bosqichlarida vujudga keladi. Iqtisodiy munosabatlar juda xilma-xildir. Ular nafaqat takror ishlab chiqarish bosqichida, balki xo'jalik yuritishning barcha sohalarida ro'y beradi. Iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy amal qilishi bilan bog'liq jihatini iqtisodiy kategoriyalar tashkil qiladi. Turli xil adabiyotlarda moliya terminiga turlicha ta'rif berilgan.

Moliya – davlatning o'z funksiya va vazifalarini bajarishi hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shartlarini ta'minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanilishi va foydalanilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

CamScanner yordamida skanerlangan

Bozor munosabatlari sharoitida asosiy iqtisodiy kategoriyalarga qiymat, tovar, pul, foyda, moliya va narxni kiritishimiz mumkin.

Moliya – YalM (yalpi ichki mahsulot) va MD (milliy daromad)ni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida pul mablag'larini shakllantirish va foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Munosabatlarning o'ziga xosligi shundan iboratki, moliya iqtisodiy kategoriya sifatida har doim pul shaklida namoyon bo'ladi.

Moliyaning ta'rifidan kelib chiqadiki:

- munosabatlarning pul xarakteriga ega ekanligi;
- munosabatlarning taqsimot xususiyatiga ega ekanligi;
- moliyaviy munosabatlarni shakllantirishda moliyaviy resurslar asosiy manba bo'lib hisoblanishi.

Moliya kategoriyasi quyidagi iqtisodiy kategoriyalar bilan ham bog'liq:

- narx;
- ish haqi;
- kredit.

2. Moliyaning funksiyalari

Moliya iqtisodiy kategoriya bo'lib, hozirda ijtimoiy-siyosiy tuzumi turlicha bo'lgan davlatlar tomonidan birdek foydalanilmoqda. Bu kategoriya boshqa iqtisodiy kategoriyalar (pul, foyda, tannarx, qiymat, kredit va h.k.) kabi jamiyatdagi ma'lum munosabatlar, mehnat mezoni va iste'mol me'yori, ishlab chiqarishni rag'batlantirish, milliy daromadni taqsimlash kabi munosabatlarning mohiyatini ifodalaydi.

Moliya jamiyatda tovar-pul munosabatlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Moliyaviy munosabatlarning rivojlanishi jamiyatdagi mehnat taqsimoti, mulkchilik shakllari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy faoliyatining iqtisodiy jihatdan mustaqilligi hamda tashqi iqtisodiy aloqalari bilan ham bog'liq. Milliy daromadning taqsimlanishi pul shaklida amalga oshiriladi, ammo pul moliya munosabatlarining barcha tomonlarini o'z ichiga olmaydi. Moliya munosabatlari asosan, davlat hamda korxonalarning pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalaridan aks etadi. Shuning boisdan moliyaning rivojlanishi bu davlatning rivojlanishi va uning moliyaviy zahiralarga bo'lgan ehtiyoji bilan bevosita bog'liqdir.

CamScanner yordamida skanerlangan

Moliyaning mohiyati, uning iqtisodiy kategoriya sifati ijtimoiy munosabatlar orqali ko'rinib, o'ziga xos vazifani bajaradi. Davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'laridan markazlashgan fondni tashkil qilish, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar jarayonida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish ustidan nazorat va ijtimoiy mahsulotning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi.

Moliyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. **Funksiya** – muayyan obyektning tashqi xususiyati bo'lib, tizim elementlarining o'zaro munosabatlarida jarayon sifatida aks etadi. Iqtisodiy kategoriyalarni funksiyasi iqtisodiy munosabatlarning hatti-harakatini o'zida aks ettiradi, ya'ni, **funksiya** – iqtisodiy kategoriyaning muayyan xususiyatlarining namoyon bo'lishidir.

Moliyaning funksiyalari turli adabiyotlarda turlicha ko'rsatilgan holda bahsli masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, A.M.Birman moliyaning quyidagi funksiyalarini e'tirof etadi:

– xo'jalik yuritish jarayonini pul mablag'lari bilan ta'minlash
– nazorat
– taqsimlash.

A.V.Vahobov va T.S.Malikovlar moliyaning quyidagi funksiyalarni ko'rsatib o'tishgan:

– taqsimlash;
– nazorat .

Moliya qiymat taqsimoti va uning nazoratini yaxlit ifodalovchi kategoriya hamdir. Shuning uchun ham aksariyat adabiyotlarda uning quyidagi ikkita funksiyasi ajratib ko'rsatiladi:

– **taqsimot funksiyasi** – jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turli moliyaviy tizimlar amal qiladi. Mavjud iqtisodiy munosabatlar ham goh muvaffaqiyatli, gohida esa muvaffaqiyatsiz amal qiladi, biroq moliya har qanday sharoitda ham **taqsimlash funksiyasini** bajaradi. Mamlakatning YaIM va MD taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq munosabatlardan iborat. YaIM qiymati MD va zahira fondidan iborat. Zahira fondi, amortizatsiya ajratmalari va moddiy sarflardan iborat. **YaIM** – iqtisodiy tizimlarning yil davomida yaratgan tovar va xizmatlarining jami qiymatidir. Yalpi ichki mahsulotni taqsimlash jarayoni turli xil moliyaviy dastaklar: me'yorlar, stavkalar, tariflar, ajratmalar va boshqa moliyaviy dastaklar vositasida amalga oshiriladi. Mikrodarajada esa, uning manbai korxonalar pul daromadlari va

CamScanner yordamida skanerlangan

jamg'armalari hisoblanadi. **MD** – mamlakat bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat natijasi (ish haqi, renta, foyda).

MD tarkibiga quyidagilar kiradi:

– **Jamg'arma fondi** – ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, qurilish va madaniy-oqartiruv tadbirlarini moliyalashtirishga qaratilgan.

Zahira fondi – jamoat zahiralari, sug'urta mablag'laridan iborat.

Iste'mol fondi – fan ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlashni moliyalashtirishga qaratilgan bo'lib, davlatning amal qilishini ta'minlovchi fond hamdir. Ushbu fond orqali mamlakatning xavfsizlik, mehnatga haq to'lash kabi sarflarini ham o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning ko'p ukladli shakllarini paydo bo'lishi va bozor iqtisodiyotining amal qilishi to'liq iqtisodiy mustaqillikni ta'minlovchi demokratik tizimni shakllantirishni obyektiv zarur qilib qo'yadi. Bunday sharoitda iqtisodiy subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalari, ya'ni tadbirkorlik foydasini taqsimlash ular tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarga bog'liqdir.

Taqsimot jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalari (moddiy ishlab chiqarish, muomala, iste'mol)ni, jumladan iqtisodiyotni boshqarishning barcha bo'g'inlari (respublika, mahalliy boshqaruv)ni ham qamrab oladi. Bu jarayonda taqsimotning xo'jalik bo'yicha, tarmoq bo'yicha, tarmoqlararo va hududiy shakllari vujudga keladi.

– **nazorat funksiyasi** – moliyaning boshqa muhim funksiyasi nazoratdir. U taqsimlash funksiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Moliya munosabatlarining turli tarkibi orasida pul fondlarining shakllanishi va ishlatilishi nazorati bilan bog'liq bo'lmagan birorta ham munosabat yo'qdir. Shu bilan birga faqatgina nazorat bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabat ham yo'q. Moliya ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni shakllantirish, taqsimlash va ishlatishning barcha bosqichlarida nazoratni amalga oshiradi. Nazoratni bosh maqsadi – ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida ishning sifatini yaxshilash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlaridan oqilona foydalanishga erishishdir.

Moliyaning **nazorat** funksiyasi korxonalarni barcha xo'jalik faoliyatlarida namoyon bo'ladi. So'm orqali nazorat qilish ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari ustidan, bu xarajatlarning daromadlarga mos kelishi ustidan, asosiy fondlar va aylanma mablag'larning shakllanishi va ishlatilishi ustidan amalga oshiriladi. Mazkur nazorat mablag'lar aylanishining barcha bosqichlarida moliyalashtirish va kreditlashtirishda, naqd pulsiz hisob-kitoblarni

CamScanner yordamida skanerlangan

amalga oshirishda, byudjet va moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro aloqalarda amal qiladi. So'm orqali nazorat yordamida mahsulot realizasiyasi jarayoniga, shartnoma bo'yicha shartlarni bajarilishiga, rentabellikka, foydaga, fond qiymatiga, aylanma mablag'lar aylanishiga ta'sir o'tkazadi.

Shunday qilib, nazorat – daromadlar o'sishini, mablag'lar va moddiy boyliklar oqilona sarflanishini rag'batlantiradi, korxonalarni kamchiliklarni bartaraf etishga, xo'jalik faoliyatini yaxshilashga, uning samaradorligini oshirishga, mablag'larning manzilli sarflanishini ta'minlaydi. Nazorat funksiyasining muhim xususiyati shundaki, u mablag'lar kelib tushishi va ishlatilishi jarayonida uzluksiz davom etadi va maxsus tekshiruv hamda kuzatishlar bilan bevosita bog'liq bo'lmay, mustaqil ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlari nazorat funksiyasining obyektidir. Moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirish ko'proq korxonada buxgalteriya hisobi, moliyaning qay darajada yo'lga qo'yilganligini, moliyaviy axborotning haqqoniyligi, moliyaviy intizom, buxgalteriya-hisobi hisobotini xolis yuritilishiga bog'liq. Shundagina nazoratning samarasi iqtisodiyotdagi vaziyatni tahlil qilish va xolis baholash hamda takror ishlab chiqarish jarayonining samarali borishini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, bunda davlat soliq xizmatining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham moliya soliq munosabatlari bilan uzviy holda o'rganiladi va amal qiladi. Moliyaning taqsimot va nazorat funksiyalari yaxlit holda **moliyaviy mexanizmni** vujudga keltiradi

Moliya mexanizmi – taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarining keng tizimini amalga oshirish, daromad va jamg'armalarni tashkil qilish, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini tuzishni ta'minlovchi shakl va usullar majmuidir. Moliya mexanizmi murakkab bo'lib, unga turli moliyaviy munosabatlarga xos elementlar kiradi. Aynan moliyaviy munosabatlar o'zaro aloqalarning ko'pligi ularni tashkil etishning turlari, shakllari va usullarini (moliya mexanizmi elementlarini) ko'p miqdorda qo'llashni taqozo etadi.

Davlat o'zining ijro qiluvchi va qonun chiqaruvchi organlari yordamida iqtisodiy qonunlar ta'sirini chuqur o'rganish, moliyaning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, iqtisodiy va moliyaviy siyosat vazifalarini o'rganish asosida ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlash usullarini o'rnatadi, pul jamg'armalarining shakllarini belgilaydi,

CamScanner yordamida skanerlangan

to‘lov va ajratmalar turlarini ishlab chiqadi, davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish yo‘nalishlari va tamoyillarini ishlab chiqadi.

Moliya mexanizmini ma’muriy va tartibga soluvchi mexanizmlarga bo‘lishimiz mumkin.

Direktiv (ma’muriy) moliya mexanizmi – davlat ishtirok etadigan moliya munosabatlari: soliqlar, davlat krediti, byudjet xarajatlari, byudjetdan moliyalashtirish, byudjet qurilmasi va byudjet jarayonini tashkil qilish, moliyaviy rejalashtirishni tashkil etishning barcha tizimlarini batafsil ishlab chiqilishini nazarda tutadi. Ayrim hollarda boshqa, ya’ni butun moliya siyosatini amalga oshirilishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan (korporativ qimmatli qog‘ozlar bozori) moliya munosabatalariga yoki bunday munosabat tomonilaridan biri – davlatning vakili bo‘lganda (davlat korxonalari moliyasi) ham tadbiq etiladi.

Tartibga soluvchi moliya mexanizmi – davlat manfaatlariga bevosita ta’sir qilmaydigan moliya munosabatlarida qo‘llaniladi. Moliya mexanizmining bunday xilma-xilligi xususiy korxonalarda ichki xo‘jalik moliya munosabatlarini tashkil qilish uchun xarakterlidir.

Moliya mexanizmi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Moliyaviy rejalashtirish va istiqbolni belgilash (prognozlash) - moliyaviy mexanizmning asosiy qismi bo‘lib, u moliyaviy rejalar va balanslarni hamda moliyaviy ko‘rsatkichlar, me’yorlar tuzishni o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy dastaklar va rag‘batlantirish vositalariga foydani taqsimlash usullari, turli fondlarga to‘lovlar, ajratmalar, qo‘llaniladigan imtiyozlar, jazolar (sanksiyalar), jarimalar kiradi.

Moliyani boshqarish – subyektlarning moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish, yo‘lga qo‘yish va takomillashtirish usullari yig‘indisidan iborat.


Ayrim iqtisodchilar, yuqoridagilarni inkor etmagan holda, moliyaviy munosabatlarning ko‘p qirraligi, soha va bo‘g‘inlardan iboratligini hisobga olib moliya mexanizmini quyidagi sohalar va bo‘g‘inlarga ajratib ko‘rsatiladilar.

O‘z navbatida bu har bir soha alohida tarkibiy bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, davlat moliyasi mexanizmi byudjet mexanizmi va byudjetdan tashqari fondlar amal qilish mexanizmlariga bo‘linadi. Hududiy bo‘linishidan kelib chiqib umumdavlat moliya mexanizmi va mahalliy moliya mexanizmlariga ajratish mumkin. Moliyaviy mexanizmni ijtimoiy takror ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaralganda

CamScanner yordamida skanerlangan

uning funksional bo‘g‘inlari hosil bo‘ladi, ya’ni mablag‘larni jamlash, moliyalashtirish, rag‘batlantirish va boshqalar.

Moliya mexanizmining har bir soha va bo‘g‘inlari bir butunning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular o‘zaro bog‘liqdir. Shu bilan birga, har bir soha va bo‘g‘in nisbatan mustaqil amal qiladi. Bu holat moliya mexanizmi tarkibiy qismlarining doimiy muvofiqligini zarurligini keltirib chiqaradi.



1-rasm. Moliya mexanizmining bo‘g‘inlari

Moliya mexanizmining soha va bo‘g‘inlari bir-birlari bilan murakkabligi va boshqa jihatlari bo‘yicha farq qiladi. Masalan, byudjet mexanizmi soliq turlarining ko‘pligi, ularni undirish usullarining turli-tumanligi, moliyalashtirish usullarining turlichaligi va byudjet mablag‘laridan foydalanishning ko‘p o‘nalishliligi bilan xarakterlanadi.

Korxona moliya mexanizmi orqali esa, korxona pul jamg‘armalari shakllari belgilanadi, foyda, daromadlar va moliyaviy resurslar taqsimlanadi va turli maqsadli fondlar tuziladi va ulardan foydalanish ta’minlanadi.

Moliya mexanizmining elementlari tarkibida fondlar va to‘lovlarni miqdor jihatdan aniqlash usullari qismi eng harakatchan va tez o‘zgaruvchan bo‘lib, ular ishlab chiqarish shart-sharoitlarining hamda jamiyat oldida turgan vazifalarning o‘zgarishiga qarab tez-tez muvofiqlashtirilib turiladi. Masalan, pul mablag‘lari fondlarining shakllari o‘zgarmagani holda, foydani taqsimlash usullari bir necha bor o‘zgardi, taqsimlash qoldiq usuli, normativ usuli, majburiy to‘lovlar usuli; soliq turlari o‘zgarmagani holda, ularning stavkalari, imtiyozlar, sanksiya va jarima kabi jazo choralari bozor talablariga ko‘ra tez-tez qayta qurilib, o‘zgarib turadi.

Respublikamiz soliq tizimida uzoq davr mobaynida(sobiq ittifoqdavrida) samarali faoliyat qilib kelgan oborot solig‘i o‘rniga joriy qilingan qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) stavkasi dastlab 30%

CamScanner yordamida skanerlangan

miqdorida, keyinchalik 25, 20, 18, 17 % miqdorlarigacha tushirildi. Hozirgi kunda esa, 15% lik miqdor qo'llanilmoqda. Moliyaviy mexanizmni shakllantirish bilan davlat uni u yoki bu davr moliya siyosati talablari bilan iloji boricha to'la mos kelishiga intiladi. Bu esa davlatning maqsad va vazifalarini to'laqonli bajarilishining garovi hisoblanadi.

3. Moliyaviy bozorlar va institutlar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashnining hozirgi sharoitida moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj va ularni samarali investitsiyalash masalalari dolzarb ahamiyat kab etadi. Bunda bevosita moliyaviy bozorlarning ahamiyati g'oyat yuksakdir.

Moliyaviy bozorlarda moliyaviy resurslar harakati turli moliyaviy instrumentlar orqali jamg'aruvchi va foydalanuvchi amalga oshiriladi. Shu sababli moliya bozori orqali moliyaviy resurslar iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. O'z navbatida bu taqsimlash jarayonida moliyaviy resurslar nisbatan samarali investisiyalarga yo'naltiriladi. Turli moliya-kredit muassasalari yordamida moliyaviy resurslar harakati qanday amalga oshirsa, moliyaviy bozor orqali moliyaviy resurslar ham kapital yetkazib beruvchilardan(investordan) kapital iste'mol qiluvchilarga turli moliyaviy instrumentlari vositasida to'g'ridan-to'g'ri harakatlanadi. Shuning uchun moliya muassasalari kapital (moliyaviy resurslar)ning nisbatan samarali harakatiga imkon tug'diruvchi institutlar hisoblanadi.

Moliyaviy bozor – bu savdo obyekti moliyaviy instrumentlar hisoblanuvchi tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim.

Moliya bozori tushunchasi keng ma'noni va murakkab iqtisodiy kategoriyani tashkil etadi. Moliya bozori o'zida o'zaro ta'sirda bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarini tavsiflaydi. Moliya bozorida kreditlar, veksellar, aksiyalar, obligatsiyalar, investisiyalar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi va harakat obyekti hisoblanadi.

Moliyaviy bozor quyidagi turlarga bo'linadi:

- qimmatli qog'ozlar bozori;
- ssuda kapitali yoki kredit bozori;
- valyuta bozori (pul bozori);
- investitsiya bozori (kapital bozori) va boshqalar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Rivojlangan mamlakatlar butun moliya tizimida markaziy o'rinni moliyaviy vositachi muassasalar moliyasi markaziy o'rinni egallaydi. Yuqori darajadagi takomillashgan moliyaiy infratuzilma tizimini mavjudligi va moliyaviy vositachilikni rivojlanganligi natijasida ularda investitsion maqsadlardagi yirik moliyaviy resurslar konsentratsiyasi sodir bo'lgan.

XX asrning oxirgi 10 yilidagi moliyaviy innovatsiyalarning shiddat bilan rivojlanishiga qaramasdan rang-barang moliyaviy vositachilik turlari moliyaviy resurslarni oxirgi iste'molchilari uchun samarali joylashuvini ta'minlovchi «moliyaviy mahsulot»ni jalb qilish va sotish kabi umumiy funksiyalarni bajaradi.

Moliyaviy vositachilar ya'ni tom ma'noda moliyaviy institutlar tarkibida tijorat banklari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalari, xususiy pensiya fondlari, moliyaviy kompaniyalar va boshqalar hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning moliyaviy sektorini asosini tashkil qiladi.

Iqtisodiyotning moliyaviy sektorini keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Birinchi holatda moliyaviy sektor bilan birgalikda nazorat qiluvchi organlar va moliyaviy ittifoqlarni tushunishimiz mumkin.

Nazorat qiluvchi organlarning asosiy vazifalari moliya tizimini barqaror faoliyatini qo'llab-quvvatlash, hukumat tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlar hamda me'yoriy hujjatlarni amalda qo'llash va bevosita moliyaviy institutlar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

Moliyaviy ittifoqlarning asosiy vazifalari davlat va jamiyat oldida moliyaviy institutlar guruhlarining manfaatlarini taqdim etish va himoya qilish hisoblanadi.

Moliyaviy sektorning moliyaviy innsitutlariga bank tizimi va nobank moliyaviy vositachi muassasalarni kiritishimiz mumkin. O'z navbatida bank tizimi tarkibida markaziy banklar alohida o'ringa egadir. Markazy banklar davlatning pul kredit siyosatini amalga oshirishda mas'ul muassasa hisoblanadi. Shuningdek, tijorat banklari ustidan nazorat va ularni kreditlashni amalga oshiradi, emissiya(pullar, banknotalar va boshqa kredit instrumentlarini muomalaga chiqarish), davlatni kreditlash va hukumat uchun hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish, oltin-valyuta zahiralarini saqlash va boshqa funksiyalarni bajaradi.

Tijorat banklari universal moliyaviy muassasalar hisoblanib, kredit, investision, moliyaviy vositachilik, hisob-kitob operatsiyalarni amalga

CamScanner yordamida skanerlangan

oshiradi. Zamonaviy tijorat banklari asosan aksionerlik shaklida tashkil qilinadi. Tijorat banklari: aktiv operatsiyalar, passiv operatsiyalar, vositachilik va ishonch operatsiyalari hamda boshqa qator operatsiyalarni bajaradi.

Moliyaviy vositachi muassasalar tarkibida sug'urta muassasalarining ahamiyati yuksakdir. Umuman, sug'urta munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida aksariyat iqtisodchi olimlar sug'urtani moliya tiziining alohida bo'g'ini sifatida qaraydilar.

Sug'urta munosabatlari – unda qatnashuvchi subyektlar o'rtasidagi xo'jalik subyektlari iqtisodiy faoliyati natijasida vujudga keluvchi ehtimolli zararlarni qoplash yoki sug'urta holatlarini sodir bo'lishi oqibatlari bilan bog'liq xo'jalik subyektlari yo'qotishlarini tenglashtirish uchun mo'ljallangan sug'urta fondiga maqsadli badallar hisobiga alohida pul fondlarini shakllantirish bo'yicha qayta taqsimlash munosabatlari majmuasidir.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliya kategoriyasiga ta'rif bering va zaruratini izohlang.
2. Qanday pul munosabatlari moliyaviy munosabatlarga taalluqli hisoblanadi?
3. Moliyaning asosiy funksiyalari qaysilar va ularning ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Moliya kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan qanday bog'liqlikda?
5. Moliyaning mohiyati va zarurligini asoslab bering.
6. Moliyaning asosiy funksiyalariga izoh bering.

CamScanner yordamida skanerlangan

2-MAVZU: MOLIYAVIY SIYOSAT

Reja:

1. Moliyaviy siyosat mazmuni va vazifalari
2.Moliyaviy strategiya va taktika, ularning o'zaro bog'liqligi.
3. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari
4. Xalqaro moliya siyosati
5.Moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari

Kalit so'zlar: moliyaviy siyosat, moliyaviy strategiya.

1. Moliyaviy siyosat mazmuni va vazifalari

Siyosat – ma'lum maqsadlarga erishishga qaratilgan yo'nalishlar, chora va tadbirlar yig'indisidir. Har qanday jamiyatda ham davlat moliyadan o'zining funksiya va vazifalarini bajarishda hamda ma'lum maqsadlarga erishishda foydalanadi. Qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirilishida moliya siyosati muhim o'rinni egallaydi. Uni ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish jarayonida jamiyat oldida turgan masalalarni hal etilish sharoitlari ta'minlanadi. U iqtisodiy manfaatlarga ta'sir etuvchi faol dastak sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy siyosat – xo'jalik yuritishning tamoyillari va shakllari, iqtisodiyotni rivojlantirish vazifalarini yechishdagi usullar, chora-tadbirlar va faoliyatlar yig'indisidir. Iqtisodiy siyosat jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi, iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Iqtisodiy siyosat o'z ichiga baho siyosati, pul-kredit siyosati, amortizatsiya siyosati va moliya siyosati kabilarni mujassamlashtiradi.

Moliya siyosati – bu davlatning iqtisodiy siyosatini tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy resurslarni (manbalarni) jalb etish, ularni taqsimlash, ishga solish va foydalanishga davlat orqali yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlar yig'indisidir.

Moliya siyosatining muhim vazifasi – u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Lekin moliya siyosatini faqat iqtisodiy siyosatga bog'lash mumkin emas. Moliya siyosati – bu moliyaviy munosabatlar sohasida davlatning mustaqil faoliyat ko'rsatadigan sohasi. Moliya siyosati mustaqil xususiyatga ega bo'lish bilan bir vaqtda davlatning har qanday istalgan

CamScanner yordamida skanerlangan

ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishi uchun xoh ijtimoiy, xoh iqtisodiy xoh xalqaro munosabatlar olib borishida muhim vositadir.

Moliya siyosatining asosiy vazifalari quyidagilar:

– birinchidan, moliyaviy resurslarning hajmini va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish. Moliya siyosati ko'zda tutayotgan tadbirlarni, ular bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni real mavjud bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishiga erishishi kerak. Shuningdek, ajratilayotgan har bir so'mlik resursdan maksimal darajada samaraga erishishni ta'minlash;

– ikkinchidan, moliyaviy resurslarning taqsimotida optimal nisbatlarni belgilash, ulardan oqilona foydalanish. Moliya siyosatining bu vazifasi korxona daromadlarining davlat ixtiyoriga o'tishining oqilona shakllarini belgilash, aholining davlat daromadlarini shakllantirishdagi hissasini to'g'ri belgilash, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi taqsimlash mutanosibliklarini optimallashtirish yo'llari bilan bajariladi;

– uchinchidan, muhim va murakkab vazifasi, tegishli moliya mexanizmini ishlab chiqish, iqtisodiy siyosat belgilab bergan rivojlanish yo'nalishlarini ta'minlash maqsadida uni takomillashtirish.

Moliya siyosatining samaradorligini belgilash uchun jamiyatning ehtiyoji qanchalik qondirilganligi, qo'yilgan maqsadlar va vazifalar amalga oshirilganligi baholanishi lozim.

Moliya siyosatiga baho berish va unga tuzatish, qo'shimchalar kiritish uchun birinchi navbatda jamiyat ehtiyojini qondira oladigan holdagi ijtimoiy taraqqiyot rejasini aniq bilish zarur. U rejada bo'lajak va yaqin kelajakda amalga oshirish vaqtlari belgilangan chora-tadbirlar bo'lishi lozim. Faqat shundagina moliya siyosatini ishlab chiqish va muvaffaqqiyatli amalga oshirish hamda obyektiv baholash mumkin. Moliya siyosatini asosiy yo'nalishlaridan biri - moliyaviy resurslarni imkon qadar yuqori hajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyligi hamda uzluksizligini ta'minlashdir, chunki moliyaviy resurslar salohiyati barcha o'zgarishlarning moddiy bazasidir. Shuning uchun moliya siyosatini aniqlash va uning strategik va taktik asoslarini ishlab chiqish uchun davlatning moliyaviy ahvoli, moliyaviy salohiyati, boshqacha qilib aytganda davlatning moliyaviy imkoniyatining obyektivligi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish lozim.

Moliya siyosatining mazmuni ko'p qirrali bo'lib, quyidagi muhim bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

CamScanner yordamida skanerlangan

– moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan konsepsiyalarini ishlab chiqish. Bu konsepsiyalar iqtisodiy qonunlar talablarini o'rganish, xo'jalik rivojlanishining holatini har tomonlama tahlil qilish, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining bundan keyingi rivojlanish istiqbollarini o'rganish va aholining talab va ehtiyojlarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

– istiqbolda va joriy davr mobaynida moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish; shu tarzda iqtisodiy siyosatda ko'zda tutilgan maqsadlarga yetish yo'llaridan kelib chiqiladi, xalqaro omillar inobatga olinadi va moliyaviy resurslarni yanada ko'paytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

– oldinga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy hatti-harakatlar, chora-tadbirlar ko'rish.

Joriy davrga mo'ljallangan, kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan moliya siyosati samarasizdir. Shuningdek, uzoq davrga mo'ljallangan, istiqbolni ko'zlab ishlab chiqilgan konsepsiyalar va yo'nalishlar, ular qanchalik oliy maqsadlarga yo'naltirilgan, jozibador bo'lmasin, davlatning amaliy ko'magi, tegishli chora-tadbirlarisiz tanazzulga yuz tutadi.

Moliya siyosati inson faoliyatining mahsus shakli sifatida namoyon bo'ladi. U bilan jamiyatning iqtisodiy bazisi orasida chambarchas bog'langan o'zaro bog'liqlik mavjuddir. Bir tomondan, moliya siyosati iqtisodiy munosabatlar orqali vujudga keladi, ikkinchi tomondan, iqtisodiy bazis asosida vujudga kelib va rivojlanib, moliya siyosati ma'lum bir mustaqillikka ega. Shuning uchun u iqtisodiyotga, moliyaning ahvoliga teskari ta'sirini o'tkazadi. Bu ta'sir har xil bo'lishi mumkin: bir xil paytlarda siyosiy chora-tadbirlarni o'tkazish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratiladi, boshqalarda esa u to'sqinlik qiladi.

Moliya siyosati moliyaviy munosabatlar mohiyatini o'zgartirolmaydi. Lekin, davlat moliyaning mohiyatini bilib, u o'z manfaatlariga qaratishga harakat qiladi.

Moliyaviy munosabatlar – obyektiv voqyelik iqtisodiy munosabatining bir qismi bo'lib, jamiyatning iqtisodiy bazisini tashkil qiladi. Moliya siyosati esa bazisga asoslanadi, shu bazisdan kelib chiqadi. Moliya siyosati ilmiy asoslangan moliyaviy nazariyaga tayanadi va tajribaga ko'rsatma beradi, shu tariqa moliya siyosati nazariyani tajriba bilan bog'laydi. Tajriba esa, nazariyaning to'g'riligini tekshirish mezonidir.

CamScanner yordamida skanerlangan

Davlat moliya siyosati – ko‘p qirrali tushuncha. Uning ko‘lami davlatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani boshqarishdagi ishtiroki parametrlari bilan aniqlanadi.

2.Moliyaviy strategiya va taktika, ularning o‘zaro bog‘liqligi.

Demokratik davlatda byudjet qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat hisoblanadi. Unda davlatning o‘z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo‘lida konsentratsiya qilingan (to‘plangan) pul mablag‘larining harakati o‘z ifodasini topadi. Davlat siyosatini aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini yo‘naltirish byudjet siyosatining ustuvorligini tashkil etadi. Agar maqsadga erishish milliy iqtisodiyot ta’minlaydigan mablag‘lardan ko‘p mablag‘ talab etsa, davlat qo‘shimcha daromadlarni shakllantirishning quyidagi favquloddagi usullarini qo‘llashga majbur bo‘ladi: ichki va tashqi kreditlar, milliy boylikni sotish, boylik va mol-mulkni ijaraga berish va konsessiyalar. Byudjetning daromadlar qismini to‘ldirishning favquloddagi choralari iqtisodiy mustaqillikning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik organlari qarz olishning chegarasini oldindan belgilaydi.

Soliq siyosati moliyaviy siyosatning eng muhim qismi (yo‘nalishi) hisoblanadi. Besh yuz yildan ortiqroq vaqt mobaynida zamonaviy moliya fani soliqlarga nisbatan munosabatini aniq ,belgilash imkoniga ega bo‘lgan. Bu munosabatlar quyidagilardan tashkil topadi:

soliqlarsiz davlatning faoliyat ko‘satishi mumkin emas;

soliqli undirish qat’iy o‘sish tendensiyasiga ega;

oqilona soliq ostonasidan o‘tilganidan so‘ng tabiiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi – iqtisodiyotning o‘z-o‘zidan buzilishi (emirilishi) sodir bo‘ladi;

tanazzul davrida soliqlar mumkin qadar minimal darajada o‘rnatilmog‘i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi;

soliqning yuqori ostonasi kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi;

iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kerak, albatta. Biroq, summar o‘lchovlarda sof daromadning 30%dan ortiq qismining undirilishida mamlakatning iqtisodiy o‘sishi to‘xtaydi;

CamScanner yordamida skanerlangan

soliq imtiyozlari ochiqlik xarakteriga ega bo'lishi va barcha takror ishlab chiqarish subyektlari uchun teng bo'lishi kerak;

soliq tizimi konfiskatsion xarakterga ega bo'lmasligi lozim. Faqat, jumladan, individual daromadlarning o'sishida ifodalangan milliy boylikning o'sishi soliqqa tortiladigan bazaning (asosning) barqaror o'sishini ta'minlashi mumkin;

qonunlar va qoidalarning barqarorligini davlat kafolatlagan iqtisodiy tizimda soliqlarning summar o'lchovi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. Barqarorlik kafolati sifatida davlat o'zining majburiyatlarini buzishni boshladimi, kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o'tishni boshlab, byudjetning daromadlar bazasini (asosini) qisqartiraveradi;

soliq tizimi oddiy, ochiq va samarali bo'lmog'i lozim. Soliqlar sonini, soliqqa tortish obyektlarini ko'paytirish, ko'p bosqichli soliqlarni joriy etish soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarimalarning o'sishiga va pirovardida, mulkni qamoqqa olish, soliq to'lovchini kasod deb e'lon qilish va h.k. yo'llar orqali iqtisodiyotning emirilishiga olib keladi;

soliqqa tortish egri (bilvosita) tizimining ustuvorligi byudjet daromadlarini shakllantirish nuqtai-nazaridan qulay hisoblanadi. Lekin bu narsa, oxir oqibatda, mamlakat aholisi asosiy qismining qashshoqlanishiga olib keladi. CHunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning yakuniy (oxirgi) iste'molchisi gardaniga (zimmasiga), ya'ni yashash minimumi darajasida yoki sotsial tirikchilik darajasida daromadga ega bo'lgan aholining 80-90% qismiga yuklanadi. Bu paradoks daromadlarning turli darajalarida iste'molning nisbatan bir xil darajasiga asoslangan;

egri (bilvosita) soliqlar tizimining xavfliligi shundaki, bu tizimda aholining asosiy qismidan jamg'armalar olib qo'yiladi va bu, o'z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimining asoslarini buzadi. Egri (bilvosita) soliqlardan voz kechgan AQSH tajribasi bunga yaqqol tasdiqdir;

egri (bilvosita) soliqlarni sog'liq uchun zararli bo'lgan tovarlar, zebu-ziynat buyumlari, ayrim hollarda import qilinadigan tovarlar va xizmatlar va boshqa bir qancha o'ziga xos bo'lgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur;

daromad va mol-mulkdan olinadigan soliqlar soliq bazasining asosiysi bo'lib hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak. Ularni proporsional soliqqa tortish prinsiplariga asosan qurmoq lozim.

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari

Odatda, moliya siyosati tarkibida ma'lum darajadagi mustaqil byudjet va pul-kredit siyosati ajratib ko'rsatiladi. **Byudjet siyosati** deganda davlat tomonidan quyidagilarni belgilash tushuniladi:

– davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish manbalarini;

– byudjet xarajatlarining ustuvor yo'nalishlarini;

– byudjetning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan balanslashmaslik chegaralarini;

– byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini;

– byudjet tizimining alohida bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tamoyillarini.

O'z navbatida, byudjet siyosati tarkibida soliq siyosati, investision siyosat, davlat qarzini boshqarish siyosati, byudjet yaxlitligi siyosatlari nisbiy mustaqillikka ega bo'ladilar. Soliq siyosati soliqlarning tarkibini, ularning stavkalarini hajmlarini, har bir soliq turi bo'yicha imtiyozlar va jazolarni belgilaydi. Bir vaqtning o'zida soliq tizimini to'laligicha, shuningdek alohida soliqlarning tartibga soluvchi yoki rag'batlantiruvchi choralari o'rnatiladi.

Pul-kredit siyosati – emissiyani boshqarish, inflyasiyani va milliy pul birligi kursini tartibga solish orqali pul muomalasi barqarorligini ta'minlash; bank tizimi faoliyatini reglamentlash va tartibga solish orqali xalq xo'jaligi va moliya tizimining turli bo'g'inlarida hisob-kitoblarning o'z vaqtida va uzluksizligini ta'minlash; davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarning emissiyasi va joylashtirilishini reglamentlash va ularning aylanishini (sotish va sotib olish kursini) tartibga solish orqali, Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkalarini ko'tarish yoki pasaytirish orqali moliya bozori faoliyatini boshqarish tushuniladi. Pul-kredit siyosati tarkibida emissiya siyosati, baho siyosati, valyuta siyosati, kredit siyosati – unda o'z navbatida, masalan, foiz siyosati va investision siyosatlar nisbiy mustaqillikka ega bo'ladilar. Shuni ta'kidlash kerakki, byudjet munosabatlari amaliyotida investitsiyalar deganda asosiy vositalarni o'stirish va modernizasiya qilishni moliyalashtirish tushunilsa, bank amaliyotida esa, investitsiyalar deganda qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish tushuniladi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit orqali muvofiqlashtirish bu davlatning iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblanib, o'zida pul muomalasi va ssuda kapitali bozorining muomaladagi pul massasi, kredit hajmi, hisob-foiz stavkalari va boshqa

CamScanner yordamida skanerlangan

ko‘rsatkichlarini bevosita va bilvosita tartibga solishi tushuniladi. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirishning asosiy pirovard maqsadi bu aholi farovonligini oshirish va maksimal ravishda aholi bandligini ta’minlash hisoblanadi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit orqali muvofiqlashtirish vositalarining davlat tomonidan ishlab chiqilgan va qonuniy tasdiqlangan mexanizmi **pul-kredit siyosati** deyiladi.

Mamlakatda pul-kredit siyosatini amalga oshirish huquqi faqatgina Markaziy bankka berilgan bo‘lib, bu siyosatni amalga oshirish Markaziy bankning eng asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Markaziy bankning pul-kerdit siyosati instrumentlarini shartli ravishda bir necha mezonlariga qarab bo‘lish mumkin.

Shakl bo‘yicha pul-kredit siyosati instrumentlari ma’muriy (bevosita) va bozor (bilvosita) instrumentlarga bo‘linadi. Ta’sir etish obyekti (pul talabi yoki pul taklifi)ga ko‘ra instrumentlar pul qo‘llab-quvvatlovchi (kredit ekspansiya) yoki uni cheklovchi (kredit restruktizasiyasi)ga bo‘linadi. Ta’sir etish muddatlariga qarab qisqa muddat va uzoq muddatga mo‘ljallangan instrumentlarga bo‘linadi va h.k.

Ko‘pgina mamlakatlar tomonidan hozirda qo‘llanilib kelayotgan pul-kredit siyosatining vositalaridan biri bu tijorat banklarining majburiyatlariga nisbatan majburiy zahira talablari me’yoridir. Pul-kredit siyosatining bu vositasi qo‘llanilish jihatidan sodda bo‘lib, tijorat banklarining to‘lovga qobiliyatliligi darajasiga ta’sir qiladi. Shuning uchun hozirda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda pul-kredit siyosatining bilvosita usullaridan aynan shu vositasi keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda, shu jumladan; O‘zbekistonda eng samarali vosita(instrument) ham aynan shu vositadir (bilvosita instrumentlardan).

Pul-kredit siyosatini moliya siyosati tarkibiga kiritilishi shubhasiz emas, ammo ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro bog‘liqlik shubhasizdir. Moliya siyosati tarkibiga byudjet siyosati bilan birgalikda pul-kredit siyosatini kiritilishining to‘g‘riligini jahonda ro‘y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tahlili ham tasdiqlab turibdi. Ma’lubki bu inqiroz faoliyat sohasi pul-kredit operatsiyalari hisoblangan moliya bozorlaridagi inqirozdan boshlangan.

4. Xalqaro moliya siyosati

Xalqaro mehnat taqsimoti bilan, davlat qarzini shakllantirish va so‘ndirish bilan, Xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, xalqaro moliya

CamScanner yordamida skanerlangan

tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish bilan bog'liq xalqaro munosabatlar sohasidagi valyuta-moliyaviy va kredit munosabatlarini boshqarish yotadi. Hozirgi kunda Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki (OTTB) va b. (misol uchun, London kreditorlar klubi, Parij kreditorlar klubi) kabi Xalqaro moliya tashkilotlarining moliya siyosati katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

Alohida davlatlarning xalqaro moliya siyosati, odatda, o'z mamlakatining ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishiga yo'naltirilgan va mos ravishda har qaysi davlat xalqaro xom ashyo, tovarlar, ishchi kuchi va kapital bozorlarida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lishga harakat qiladi.

Davlat o'zining manfaatlarini bojxona va valyuta siyosatlari orqali himoya qiladi. Ularning xususiyatlari davlatni o'z eksport va importini kengaytirish yoki qisqartirishdan manfaatdorlik darajasi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, bojxona to'lovlari yoki alohida bojxona rejimlari tizimi qo'llaniladi. Bojxona va valyuta siyosatining asosiy maqsadi – davlatning oltin, valyuta zahiralarini saqlash va ko'paytirish hisoblanadi.

Davlat o'zining manfaatlarini yana xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, bu tashkilotlarning moliyaviy fondlarini shakllantirishda va hamkorlikdagi dasturlarni moliyalashtirishda ishtirok etish bilan mamlakat obro'sini oshirish orqali himoya qiladi.

Xalqaro moliya tashkilotlarining moliya siyosati moliyaviy inqiroz yoki moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan. Yordam, odatda, kreditlar berish shaklida yoki davlatning mavjud tashqi qarzlarini restruktizatsiyalash shaklida ko'rsatiladi.

Xalqaro moliya tashkilotlarining yordami beg'araz ko'rsatilmaydi va qator iqtisodiy yoki siyosiy shartlarga asoslanadi, qarz oluvchi mamlakat uchun uchun doimo naf keltirmaydi.

Mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qilib qolgan moliyaviy siyosat o'z kamchiliklarini namoyon qildi. Uzoq davrlar mobaynida mamlakatni iqtisodiy rivojlanishida moliya va faol moliyaviy siyosatning ahamiyatiga yetarlicha baho berilmadi. Iqtisodiyotda moliyaviy munosabatlarning ahamiyatini buzib ko'rsatish sodir bo'ldi, moliya va moliyaviy dastaklarning faol ahamiyati inkor etilib, moliyaviy siyosat talab etilgan muammolarni hal qilishga qaratilgan zarur

CamScanner yordamida skanerlangan

usullarni ishlab chiqishga ojizlik qilib qoldi. Rivojlanishning uzoq davriga mo'ljallangan ibratli konsepsiyalarni ishlab chiqilmaganligi, kam samara beradigan, qisqa muddatli foyda olishni ko'zlab ko'rilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotni og'ir ahvolga olib keldi.

5.Moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari

Bugungi kunda moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Barqaror moliyaviy siyosatni amalga oshirish, davlat byudjeti taqchilligini iloji boricha kamaytirish, mahalliy byudjetlarda dotatsiya va subvensiyalarning barcha turlarini bosqichma-bosqich qisqartirib borish;

2. Byudjet mablag'larini samarali va manzilli taqsimlanash, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchun byudjetdan mablag'lar ajratish;

3. Iqtisodiyot tarmoqlarini, ayrim korxonalarni rivojlantirish uchun byudjetdan beg'araz moliyaviy ta'minot amaliyotidan imkon qadar voz kechish, Ushbu maqsadlarda investitsiya kreditlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish;

4. Soliq tizimini takomillashtirish, byudjet daromadlarini barqaror ta'minlaydigan, kichik va xususiy korxonalar, chet el kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar rivojlanishini rag'batlantiradigan soliq siyosatini olib borish.

Hozirgi bosqichda davlatning moliyaviy siyosati quyidagilarga qaratilgan:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama oshirish hisobiga aholining turmush tarzini yuqoriga ko'tarish.

2. Tadbirkorlarning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, mehnat va xizmatga bo'lgan tashabbusini oshirish hamda ularni har tomonlama huquqiy kafolatlash.

3. Aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish (pensionerlar, ko'p bolali oilalar, talabalar).

4. Daromadi cheklangan xizmatchilarni (sog'liqni saqlash, maorif, boshqaruv, mudofaa) ijtimoiy himoya qilish.

5. Yangi moliyaviy strategiya, rang-barang mulk shakllari, bozor munosabatlarini rivojlantirish, tovar va mahsulotlar bozorini, ish kuchi va kapital bozorlarini rivojlantirish.

6. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga moliyaviy ta'sir ko'rsatish, uni soliqqa tortish, moliyalashtirish va moliyaviy bozor uslublari orqali amalga oshirish.

CamScanner yordamida skanerlangan

7. Moliya tizimida iqtisodiy tanglik ko‘rsatkichlarini imkon qadar bartaraf etish (davlat byudjeti kamomadi, emissiyaning joylarda ko‘payib borishi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, ichki va tashqi qarzlarni borligi, tugallanmagan qurilishlarning mavjudligi), chunki iqtisodiy tanglik nisbatan davlat moliyasi bilan bir qatorda korxonalar moliyasida ham mavjud. Pul muomalasini tartibga solish. Milliy valyutaning ichki va tashqi konvertatsiyasini ta’minlash hisobiga so‘mning qadrini oshirish.

9. Iqtisodiyotni jahon andozalariga yetkazish maqsadida xorijiy investitsiyalarni kirib kelishini ta’minlash.

10. Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish hisobiga korxonalar iqtisodiy salohiyatini oshirish.

11. Sug‘urta tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini kengaytirish va kuchaytirish.

Tovarlar va xizmatlarning mamlakatlararo harakatini tartibga solib turuvchi, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan boj siyosati takomillashib bordi. Bu siyosat hozirgi kunda mamlakat ichki bozoriga past sifatli, inson salomatligiga putur yetkazuvchi tovarlarni kirib kelishini oldini olish va ilg‘or texnologiyalar, fan-texnika yutuqlari natijalarining mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishini rag‘batlantirish yo‘lidan og‘ishmay bormoqda.

Moliyaviy siyosatining hozirgi kundagi vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i lozim:

1. Respublika davlat byudjetidagi taqchillikni yo‘l qo‘yilgan eng kam daraja doirasida (YaIMning 2-3 %i atrofida) cheklashga yo‘naltirilgan qattiq moliyaviy siyosatni o‘tkazish.

2. Davlat xarajatlarining birinchi navbatda iqtisodiyotdagi zarur tarkibiy o‘zgarishlarni o‘tkazish, ishlab chiqarishning orqaga ketishiga barham berish maqsadlarini ko‘zlab yo‘naltirishni ta’minlash.

3. Ijtimoiy himoyaning adresli bo‘lishiga, moliyaviy mablag‘larning ijtimoiy yordamga haqiqatda muhtoj aholi qatlamlariga yetib borishini ta’minlashga erishish.

4. Soliq siyosatini takomillashtirish:

- soliq tizimining ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo, tibbiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to‘plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta’sirini oshirish;

- korxonalar zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirish, qo‘shilgan qiymat solig‘idan olinadigan soliq stavkasini kamaytirish va shu asosda ishlab chiqarishni jonlantirishga turtki berish;

CamScanner yordamida skanerlangan

- soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish, resurs soliqlari, mol-mulk solig'ining rolini oshirish.

7. Muayyan byudjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan umumdavlat soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish.

8. Davlat byudjeti daromadlarini katta qismini joylarga berish, mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini mustahkamlash.

9. Soliq siyosati belgilab bergan chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiq etuvchi tegishli moliya mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy siyosatning mohiyatini nimada?
2. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy moliya siyosatini tavsiyalang.
3. Moliyaviy boshqaruvni amalga oshiruvchi organlar qaysilar?
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining funksiyalarini tushuntirib bering.
5. Davlat soliq qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari – Davlat soliq inspeksiyalarining asosiy funksiyalarini tushuntirib bering.
6. O'zbekiston Respublikasining moliyani rejalashtirish tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?
7. Moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy regulyatorlarni ko'rsatib bering.
8. Moliyaviy siyosatning nechta tarkibiy qismi mavjud?
9. Moliyaviy siyosat qanday faoliyat?
10. Davlat moliyaviy siyosati nimaga qaratilgan bo'lishi kerak?
11. Markazlashtirilgan fondlar deyilganda qanday fondlar nazarda tutiladi?
12. Moliyaviy siyosatning moliya tizimi orqali amalga oshirilishi va uning prinsiplari.
13. Moliyaviy siyosatning ta'rifi.
14. Moliyaviy siyosatning xususiyatlari va eng asosiy maqsadi.
15. Xalqaro moliyaviy institutlar.(XVF,YeTTB...)

CamScanner yordamida skanerlangan

3-MAVZU: MOLIYA TIZIMI

Reja:

1. Moliya tizimi
2. Moliya tizimi bo‘g‘inlari.
3.Moliya tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi munosabatlar.

Kalit so‘zlar: korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyasi; sug‘urta; davlat moliyasi.

1.Moliya tizimi

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o‘z ichiga olib, har qaysi sohalar pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Moliya tizimi bir tomondan moliya munosabatlarining yig‘indisi sifatida, ikkinchi tomondan moliya organlarining yig‘indisi sifatida olib qaraladi. Moliyaning mohiyatidan kelib chiqib, moliya tizimini o‘rganishda uni moliya munosabatlari yig‘indisi sifatida yondashish maqsadga muvofiq.

Moliyaviy munosabatlar o‘z xususiyatiga ko‘ra taqsimlovchi hisoblanadi, shu bilan birga qiymatni taqsimlash, avvalo, subyektlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Subyektlar ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, maqsadli pul fondlarini shakllantiradilar. Aynan subyektning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi roli moliyaviy munosabatlarni turkumlashning birlamchi obyektiv belgisi hisoblanadi. Bunga asosan moliyaviy munosabatlarning yig‘indisida uchta yirik sohalar ajratilishi mumkin: **korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyasi; sug‘urta; davlat moliyasi.**

Har bir sanab o‘tilgan soha ichida bo‘g‘inlar ajraladi, shu bilan birga moliyaviy munosabatlarni guruhlashtirish subyekt faoliyatining maqsadli pul fondlarini tarkibi va yo‘nalishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatuvchi xarakteridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Mazkur belgi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyasi sohasida tijorat asosida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar moliyasi, notijorat faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va muassasalar moliyasi, jamoat birlashmalari moliyasi kabi bo‘g‘inlarni hosil qilish imkoniyatini beradi. Sug‘urta sohasida, subyekt faoliyatining xarakteri sug‘urta obyektining xususiyatini belgilab beruvchi, bo‘g‘inlar sifatida ijtimoiy sug‘urta, shaxsiy sug‘urta, mulkiy sug‘urta, javobgarlik sug‘urtasi, tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasi

CamScanner yordamida skanerlangan

hisoblandi. Davlat moliyasi sohasida – davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, davlat krediti hisoblanadi.

Moliya munosabatlarining soha va bo'g'inlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularning yig'indisi **moliya tizimini** tashkil qiladi. Moliya tizimi moliya organlari va muassasalari yig'indisi sifatida ham ishlatiladi.

Moliya tizimining barcha bo'g'inlari o'z navbatida ichki moliyaviy munosabatlar tarkibidan kelib chiqib quyi bo'g'inlarga bo'linadi. Demak, tijorat asosida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar moliyasi tarkibida, tarmoq yo'nalishidan kelib chiqib, sanoat korxonalari moliyasi, qishloq xo'jaligi korxonalari moliyasi, savdo korxonalari moliyasi, transport korxonalari moliyasi va boshqa mulkchilik shaklidan kelib chiqib, davlat korxonalari moliyasi, shirkat korxonalari moliyasi, aksionerlik jamiyatlari moliyasi, xususiy korxonalar va boshqalar moliyalariga bo'linishi mumkin. Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalarning tarmoq va iqtisodiy xususiyatlari ularning moliyaviy munosabatlarini tashkil qilishga, maqsadli pul fondlarini tarkibiga, ularni shakllantirish va ishlatish tartiblariga o'zining sezilarni ta'sirini ko'rsatadi.


Sug'urta munosabatlari sohasida sug'urta tarmoqlarini tashkil qiluvchi bo'g'inlar sug'urta turlari bo'yicha bo'linadi.

Davlat moliyasi tarkibida ichki bo'g'in moliyaviy munosabatlarini guruhlanishi davlat boshqaruvi darajasidan kelib chiqib amalga oshiriladi (respublika, mahalliy).

Moliya tizimini alohida bo'g'inlarga ajratish har bir bo'g'inning vazifalaridagi farqlanishga hamda markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish usullaridagi farqlanishga asoslanadi. Umumdavlat markazlashgan pul fondlari moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan tuziladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi davlatning bajaradigan muhim roli uning ixtiyorida moliyaviy resurslarning katta qismini markazlashtirish zaruriyatiga olib keladi. Ularni ishlatish shakllari davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar orqali namoyon bo'ladi. Bular hisobidan davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vazifalarini hal etish ehtiyoji ta'minlanadi. Pul fondlarini tashkil qilish va ishlatish shakllari hamda usullari moliya tizimining kredit va sug'urta bo'g'inlari orqali qo'llaniladi. Markazlashmagan pul fondlari korxonalarni o'zlarining pul daromadlari va jamg'armalari hisobidan tashkil topadi.

CamScanner yordamida skanerlangan



2-rasm. Moliya tizimining tuzilishi

Yagona moliya tizimining asosi korxonalar moliyasi hisoblanadi, chunki ular moddiy ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Markazlashgan davlat fondlarining manbai moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilayotgan milliy daromad hisoblanadi.

Umumdavlat moliyasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari rivojlanishining ma'lum sur'atlarini ta'minlashda, moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat hududlari o'rtasida, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida hamda mulk shakllari, aholining alohida guruh va qatlamlari o'rtasida qayta taqsimlashda yetakchi rol o'ynaydi. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish davlatning faol moliyaviy siyosati asosidagina mumkin bo'ladi.

Moliya tizimi orqali davlat markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini, jamg'arish va iste'mol fondlarini soliqlar, davlat byudjeti xarajatlari, davlat kreditini qo'llash bilan shakllantirishga ta'sir o'tkazadi.

Davlat byudjeti davlat moliya tizimining bosh bo'g'ini hisoblanadi. U davlat boshqaruv organlari funksiyalarini ta'minlash uchun markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish shaklidir.

2. Moliya tizimi bo'g'inlari

Moliya tizimi sifatida «moliyaviy munosabatlarning tashkil qilish shakli» yoki «moliyaviy munosabatlarning tashkiliy tuzilmalari majmuasi» sifatida ko'rib o'tish mumkin. Masalan, Taniqli amerikalik mutaxassis J.Van Xorn moliya tizimiga - davlat, firmalar va fuqarolarga turli xil xizmatlar ko'rsatuvchi moliyaviy muassasalar va bozorlarning majmuasi – degan ta'rifni beradi. L.Drobozinaning fikricha «Moliya tizimi – pul mablag'lari fondini tashkil qilish va foydalanish jarayonidagi moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini majmuasidan iborat»-degan

CamScanner yordamida skanerlangan

ta'rifni beradi. G.Polyakning fikricha, moliya tizimi – davlat, xo'jalik subyektlari va uy xo'jaliklarining pul mablag'lari fondini turli xil usullari va shakllarda taqsimlash jarayonidagi turli moliyaviy munosabatlar majmuasi deb talqin qilinadi. Taniqli iqtisodchi V.Kovaleva esa moliya tizimiga ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining subyektlari o'rtasida jami ijtimoiy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha pul munosabatlarni tashkil qilish shakli sifatida qarash lozimligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi moliya tizimi bo'yicha keltirilgan ta'riflarda mantiiqiy yahlitlik mavjud bo'lib, ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlanish jarayonida hosil bo'ladigan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayoni moliya tizimining markaziy mazmunini tashkil qilishi ta'kidlanadi.

Demak, moliya tizimi – moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o'z ichiga olib, har qaysi sohalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy subyektlarning daromadlarini shakllanish usullariga bog'liq ravishda moliya tizimini markazlashtirilgan moliya (umumdavlat moliyasi) va markazlashtirilmagan moliya (xo'jalik subyektlari va uy xo'jaliklari moliyasi) kabi asosiy turlarga ajratish mumkin.

Moliya tizimi pul munosabatlari tizimini tashkil qilish shakli sifatida moliyaviy resurslarni shakllantirish va foydalanishni ta'minlovchi 3 asosiy o'zaro bog'liq tizimlarga bo'linadi: Davlat va mahalliy boshqaruv organlarining moliyasi, turli mulkchilik va faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlari moliyasi, uy xo'jaliklari moliyasi(xonadon moliyasi).

Yahlit moliya tizimini tashkil qiluvchi mazkur tizimlar ham iqtisodiy subyektlarning aniq pul mablag'lari fondini tashkil qilinishiga qarab o'z navbatida alohida bo'g'inlarga ajratiladi.

3.Moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlar.

Turli mamlakatlarda notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tuzilmasi turlichadir. Masalan, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda xususiy qurbonliklarning miqdori 1%dan (Yaponiyada) 20%gacha (AQSHda) tebranadi va o'rtacha 11%ni tashkil etadi. Hukumat ajratmalarining salmog'i esa 26%dan (Germaniya) 71%gacha bo'lib, uning o'rtacha darajasi 48%ga tengdir. Notijorat tashkilotlarining o'zlari tomonidan ishlab topilgan mablag'larning

CamScanner yordamida skanerlangan

salmog'i 23%dan (Vengriya) 71%gacha tebranib, uning o'rtacha darajasi 41%dan iboratdir.

Notijorat faoliyatni moliyaviy jihatdan tartibga solishning shakllari, ularning davlat va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorligi har bir mamlakatning tegishli qonunlari yordamida amalga oshiriladi. Ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Notijorat sektorni davlat tomonidan to'g'ri (bevosita) qo'llab-quvvatlashning uch asosiy shakli mavjud:

- to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) byudjet investitsiyalari;
- hamkorlikda moliyalashtirish;
- davlat sotsial buyurtmasi.

Notijorat sektorni egri (bilvosita) moliyalashtirish shaklidan ham, ya'ni notijorat tashkilotlarini davlat va mahalliy hokimiyat organlari oldidagi to'lovlari va boshqa shunga o'xshash majburiyatlaridan ozod qilish shaklidan ham amaliyotda tez-tez foydalaniladi. Egri (bilvosita) moliyalashtirishning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- nosoliqli imtiyozlarni taqdim etish;
- soliqli imtiyozlashtirish.

Bu erda, o'z navbatida, nosoliqli imtiyozlar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- notijorat tashkilotlarining faoliyati uchun binolarni ijaraga olish, yer maydonlarini ajratish;
- litsenziyalashtirishning soddalashtirilgan tizimini o'rnatish (belgilash);
- aloqa xizmatlari va kommunal xizmatlarni to'lashda imtiyozli tariflardan foydalanish;
- va boshqalar.

Shuningdek, soliqli imtiyozlashtirish quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- hadya etuvchilar uchun imtiyozlar;
- qurbonlik (homiylik) qiluvchi yuridik shaxslar uchun imtiyozlar.

Davlat organlari notijorat tashkilotlarining faoliyatiga aralashish, agar ularning sarflanishi tashkilotning maqsadlariga mos kelayotgan bo'lsa, xarajatlarning yo'nalishiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega emas.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Moliya tiziminining soha va bo'g'inlarini tavsiflang.

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Hozirgi sharoitda Davlat byudjeti o'z oldida turgan qanday muammolarni hal etishi kerak?
3. Moliya tizimi deb nimaga aytiladi va unga nisbatan qanday ta'riflarni berish mumkin?
4. L.Drobozina va G.Polyak singari olimlarning moliya tizimi haqidagi ta'riflariga sizning fikringiz?
5. Moliya tizimining vazifasi.
6. Moliya tizimining boshqa tizimlardan ustunligi.
7. Moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlar nimalardan iborat?
8. Egri (bilvosita) moliyalashtirish deganda nimani tushunasiz?
9. Notijorat sektorni davlat tomonidan to'g'ri (bevosita) qo'llab-quvvatlashning nechta asosiy shakli mavjud?
10. Iqtisodiy subyektlarning daromadlarini shakllanishiga qarab moliya tizimini qanday turlarga bo'linadi?
11. Moliya tizimini nima tashkil qiladi?
12. Davlat moliya tizimining bosh bo'g'ini nima hisoblanadi?
13. Moliya tizimini boshqarishda qaysi organlarga tayanadi?
14. Xonadon va uy xo'jaligi atamalarini farqli tommonlari?
15. Moliyaviy munosabatlarning nechta yirik sohalar ajratishi mumkin?

CamScanner yordamida skanerlangan

4-MAVZU: MOLIYA BOZORI VA INSTRUMENTLARI

Reja:

1. Qimmatli qog'ozlar bozorining turlari va ularning turkumlanishi.

2. Ulushga egalik qilish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozlar.

3. Aksiya bilan bog'liq bo'lgan hosilaviy qimmatli qog'ozlarlar.

Kalit so'zlar: opsion, fyuchers, depozit tilhatlari, varrant, privatizatsiya cheklari.

1. Qimmatli qog'ozlar bozorining turlari va ularning turkumlanishi

Qimmatli qog'ozlar bozori savdo kapitalining rivojlangan davrida paydo bo'lganligi va ko'pchilik g'arb mamlakatlarida u xo'jalik mexanizmining eng barqaror va yo'lga quyilgan qismlaridan biri hisoblanishi haqidagi ma'lumotlarni oldingi ma'ruzalarda aytib o'tgan edik. Xuddi shunday, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini paydo bo'lishi, davlat korxonalarini xususiylashtirish va aksiyadorlik korxonalariga aylantirish jarayoni bilan bog'liq.

Qimmatli qog'ozlar bozori tashkiliy jarayon nuqtai nazaridan:

- birlamchi bozorlarga

shaklan esa:

- ikkilamchi bozorlarga
- birjaviy bozorlarga
- nobirjaviy bozorlarga bo'linadi.

Endi shu bozorlarni har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori – bu qimmatli qog'ozlar emissiyasini va birlamchi joylashtirilishini amalga oshirish, ya'ni qimmatli qog'ozlarni emitent yoki uning vakili tomonidan dastlabki sarmoyadorga sotish bozoridir.

Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlarni takror chiqarilishi (masalan, ustav fondini oshirish maqsadida) yoki ikkilamchi emissiyasi ham birlamchi bozor doirasiga kiradi.

Birlamchi bozorning eng muhim tavsifi, emitentlar tomonidan axborotni oshkor etilishidir. Bunda emitent haqida to'liq ma'lumot beriladigan emissiya prospektini yoki qimmatli qog'ozlarni muomilaga chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilishdan tortib, to fond bozori sohasida nazorat vazifalarini amalga oshiruvchi maxsus davlat idoralariga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish haqidagi

CamScanner yordamida skanerlangan

hisobotgacha oshkor etiladi. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi sotilishi ommaviy axborot vositalarida emitent to'g'risida ma'lumotni e'lon qilgan holda qimmatli qog'ozlarni xarid qilishni ochiq taklif etish shaklida (istalgan imkoniyatli sarmoyador uchun) hamda yopiq, obuna shaklida faqat tegishli davlat boshqaruv idorasiga ma'lum qilgan qoida qimmatli qog'ozlarni shaxslarning cheklangan doirasi o'rtasida joylashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori – bu ilgari chiqarilgan va hech bo'lmaganda bir marta xarid qilingan qimmatli qog'ozlar oldi – sotdisi (muomalasi) amalga oshiriladigan bozoridir.

Uning funksiyasi qimmatli qog'ozlarning oldi – sotdisini tezkorlik bilan ta'minlashdir. Bunda sotuvchi va xaridorni uchrashtirish, bo'sh kapitalni iqtisodiyotni eng unumli sohasiga zudlik bilan safarbar qilish, tomonlarning o'zaro manfaatlarini ta'minlash ikkilamchi bozorning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Ikkilamchi bozorning asosiy ko'rsatkichlaridan biri likvidlik hisoblanadi.

Yuqori likvidlikka ega, ya'ni qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi qimmatli qog'ozlarni, ularning kursini sezilarsiz o'zgarishi sharoitida kam xarajat bilan oldi-sotdiga jalb qila olishdir, yoki boshqacha qilib aytganda, **bozorning likvidligi** – bu ma'lum vaqt oralig'ida bozor narxlarining kam miqdorda o'zgarib to'rgan holda qimmatli qog'ozlarning katta qismini yuqori suratda aylanishini ta'minlash imkoniyatidir.

Birlamchi va ikkilamchi bozorlar o'rtasidagi uzaro munosabat iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga, fond bozorining shakllanishiga, uning «yoshiga», shuningdek, muomilada bo'lgan qimmatli qog'ozlar har xil turlarining tarkibiga bog'liq.

Masalan, iqtisodiyot nisbatan barqaror bo'lgan, qimmatli qog'ozlar bozorining tarixi esa, bir necha yuz yillarni qamrab olgan rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda qimmatli qog'ozlarning deyarli barcha turlari bo'yicha ikkilamchi savdo ustun turadi. Birlamchi bozordagi qimmatli qog'ozlar aylanmasi ushbu mamlakatda ikkilamchi bozor aylanmasining 5-10 foizini tashkil etadi holos. Odatda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar fond birjalarida qimmatli qog'ozlarning birlamchi joylashtirilishi amalga oshirilmaydi, shuning uchun u yerlarda uzoq muomila muddatiga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar baholanadi.

Ommaviy xususiylashtirish bilan kuzatiladigan bozor munosabatlarini vujudga keltirish jarayonini kechirayotgan va endigina o'zini fond

CamScanner yordamida skanerlangan

bozorlarini barpo etayotgan mamlakatlar uchun islohotlarning dastlabki bosqichlarida qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori ustun turadi.

O'zbekistonda ham 90-yillarning o'rtalarida birlamchi bozorning ustuvorligi sezilarli, lekin keyincha bu nisbat o'zgara bordi. 1995- yilda Respublikada bank va tijorat veksellarning ikkilamchi bozori. 1996-yildan boshlab esa, Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining (DQMO) ikkilamchi bozori, kuchli taraqqiy eta boshladi va ularning salmog'i birmuncha o'sishi kuzatildi.

a) Qimmatli qog'ozlar bozorining uyushgan va uyushmagan turlari.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozori – qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi, unda qimmatli qog'ozlar operatsiyalari ushbu bitimlar ishtirokchilari uchun qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan belgilangan tadbirlar va shartlar bilan tartibga solinadi. Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan bozori bu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi, unda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar savdo tashkilotchilarining ushbu bitim predmeti va uning ishtirokchilariga nisbatan qo'ygan talablarga rioya etilmagan holda amalga oshiriladi. Bu shunday bozorki, unda bitimlar tuzish, qimmatli qog'ozlar ishtirokchilarga quyiladigan talablarning qoidalari belgilanmagan, savdolar sotuvchi va xaridorlarning shaxsiy aloqasi orqali ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Mazkur bozorda tuzilgan bitimlar haqidagi axborot tizimi mavjud emas. Bundan tashqari, bitimlar ishtirokchilari qandaydir muhofaza va sug'urta mexanizmlaridan foydalanilmagan holda amalga oshiriladi. Bitimlar maxsus ro'yxatga oluvchilar tomonidan qonun bilan belgilangan umumiy tartibda rasmiylashtiriladi. Ushbu bozor «ko'cha», yoki «tartibsiz» bozor deb nomlanishga qaramay, u mutlaqo chalkash tartibsiz bozor emas, agar tovlamachilik hollari aniqlansa tartibga soluvchi davlat idorasi tergov ishini olib boradi. Bunday bozorda sifatli qimmatli qog'ozlar kam, ular bo'yicha yo dividendlar olish, yoki barcha qo'yilgan mablag'larni yo'qotish mumkin bo'lgan daromadli qimmatli qog'ozlar ham, shuningdek, emitentlari murakkab moliyaviy ahvolda qolgan, yoki bankrotlik yoqasida bo'lgan, yaroqsiz deb nomlanuvchi aksiyalar ham sotilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida uyushmagan bozorda yangi barpo etilgan, shuningdek, xususiylashtirilgan korxonalarning birlamchi va ikkilamchi emissiyalari aksiyalari, bank hamda tijorat veksellari sotiladi va xarid qilinadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

XIFlar aksiyalarining bevosita XIFlarning o'zlari tomonidan amalga oshirilgan yoki "Xalq banki" bo'limlari orqali birlamchi sotilishi bunday bozorlarga misol bo'la oladi.

b) Qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlari.

Qimmatli qog'ozlarning birja bozori bu qimmatli qog'ozlar bilan fond birjasi doirasida uyushgan tarzda savdo qilish sohasidir.

Fond birjasi (bu haqda biz keyingi ma'ruzalarimizda to'liq ma'lumot beramiz) qimmatli qog'ozlar bilan fond birjasi doirasida savdo qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi alohida muassasa bo'lib, unda savdo faqat qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari broker – vositachilar, maklerlar – dallollar, dilerlar – savdogarlar tomonidan maxsus qoidalar bo'yicha olib boriladi.

Fond birjasida eng yaxshi qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilinadi. Bular «Toshkent» Respublika fond birjasi va uning viloyatlardagi 13 ta bo'linmasi orqali amalga oshiriladi.

Ularda, korporativ qimmatli qog'ozlar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari savdosi tashkil etilgan.

O'zbekistondagi aksiyalar bozorining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning katta qismini davlat korxonalarining xususiylashtirish natijasida barpo etilgan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini birlamchi sotish bo'yicha tuzilgan bitimlar tashkil etadi.

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozori – bu fond birjasidan tashqarida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish sohasidir.

Unda fond birjasida sotuvga qo'yilmagan qimmatli qog'ozlarning erkin savdosi dilerlar tomonidan maxsus telekommunikatsiya tarmoqlari (telefon, telefaks, kompyuter vositalari) yordamida amalga oshiriladi. Bu savdo vositachilarga fond birjalari tomonidan o'rnatilgan yuqori stavkali komission yig'imlardan qochishga sharoit yaratadi.

Birjadan tashqari uyushgan bozorlar AQSH va Yevropa mamlakatlarida yaxshi rivojlangan, O'zbekistonda bunday savdo 1998-yil 1-iyundan boshlab «Elsis-Savdo» birjadan tashqari elektron tizimi orqali amalga oshrilib kelinmoqda. 2005-yildan boshlab Banklararo savdo tizimi (MTS) ham birjadan tashqari bozorda faoliyat yuritmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarni to'la qamrab oluvchi birjadan tashqari bozorni ikki turga bo'lish mumkin.

1. Stixiyali bozorlar;
2. Dilerlar bozori.

CamScanner yordamida skanerlangan

Stixiyali bozorda oldi – sotdi xaridor bilan sotuvchilarning shaxsiy aloqasi orqali palama – partish tarzda yuzaga keladi. Unda oldi-sotdining tartib-qoidalariga, qimmatli qog'ozlar va ishtirokchilariga nisbatan hech qanday talab qo'yilmaydi. Savdo sotiq ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Dilerlar bozorida sotuvchilar sotuvga tushadigan qimmatli qog'ozlarning narxini ochiqdan-ochiq e'lon qiladilar. Shu sababli xaridor bilan sotuvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ochiq raqobat yuz bermaydi.

O'z navbatida dilerlar bozorida qimmatli qog'ozlarni taklif qilishning quyidagi xillari asosida ham tashkil qilish mumkin:

- cheklangan (masalan, naqd pulga sotish uchun bir nechta muayyan joyni belgilash);
- taqsimlangan (investorlar, qimmatli qog'ozlar, to'lov turlari bo'yicha bozor joylaridan tarqalgan tarmoqlar tashkil etish);
- uzaytirilgan (masalan, tijorat yoki jamg'arma banklarning filial tarmog'ida qimmatli qog'ozlarning turli xillarini har doim taklif qilish tashkil etiladi).

V) Kim oshdi savdosi asosida tashkil etiladigan qimmatli qog'ozlar bozori.

Qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish texnologiyalarining barcha turlarini ikkita katta guruhga birlashtirish mumkin.

Birinchi: Kim oshdi savdosi bo'yicha savdo-sotiq, bunga oddiy kim oshdi savdosi kiradi.

Ikkinchi: Gollandcha kim oshdi savdosi va qo'shaloq kim oshdi savdosi.

Oddiy kim oshdi savdosi, bunda faqat xaridorlar musobaqalashadi. Sotuvchilar to'g'ridan-to'g'ri raqobatlashmaydi. Savdolar boshlanishidan oldin xarid qilish uchun va sotish uchun buyurtmalar yig'iladi va buyurtmalar ro'yxati (kopirovka varag'i) to'ldiriladi. Savdolar takliflar ro'yxatining ochiqcha ketma-ketlik bilan e'lon qilinishi orqali amalga oshiriladi. Har bir aniq taklif bo'yicha yangi narxlarning belgilanishi yo'li bilan xaridorlarning bahslashuvi ochiq kechadi.

Boshlang'ich narxni odatda sotuvchi belgilaydi. So'nggi narx bu xaridorlar tomonidan da'vogarlar raqobatlasha olmaydigan darajadagi ochiqcha taklif etilgan bahodir. Oddiy kim oshdi savdosi sobiq SSSRning barcha birjalarida eng ko'p tarqalgan usuli edi.

1991-yildan boshlab O'zbekistonda ham bu ommabop usul keng tarqaldi. «Toshkent» RFBda kompyuterdan foydalanilgan holda bu usul

CamScanner yordamida skanerlangan

qo'llaniladi. Bu usul savdo o'tkazuvchilarning barcha ishtirokchilari uchun aniq va tushunarlidir.

Gollandcha kim oshdi savdosi.

Savdolarni o'tkazishni bu usulida xaridorlarni buyurtmalari oldindan jamlanadi, undan keyin buyurtmalar emitent tomonidan yoki uning manfaatlari uchun xizmat qiluvchi vositachi tomonidan sirtdan ko'rib chiqiladi. Yagona rasmiy narx belgilanadi. O'zbekistonda bunday usul DQMO ning birlamchi joylashtirilishi bo'yicha kim oshdi savdolarni o'tkazishda qo'llaniladi.

Bu usulda kim oshdi savdolarini o'tkazish mexanizmi quyidagicha:

- Respublika fond birjasi tomonidan xaridorlar buyurtmalarining yig'ilishi;
- buyurtmalar ro'yxatini tuzish va uni Moliya vazirligiga taqdim etish;
- Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan xaridorlarning sirtqi bahslashuvi va narxning pastki chegarasini belgilash;
- buyurtmalarni qondirish.

G) Qimmatli qog'ozlarning mintaqaviy, milliy va xalqaro bozorlari

Katta hududlarga ega bo'lgan mamlakatlarda odatda, qimmatli qog'ozlarning mintaqaviy yoki lokal bozorlari shakllanadi. Masalan, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilinishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 viloyatdan iborat bo'lgan ma'muriy-hududiy tizimlardan iborat.

Bunda har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.

Qimmatli qog'ozlarning xalqaro bozori bu jahon miqiyosida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish sohasidir. Bunda qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish natijasida kapital bir mamlakatdan ikkinchisiga oqib o'tadi.

2. Ulushga egalik qilish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozlar

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, bizning Respublikamizda qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari amal qiladi:

Aksiyalar;

Obligatsiyalar;

Depozit sertifikatlari;

Depozit tilxatlari;

Veksellar.

Aksiyalar, obligatsiyalar va deposit sertifikatlari aks ettiriladigan rekvizitlarni O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va

CamScanner yordamida skanerlangan

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasi qoshidagi «Qimmatbaho qog'ozlar bozorini koordinatsiyalash va nazorat qilish Markazi» depozit sertifikatlari va veksellarda aks ettirilgan rekvizitlarni esa O'zbekiston Respublikasi Markziy banki belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlar nomi (egasi) yozilgan va taqdim etuvchiga tegishli bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar basharti mulkiy huquqlarni ularga egalik qilish bilan bog'liq holda ro'yobga chiqarish uchun emitent (qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi) tomonidan yoki uning topshirig'iga binoan qimmatli qog'ozlar kasb faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilot tomonidan egasining nomini qayd etish zarur bo'lsagina egasi yozilgan bo'ladi. Egasi yozilgan qimmatli qog'ozni bir mulkdordan ikkinchisiga berish hisob-kitobdagi tegishli yozuvlarni o'zgartirishda aks etadi.

Qimmatli qog'ozlar basharti mulkiy huquqlarni ularga egalik qilish bilan bog'liq holda ro'yobga chiqarish uchun qimmatli qog'ozlarni taqdim etishning o'zi etarli bo'lsa, taqdim etuvchiga tegishli hujjatlar deb hisoblanadi. Taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog'ozlar erkin muomaladi bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarning eng keng tarqalgan turi aksiyalar hisoblanadi.

Aksiya bu aksiyadorlik jamiyatining Ustav fondiga yuridik yoki jismoniy shaxs muayyan hissa qo'shganidan guvohlik beruvchi, aksiya egasining mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlovchi kamida unga dividend olish va odatda, ushbu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beruvchi, amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'ozdir.

Boshqacha qilib aytganda, aksiya aksiyadorlik jamiyat chiqargan qimmatbaho (daromad keltiruvchi) qog'oz. Aksiya o'z egalariga, ya'ni aksiyadorlarga hissadorlik jamiyati ixtiyoridagi umumiy mulkdan o'ziga tegishli ulushiga huquqi borligi to'g'risida guvohlik beradi. Amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan aksiya blankalarining majburiy rekvizitlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Aksioner jamiyatining nomi va joylashgan manzili;
Qimmatli qog'ozning nomi «Aksiya»;
Navbatdagi nomer;
Chiqarilgan vaqti;
Aksiya turi (oddiy va imtiyozli);
Nominal qiymati va toifasi;
Egasining nomi.
Aksiya chiqarilgan aksioner jamiyatining Ustav fondining miqdori;
Muomalaga chiqarilgan aksiyalar soni;

CamScanner yordamida skanerlangan

Imtiyozli aksiyalar uchun to'lanadigan dividend miqdori va to'lash muddati;

Aksoner jamiyati ijroiya organi rahbarining imzosi (boshqaruv, direksiya).

Qimmatli qog'ozlar chiqarilgan korxonaning muhri. Aksiyalar davlat tilida to'liq yoziladi. Jamiyat a'zolarining xohishiga ko'ra boshqa tillarda ham yozilishi mumkin.

Aksiyalar egasining ismi yozilgan va yozilmagan, imtiyozli va oddiy bo'lishi mumkin. Aksiyada ko'rsatilgan va jamiyat aksiyadorlarini ro'yxatga olish daftariga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxsgina egasi yozilgan aksiyaning sohibi bo'lishi aksiyador deb e'tirof etiladi. Egasi yozilmagan aksiyalar jamiyat aksiyalarining ro'yxatga olish daftariga kiritilmagan holda boshqa shaxslarga mulk qilib beriladi.

Oddiy (odatdagi) aksiyalar ovoz beruvchi bo'lib, ularning egalariga dvidendlar olish, jamiyatning umumiy yig'ilishlarida va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Imtiyozli aksiya egalari dvidendlarni, shuningdek, aksiyadorlik jamiyati tugatilganda aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish huquqiga egadir. Imtiyozli aksiyalar ularning egalariga, korxona foyda ko'rish-ko'rmasligidan qa'tiy nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi.

Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari faqat egasi yoziladigan aksiyalar bo'lishi mumkin, ularni boshqa shaxsga o'tkazish tartibi ustavda belgilanib qo'yiladi. Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlariga aksiyalar o'rniga ularning nominal qiymatiga teng so'mmada sertifikatlar berishi mumkin.

Chiqariladigan aksiyalarning xillari, ularni tarqatish va joylashtirish, ular bo'yicha dividendlarni to'lash tartibini har bir aksiyadorlik jamiyati o'zining Ustaviga asosan amalga oshiradi.

Aksiya bo'linmasdir. Bu degani aksiyaga bir necha kishi egalik qilishi mumkin (masalan, er va xotin). Lekinda aksioner jamiyatining yig'ilishida ular bir ovozga ega bo'ladi.

Aksiya mulkka egalik qilish huquqini shartli ravishda beradi. U zayom emas. Aksiyada qoplash muddati ko'rsatilmaydi. Aksiya egasining javobgarligi faqat uning ixtiyoridagi aksiya miqdori bilan chegaralangandir. Shuning uchun ham u jamiyat uchun javob bermaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida»gi qonunida aksiyadorning huquqlari batafsil yoritilgan. Qonunga ko'ra aksiyadorlar:

CamScanner yordamida skanerlangan

– jamiyat mablag'iga qo'shgan hissasini va shunga muvofiq topilgan foydaning bir qismini dividend tariqasida olishi;

– aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarorlarni ishlab chiqarishda ovoz berish, mazkur hissadorlik jamiyatining sotib olishda ustunlik qilish;

– inqirozga uchragan chog'da hissadorlik jamiyatining bir bo'lagiga egalik qilish;

– o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlariga birlashish va h.k.

Bu huquqlar aksiyalarning xillariga qarab o'zgarib turishi mumkin. Masalan: oddiy aksiyalar egalari jamiyat Ustaviga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etsa, imtiyozli aksiyalarning egasi bunday huquqga ega emas va h.k. Aksiyalarni boshqa shaxsga mulk qilib o'tkazish mumkin. Bu holda egasi yozilgan aksiyalar (sotib olinishi, hadya qilinishi, meros bo'lib o'tganda) egasining o'zgarganini qayd etuvchi organ aksiya yangi egasining ismi yoki nomini kiritadi. Aksiyadorlik jamiyati ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin aksiyalarni qayta sotish, o'z xodimlari orasida tarqatish yoki bekor qilish maqsadida aksiyadorlardan ularni sotib olish ham mumkin. Chunki aksiyalar ko'pi bilan bir yil ichida joylashtirilishi lozim. Ana shu davr ichida dividendlarni taqsimlash, shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish va kvorumni aniqlash jamiyat sotib olgan o'z aksiyalarini hisobga olmagan holda o'tkaziladi.

Jamiyat o'z aksiyalarini mustaqil ravishda yoki investitsiya institutlari orqali sotib olishi mumkin. Aksiyalar chiqarilganda ularning nominal aksiyada ko'rsatilgan, (masalan, 100 dollar, 500 dollar, 100 so'm va h.k.) qiymati bo'ladi, lekin ular bozor narxida sotiladi, narx nominal qiymatidan yuqori yoki past bo'ladi. Bozordagi talab va taklifga qarab aksiyaning bozor narxi shakllanadi, bunga bozor kursi deb ataladi. Bozor kursi yoki narxini belgilanishi qimmatli qog'ozlar katirovkasi deyiladi va u fond birjasida amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning bozorda yaxshi sotilishi korxona, firma uchun o'zgalar pulini moliyaviy resursga va so'ngra kapitalga aylantirib, o'zining mavqeini mustahkamlab yaxshi foyda olishga imkon beradi. Aksiya kursiga ta'sir etuvchi omilar turlicha bo'ladi. Germaniya mutaxassislari fikriga ko'ra unga iqtisodiy, siyosiy va ruhiyat omillari ta'sir etadi.

Firma emitent sifatida qimmatli qog'oz sotsa, xaridor sifatida uni bozordan sotib ham oladi. Odatda firma o'zi bilan yaqin iqtisodiy aloqada

CamScanner yordamida skanerlangan

bo‘lgan firmalar, banklar, sug‘urta va investitsiya kompaniyalari aksiyalarini va davlat obligatsiyalarini yoki ko‘proq o‘z mahsulotlarini sotib oluvchi yoki unga kerakli resurslarni sotuvchi korxonalar aksiyasini sotib oladi, chunki ular bir birlarining yaxshi moliyaviy ahvolidan o‘zaro manfaatdor bo‘ladilar.

Bozor munosabati sharoitida xo‘jalik subyektlari moliya jihatdan ham o‘z aravasini o‘zi tortishi kerak, ammo ular foyda ko‘rib rentabelli ishlashi, foyda hisobidan o‘z moliya resurslarini orttirib borishlari ham shart, bu siz ular raqobatga bardosh bera olmaydilar. Demak, moliyaviy baquvvat bo‘lish raqobatchi chidamli bo‘lishi demakdir.

3. Aksiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan hosilaviy qimmatli qog‘ozlar

Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bu birlamchi qimmatli qog‘oz (aksiya)larning shu bozorda amal qilishi natijasida hosil bo‘lgan ikkilamchi qimmatli qog‘ozlardir. Masalan: qiymat qonuni tovar xo‘jaligining hosilasidir. Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar o‘z egasiga birlamchi qog‘ozlarni sotib olish va sotish huquqini beradi. Ularning qiymati boshqa qog‘ozlar orqali gavdalanadi.

Qimmatli qog‘ozlar hosilalarini chiqarish va muomalasi qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi qimmatli qog‘ozlar va fond birjalari bo‘yicha Davlat komissiyalari belgilaydi.

Hosilaviy qimmatli qog‘ozlarning quyidagi turlari mavjud:

– opsion;
– fyuchers;
– depozit tilxatlari;
– varrant;
– privatizatsiya cheklari;
– privatizatsiya kuponlari va h.k.

Bular bilan operatsiyalar nafaqat birlamchi bozorda, shu bilan birga ikkilamchi bozor (birjalar)da hamda «ko‘cha» (chayqov) bozorida ham bajarilaveradi. Ammo bu operatsiyalarning asosiy qismi fond birjalari oraqli o‘tadi.

Opsion bu muayyan qimmatli qog‘ozni kelishilgan baho va muddatda sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi ikki tomonlama shartnoma. U egasiga kontrakt (bitim) da kelishilgan bahoda belgilangan muddatda qimmatli qog‘ozlarni yoki tovarlarni sotib olish huquqini beradi. Opsion sotuvchi uchun sotish, xaridor uchun sotib olish huquqini beradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Masalan, aksiyalarni oldi-sotdisida opsion ikki investor ishtirokida tuziladi: biri opsionni yozadi va ikkinchisiga o'tkazadi (beradi); ikkinchisi bu opsionni sotib oladi va belgilangan muddat ichida va narxda aksiyalarni sotib olish (sotib olishga opsion) yoki unga sotish huquqini oladi (sotishga opsion).

Shuni bilingki, aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lishingiz bilan siz bu aksiyalarni sotib olishga majbursiz degani emas. Agar opsionda ko'rsatilgan muddat ichida aksiyalarning narxi oshmagan bo'lsa yoki pasayib ketgan bo'lsa, opsion egasi o'z huquqidan foydalanmaydi. Demak, bu misolimiz shartiga binoan 300 so'm yo'qotadi.

Faraz qilaylik, aksiyaning narxi kam miqdorda, aytaylik, 102 so'mga oshgan bo'lsin. Bunday vaziyatda opsion egasi qanday ish tutishi lozim? Birinchi navbatda u aksiyaning narxi qachon oshganligiga e'tibor bermog'i lozim. Agar aksiyaning narxi uch oylik, muddatning boshida (102 so'mga) oshgan bo'lsa, unda opsion egasi shoshilmasdan payt poylab turishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar uch oylik muddatning oxirida oshgan bo'lsa, unda opsiondagi aksiyalarni sotib yuborishi lozim, ya'ni opsionga muvofiq aksiyalarni 100 so'mdan sotib olib, 102 so'mdan sotib yuborish kerak. Bu holda opsion egasining ko'rgan zarari 100 so'mni tashkil etadi (bu so'mmaga qo'shimcha yana vositachiga to'lanadigan xizmat haqi ham kiriishi mumkin).

Aksiyaning narxi kutilganidek (103 so'mdan) baland bo'lgan hollarda opsion o'z egasiga daromad keltiradi. Masalan, aksiyaning narxi 108 so'm bo'lsa, opsion egasining 100 dona aksiyadan olgan daromadi 500 so'm (800-300)ni tashkil qiladi.

Shunday qilib, opsion egasi aksiyaning bozordagi kursga qarab g'olib bo'lishi yoki yutqazishi mumkin.

Opsion odatda korporatsiya rahbarlarining rag'batlantirish maqsadida keng qo'llaniladi. Bunda korporatsiya rahbarlari ixtiyoriga oldindan o'rnatilgan kurs bo'yicha aksiyalar ajratib qo'yiladi. O'rnatilgan kurs bilan aksiyani sotish bahosi o'rtasidagi farq korporatsiya rahabarlarining opsion evaziga oladigan daromadi jami daromadlarining uchidan bir qismini tashkil qiladi.

Opsionning asosan quyidagi uch turi mavjud:

Sotib olish uchun opsion (opsion Call) - kelajakda aktivlar kursining oshishidan himoya qilish maqsadida xaridorning aktivlarini (valyuta, qimmatli qog'ozlar, tovarlar va h.k.larni) sotib olish huquqini (ammo, majburiyatini emas) beruvchi shartnomadir.

CamScanner yordamida skanerlangan

Sotish uchun opsion (opsion put) – aktvilarning kursini pasayishidan himoya qilish uchun sotuvchiga o'z aktivlarini sotish imkonini (ammo majburiyatini emas) beruvchi shartnomadir.

Qo'sh opsion (opsion tellage) – xaridorga aktivlarni bazis narxda sotib olish yoki sotish imkonini beradi. Ammo, baravariga sotish va xarid qilish mumkin emas. Qo'sh (stollaj) opsion sotishga va sotib olishga opsion singari baravariga bir xil muddat ichida va turli xil narxda sotib olinish holatida vujudga keladi.

Har bir opsionda muddati ko'rsatilgan bo'ladi. Opsionning amal qilish sanasi va davri belgilangan muddatdan chiqib ketgan bo'lsa, u holda mazkur opsion qabul qilinmaydi.

Opsionlarning ameriqancha va yevropacha usullari mavjud. Yevropacha usulda opsion faqat belgilangan muddatda (kunda) ishlatilishi mumkin. Amerakacha usulida esa opsion unda belgilangan muddat ichida, istalgan vaqtda ishlatilishi mumkin.

Opsionning oldi-sotdi jarayoni kontrakt (bitim) tuzish orqali amalga oshiriladi. Yakka kontrakt to'liq lotga tuziladi. LOT – bu sotuvga qo'yilgan bir xil turdagi qimmatli qog'ozlar yoki boshqa aktivlar partiyasi. Bir necha lotlar to'plami string deyiladi.

Kontrakt egasi (ya'ni, sotib oluvchi, xaridor) sotuvchiga (ya'ni, kontraktni yozib beruvchiga) komission haq to'laydi. Bu haq mukofot deyiladi. Mukofot – kontraktning opsion bahosi. Opsionni xarid qiluvchining xavf-xatari (tavakkalchiligi) shu mukofot miqdori bilan chegaralangan. Opsion sotuvchining xavf-xatari esa o'sha mukofot miqdoriga kamayadi.

Fyuchers – bu qimmatli qog'ozlarni yoki tovarlarni kelishilgan muddatda, shartnoma tuzilgan kunda o'rnatilgan narxda kelgusida (ma'lum bir sanada) sotish yoki sotib olish majburiyligi to'g'risida shartnoma (qa'tiy majburiyat)dir. Opsionda farqi shundaki, fyuchers qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beruvchi shartnoma emas, balki qa'tiy majburiyatdir.

Fyuchersning o'ziga xos xususiyati shundaki, kontrakt tuzish chog'ida sotuvchi qo'lida hech qanday qimmatli qog'oz yoki moliyaviy instrumentlar bo'lmaydi. Bu yerda kontrakt shartlari qa'tiy belgilangan baho bilan oldi – sotdi bajariladigan kun bahosi o'rtasidagi farqga asoslangan bo'ladi.

Fyuchers shartnomasi to'g'ridan-to'g'ri sotib olish amali bilan tugamasdan, balki qimmatli qog'ozga aylanib unda belgilangan harakat muddati ichida bir necha marotaba qayta sotilishi mumkin. Shartnoma egasi

CamScanner yordamida skanerlangan

tovarning o‘zgaruvchan bahosini oldindan topishi yoki topaolmasligi mumkin, foydadan boy berishi yoki daromad olishi mumkin.

Fyuchers shartnomalari tovar birjalarida vujudga kelgan. Fyuchers amallarining soddaligi va ishonchliligi ularni 1972-yilda Chikago tovar birjasida keng qo‘llanilishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Shu yil moliyaviy aktivlarning fyuchers savdolari boshlandi. Bunda tadbirkorlar valyutani, qarz majburiyatlarini va boshqa qimmatli qog‘ozlarning birjaviy kurslarini (narxlarini) haddan tashqari tez o‘zgarishidan o‘zlarini himoya qilish imkoniga ega bo‘ldilar.

Depozit bu kredit muassasalariga saqlash uchun topshiriladigan qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar)dir.

Depozit tilxatlari bu chet el emitentlarining qimmatli qog‘ozlarini milliy valyutada denomillashtirilgan ekvivalentini o‘zida aks ettiruvchi qimmatli qog‘ozlardir. Ular mavjud fond bozorlariga integratsiya maqsadida chiqariladi. hozirgi vaqtda har bir mamlakatda o‘zining depozit tilxatlari (DT) mavjud. Masalan:

AQSHdagi DT;

Evropa mamlakatlaridagi DT;

Osiyo mamlakatlaridagi DT;

Bu depozitlarni fond bozorlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki:

1. Bu davlatdagi fond bozoriga tegishli mavjud qonunlar boshqa davlatlarning shunga o‘xshash qonunlarila farq qiladi.

2. Bir mamlakatda qimmatli qog‘ozlarni chiqarish andozalari (standartlari) boshqa mamlakatda qabul qilingan andozalarga to‘g‘ri kelmaydi.

3. Qimmatli qog‘ozlarni xarid narxiga qo‘shimcha bo‘lib kiradigan xarajatlar turli mamlakatlarda turlicha bo‘ladi:

* chet el va ichki fond bozoridagi brokerlarga vositachilik haqi;
* bank depozitlarining xizmat haqi (bozor bahosidan 1% miqdorida);
* sotib olingan qimmatli qog‘ozni yetkazib berilishi uchun investor tomonidan to‘lanadigan haq;
* 2 % miqdoridagi sug‘urta haqi;
* qimmatli qog‘ozlarni sotib olishdagi yoki sotishdagi valyutalar konvertatsiyasi uchun ketadigan xarajatlar;
* konversiya uchun investor tomonidan to‘lanadigan foizlar;
* investor uchun valyutani almashtirish kursining o‘zgarishidagi xavf-xatar darajasi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Mavjud xilma-xillikni bartaraf etish va fond bozorlarida erkin muomalani ta'minlash maqsadida depozit tilxatlari qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtda depozit tilxatlari ichida keng tarqalgan AQSH fond bozoridagi dpozit tilxatlari bo'lib, ular chet el emitentlarining qimmatli qog'ozlarini AQSH dollarida denomillashtirilgan ekvivalenti sifatida AQSHning birjaviy va nobirjaviy bozorlarida muomalada yuradi. Bugungi kunda AQSHdagi depozit tilxatlarini sotib olgan investorlarning 80 foizini institutsional investorlar tashkil qiladi.

Depozit tilxatlari bilan bog'liq faoliyat turlarini maxsus bank va investitsiya muassasalari amalga oshiradilar. Ular (dilcr, brokcr, transfer-agent, depozitariy, maslahatchi, anderrayter, trast va boshqalar sifatida) investor va emitentlarning jahon fond bozorlarida ishtirokini ta'minlaydi. Bu muassasalar o'z daromadlari va mijozlari manfaatlari yo'lida fond va valyuta bozorlarida aktiv faoliyat yuritadilar.

Varrant bu egasiga muayyan vaqt uchun yoki muddatsiz shart bilan shartnomada ko'rsatilgan narxda qimmatli qog'ozni sotib olish huquqini beruvchi guvohnoma (sertifikat)dir. U amaldagi kapitalni iqtisodiyotga safarbar qilish uchun emas, ko'proq ularni qayta taqsimlashda keng qo'llaniladi.

Ayrim hollarda varrant qimmatli qog'ozlarni sotib olishni rag'batlantirish maqsadida ular bilan birgalikda beriladi. Varrant omborxonalar tovarlarni saqlash uchun qabul qilinganligini tasdiqlovchi guvohnoma vazifasini ham bajaradi. U muayyan tovarni sotishga yoki kafilikka olinganligini tasdiqlovchi hujjat rolini o'ynashi mumkin.

Varrant nomi yozilgan va nomi yozilmagan (taqdim etuvchiga tegishli) ko'rinishlarida bo'ladi. U qimmatli qog'oz bozorlarida huddi aksiyaga o'xshab muomalada bo'ladi.

Privatizatsiya – bu davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirishni bildiradi. Privatizatsiya davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin sohibkorlik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisoliyotini rag'batlantirish maqsadida amlaga oshirladi.

Privatizatsiya cheki bu qimmatli qog'ozlarning maxsus bir turi bo'lib, uni aksionerlik jamiyatlari emas, balki faqat davlat muomalaga chiqaradi. Ular o'z egasiga davlat tasarrufidan chiqarilgan (masalan, aksionerlik jamiyati ko'rinishida xususiylashtirilgan) korxonalarning maxsus auksioner (kim oshdi savdosi) oraqli sotuvga qo'yilgan aksiyalariga almashtirib olish huquqini beradi. Shu asosda privatizatsiya cheklari fuqarolarni mulk egasiga aylanishini ta'minlaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

So‘nggi yillarda ko‘chmas mulk bozori keng rivojlanib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida xilma-xil xosilaviy qimmatli qog‘ozlarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Shulardan eng oddiysi mulkiy varaqa hisoblanadi. Bu varaqani hohlagan fuqaro yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt uy-joy sotib olish maqsadida (har biri 0,1 m^2 ning qiymatiga teng bo‘lgan) bitta yoki bir nechta varaqani sotib olishi mumkin. Mulkiy varaqaning soni sotib olishi lozim bo‘lgan uy-joydagi xonalar soniga va uning to‘lash imkoniyatiga bog‘liq.

Mulkiy varaqa fuqarolar qo‘lidagi pulning qadrsizlanishi saqlab qoladi. Uy – joyning valyutadagi bahosi har doim oshib borgan va bundan keyin ham oshib boradi. Proporsional ravishda mulkiy varaqa bahosi ham oshib boradi. Bundan tashqari, mulkiy varaqa 100 foizlik likvidlikka ega. Istalgan paytda uning egasi joriy kurs bilan sotib olgan tashkilotiga qaytadan sotishi mumkin.

Konosament – bu yukni tashishga qabul qilinganligi va tashuvchining yukni oluvchiga yetkazish majburiyatini tasdiqlovchi hujjat, hosilaviy qimmatli qog‘oz. Bu dengizda yuk tashish shartlarini aks ettiruvchi transport hujjatidir. Konosament yukni qay tartibda tashishidan qa’tiy nazar, uning barcha xili uchun berilaveradi.

Qimmatli qog‘oz bo‘lganligi sababli konosamentda yuk to‘g‘risida barcha rekvizitlar bo‘lishi shart. Aks holda u rasmiy hujjat, qimmatli qog‘oz bo‘la olmaydi. Konosament bir necha nusxada yoziladi. Konosament quyidagi turlarga bo‘linadi:

– Nomi yozilgan konosament, ya’ni uni oluvchining ismi-sharifi yoziladi.

– Orderli konosament. Yukni jo‘natuvchi yoki yukni qabul qiluvchi yoki bankning buyrug‘iga binoan yuk shu hujjat asosida qaytarib beriladi.

– Nomi yozilmagan (taqdim etuvchiga tegishli) konosament. Yuk borib tushgan portdan yukni olish huquqini beradi. Faqat mazkur hujjat qo‘lida bo‘lsa bas.

Xedjirlash bu fyuchers, opsion, varrant kelishuvlarida (asosiy qimmatli qog‘ozlarning oldi-sotdisi bilan bir vaqtning o‘zida bo‘lganligi sababli) narx va foyda xavf-xatarini sug‘urta qilish shakllaridan biridir. Xedjirlash sotuvchi (xaridor) shartnomani tuzish bilan ayni bir vaqtda o‘z savdosiga teng keladigan, aytaylik, fyuchers shartnomalarini xarid qiladi (yoki sotadi).

Xedjirlash:

– tomonlar ko‘radigan ehtimoldagi ziyonini kamaytirish imkonini beradi;

CamScanner yordamida skanerlangan

– tovar narxi o'zgarishi bilan ko'riladigan zarar fyuchers bo'yicha olinadigan yutuq bilan belgilanadi;

Bank, birja, tijorat amaliyotida valyuta sug'urta qilishning turli usullari ham xedjirlash deb yuritiladi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarni iqtisodiyotdagi o'rni.
2. O'zbekistondagi obligatsiyalarning turi haqida ma'lumot bering.
3. Moliya bozorida amalga oshiriladigan bitishuv va operatsiyalar.
4. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati va o'rni.
5. Bazaviy (qarz va ulush munosabatlarini ifodalovchi) qimmatli qog'ozlar.
6. Moliya bozorida amalga oshiriladigan bitishuv va operatsiyalar;
7. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati va o'rni?
8. Emitentlarning siyosatlari nimalardan iborat?
9. Investorlarning siyosatlari nimalardan iborat?
10. Xalqaro moliya institutlarining moliya bozorlaridagi faoliyati va roli?
11. Fond birjalarining faoliyati nimalardan iborat?
12. Elektron savdo tizimlarining faoliyati nimalardan iborat?
13. Moliya bozori risklari, ularni baholash va boshqarish deganda nimani tushunasiz?
14. Investitsion portfellarni shakllantirish, baholash va boshqarishda nimalarni bilasiz?

CamScanner yordamida skanerlangan

5-MAVZU: MOLIYAVIY BOSHQARUV

Reja:

1. Moliyaviy boshqaruv.
2. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik prinsiplari, aniq usullari va shakllari.
3. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari
4. Korxonani moliyaviy boshqaruv tizimida rejalashtirish va tahlil.

Kalit so'zlar: moliyaviy taktika, boshqaruv, boshqaruv obyekti, subyekti, moliyaviy apparat, moliyaviy rejalashtirish.

1. Moliyaviy boshqaruv

Boshqaruv – bu ma'lum bir natijaga erishish uchun obyektga ta'sir etishning maqsadli uslublari va yo'llari yig'indisidir. Boshqaruv jarayoni inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan moliyaviy sohasiga ham taalluqlidir. Boshqarish, insonlarning ongli ravishdagi maqsadga yo'naltirilgan faoliyati sifatida, jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini bilishga asoslanadi. Shu bilan birgalikda, boshqarishga davlat tegishli boshqarish tuzulmalari orqali katta ta'sir o'tkazadi.

Boshqarish obyekti – turli shakldagi moliyaviy munosabatlar (korxona moliyasi, sug'urta, davlat moliyasi) turidir.

Boshqarish subyekti – moliyani boshqarishni amalga oshiruvchi tashkiliy tuzilmalar, institutlar, korxonalarning moliya xizmati, davlatning moliya organlari va davlat soliq xizmati hisoblanadi.

Moliyaviy boshqaruv faoliyatining muhim sohasi moliyani boshqarish hisoblanadi. Uni ma'lum bir uslub va tamoyillarga hamda turli rag'batlantirish va jazo (sanksiya)larga tayanib maxsus apparat amalga oshiradi. Boshqaruv faoliyati – oldinga qo'yilgan masalalarni tezroq hal qilish maqsadida mavjud usullar orasidan eng samaraligini tanlash yoki qo'llanilayotgan usullardan oqilona foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Har qanday boshqaruv tizimiga xos bo'lgani kabi, moliyani boshqarishda ham obyektlar va subyektlar mavjud bo'ladi. Moliyani boshqarishning obyekti bo'lib turli moliyaviy munosabatlar hisoblanadi; subyektlari esa, boshqarishni amalga oshiruvchi tashkiliy tuzulmalar hisoblanadi.

Moliyani boshqarishni amalga oshiruvchi barcha tashkiliy tuzulmalar yig'indisi moliyaviy apparat deyiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Davlat moliyasini boshqarishning maqsadi moliya siyosati shartlarini amalga oshirish hisoblanadi. Aynan samarali moliya siyosati bevosita moliyaning o'ziga (boshqaruv obyektiga) yuklatilgan ishning aniq bir usullari bilan, moliya tizimi organlarini (boshqaruv subyektlarini) tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan boshqarishning potensial imkoniyatlarini yaxlit birlashtirish imkonini beradi.

Aksariyat mamlakatlarda moliya siyosati institutsional moliya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ularning faoliyati moliyaning bo'g'inlarini, xususiyatlarini, barcha moliya muassasalari funksiyalarini uslubiy umumiyligini hisobga olgan holda boshqarishning barcha quyi organlarini markazlashgan boshqaruvda faol ishtirok etishini hisobga olgan holda moliyani boshqarishga yo'naltiriladi. Moliya siyosatini yuritish va mos ravishda moliyani boshqarishning yakuniy maqsadlarga bog'liqligi, barcha xo'jalik tarmoqlarining makroiqtisodiy balanslashuviga erishish, jamiyatning barcha a'zolari manfaatlariga mos kelishi, iqtisodiy qonunlardan foydalanish, real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy hamda siyosiy sharoitlarni hisobga olish kabi asosiy uslubiy tamoyillarga asoslanadi.

Moliyani boshqarishning maqsadi – makroiqtisodiy balanslashuvda, byudjet profisitida, davlat qarzining kamayishida, milliy valyutaning mustahkamligida, natijada esa aholining farovonligini o'sishida namoyon bo'luvchi barqarorlik va moliyaviy mustaqillikni ta'minlashdan iborat.

Moliya tizimining barcha soha va bo'g'inlarida, maqsad qilingan natijaga erishish uchun moliyaviy boshqaruv subyektlari moliyaga ta'sir etishning turli maxsus usullaridan foydalanadi. Shu bilan birga ular uchun moliyaviy boshqaruvning umumiy uslub va qoidalari mavjuddir. Jumladan, moliyani boshqarishda ham rejalashtirish, tezkor (operativ) boshqarish va nazorat kabi funksional elementlar mavjud.

Moliyani boshqarish tizimida rejalashtirish asosiy o'rin tutadi, chunki rejalashtirish jarayonida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining moliyaviy holatini baholaydi, moliyaviy resurslarni oshirish imkoniyatlarini, ulardan eng samarali foydalanish yo'nalishlarini aniqlaydi. Rejalashtirish jarayonida boshqarish qarorlari moliyaviy ma'lumotlar tahlili asosida qabul qilinadi. Shuning uchun bunday ma'lumotlar yetarlicha to'la va haqqoniy bo'lmog'i lozim. Ma'lumotlarni haqqoniy va o'z vaqtida olinishi asoslangan qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi. Moliyaviy ma'lumotlar buxgalteriya, statistik va tezkor (operativ) hisobotlarga asoslanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Tezkor (operativ) boshqarish – mavjud moliyaviy holatni tezkor (operativ) tahlil qilish asosida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash yordamida minimal xarajat qilib maksimal samaraga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir. Tezkor (operativ) boshqarish egiluvchanlik xususiyatiga egadir.

Nazorat – boshqaruv elementi sifatida bir vaqtning o'zida moliyani rejalashtirishda hamda tezkor (operativ) boshqarishda qo'llaniladi. Nazorat haqiqiy natija bilan rejadagi ko'rsatkichlarni taqqoslashga yordam beradi, moliyaviy resurslarni o'sish rezervlarini aniqlaydi va samarali xo'jalik yuritish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Moliyani boshqarish strategik yoki umumiy boshqaruv va tezkor (operativ) boshqaruvlarga bo'linadi.

Strategik boshqaruv istiqbolni belgilash, maqsadli dasturlar va boshqalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan moliyaviy resurslar hajmini o'rnatish orqali namoyon bo'ladi. U davlat va iqtisodiy (xo'jalik) boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Moliyani strategik (umumiy) boshqaruv subyektlarini: Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va Prezident devoni tashkil etadi.

Strategik moliyaviy menejment – maqsadli dasturlar uchun moliyaviy resurslar miqdorini aniqlaydigan kelajak uchun moliyaviy prognozlash. Bunday boshqaruvni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Moliya vazirligi, Prezident devoni va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi amalga oshiradilar. Moliyaviy menejment sohasida Moliya vazirligining vazifalari quyidagilardan iborat:

– moliyaviy siyosatning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– byudjet loyihasini tayyorlash, uni ijro etish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;

– moliya bozorini rivojlantirish;

– milliy ehtiyojlarni maqsadli moliyalashtirish;

– moliyaviy va byudjetni rejalashtirish uslublarini takomillash- tirish;

– byudjet mablag'lari ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish.

Moliyani tezkor (operativ) boshqarish – moliya tizimi apparatining bosh funksiyasi hisoblanadi. Moliyani tezkor (operativ) boshqaruv subyektlarini Moliya Vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi va ularning joylardagi bo'linmalari, byudjetdan tashqari fondlarning, sug'urta tashkilotlarining boshqaruv apparatlari, xo'jalik subyektlarining moliya bo'lim (xizmat) lari tashkil etadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Bozor munosabatlari sharoitida moliyani boshqarishni ilmiy asoslangan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rgangan holda hamda respublikaning ichki xususiyatlarini hisobga olib tashkil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning jadallashuvi va jahon xo'jaligi tovar ishlab chiqarishining keskin o'sishi barcha sohalarda bo'lganidek boshqaruvning ilmiy konsepsiyalarida ham taraqqiyotlar bo'lishiga olib keldi. Natijada zamonaviy moliyaviy menejment konsepsiyasi mustaqil shakllana boshladiki, uning asosiy muammosi sifatida korxonalar moliyaviy munosabatlari, pul mablag'larini aylanishining ichki va tashqi omillarini ta'siriga asoslangan holda samarali tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti xo'jalik subyektlari orqali ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida bozordagi talab va taklif, aniq istyemolchilar talablari, ishlab chiqaruvchi uchun maksimal foyda olish imkoniyatini tug'diruvchi mahsulot ishlab chiqarishni ko'zda tutadi.

2.Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik prinsiplari, aniq usullari va shakllari.

Moliya tizimini umumiy boshqarish mamlakatning oliy hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umumdavlat miqyosida moliyaviy boshqaruv tizimi quyidagi boshqaruv organlaridan tashkil topishi mumkin:

- Prezident va Prezident devoni;
- Oliy Majlis va moliya, byudjet, soliq va bank masalalari bo'yicha Oliy Majlis har ikki palatasining tegishli qo'mitalari;
- Vazirlar Mahkamasi;
- Hisob palatasi;
- Moliya vazirligi va uning quyi (joylardagi), jumladan, Xazinachilik tizimi organlari;
- Markaziy bank;
- Davlat soliq qo'mitasi;
- Davlat bojxona qo'mitasi;
- Davlat mulk qo'mitasi;
- Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya;
- Nobyudjet fondlarning ijroiya direksiyalari
- va boshqalar.

Mamlakat Prezidenti (Prezident devoni) moliya tizimining faoliyatini reglamentatsiya qiladi (tartibga soladi), mamlakat byudjetini

CamScanner yordamida skanerlangan

imzolaydi, Parlament tomonidan qabul qilingan moliyaviy qonunlarga "veto" qo'yish huquqiga ega.

Ikki palatadan (Senat va Qonunchilik) iborat bo'lgan Oliy majlis soliqlar, yig'imlar, nosoliqli to'lovlarni belgilaydi (o'rnatadi), Davlat byudjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek, Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni ham tasdiqlaydi, moliyaviy qonunlarni (masalan, Soliq kodeksi va boshqalar) qabul qiladi. Bir vaqtning o'zida davlat ichki va tashqi qarzining tegishli (chegaraviy) darajasini belgilash (o'rnatish) ham Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Moliyaviy boshqaruvning umumiy boshqaruv organi sifatida Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetini ko'rib chiqadi, moliyaviy boshqaruvning yagona umumiy markazi sifatida maydonda gavdalanadi.

Davlat moliyaviy nazorat organi sifatida Hisob palatasi moliyaviy boshqaruvga oid quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hajmi va maqsadga mo'ljallanganligi bo'yicha Davlat byudjeti va nobyudjet fondlari daromadlar va xarajatlarining o'z vaqtida ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish;
- davlat mablag'larining sarflanish va davlat mulkidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash;
- Davlat byudjeti va nobyudjet fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishga ta'sir ko'rsatadigan yoki xarajatlarning Davlat byudjeti hisobidan qoplanishini ko'zda tutayotgan davlat hokimiyatining qonunlari va normativ-huquqiy aktlarini moliyaviy ekspertiza qilish;
- Davlat byudjetining ijrosi va amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlarining natijalari to'g'risida Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga doimiy ravishda ma'lumotlarni taqdim etish;
- va boshqalar.

Moliyaviy boshqaruvning markaziy organi Moliya vazirligi va uning joylardagi organlari hisoblanadi. U mamlakat miqyosida yagona moliyaviy, byudjet, soliq va valyuta siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi. Moliya vazirligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yagona davlat moliya siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- Davlat byudjetining loyihasini tuzish va uning ijrosini ta'minlash;

3.Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari

Korxonalarning jamg'armalari, daromadlari hamda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy resurslar

CamScanner yordamida skanerlangan

fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonidagi pul mablag'larining miqdoriy va sifat jihatidan harakatiga moliyaviy oqim deyiladi. Moliyaviy oqimlarning hajmi ular asosida shakllanishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslar fondlarining o'lchamiga bog'liq. Mamlakatning iqtisodiy (moliyaviy) qudrati qancha kuchli bo'lsa, uning o'sishiga xizmat qiluvchi moliyaviy resurslar fondi va moliyaviy oqimlar hajmi shuncha katta (hajmli) bo'ladi.

Moliyaviy oqimlarning sifat jihatdan tavsifnomasi ular shakllantiruvchi moliyaviy resurslar fondining nimaga mo'ljallanganligi bilan bevosita bog'liq. Masalan, soliqli moliyaviy oqim bilan korxonaning tushumini shakllantiruvchi moliyaviy oqim sifat jihatidan bir-biridan farqlanadi. SHuning uchun ham ularni boshqarish metodlari ham turlichadir. O'zining sifat mazmuniga ko'ra quyidagilarni farqlash maqsadga muvofiq:

• byudjetli-soliqli moliyaviy oqimlar - barcha darajalardagi byudjetlarning mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladi;

• tijorat (tijoriy) moliyaviy oqimlari – tadbirkorlik xo'jalik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi;

• nobyudjet moliyaviy oqimlar – notijorat tashkilotlarining fondlarini shakllantiradi;

Moliyaviy oqimlarni boshqarishning funksiyalari quyidagilardan iborat:

• qonunchilik – Oliy Majlisning vakolatida;

• nazoratchilik (tartibga soluvchanlik) – Hisob palatasi va mamlakatning boshqa nazorat organlari (Moliya vazirligi, soliq va bojxona qo'mitalari va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi;

• boshqaruvchanlik – korxona va korporatsiyalar, banklar, soliq organlari, Xazinachilik apparati va Moliya vazirligining hisob-kitob-kassa va boshqa xizmatlarining vakolatida;

• nadzorchilik – korxonalarning moliyaviy jihatdan kasodga uchraganligigi to'g'risidagi ishlarni ko'radigan va bu holda moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi arbitrajlik sudlari tomonidan bajariladi.

Moliyaviy oqimlarni boshqarish bo'yicha yuqoridagi organlarning funksiyalari bir-biri bilan qo'shilib ketib, ularni har doim ham ajratib (alohida qilib) bo'lmaydi.

Agar moliyaviy oqimlar moliyaviy resurslar aylanishining qonuniyatlariga muvofiq ravishda, ko'zda tutilgan tartibda (rejimda) va

CamScanner yordamida skanerlangan

rejada aks ettirilgan hajmda, ishlab chiqarish va sotsial vazifalarni samarali echish uchun kerak bo'lgan tarzda va takror ishlab chiqarish siklini pul mablag'lari bilan to'liq ta'minlash tarzida amal qilsa, bularning barchasi, moliyaviy oqimlarning samarali ekanligidan dalolat beradi.

Moliyaviy oqimlarning samaradorligi pul mablag'larining etarli bo'lmagan hajmda va o'z vaqtida tushmaganligida pasayadi. Moliyaviy oqimlar ritmining buzilishi resurslarning doiraviy aylanishi va daromadlarning olinishida uzilishlarning bo'lishiga, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda keskin yo'qotmalarning bo'lishiga olib keladi. Moliyaviy oqimning samaradorligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$Ks = \frac{Hmo}{Rmo}$$

Bu yerda: Ks – moliyaviy oqim samaradorligining koeffitsienti;

Hmo – davriy koeffitsientga o'zgartirilgan (korrektirovka qilingan) haqiqatdagi moliyaviy oqim;

Rmo - rejadagi moliyaviy oqim.

Moliyaviy oqimlar moddiy resurslarning uchrashma harakatini o'zida aks ettiradi. Ular orqali iqtisodiyotning makro- va mikrodarajalarida (korxonalar, firmalar, korporatsiyalar va boshqalarda) mulkdan foydalanishning holati, dinamikasi va samaradorligi nazorat qilinadi.

Tushumlar va boshqa pul mablag'larining kelib tushishini (oqib kelishini) aks ettiradigan moliyaviy oqimlar ijobiy oqimlar deyiladi. Aksincha, pul mablag'larining oqib ketishini xarakterlaydigan moliyaviy oqimlar salbiy oqimlar deyiladi. Korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash uchun ijobiy moliyaviy oqimlar salbiy moliyaviy oqimlardan ancha yuqori bo'lishi kerak. Bunday sharoitda korxonaning ixtiyorida qoluvchi pul mablag'larining o'lchamini aks ettiruvchi sof moliyaviy oqimning bo'lishi ta'minlanadi. Sof moliyaviy oqim korxona moliyaviy salohiyatining o'sish, ular daromadlarining kapitalizatsiyalashuvi darajasini aniqlash, investitsion va innovatsion imkoniyatlarining manbai bo'lib hisoblanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

4. Korxonani moliyaviy boshqaruv tizimida rejalashtirish va tahlil

Boshqarish – aniq natijalarga erishish uchun obyektga maqsadli yo'naltirilgan holda ta'sir qilishning shakllari va usullari yig'indisidir. Boshqarish inson faoliyatining barcha sohalariga xosdir. Shuningdek, boshqarishning muhim sohalaridan biri moliyaviy faoliyatni boshqarish hisoblanadi.

Moliyaviy boshqarishda har qanday boshqarish tizim kabi boshqarishning obyekti va subyektlari ajratiladi. Boshqarish obyekti sifatida turli markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish va foydalanish jarayonidagi moliyaviy munosabatlar maydonga chiqadi. Moliyaviy munosabatlarni tasniflanishi bo'yicha boshqarish obyektlari 2 asosiy turga ajratiladi: davlat moliyasini boshqarish va xo'jalik subyektlari moliyasini boshqarish. Shunga muvofiq ravishda boshqarish subyektlari sifatida: korxonalarning moliyaviy xizmat tizimi va moliyaviy organlar, soliq organlari kiritiladi.

Moliyaviy boshqaruvni amalga oshiruvchi barcha tashkiliy strukturalar majmuasi moliyaviy apparat deb ataladi.

Moliyaviy boshqaruv quyidagi funksional elementlardan tashkil topadi:

- rejalashtirish – har qanday subyekt rejalashtirish jarayonida o'zining moliyavaiy holatini baholaydi va moliyaviy resurslarni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlaydi. Rejalashtirish jarayonidagi boshqaruv qarorlari moliyaviy axborotlar tahlili asosida qabul qilinadi.

- operativ boshqarish – moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash yordamida xarajatlarni minimumdan maksimal qanoatlantiruvchi ko'pni ko'zlovchi hamda operativ tahlil asosida ishlab chiqiladigan tadbirlar kompleksini o'zida aks ettiradi.

-nazorat – boshqarish elementi sifatida rejalashtirish va operativ boshqarish jarayonida amalga oshiriladi. Uning yordamida rejalash-tirilgan moliyaviy resurslardan foydalanish prognoz ko'rsatkichlarini haqiqiy natijalar bilan solishtiradi.

Moliyani boshqarishning funksional elementlari ichida asosiy o'rinni rejalashtirish tashkil qiladi.

Moliyaviy rejalashtirishning obyekti bo'lib xo'jalik subyektlari va davlatning moliyaviy faoliyati hisoblanadi. Har bir xo'jalik subyekti moliyaviy rejasini tuzadi, ya'ni bu alohida muassasaning smeta

CamScanner yordamida skanerlangan

xarajatlaridan tortib to davlatning yig'ma moliyaviy balansigacha qamrab oladigan muhim jarayondir.

Rejalashtirish, bir qator o'zining xususiyatli jihatlariga ega bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

- ma'lum tartibga solingan jarayonligi;
- axborotlarni qayta ishlash bilan bog'liqligi;
- aniq belgilangan maqsadga yo'naltirilganligi;
- vaqtinchalik tavsifga egaligi.

Rejalashtirish deganda – miqdoriy va sifat tavsifidagi ma'lum bir maqsadlarni o'rnatish va unga erishishning samarali yo'lini aniqlash jarayonidir. Moliyaviy reja moliyaviy rejalashtirishning natijasidir.

Moliyaviy rejalashtirish – moliyaviy resurslar va pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishni rejalashtirishdir.

Moliyaviy reja – davlat, xo'jalik subyektlari daromad va xarajatlarini bog'lovchi, oldindan qo'yilgan moliyaviy maqsadlarga erishish usullarini tavsiflovchi hujjatdir. Moliyaviy rejalashtirish jarayonida korxonaning moliyaviy maqsadlari aniqlanadi, korxonaning joriy moliyaviy holatiga o'rnatilgan maqsadlarning muvofiq kelish darajasi o'rganiladi, o'rnatilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ketma-ketligi shakllantiriladi.

Moliyaviy rejalashtirish bir nechta uslublarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shulardan asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ekstrapolyatsiya usuli;
- normativ usuli;
- matematik modellashtirish usuli.

Ekstrapolyatsiya usulining mohiyati shundaki, o'tgan hisobot davrining moliyaviy natijalaridan xulosa chiqarib kelgusi hisobot yili uchun moliyaviy rejani tuzishni ko'zda tutadi. Moliyaviy ko'rsatkichlarning prognoz va rejali hisob kitoblari turli usullardan foydalanishga asoslanadi. Ekstrapolyatsiya usuli moliyaviy ko'rsatkichlar va ularnig dinamik o'zgarishlariga asoslanadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar hisobot yilidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi.

Normativ usulda, belgilangan norma va normativlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Masalan: byudjetdan moliyalashtiriladigan ta'lim muassasalarida o'quvchilar kontingenti va h.k.

Matematik modellashtirish usulida real iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni takrorlovchi moliyaviy modellar tuzish orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy resurslarni manbalarini ulardan foydalanish bilan

CamScanner yordamida skanerlangan

muvofiqlashtirish asosidagi rejalashtirish jarayoni balans usuli hisoblanadi.

Situatsion tahlil va bashorat qilish usuli asosida qattiq yoki funksional determinatsiyalashgan bog'liqlikni o'rganishga mo'ljallangan model yotadi. Bu modeldan foydalanish va unga turli omillar: realizasiyadan tushum, aktivlarning aylanuvchanligi, tashqi manbalarga moliyaviy bog'liqlik darajasi kabi ko'rsatkichlar ta'siri ostida bashorat ko'rsatkichlarini aniqlash bilan - xususiy kapital rentabelligining bashorat ko'rsatchiklarini aniqlash mumkin.

Rejalashtirilayotgan loyiha bo'yicha mumkin bo'lgan natijalarning bashorati quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$\frac{n}{k=1} Pk = 1 \qquad (1)$$

(1)formula orqali asosiy mezonlar aniqlanadi (masalan, kutilayotgan foydani maksimallashtirish).

$$\mathbf{N\ E(R)=\Sigma\ Rk*Pk \quad max;} \qquad (2)$$

k=1

Mazkur formula orqali korxona uchun ma'lum mezonlar asosida samarali muqobil variantlar tanlab olinishi mumkin.

Korxonalar moliyaviy boshqaruv tizimining funksional modelida tahlil muhim funksionlar seksiyalardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishning quyidagi usullari mavjud:

- hisobotni o'qish va absolyut ko'rsatkichlarni tahlil qilish;
- gorizontal tahlil;
- vertikal tahlil;
- trend tahlili;
- moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili.

Ushbu tahlil usullari vositasida korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining holati va dinamikasi kompleks baholanadi.

Moliyaviy tahlil tizimida ishlatiladigan asosiy moliyaviy koeffitsiyentlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

Likvidlik koeffitsiyenti korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qaytara olish qobiliyatini ko'rsatib beradi.

Ishbilarmon faollik koeffitsiyenti korxonalarning mavjud resurslaridan samarali foydalanishlarini ko'rsatib beradi.

Rentabellik koeffitsiyentlari korxonalarning faoliyatini moliyaviy natijalarining samaradorligini ko'rsatib beradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Kapitallar strukturasi koeffitsiyenti korxonalarning uzoq muddatli majburiyatlarini qaytara olish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Bozor faolligi koeffitsiyenti esa korxonalarning investorlar uchun foal qiluvchanligini ko'rsatib beradi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Moliyaviy bashoratlash (prognozlashtirish) haqida nimalarni bilasiz?
2. Moliyaviy tartibga solish deganda nimalarni tushunasiz?
3. Moliyaviy nazoratni o'rni?
4. Moliyaviy qonunlarni (qonunchilikni) qabul qilishda nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Moliyaviy resurslarni jalb qilishga ta'sir etuvchi omillar?
6. Moliyaviy boshqaruvining barcha tizimi nimaga asoslanadi?
7. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik prinsiplari, konkret metodlari va shakllari?
8. Moliyaviy boshqaruvning funksional elementlari?
9. Davlat moliyaviy salohiyatining shakllanish asoslari va tarkibiy bo'g'inlari.
10. Davlat va mahalliy moliyaning mazmuni. (maxalliy xokimiyat...)
11. Moliyaviy munosabatlarning vujudga kelishini obyektiv shart-sharoitlari?
12. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati; nodavlat moliyaviy nazorati deganda nimani bilasiz?

CamScanner yordamida skanerlangan

6-MAVZU: MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISH

Reja:

1. Moliyaviy rejalashtirish haqida tushuncha.

2. Moliyaviy bashoratlash.

3.Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari.

Kalit so'zlar: moliyaviy taktika, rejalashtirish, moliyaviy apparat, moliyaviy rejalashtirish.

1. Moliyaviy rejalashtirish

Har qanday iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirishdir. Iqtisodiy adabiyotlarda, umumiy shaklda rejalashtirish istiqbolga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish bo'yicha faoliyat deb talqin qilinadi.

"Rejalashtirish" tushunchasining ma'no-mazmunini yanada umumiyroq bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishning obyektiv zarurligi va imkoniyatini anglatuvchi "rejalilik" orqali aniqlash mumkin. Haqiqatdan ham rejalashtirish amaliyotda rejalilikni amalga oshirishni, ya'ni balanslilik (muvozanat) va proporsionallilikka (mutanosiblikka) erishish bo'yicha ongli faoliyatni bildiradi. Shu ma'noda, moliyaviy resurslarning balansliligini (muvozanatini) va proporsionalliligini (mutanosibligini) ta'minlashga qaratilgan faoliyatga moliyaviy rejalashtirish deyiladi.

Bunda balanslilik (muvozanat) davlatning ixtiyorida bo'lgan moliyaviy resurslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyorida (qo'lida) qolgan daromadlar o'rtasidagi optimal nisbatni bildiradi. Proporsionallik (mutanosiblik) esa korxonalar, xo'jalik tarmoqlari, mintaqalar va davlat subyektlari bo'yicha daromadlarning soliq to'languncha va soliq to'langandan keyingi o'lchamlari (miqdorlari) o'rtasidagi oqilona nisbatdan iborat. Ana shu nisbatni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali davlat ularning rivojlanishini rag'batlantirish yoki cheklab qo'yishi mumkin.

Umumiy va oddiy ko'rinishda, moliyaviy rejalashtirish deyilganda moliyaviy rejalarni tuzish va amalga oshirish jarayoni nazarda tutiladi. Moliyaviy rejani, huddi uni ishlab chiqish, yaratish yoki tuzish jarayoni kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni ijodiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'zaro bog'lash tizimi sifatida qarash kerak. Amaliyotda tez-tez

CamScanner yordamida skanerlangan

foydalaniladigan rejalashtirish ma'lumotlarini, masalan, korxona faoliyatining shakliy modelini ishlab chiqish va shu asosda moliyaviy ko'rsatkichlarning rejali tizimini aniqlashni, moliyaviy rejalashtirishning ishchi sxemasi sifatida qarash mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, moliyaviy rejalashtirish jarayonida u yoki bu subyekt faoliyat ko'rsatishi moliyaviy ta'minlanishining hayotchanligini oshiruvchi noshakliy omillar inobatga olinishi kerak.

"Moliyaviy rejalashtirish" tushunchasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- taraqqiyotning asosiy tendensiyalarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish;
- jalb qilingan mablag'lar va vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirish menejmenti;
- firma ichidagi moliyaviy natijalar va pullarni rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish texnologiyasi;
- investision menejment;
- kapitallar menejmenti;
- faoliyatning boshqa ko'rinishlari (trast, faktoring, lizing va boshqalar).

Bozor munosabatlariga o'tilganiga qadar moliyaviy rejalashtirishning mazmuni korxonalarda sof operativ vazifalarni – markazlashtirilgan iqtisodiyot amal qilganligi uchun yetarli darajada formal bo'lgan korxonalarning besh yillik moliyaviy rejalaridagi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, istiqbolga mo'ljallangan rejalarning loyihasini baholash, korxonaning yillik moliyaviy rejalarini tuzish kabilarni hal etishga qaratilgan edi. Bunday amaliyotning hukm surganligi korxona moliyaviy xizmatlarining obro'yiga obro' qo'shmas, chunki ularga hech narsa bog'liq emas edi.

Hozirgi sharoitdagi moliyaviy rejalashtirish barcha zaruriy harakatlarni oldindan ko'zda tutishgina (ko'ra bilishgina) emas. Bu tegishli ishlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday kutilmagan holatlarni ko'ra olish qobiliyati hamdir. Albatta, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatidagi barcha risklarga barham beraolmaydi. Lekin u ana shu risklarni samarali oldindan ko'ra bilish yordamida boshqarish imkoniyatiga ega.

Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida quyidagi asosiy metodlardan foydalanish mumkin:

- iqtisodiy tahlil metodi;
- normativ metod;
- balansli hisob-kitoblar va pul oqimlari metodi;

CamScanner yordamida skanerlangan

- ko'p variantlilik metodi;
- iqtisodiy-matematik modellashtirish metodi;
- va boshqa metodlar.

Moliyaviy rejalashtirish mamlakat milliy xo'jaligini rejalashtirishning tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy rivojlanish rejasining ko'rsatkichlariga tayanadi, moliya tizimi barcha organlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirishga (koordinatsiya qilishga) yo'naltiriladi. Moliya tizimi alohida bo'g'inlarining nisbiy mustaqilligi quyidagilarni o'zida aks ettiruvchi moliyaviy rejalarning ishlab chiqilishi zarurligini belgilab beradi:

- pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish shakllari va metodlarining o'ziga xosligi;
- moliyaviy resurslarni tarmoqlar va hududlar bo'yicha qayta taqsimlash.

Moliyaviy rejalashtirishning bosh obyekti rejada o'zining miqdoriy ifodasini oladigan moliyaning bo'g'inlari(moliyaviy munosabatlar) hisoblanadi. Pul fondlari mablag'larining harakati yagona tizimga birlashtirilgan tegishli moliyaviy rejalarda ifodalanadi va mustahkamlanadi.

Moliyaviy rejalar tizimining markazini byudjet rejasi egallaydiki, unda byudjet fondining harakati, daromadlar va xarajatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishning shakllari va metodlari, daromad va xarajatlarning tarkibiy tuzilishi va tuzilmasi o'zining miqdoriy ifodasini topadi.

Nobyudjet fondlarning harakati, mos ravishda, Pensiya fondi, sug'urta fondi, tibbiyot sug'urtasi fondi, yo'l fondi, aholi bandligi davlat fondi kabilarning moliyaviy rejalarida (smetalarida), ularning daromadlari va xarajatlarida o'z aks ettiriladi. Ularning daromadlar qismida yuridik shaxslarning majburiy va ixtiyoriy badallari ifodalanadi. Nobyudjet fondlarga qisman byudjet mablag'lari tushishi, mablag'lar yetishmaganda nobyudjet fondlari bir-birlaridan qarzga mablag'lar olishi mumkin. Shunday qilib, nobyudjet fondlari bir-biri va byudjet fondi bilan chambarchas bog'liqdir.

Sug'urta fondi butun jamiyat, alohida mintaqalar, hududlar va fuqarolar masshtabidagi yo'qotmalarni tiklash uchun kerak bo'ladi. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning ehtiyojlarini hisobga olish uchun sug'urta fondi ham rejali tarzda shakllantiriladi va undan foydalaniladi. Bu yerdagi moliyaviy rejaning daromadlar qismida korxona, tashkilot va alohida fuqarolarning badallari, boshqa fondlardan (byudjet yo'nalishidagi)

CamScanner yordamida skanerlangan

mablag'larning tushishi, xarajatlar qismida esa tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlarni qoplash, sug'urtalanganlarga sug'urta to'lanmalari so'mmasini to'lash kabilar aks ettiriladi. Sug'urta fondini shakllantirish va undan foydalanishning rejasi mablag'larning yanada samaraliroq foylanilishiga imkon beradi.

Moliyaviy rejalashtirishning umumdavlat va hududiy darajalariga istiqboldagi (istiqbol uchun mo'ljallangan) moliyaviy rejalar, moliyaviy balanslar va shuningdek, aholi daromadlari va xarajatlari harakatining balansini ishlab chiqish va amalga oshirishlar kiradi.

Istiqboldagi (istiqbol uchun mo'ljallangan) moliyaviy rejalashtirish iqtisodiy va taraqqiyot hamda moliyaviy siyosatni muvofiqlashtirishni (koordinatsiya qilishni) ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqiladigan islohotlar, dasturlar va qonunlarning moliyaviy oqibatlarini kompleks tarzda bashoratlash, uzoq muddatli salbiy tendensiyalarni kuzatish va ularga nisbatan tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Odatda, istiqboldagi (istiqbol uchun mo'ljallangan) moliyaviy rejalar navbatdagi uch yil uchun ishlab chiqilib, uning birinchi yili uchun byudjet tuziladi, navbatdagi ikki yil reja davri hisoblanib, ular davomida e'lon qilingan iqtisodiy siyosatning haqiqiy natijalari kuzatiladi. Istiqboldagi (istiqbol uchun mo'ljallangan) moliyaviy rejalar mamlakat, uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari iqtisodiy rivojlanishining aniqlashtirilgan o'rta muddatli bashoratining ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda har yili o'zgartirilishi (korrektirovka qilinishi) mumkin. Reja davri esa, bunda yana bir yil oldinga suriladi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning proporsionalligi va balansliligini ta'minlashda, pul muomalasini tartibga solishda davlatning yig'ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) va har bir ma'muriy-hududiy tuzilmalarning daromadlar va xarajatlar balansi muhim o'rinni egallaydi. Davlatning yig'ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) mamlakat, uning subyektlari. mahalliy-hududiy tuzilmalari va ma'lum hududda faoliyat ko'rsatayotgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha daromadlari va xarajatlarining jamidan iboratdir. U o'tgan yilgi davlatning hisobot yig'ma moliyaviy balansi (hisobot moliyaviy resurslar balansi) asosida va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining bashorat ko'rsatkichlariga muvofiq ravishda tuziladi hamda ular byudjet loyihalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Bu moliyaviy rejalar (hujjatlar) Moliya vazirligi va moliya tizimining boshqa bo'linmalari faol ishtirokida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. Balansda byudjet fondi, nobyudjet fondlar, sug'urta fondi, kredit fondi, korxona va tashkilotlarning pul fondlari va nihoyat, fuqarolarning pul mablag'lari tarkibida rejalashtirilayotgan resurslarning shakllanishi va ulardan foydalanish aks ettiriladi. Moliyaviy rejalashtirishning balans metodi mamlakat, uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari va mahalliy ma'muriyatlari masshtabida moliyaviy resurslar defitsitini aniqlashga, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida mablag'larni samarali va asosli qayta taqsimlashga imkon beradi. Davlatning yig'ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) mavjud barcha moliyaviy rejalarni yagona tizimga birlashtiradi. Uning ko'rsatkichlari byudjet va kredit rejalarini, shuningdek, boshqa moliyaviy rejalarni tuzishda asos sifatida qabul qilinadi.

Boshqa bir sintetik balans – aholi daromadlari va xarajatlarining balansi – davlatning yig'ma moliyaviy balansi (moliyaviy resurslar balansi) bevosita bog'langandir. Unda naqd pulli va naqd pulsiz shakllardagi aholi pul resurslarining harakati o'z ifodasini topadi. Balansda aks ettirilayotgan aholining pul daromadlari o'zining manbasiga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- ish haqi va ish haqiga ustamalar, mukofotlar, safar xarajatlari uchun mo'ljallangan mablag'lar, yollanma ishchilarga (xodimlarga) ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan xarakterdagi to'lanmalar;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, korxonalarning foydasiga ishtirok etish, shaxsiy mulk bilan operatsiyalar va moliya – kredit operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;
- transfertlar – davlat pensiyalari, nafaqalar, stipendiyalar va boshqalar.

Xuddi shuningdek, balansda aks ettirilayotgan aholining pul xarajatlari ham quyidagi guruhlardan iborat bo'ladi:

- iste'mol xarajatlari;
- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va ixtiyoriy badallar;
- pul to'planmalari va jamg'armalar.

Moliyaviy reja hisoblangan ushbu balans aholining daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi proporsiyani aniqlaydi, mehnat haqi va pensiya ta'minotining o'sganligi, tovarlar taklifi hajmining oshganligini ifodalaydi. Shularga muvofiq ravishda, aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi naqd pulli pul aylanmasi, chakana tovar aylanmasi, soliq tushumlari, kredit resurslarini rejalashtirish uchun muhim rol

CamScanner yordamida skanerlangan

o‘ynaydi. Bu balans Moliya vazirligi, Markaziy bank va moliya tizimining boshqa organlari ishtirokida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

2. Moliyaviy bashoratlash

Moliyaviy rejalashtirishni moliyaviy bashoratlashsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. U yoki bu davr mobaynida davlatning mumkin bo‘lgan moliyaviy ahvolini (holatini) oldindan ko‘ra bilish va moliyaviy rejalarning ko‘rsatkichlarini asoslashga moliyaviy bashoratlash deyiladi. Nazariya va amaliyotda moliyaviy bashoratlash ikkiga ajratiladi:

- o‘rta muddatli (5-10 yillik) moliyaviy bashoratlash;
- uzoq muddatli (10 yildan ortiq) moliyaviy bashoratlash.

Moliyaviy bashoratlash moliyaviy rejalarni tuzish bosqichidan oldin sodir bo‘ladi. Unda jamiyatning ma’lum bir davrdagi taraqqiyotiga bag‘ishlangan moliyaviy siyosatning konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Moliyaviy bashoratlashning bosh maqsadi bashoratlanayotgan davrda haqiqatda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan moliyaviy resurslarning real hajmi, ularni shakllantirish manbalari va ulardan foydalanishni aniqlashdan iborat. Moliyaviy bashoratlar moliya tizimi organlariga moliya tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning, moliyaviy siyosatni amalga oshirish shakllari va metodlarining turli-tuman variantlarini belgilashga imkon beradi. Shu ma’noda, moliyaviy bashoratlar moliyaviy siyosatni ishlab chiqishning zaruriy elementi va bir vaqtning o‘zida muhim bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Ular yordamida moliya tizimining barcha subyektlari oldida turgan iqtisodiy vazifalarni yechishning (hal qilishning) turli senariyalari ishlab chiqiladi.

Moliyaviy bashoratlash turli metodlarning qo‘llanilishini taqoza etadi. Ularning eng asosiylari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- iqtisodiy jarayonlarni aniqlaydigan omillarga bog‘liq ravishda moliyaviy reja ko‘rsatkichlarining dinamikasini xarakterlaydigan ekonometrik modelni qurish (yaratish);
- korrelyatsion-regression tahlil;
- bevosita ekspertli baholash metodi.

Shu asoslar aniq shakllantirilgan maqsad va unga erishishning vositalari yotgan dasturli – maqsadli yondashuvdan foydalanadigan moliyaviy rejalashtirishning metodi sifatida moliyaviy dasturlashtirish quyidagilarning bo‘lishini ko‘zda tutadi:

CamScanner yordamida skanerlangan

• yo‘nalishlar bo‘yicha davlat xarajatlarining ustuvorlarini belgilash (o‘rnatish);

• davlat mablag‘lari sarflanishining samaradorligini oshirish;

• muqobil variantning tanlanishiga muvofiq ravishda moliyalashtirishni to‘xtatish.

Dastur variantining tanlanishi, eng avvalo, iqtisodiy omillarga (resurslarga) bog‘liq. Bunda faqat maqsadga erishishning masshtabi, ahamiyati va murakkabligi emas, balki mavjud zahiralarning hajmi, kutilayotgan jami samara, maqsadga erishilmaganda potensial yo‘qotmalar ham hisobga olinadi. Moliyaviy siyosat sohasidagi uzoq va qisqa muddali maqsadlar va choralarni muvofiqlashtirishning muhim metodi sifatida dasturlashtirishdan moliyaviy rejalashtirishning hozirgi amaliyotida faol foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy dasturlashtirish rivojlangan mamlakatlarda o‘tgan asrning 60-yillaridanoq foydalanib kelinmoqda. Uning asosiy mohiyati besh yillik “o‘zgarib turadigan” xarajatlar rejasini tuzish bilan belgilanadi. Har yili joriy yil rejasi ko‘rsatkichlarining kutilayotgan ijrosi asosida reja o‘zgartiriladi (korrektirovka qilinadi). Bunda ko‘rsatkichlar besh yillik shkala bo‘yicha bir yil oldinga (hisobot yilidan keyingi yilga) ko‘chiriladi. Oldinda turgan birinchi yilning reja ko‘rsatkichlari direktiv (majburiy), keyingi to‘rt yillik ko‘rsatkichlar esa mo‘ljalli (oriyentirovkali) xarakterga ega hisoblanadi.

Hozirgi paytda dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ishlab chiqarish maqsadlariga, resurslar va ijrochilar bo‘yicha balanslilikka yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-xo‘jalik va boshqa tadbirlar tizimidan iborat bo‘lgan maqsadli kompleksli dasturlarlardan keng foydalanilmoqda.

Quyidagilar moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

• ishlab chiqarish, investision va moliyaviy faoliyatlarni kerakli bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta’minlash;

• pul mablag‘laridan iqtisod qilib, tejab-tergab foydalanish hisobidan korxonaning foydasini oshirish bo‘yicha ichki rezervlarni qidirib topish;

• kapitalni samarali joylashtirish yo‘llarini aniqlash, undan oqilona va samarali foydalanishni baholash;

• kontragentlar bilan optimal moliyaviy munosabatlarni o‘rnatish;

• korxonaning moliyaviy ahvoli, to‘lovga qobilligi va kreditga layoqatliligi ustidan nazorat o‘rnatish.

Umuman olganda, moliyaviy rejalarning ko‘rsatkichlari davlatning moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun boshlang‘ich material hisoblanadi,

CamScanner yordamida skanerlangan

istiqboldagi (istiqbol uchun) rejalashtirishning informasion asosi bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy rejalar tizimi moliyaviy resurslar manbalarining (jismoniy va yuridik shaxslar daromadlari) tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarning obyektiv ravishda o'zaro bog'liqligi va uzoq muddatli tendensiyalarini, shuningdek, kelajakda bu tendensiyalar rivojlanishiniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlashga imkon beradi.

3. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari

Moliyaviy rejalashtirish jarayonining quyidagi asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini tadqiq etish;
- operativ rejalarning o'zgarishi asosida moliyaviy hisobotlarning bashorat variantlarini ishlab chiqish;
- o'z reja topshiriqlarining bajarilishini ta'minlash uchun xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarga bo'lgan konkret ehtiyojlarini aniqlash;

Moliyaviy rejalashtirishning ikki turi bo'lishi mumkin:

- strategik moliyaviy rejalashtirish;
- joriy moliyaviy rejalashtirish.

Strategik moliyaviy rejalashtirish o'z ifodasini strategik moliyaviy rejalarda topadiki, u tashqi va ichki muhitda o'zgarayotgan xo'jalik yuritish subyekti moliyaviy taraqqiyotining ko'p variantli bashoratidan iboratdir.

Strategik moliyaviy reja, hech bo'lmaganda, quyidagi savollarga aniq javob bermog'i lozim:

- xo'jalik yurituvchi subyekt uchun talab qilinadigan kapitalning o'lchami qanday, u qaysi manbalar hisobidan va qanday muddatlarda jalb qilinadi?
- bu kapitaldan qanday qilib foydalaniladi?
- o'z kuchiga ishongan holda xo'jalik yurituvchi subyekt rivojlanishi mumkinmi? Agar yo'q bo'lsa, moliyaviy resurslarni jalb qilishning manbalari qanday?
- xo'jalik yurituvchi subyekt pul mablag'lari tushumi, ishlab chiqarishning rentabelligi va investitsiyalar daromadligining qanday darajalariga chiqishi mumkin va qay muddatlarda?

O'z navbatida, joriy moliyaviy rejalashtirishning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

CamScanner yordamida skanerlangan

- ishlab chiqarish, investitsion, marketing, ilmiy-loyihaviy va qidiruv faoliyatlarini hamda loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning hajmi va ularning manbalarini aniqlash;
- mahsulotni (ishni, xizmatni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish tannarxini rejalashtirish;
- pul oqimlarini rejalashtirish;
- butun xo'jalik yurituvchi subyekt doirasida foydani rejalashtirish (bashoratlash);
- investitsiyalarning daromadliligini rejalashtirish.

Ma'lum bir muddatni qamrab olishiga qarab, moliyaviy rejalar quyida ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- uzoq muddatli moliyaviy rejalar;
- qisqa muddatli moliyaviy rejalar.

Uzoq va qisqa muddatli moliyaviy rejalar bir-birlaridan nafaqat o'zining qamrab olish gorizonti bo'yicha, balki rejalashtirish maqsadlariga ko'ra ham farqlanadi. Agar uzoq muddatli moliyaviy rejalarning (rejalashtirishning) bosh maqsadi moliyaviy barqarorlik nuqtai-nazaridan firma kengayishining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan sur'atlarini aniqlash bo'lsa, qisqa muddatli moliyaviy rejalarning (rejalashtirishning) bosh maqsadi firmaning doimiy to'lovga qobilligini ta'minlashdan iboratdir.

Alohida olingan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy rejasi unga tegishli bo'lgan biznes-rejaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda marketing, operativ faoliyat, mulkka egalik huquqi va korxona faoliyat ko'rsatishining boshqa yo'nalishlari (aspektlari) qiymat ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Moliyaviy reja korxona butun faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlashning instrumenti sifatida maydonga chiqadi va bir vaqtning o'zida, shu faoliyatning moliyaviy natijalarini xarakterlaydi. Biznes-rejaning tarkibida moliyaviy reja quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqiladi:

- bozorlarni va ko'zda tutilayotgan sotuvlar hajmini o'zlashtirishning loyihaviy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;
- tannarxning turli ko'rinishlarini (to'liq, ishlab chiqarish, to'g'ri va boshqalar) hisob-kitob qilish. Bu yerda marketing tadqiqotlari, reklama, bozorlarni o'zlashtirish xarajatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi;
- pul mablag'larining yillik oqimini loyihalashtirish va moliyaviy natijalarni aniqlash. Bu tushumlarning kelib tushishi, debitorlik va

CamScanner yordamida skanerlangan

kreditorlik qarzlarining o‘zgarishi, moliq to‘lovlarini optimallashtirish va boshqalar bo‘yicha dinamikalarning bashorat qilinishini taqoza etadi;

- zaruriy investisiyalarning hajmi, ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha moliyaviy resurslarning hajmi, ularning samaradorligi va foydaga ta’sirini aniqlash;
- va boshqalar.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlarini ajratib ko‘rsating.
2. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida qaysi asosiy metodlarini foydalanishimiz mumkin?
3. Moliyaviy rejalashtirish haqida tushuncha, uning mohiyati. (Taktika, strategiya...)
4. Moliya tiziminining soha va bo‘g‘inlarini tavsiflang.
5. Hozirgi sharoitda Davlat byudjeti o‘z oldida turgan qanday muammolarni hal etishi kerak?
6. Moliya tizimi deb nimaga aytiladi va unga nisbatan qanday ta’riflarni berish mumkin?
7. Moliya tizimi qanday sohalarga bo‘linadi?
8. Moliyaviy rezyervlarni izlab topish va ularni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari?
9. Moliyaviy rezyervlarni shakllantirish omillari tizimi bilasizmi?
10. Moliyaviy salohiyat o‘sishining omillari ko’rsating.
11. Yuqori byudjetdan quyi byudjetga qanday xat yuboriladi moliyaviy rejalashtirishga taaluqli?
12. Har bir moliyaviy organ harajatlar smetasini qancha muddatga aniqlashi lozim?
13. Moliyaviy rejalashtirish bo’limlari qaysi muddatlar uchun moliyaviy reja tuzadilar?
14. Harajatlar smetasi nima uchun tuzuladi?
15. Harajatlar smetasi qaysi tashkilotlar uchun taaluqli emas?

CamScanner yordamida skanerlangan

7-MAVZU: MOLIYAVIY NAZORAT

Reja:

1. Moliyaviy nazoratning mohiyati
2. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar
3. Moliyaviy nazoratning turlari
4. Nodavlat moliyaviy nazorat

Kalit so'zlar: moliyaviy nazorat, moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar, dastlabki nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat, kuzatish, tekshirish, taftish, tahlil, reviziya.

1. Moliyaviy nazoratning mohiyati

Nazorat – jamiyat iqtisodiy hayotidagi obyektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat – butun nazorat tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uning yo'nalishi davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, tarmoqlar iqtisodiyotidagi barcha soha va tarmoqlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanishga qaratiladi.

Moliyaviy nazorat – moliyaning nazorat funksiyasini amalga oshirish hamdir. Moliyaviy nazoratning mazmuni va yo'nalishi jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining o'zgarishidan kelib chiqqan holda o'zgarib turadi. Korxonalarning xo'jalik yuritish imkoniyatlarining kengayishi, moliyaviy mustaqilligi, tadbirkorlikning turli shakllarining vujudga kelishi moliyaviy nazoratning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu maxsus shakl va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqaruv organlarining moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tekshirishga qaratilgan harakatlar va taftishlar yig'indisidir. Moliyaviy nazorat tizimi subyektlar (nazorat qiluvchilar), obyektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlab, o'z ichiga oladi. Ular nazorat obyektining holatini, ijroning kutilgan natijalarini aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash, tuzatish kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar yo'sinini ishlab chiqish uchun yaxlit uyg'unlikda hamkorlik qiladi.

Moliyaviy nazorat – tarmoqlar iqtisodiyotidagi nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, u qiymat kategoriyasi bilan bog'liqdir. Moliyaviy nazorat ma'lum bir sohalarda qo'llanilib, o'ziga xos maqsadli yo'nalishga ega bo'ladi. Moliyaviy nazoratning obyektiga moliyaviy resurslarning

CamScanner yordamida skanerlangan

harakati, shakllanishi hamda foydalanishdagi taqsimlash va pullik jarayonlar shuningdek, tarmoqlar iqtisodiyotining barcha bo'g'inlaridagi fond shaklidagi pul resurslari ham kiradi.

1. Moliyaviy nazorat – kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda moliyani muhim rolining bir ko'rinishidir.

2. Moliyaviy nazorat davlat boshqaruv organlari faoliyatining ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

3. Moliyaviy nazorat – boshqaruvning tartibga solish, rejalashtirish, hisob-kitob va xo'jalikni yurituvchi subyekt faoliyatining tahlili singari mustaqil vazifasidir.

4. Taqsimlash munosabatlari orqali moliyaviy nazorat ishlab chiqarish, ayirboshlash, muomala va iste'mol munosabatlariga tatbiq etiladi.

Moliyaviy nazorat – moliyaviy, kredit va xo'jalik organlari (tashkilotlari)ning rejalarning bajarilish jarayonida moliyaviy, byudjet, soliq, kredit, hisob-kitob va kassa intizomini ta'minlashga qaratilgan va pul xarajatlarining qonuniyligi, asosliligi va oqilonaligini tekshirishdan iborat qonun me'yorlari bilan tartibga solinuvchi faoliyatidir.

Moliyaviy nazoratning vazifasi yo'l qo'yiladigan chetga chiqish me'yorlarini malakali belgilashdan iborat, qolgan barcha chetga chiqishlarni qayd etish va bartaraf qilish talab qilinadi. Boshqaruvning ichki va tashqi xo'jalik jarayonlarini kuzatish, tekshirishni amalga oshirar ekan, nazorat bozor iqtisodiyotida, bu harakatlarning hammasi faqat samarali boshqarish uchun foydali bo'lgandagina mavjudlik huquqiga egadir.

Moliyaviy nazorat deganda – nazorat vazifalari yuklatilgan davlat va jamoat organlarining korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning moliya-xo'jalik faoliyatini iqtisodiy samaradorligini holis baholash maqsadi bilan bu faoliyat ustidan nazoratning ko'p tomonlama tarmoqlardagi tizimini, xo'jalik va maqsadga muvofiqligini aniqlashni hamda davlat byudjeti daromadlarining rezervlarini aniqlashni tushunmoq kerak.

Eng muhim jihati nazorat davomida belgilangan moliyaviy qonunchilik me'yorlaridan chetlanish va buning natijasida keltirilgan zararlarni aniqlash nazoratning mohiyatini belgilab beradi. Bu jarayonda:

– qonun nuqtai nazaridan nazorat qilinayotgan obyektning joriy holati va kutilayotgan darajasi va yo'l qo'yiladigan daraja bilan qiyoslanadi;

CamScanner yordamida skanerlangan

– harakatlar, xarajatlar, natijalar, standartlar, rejalashtiri- layotgan yoki zarur ma'lumotlar bilan qiyoslanadi;

– qo'llangan va huquqiy cheklashlar bilan amalga oshirilgan harakatlar qiyoslanadi;

– kutilayotgan va haqiqiylari oqilona va maqsadga muvofiqlari bilan qiyoslanadi;

– boshqa qiyoslashlar ham amalga oshiriladi.

Nazoratning mohiyati va nazorat qiluvchi shaxsning ish usuli shundan iborat. O'tkazilgan qiyoslashlardan ish manfaatiga xizmat qiladigan va hatto aybdorlarni jazolash uchun baholash xulosalari chiqarish nazoratni boshqarishning boshqa vazifalaridan farqlaydigan maqsadi shu.

Shunday qilib, moliyaviy nazorat – davlat tomonidan tashkil etishni nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat organlari tomonidan hukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir. Davlat byudjetini shakllantirish va sarflashdagi rezervlarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik tamoyillaridan chetga o'tish va ularni buzishlarni aniqlash nazorat tizimi vazifasiga kiradi.

Nazorat maqsadi – tuzatish choralarini ko'rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va bularning oldini olishdan iborat.

Davlat moliya nazoratini umumdavlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda, alohida vazirliklar orqali ham amalga oshiradi. Umumdavlat boshqaruv organlari moliya nazoratini amalga oshirayotganda, mamlakat hududidagi xo'jalik subyektlarining mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysinishidan qat'i nazar barchasini qamrab oladi. Vazirliklar tomonidan amalga oshirilayotgan moliya nazoratini faqat o'zlarining tarkibidagi maxsus nazorat-taftish organlari amalga oshiradi. Ularning tekshirish obyektlari esa, vazirliklar tarkibidagi korxonalar, konsernlar, assotsiatsiyalar va aksionerlik jamiyatlarining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan iborat bo'ladi.

Korxona ichidagi moliya nazoratini korxona, tashkilot va muassasa ichida tashkil qilingan iqtisodiy xizmat (buxgalteriya, moliya bo'limi)lari amalga oshiradi. Nazorat obyekti esa, alohida korxonaning moliya va ishlab chiqarish jarayoni hamda alohida korxona tarkibiga kiruvchi tuzulmaviy bo'lim (filial, shaxobcha, bo'lim)lar hisoblanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Jamoat moliya nazoratini alohida guruh, alohida jismoniy shaxslar (mutaxassislar) ixtiyoriy va mehnat haqi talab qilmaslik sharti asosida amalga oshiradi. Nazorat obyekti bo'lib, tekshiruvchi oldida turgan muayyan vazifalar nazarda tutiladi.

Mustaqil (auditorlik) moliya nazoratini maxsus audit firmalari va xizmatlari amalga oshiradi.

Bevosita tekshirish moliyaviy ko'rsatkichlar tarkibiga kiruvchi foyda, daromad, bevosita va bilvosita soliqlar, rentabellik, mahsulot tannarxi, muomala xarajatlari, turli xil maqsadlar va fondlarga ajratmalar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar uyg'unlashgan xarakterga ega bo'ladi, shuning uchun nazorat xo'jalik yurituvchilarning ishlab chiqarish, xo'jalik yuritish, tijorat hamda moliya-kredit mexanizmidagi o'zaro bog'liqlikni barcha tomonlarini qamrab oladi.

Moliyaviy nazorat quyidagi tekshirishlarni o'zida aks ettiradi:

- obyektiv iqtisodiy qonunlar talabiga rioya etish;
- milliy daromad va yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlashdagi optimallikni ta'minlash;
- davlat byudjeti daromadlarini tashkil etish va ijrosi (byudjet nazorati)ni ta'minlash;
- korxona, tashkilot va byudjet muassasalarida moliyaviy, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish;
- xo'jalik subyektlarining moliyaviy holati va soliq nazorati.

Moliyaviy nazoratning oldida hal qilinishi lozim bo'lgan quyidagi vazifalar turadi:

– tarmoqlar iqtisodiyotidagi pul daromadlari va fondlari bilan moliyaviy resurslarga bo'lgan talab o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir o'tkazish;

– davlat byudjeti oldidagi moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liqligicha bajarilishini ta'minlash;

– moliyaviy resurslarni yuksaltirishda ichki ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash;

– tannarxni pasaytirish hisobiga rentabellikni oshirish yo'llarini ko'rsatish;

– xo'jalik subyektlarining pul resurslari va moddiy boyliklarini maqsadga muvofiq obyektlarga sarflashga ta'sir qilish, shuningdek, buxgalteriya hisobi va hisobotini to'g'ri yurgizish;

– harakatdagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga rioya qilishni ta'minlash, shuningdek, turli xil mulk shaklidagi korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish uchun takliflar berish;

CamScanner yordamida skanerlangan

– korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyati va valyuta operatsiyalaridan yuksak iqtisodiy samara olishga shart-sharoit yaratish va shu kabilar.

Moliya intizomiga rioya qilish uchun moliyaviy nazorat korxona, tashkilot va muassasalar javobgarligi bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Bunday javobgarlik moliya intizomini buzgan shaxsga nisbatan, ham ma'muriy ko'rinishda, ham iqtisodiy usulda bo'lishi mumkin, iqtisodiy usul bilan ta'sir ko'rsatish muayyan moliyaviy jazo choralari (sanksiyalari) orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy javobgarlikni kuchaytirish, bir tomondan, moliyaviy nazoratning ta'sirini yuksaltirishda qo'llanilayotgan moliyaviy sanksiyalar miqdorini kamaytirishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, ularning samaradorlik darajasini oshirishni talab etadi.

Moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari mavjud:

Dastlabki moliyaviy nazorat – yuridik va jismoniy shaxslarning moliya xo'jalik jarayonini yurgizishda muhim ahamiyat kasb etib, u korxona moliya rejasini tashkil qilishda, ko'rib chiqishda va tasdiqlashda, muassasa va tashkilotlarning daromadlar va xarajatlar smetasi, ta'sis hujjatlarini imzolashdan oldin amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayonlar tartibidir. Shunday qilib, dastlabki nazorat moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ijobiy shart-sharoit yaratib beradi. Moliyaviy nazoratning bu shakli amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Joriy moliyaviy nazorat – korxonalarning ichki xo'jalik rezervlarini izlash hisobidan jamg'armani oshirishga ta'sir qiladi. Joriy moliya nazorati korxona, tashkilot va muassasalarning moliya xizmatlari orqali moliya rejasi bajarilayotganda, moliyaviy intizomlar buzilishining oldini olish maqsadida kundalik tadbirlarni amalga oshiradi.

Yakuniy moliyaviy nazorat – hisobot davri va butun moliya yili davomida so'ng amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisidir. Bunda, byudjetni ijro etishdagi davlat pul resurslarini maqsadga muvofiq xarajat qilinganligi, korxona va tashkilotlarning moliya rejasini bajarganligi hamda byudjet muassasalari smetasining bajarilish natijalari tekshiriladi. So'nggi moliya nazorati dastlabki moliyaviy nazorat shakli bilan o'zaro bog'liqlikdadir, chunki so'nggi nazorat dastlabki moliya nazorati bazasida amalga oshiriladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar

Davlat moliyaviy nazorati barcha darajadagi qonunchilik va ijroiya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Byudjet jarayonining barcha basqichlarida Parlament moliyaviy nazorati tegishli qo'mitalar va komissiyalar vakolatiga kiradi. Oliy Majlis tomonidan tashkil etilgan va unga bo'ysunuvchi, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi davlat moliyaviy nazorat organi O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi hisoblanadi. Uning faoliyati mulkchilik shaklidan, idoraviy va ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga, davlat byudjeti mablag'lariga tayanadigan, davlat mulkini boshqaradigan yoki soliq, bojxona yoki boshqa imtiyozlarga ega bo'lgan jamoat tashkilotlariga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi xodimlari tekshirishlar natijalari bo'yicha xulosalarini tayyorlaydilar va ularni tekshirilgan tashkilotlar rahbarlariga qonun buzilishlarini bartaraf qilish bo'yicha choralar ko'rish uchun yuboradilar. Agarda, davlat mablag'lariga niyonat aniqlansa, ish huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiriladi. Qonun buzarliklar aniqlanganda majburiy bajariladigan ko'rsatmalar beriladi. Bir necha martalik qonun buzarliklar sodir etilganida, Oliy Majlis bilan kelishilgan holda, tashkilotning barcha turdagi hisob-kitoblarini to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Bunda Hisob palatasiga qonun buzarlarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qo'llash huquqi berilmagan.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi muhim organ O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi hisoblanadi. Uning zimmasiga byudjetni shakllanishi va bajarilishi, davlat mablag'larini sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilgan. Moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi muhim rol uning huzuridagi o'zining hududiy organlariga ega bo'lgan Nazorat-taftish Bosh boshqarmasiga (NTBB) topshirilgan. Uning asosiy vazifasi – byudjet mablag'laridan, davlat mulkidan, davlat tomonidan taqdim etiladigan soliq va byudjet imtiyozlaridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek byudjet ssudalarini maqsadli sarflash va o'z vaqtida qaytarish ustidan nazorat olib borish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish Bosh boshqarmasining asosiy vazifalari quyidagilar:

– Respublika va mahalliy byudjetlarning qat'iy bajarilishi ustidan doimiy nazoratni ta'minlash;

CamScanner yordamida skanerlangan

– tijorat banklarini moliya organlari, byudjet muassasalarining birinchi navbatdagi sarf-xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash hamda byudjet muassasalari xodimlariga ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalarni to'lash muddatlariga va to'liqligiga rioya qilish, shuningdek byudjet muassasalariga ko'rsatib o'tilgan maqsadlar uchun naqd pul berish bo'yicha faoliyati ustidan nazorat va monitoringni amalga oshirish;

– belgilangan shtat-smeta intizomiga va byudjet mablag'larini xo'jalik ehtiyojlariga sarflash limitlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– hokimiyat va boshqaruv organlari rahbarlari va mansabdor shaxslarning byudjet jarayoniga asossiz aralashish hollarining oldini olish kabi bir qator vazifalar ham nazorat-taftish organlari zimmasiga yuklatilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish Bosh boshqarmasiga amaldagi qonunchilikka asosan, byudjet intizomini buzganlik uchun mansabdor shaxslarni jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortish huquqi berilgan.

Davlat moliyaviy nazorati sohasida amaldagi qonunchilikka rioya etilish qismiga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining va byudjetdan tashqari fondlarining kassa ijrosini nazorat qilish Moliya vazirligining G'aznachiligiga yuklatilgan. G'aznachilik tizimi amaldagi qonunchilikka rioya etilish qismiga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining va byudjetdan tashqari fondlarining kassa ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni olib boruvchi Bosh boshqarma hamda o'zlarining hududlarida davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarga tushumlar va ularni ishlatilishini nazorat qiluvchi hududiy organlardan tashkil topgan. G'aznachilik Moliya vazirligiga qilingan ishlar bo'yicha har kuni axborot berib boradi.

Soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazorat davlat soliq xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzurida Bosh Nazorat-taftish boshqarmasi tashkil etilgan. Bosh boshqarma Qoraqalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmalarida o'z faoliyatida bevosita unga bo'ysunadigan nazorat-taftish bo'linmalariga ega bo'ladi.

Quyidagilar Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini soliqqa oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi yuzasidan hujjatlar asosida

CamScanner yordamida skanerlangan

tekshirish (taftish)larni hamda Hukumat qarorlari bilan nazorat, soliq organlariga yuklangan masalalar bo'yicha nazorat tartibidagi tekshirishlarni belgilangan tartibda tashkil etish va o'tkazish;

– xo'jalik yurituvchi subyektlardan undiriladigan soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarishda, undirishda qonuniylikka rioya qilinishi, to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va byudjetga o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– soliqqa doir huquq buzishlarni aniqlash, ularning oldini olish, ularga barham berish;

– soliq majburiyatlarini bajarishda xo'jalik yurituvchi subyektlarga yordam ko'rsatish;

– Davlat soliq qo'mitasining boshqa bo'linmalari bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyektlarni kompleks tekshirishlarning istiqboli rejalarini tayyorlash, tekshirishlar o'tkaziladigan obyektlarni aniqlash va ularni amalga oshirish;

– hujjatlar asosida va nazorat tartibidagi tekshirishlarni o'tkazish jarayoni hamda tartibi ustidan nazorat o'rnatish, shuningdek, ularni o'tkazishda (barcha darajadagi soliq organlariga) amaliy va metodik yordam ko'rsatish;

– davlat soliq xizmati organlari tomonidan tekshirishlar materiallari bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarorlar qabul qilinishi va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi ustidan nazorat o'rnatish;

– xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hujjatlar asosida va nazorat tartibidagi tekshirishlar yakunlari bo'yicha byudjet oldidagi majburiyatlarning bajarilishi (qo'shimcha hisoblangan so'mmalar, moliyaviy sanksiyalar, ma'muriy jarimalar va shu kabilarning undirilishi) ustidan nazorat o'rnatish;

– hujjatlar asosida va nazorat tartibidagi tekshirishlar natijasida aniqlangan soliq qonunchiligi buzilishlari va boshqa holatlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish va tahlil qilish;

– fuqarolarning soliq qonunchiligi buzilishlari holatlari to'g'risidagi xatlari, shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish.

Davlat bojxona xizmati O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi talablariga muvofiq tovarlarni O'zbekiston bojxona chegarasi orqali harakatlanishi ustidan davlat nazorati sohasida vakolatlarga ega.

Sanab o'tilgan organlardan tashqari davlat moliyaviy nazoratini boshqa qator davlat organlari: O'zR Markaziy banki, Davlat mulkini boshqarish qo'mitasi va boshqalar ham amalga oshiradilar.

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Moliyaviy nazoratning turlari

Moliyaviy nazoratning quyidagi usullari mavjud:

Tekshirish – hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatining alohida masalalari ko'rib chiqiladi. Tekshirish jarayonida moliya intizomining buzilgan nuqsonlari aniqlanadi, natijada, mavjud muammolarni bartaraf etish va salbiy holatlarni takrorlanmasligi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

O'rganish – korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatining alohida tomonlarini qamrab oladi. Tekshirishdan farqli o'laroq, o'rganish ko'rsatkichlarning keng ko'lamini qamrab oladi va xo'jalik subyektining moliyaviy holatini, uni rivojlanish istiqbollarini, ishlab chiqarishni qayta tashkil qilish yoki qayta ixtisoslashuvining zarurligini aniqlab beradi. O'rganish so'rov va anketalar o'tkazish orqali amalga oshirilish mumkin.

Tahlil – moliyaviy nazoratning bir usuli sifatida tizimli va omilli bo'lishi lozim. U davriy yoki yillik hisobotlar orqali bajariladi. Pirovardida, rejaning bajarilish, mablag'larni sarflanish me'yorlariga rioya etilish, moliyaviy intizomga rioya etilish darajalari aniqlanadi.

Taftish – korxona va tashkilotlarning hisobot davridagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun qo'llaniladigan eng muhim usullardan biri hisoblanadi. Amaliyotda har qanday taftishni amalga oshirishdan oldin maxsus dastur qabul qilinib, uning tarkibida taftish maqsadi, obyekti, mavzusi va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan asosiy masalalar aks ettiriladi. Taftishning maqsadidan kelib chiqib, turli xil yondashishlar qo'llaniladi, jumladan, reja va hisobotdagi ma'lumotlarni qiyoslash, naqd pullarni tekshirish, hujjatli va qarama-qarshi tekshirishlar, tovar-moddiy boyliklarni inventarizasiya qilish va shunga o'xshashlar.

Taftish yakunida uni amalga oshirgan mutaxassislar korxonaning ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga kelgan kamchiliklar va muammolarni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar ko'rsatiladigan dalolatnoma tuziladi.

Moliyaviy nazorat uslubini kuzatish, qiyoslash, tahlil qilish, olingan natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish, ayrim faktlardan umumiy xulosaga kelish va umumiy holatdan xususiy xulosalarga kelishni o'z ichiga olgan o'ziga xos uslubiy yo'nalishlar, vositalar yordamida moliya-iqtisodiy axborotni va nazorat obyektining haqiqiy holatini o'zaro bog'liqlikda o'rganish deb tushunish mumkin.

Moliyaviy nazorat usullarini quyidagi guruhlarga tasniflashimiz mumkin:

CamScanner yordamida skanerlangan

– umumuslubiy usullar: taftish, audit, tahlil, mavzuli tekshirish, tadqiq qilish, pirovard natijani dasturiy baholash;

– hujjatlar asosidagi nazorat usullari: rasmiy va arifmetik tekshirish, yuridik baholash, mantiqiy nazorat, muqobil tekshirish, teskari hisob usuli, balans, qiyoslash, hisobotlarning sanoq bahosi;

– dalillar bo'yicha nazorat usullari: ro'yxatga olish, ekspertiza, ko'z bilan kuzatish, nazorat o'lchovi, nazorat tariqasida ishga tushirish, vaqtni aniq o'lchash, ish kuni taqsimlanishini o'rganish, laboratoriya tahlili.

Nazorat samaradorligiga rasmiy va mantiqiy, hujjatlar va faktlar asosidagi tekshirishlar singari xilma-xil usullarni qo'shib foydalanish orqali erishiladi. Tekshirish jarayonida jalb qilinadigan axborot manbalarining to'g'riligini aniqlash, xo'jalik subyektining murakkab vaziyatlardagi yoki noaniqlik sharoitidagi xatti-harakatlarining izchilligini oydinlashtirish, faktik materialni tahlil qilish va umumlashtirish – bularning bari nazoratning turli-tuman usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Hujjatlar, faktlar asosidagi yoki kompyuter yordamidagi uslubiy usullarni tahlil qilinayotgan ma'lumotlar manbalariga ko'ra aniqlash mumkin.

Hujjatlar asosidagi nazorat uchun, xususan, dastlabki hujjatlar; buxgalteriya hisobi registrlari; buxgalteriya, statistika va operativ-texnik hisobotlar; rejali, me'yoriy, texnologik, loyiha-konstruktorlik ko'rinishidagi boshqa hujjatlar axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Daliliy nazorat tekshirilayotgan obyektlarning haqiqiy holatini natura holida ko'zdan kechirish (qayta hisoblash, vaznini o'lchash, ekspertiza qilish, laboratoriya tahlili va boshqalar) ma'lumotlari bo'yicha o'rganishdan iborat. Hujjatlarning mukammalligi va dastlabki hujjatlar va hisob qaydlarining shubhasiz asosliligi zarurat tug'ilganda maxsus faktik nazorat uslublari yordamida aniqlanadi. Faqatgina hujjatlar orqali nazorat qilish uslublariga asoslangan taftish obyektning butun moliya-xo'jalik faoliyatini o'rganmasdan, buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlarini tekshirishdangina iborat bo'lib qolgan bo'lar edi.

Hujjatlar asosidagi va faktik nazorat bir-birini to'ldiradi, ularning alohida qo'llanilishi amalda g'oyat kam uchraydi. Hujjatlar asosidagi va faktik nazorat uslublarga bo'linishining shartli ekanligini faktik ma'lumotlarni hisob ma'lumotlariga qiyoslash bilan yakunlanuvchi ro'yxatga olish uslubida kuzatish mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

Hisob-kitob faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, buxgalteriya ma'lumotlarini saqlashda dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlash, amaliy dasturlar paketi yordamida buxgalteriya hisob-kitobi registrlari va hisobotlarini tuzish nazoratning yangi – kompyuterlashgan usulining paydo bo'lishiga imkon yaratdi.

Axborot texnologiyalari amaliy dasturlar paketi yordamida har qanday axborotni qog'ozda, ya'ni muayyan hujjat ko'rinishida olish mumkinligiga oid e'tirozlarni asossiz deb hisoblash mumkin. Qog'ozdagi ifoda faqat bu hujjatni tuzgan mas'ul shaxs tomonidan imzolangan taqdirdagina hujjat sifatida xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, kompyuterlarning turli viruslarga moyilligi, hujjatlar bilan asoslovsiz, osongina tuzatishlar kiritilishi soxtalashtirilgan ma'lumotlar olish xavfini tug'diradi. Shu tufayli zamonaviy nazoratchi yoki auditor uchun kompyuterda qayta ishlangan hujjatning to'g'riligini (yoki ishonchsizligini) farqlay bilish muhim. Hujjatning o'ziga xos shakli va uni olish uchun maxsus bilim zarurligi, nazarimizda ilmiy-amaliy hayotga "axborot xavfsizligi va kompyuter nazorati" atamasini kiritishga asos beradi.

Axborot xavfsizligi hujjatlar asosidagi va faktik nazoratdan alohida holda olib borilishi mumkin emas, ularning hammasi o'zaro bir-birini to'ldiradi.

Moliyaviy nazoratni to'liq yoki qisman, kompleks yoki mavzuli, yoppasiga yoki tanlab o'tkaziladigan nazorat turlariga bo'lish tekshirish hajmi yoki tekshirilayotgan obyektning to'liq qamrab olinishiga bog'liq.

Idoraviy buysunishdagi korxonalar va tashkilotlarda o'tkaziladigan taftishlar, shuningdek, audit va tahlil (shartnoma yoki dasturga bog'liq holda) majmuaviy xarakterga ega bo'ladi. Korxona, tashkilot moliya-xo'jalik (tadbirkorlik tijorat) faoliyatining ayrim bo'limlari (qism, uchastkalari) holatini tekshirish mavzuli tekshirish deb ataladi. Masalan, moddiy boyliklar (asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlar)ning saqlanishi va ulardan foydalanishni tekshirish, moliyaviy natijalar aniqlanishining to'g'riligini tekshirish va boshqalar.

Kompleks yoki mavzuli (operatsiya) tekshirishni o'tkazish chog'ida hujjatlar yalpi yoki tanlab tekshirilishi mumkin. Yalpi tekshirish chog'ida nazoratdan o'tkazilayotgan davr mobaynidagi dastlabki hujjatlar hisob registrlari va hisobotlar tariqasida rasmiylashtirilib amalga oshirilgan barcha operatsiyalar mazmuni ko'rib chiqiladi. Tanlab tekshirishda tekshirib chiqilayotgan davrdagi operatsiyalarnig bir qismi (masalan, har bir oyda ketma-ket yoki bir necha kun) qamrab olishni nazarda tutiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Agar tanlab tekshirish chog'ida suiste'mol qilish, ko'zbo'yamachilik aniqlansa, u holda yalpi tekshirishga o'tish lozim. «To'liq tekshirish» yoki «qisman tekshirish» atamalari hujjatlar asosidagi yoki faktik nazorat usullariga taalluqli. Ro'yxatga olishni o'tkazishda barcha moddiy boyliklarning saqlanganligini tekshirish bilan to'liq qamrab olish mumkin.

Shunday qilib, boshqaruv tizimidagi subyektlarning maqomi va roli, subyektlarning o'zi, nazorat amallarini bajarish vaqti, manbalari, tekshirish bilan qamrab olish hajmi va to'laligi moliyaning nazorat usulini tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuzaga kelgan murakkab sharoitda moliyaviy nazoratni ishonchli va samarali mexanizmida davlat hukumat organlari bilan boshqaruv organlarining kelishilgan va birdamlik asosida faoliyat olib borilishi lozim. Bu organlarning har birini faoliyatidagi vazifalari, belgilangan kompetensiyalari, ish usullari O'zbekiston Respublikasini qonunlarida belgilanib, ular doirasida olib boriladi. Shuning bilan bir qatorda, ishning murakkabligi va ko'p qirraligini inobatga olgan holda, davlatni iqtisodiy ahamiyatini himoya qilinishi, ayrim vaziyatlarda, birlashgan kuchni yoki boshqacha qilib aytganda, o'zaro bog'langan faoliyatini quyidagi 3 asosiy yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilishi kerak:

– moliyaviy qonun buzilishini aniqlash va bartaraf qilish;

– davlatga moliyaviy zararni qonun bilan belgilangan soliqlar, penyalar, jarimalar va boshqa sanksiyalar yordamida moddiy qoplashni ta'minlash;

– moliyaviy qonun buzishni oldini oladigan profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish;

4.Nodavlat moliyaviy nazorat

– Bozor iqtisodiyoti asoslarining shakllanishi davlat nazorat organlarining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratning turlari rolini oshiradi. YUqorida qayd etilgandek, moliyaviy nazoratning nodavlat turlarini ichki firmaviy (korporativ) nazorat, tijorat banklar tomonidan mijoz-tashkilotlar ustidan nazorat, auditorlik nazoratlari tashkil qiladi.

– Ichki firmaviy moliyaviy nazorat korxona, muassasa, firma, korporatsiyalar o'zining iqtisodiy xizmatlari, ya'ni buxgalteriya, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o'z korxonasi, filiallari va shu'ba tuzilmalarining moliyaviy faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi. Ichki nazorat xizmatlari doimiy ravishda pul

CamScanner yordamida skanerlangan

mablag'larini (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi kuzatadi, rejalashtirgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalar qiyoslab, tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi.

– Ichki nazorat kapitalni investitsiyalashtirishning butun jarayonini kuzatib boradi. Ichki nazoratning ko'rinishlaridan biri bo'lgan va "post-audit" nomini olgan nazorat biznes-rejaning moliya bo'limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejlashtirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularni nomuvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni kamaytirish va moliyaviy rejalashtirish metodlarini yaxshilash yo'llarini qidirishni anglatadi.

– Bank tizimining qayta qurilishi natijasida tijorat banklarining paydo bo'lishi ahamiyatli darajada moliyaviy nazorat sohasidagi banklarning funksiyalarini o'zgartiradi. Agar SSSR Davlat bankining bo'limlari o'zlariga biriktirilgan korxonalarning butun moliyaviy faoliyatini nazorat qilgan bo'lsa, tijorat banklari esa qonunga muvofiq ravishda davlat tomonidan faqat hisob-kassa operatsiyalarini yuritish va valyuta qonunchiligiga rioya etish borasida o'rnatilgan tartibning mijozlar tomonidan amal qilinishini nazorat qilib borishi kerak. SHu bilan birgalikda likvidlikni qo'llab-quvvatlashning obyektiv zarurligi bankdan potensial zayom oluvchilarning, ya'ni zayom oluvchi korxonalarning moliyaviy holati va kredit olishga layoqatliligini baholashni talab qiladi. Ssuda berilgan taqdirda bank o'rnatilgan muddatlarda tegishli foizlar bilan birgalikda ssudaning qaytarilish ehtimolini baholash maqsadida berilgan ssudaning ishlatilishini, mijozning to'lov qobiliyati va likvidligini nazorat qiladi. Bank tomonidan amalga oshiriladigan bunday nazorat kredit riskini boshqarishning muhim elementi bo'lib hisoblanadi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moliyaviy nazoratning mohiyati nimada?
2. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlarni sanab bering.
3. Davlatning moliyaviy nazorati qanday vazifalarni amalga oshiradi?
4. Moliyaviy nazoratning turlari va shakllarini ko'rsatib bering.
5. Moliyaviy nazoratni amalga oshirish usullarini ko'rsatib bering.
6. Auditorlik nazoratining asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
7. Moliyaviy munosabatlarning vujudga kelishini obyektiv shart-sharoitlari

CamScanner yordamida skanerlangan

8.Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati; nodavlat moliyaviy nazorati.
9.Moliyaviy nazorat tizimining bir tipliligi va uning elementlari.
10. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy prinsiplari.
11. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar.
12. Moliyaviy oqimlarni boshqarishning funksiyalari.
13. Moliyaviy oqimlarning miqdoriy va sifat tavsifnomalari orqali korxonaning ...aniqlanadi?
14. Moliyaning nazorat funksiyasi nimaga yo`naltirilgan?
15. Moliyaning nazorat funksiyasini mazmuni va xususiyatlari.(korxonalar faoliyati...)?

CamScanner yordamida skanerlangan

8-MAVZU: MULKCHILIKNING TURLI SHAKLLARIDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYASI

Reja:

1.Faoliyatning turli sohalarida moliyaning amal qilish xususiyatlari.
2. Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar moliyasi.
3. Notijorat faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar moliyasi.
4. Jamoat tashkilotlari moliyasi.

Kalit so'zlar: korxona moliyasi, tushum, foyda, asosiy vositalar, moliyaviy resurslar, jamoat uyushmalari moliyasi.

1. Faoliyatning turli sohalarida moliyaning amal qilish xususiyatlari

Korxona moliyasi – bu iqtisodiy pul munosabatlarni pul harakati mobaynida vujudga kelib turli xil pul fondlarini hosil qilishni bildiradi.

Korxonalar sof foydasini pul fondlariga sarflaydi. Korxonaning fond bozorlari bilan bo'ladigan munosabatlari turli xildagi fondlarni hosil qilish, ularni shakllantirish va foydalanishdan iborat. Ustav fondiga korxonaning asosiy vositalari va aylanish mablag'lari shakllanadi. Bu korxonaning o'z mablag'larining asosiy manbasi hisoblanadi.

Hissadorlik jamiyatida ustav fondi chiqariladigan barcha aksiyalar qiymati bilan teng bo'lishi lozim. Ish natijasiga ko'ra ustav fondi miqdorini ko'payishi yoki kamayishi mumkin, ya'ni qo'shimcha aksiyalar chiqarish yoki ularning nominal qiymatini oshirish orqali ustav fondi ko'payishi mumkin. Muomaladan aksiyalarni qaytarib olish tufayli esa ustav fondini kamaytirish mumkin.

Ustav fondi – korxonalarning o'z mablag'larining manbai hisoblanadi. Bundan tashqari korxonalarning ustav fondi asosiy vositalarni qayta baholash hisobiga, aksiyalarni nominal qiymatidan ko'ra baland narxda sotish hisobiga, ishlab chiqarishga bepul asosiy vositalarni sotib olish hisobiga ko'payishi mumkin.

Zahira fondi – bu fond foydadan ajratmalar hisobiga tashkil qilinadi. Fondning asosiy maqsadi bo'lib, favqulodda zararlarni qoplash, aksiyalarni qayta sotib olish hisoblanadi.

Jamg'arma fondi – bu korxonalarning ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Bu fond o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun investitsiya fondidan va amortizatsiya fondidan foydalanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ijtimoiy ishlab chiqarishning hammasi o'zida sarflanayotgan mehnat xarakteriga asoslanib ikki yirik sohaga ajraladi:

- moddiy ishlab chiqarish;
- nomoddiy ishlab chiqarish.

Birinchi sohaning xususiyati – bu tovar ishlab chiqarishdir, ikkinchi sohaning o'ziga xos xususiyati – bu turli xizmatlar (ijtimoiy, maishiy va boshqalar) ko'rsatishdir. Moddiy ishlab chiqarishni tashkiliy tuzulmasining asosi bo'lib korxonalar, birlashmalar, assotsiasiyalar tashkil etadi, noishlab chiqarish sohasida esa, muassasalar, tashkilotlar va boshqa tuzulmalar faoliyat ko'rsatadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalarida turli xarakterli moliyaviy munosabatlar vujudga keladi. Shu asosda, tashkil etilgan bir maqsadga yo'naltirilgan pul fondlari xususiyatini inobatga olganda, moliyaviy munosabatlar tizimida bir turdagi pul munosabatlarga nisbatan quyidagi guruhlarni birlashtirish mumkin.

– moddiy ishlab chiqarishning xo'jalik bo'linmalarida birlamchi daromadlarni shakllantirish, xo'jalik ichidagi maqsadli fondlar - nizom fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi, rag'batlantirish fondi va boshqalarni tashkil etish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan. Ulardan bir qismi ishlab chiqarish, ikkinchi qismi ta'minot ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladi;

– turli korxonalar orasida vujudga keladigan munosabatlar, agar bu munosabatlar taqsimlash xarakteriga ega bo'lsa, lekin almashtirishga xizmat qiluvchi emas. Bu pul munosabatlari asosidagi moliyaviy resurslarni harakati fond shaklida emas, balki, shartnomalar bo'yicha jarimalar olish yoki to'lash, turli birlashmalar qatnashchilarini badal to'lovlarini to'lashi, ishlab chiqarish jarayonlarini kooperatsiyalashdan tushgan foydani taqsimlashda ularni ishtirok etishi, aksiya va obligatsiyalarga mablag'larni investitsiyalash va ular bo'yicha dividendlar va foizlar olish va h.k.;

– turli sug'urta fondlarini tashkil etish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moddiy ishlab chiqarish korxonalari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar;

– bank ssudalarini olish va qoplash, ular bo'yicha foizlar to'lash hamda ma'lum to'lov evaziga vaqtincha foydalanish uchun bo'sh pul mablag'larini banklarga berish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar va banklar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar;

– byudjet va byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moddiy ishlab chiqarish va davlat

CamScanner yordamida skanerlangan

o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar. Moliyaviy munosabatlarning bu guruhi byudjetga, byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlar, byudjetdan moliyalashtirish va h.k.;

– korxonalar bilan ularning yuqori boshqaruv tuzulmalari orasida vujudga keladigan munosabatlar. Bunga "vertikal" o'zaro bog'liqlik deyiladi, tarmoq ichki chegaralarida saqlanib qolgan moliyaviy resurslarning qayta taqsimlanishi.

Yuqorida ko'rsatilgan pul munosabatlari korxonalar moliyasining mazmunini hosil qilib, xo'jalik subyektlarining jamg'armalarini va pul daromadlarini tashkil etish, foydalanish va ularni moliya-bank tizimining majburiyatlarini bajarish uchun, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish, ishchilarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlari deb aniqlash mumkin.

Mulkchilikning turli shakllari, tarmoqlarning xususiyatlari, iqlimiy-tabiat omillarning mavjudligi ham moliyaviy o'zaro bog'liqliklarni ko'p qirrali qilib, ta'sirini o'tkazadi. Bu asosda moddiy ishlab chiqarishda moliyaviy munosabatlarning ko'p qirraligi, usullarini turli-tumanligidan dalolat beradi.

Ishlab chiqarishning moddiy asosi – bu ishlab chiqarish fondlaridir. Ularni olish, yangilash va kengaytirish uchun korxona zarur bo'lgan moliyaviy resurslarga ega bo'lishi va maqsadli pul fondlarini tashkil etishi kerak. Maqsadli pul fondlari ishlab chiqarish fondlarini aylanishida xizmat qiladi va ularni uzluksizligini ta'minlaydi. Bu holat, ishlab chiqarish fondlarini tashkil etish, doim to'ldirish va ko'paytirish jarayonlarini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish natijasida yaratilgan qiymat sotilgandan so'ng taqsimlanadi. Shu taqsimlanish jarayonida ish haqi fondini tashkil etish, sof daromadni taqsimlash va sarflash uchun moliyaviy munosabatlar vujudga keladi. Sof daromad faqatgina moddiy ishlab chiqarishda emas, balki nomoddiy ishlab chiqarishda ham bir nechta pul fondlarini tashkil etilishida manba bo'lib, taqsimlanish jarayonida moliyaviy munosabatlarning murakkab birikmalarini vujudga keltiradi.

Foyda shaklini olgan sof daromad hisobiga, moddiy ishlab chiqarish sohalarida, ishlab chiqarishni kengaytirish, uni moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish fondi, ishchi-xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun belgilangan iste'mol fondi, zahira va rezerv fondi tashkil etiladi. Sof daromad umumdavlat pul fondlarini (byudjet, Pensiya fondi va boshqalar) tashkil etilishida, soliq

CamScanner yordamida skanerlangan

to‘lovlari va boshqa shakllarda manba bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, moddiy ishlab chiqarishda tashkil etilgan moliyaviy resurslar xalq xo‘jaligini boshqa bo‘g‘inlarida pul fondlarini tashkil etish uchun ishlatiladi. Bu esa, butun davlatni moliyaviy tizimini boshlang‘ich asosi bo‘lib xizmat qiladi va moddiy ishlab chiqarish moliyasining xususiyatini ifodalaydi. Turli xil ehtiyojlarni qondirish imkoniyati, mamlakatning umumiy moliyaviy holati aynan moddiy ishlab chiqarish moliyasining holatiga bog‘liqdir.

Moliya, shuningdek ayirboshlash va iste’molga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Bu maqsadli pul fondlari orqali amalga oshiriladi. Ularning miqdori, tashkil etish shartlari va tartibi, foydalanish tamoyillari ayirboshlash va iste’mol sohalarini talablarini hisobga olgan holda o‘zgaradi. Bu xususiyat, iqtisodiy rag‘batlantirish sifatida, moliya bilan foydalanish jarayonida obyektiv asos bo‘lib, katta ahamiyatga ega.

Moddiy ishlab chiqarish sohasi noishlab chiqarish sohasini vujudga kelishiga imkon yaratadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasi xalq xo‘jaligining asosiy sohasi bo‘lib, qiymat, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni vujudga keltiradi. Noishlab chiqarish sohasi esa, shu vujudga kelgan daromadni taqsimlanishida ishtirok etadi.

2. Tijorat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar moliyasi

Tijorat asosida ishlaydigan korxonalarning moliyaviy manbalari manbalari quyidagilar:

-amortizatsiya ajratmalari va ish haqi bo‘yicha qarzlar, kelgusidagi to'lovlar uchun zaxiralarni shakllantirish, byudjetga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga ajratilgan daromadlar hisobidan shakllanadigan o‘z mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan moliyaviy manbalar;

-moliya bozorlariga jalb qilingan korxonalarning moliyaviy resurslari, ya’ni o‘z aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlarni sotish va kredit qo'yilmalari orqali;

-Qayta taqsimlash tartibida olingan va yuzaga kelgan tavakkalchiliklar uchun sug‘urta qoplamasi hisobidan, konsernlar va birlashmalardan olingan moliyaviy mablag‘lar hisobidan shakllantirilgan moliyaviy mablag‘lar (qimmatli qog‘ozlar bo'yicha dividendlar va foizlar, byudjet subsidiyalari).

Tijorat asosida ishlaydigan korxonalarning moliyaviy resurslaridan foydalanish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- bank tizimiga to‘lovlar;

CamScanner yordamida skanerlangan

- sug'urta organlariga to'lovlar;
- o'z korxonasiga kapital qo'yilmalarni kiritish, asosiy vositalarni yangilash, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar, ilg'or texnologlar, nou-xau;
- qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish;
- rag'batlantiruvchi va ijtimoiy tusdagi pul mablag'larini shakllantirish;
- xayriya xomiylik maqsadlari.

Asosiy va aylanma mablag'larning aylanishida moliyaviy resurslar katta rol o'ynaydi.

Asosiy vositalar – bu ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlari uchun asosiy vositalarga kiritilgan pul mablag'lari.

Asosiy vositalar o'z qiymatini amortizatsiya ko'rinishida tayyor mahsulotga o'tkazadi, foydalanilmagan qismi esa qoldiq qiymatini anglatadi.

Amortizatsiya fondi byudjet mablag'lari bilan birgalikda kapital qo'yilmalar uchun ishlatiladi. Qayta tiklanadigan ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondlardagi pul mablag'lari korxonaning joriy aktivlarini o'z ichiga oladi. Ular o'zlarining qiymatlarini bitta ishlab chiqarish tsiklida to'liq tayyor mahsulotga o'tkazadilar. Ta'lim prinsipiga ko'ra, joriy aktivlar normallashtirilgan va standartlashtirilmagan. Yaratish manbalariga ko'ra, joriy aktivlar ozlariga va qarzga bo'linganlarga bo'linadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi, uning to'lov qobiliyati va likvidligi aylanma mablag'larning mavjudligiga, o'z mablag'lari va qarz manbalari holatiga bog'liq.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki nomulkiy huquqlarga ega bo'lgan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin bo'lgan korxonadir. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik Kodeksiga muvofiq, foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan korxona (tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'lmagan korxona) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona yoki qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

Notijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, korxonalar moliyasini tijorat korxonalari moliyasi va notijorat korxonalar moliyasiga ajratish mumkin. Ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning shakli, daromadlar va xarajatlarni shakllantirishi, mulkka egalik qilishi, majburiyatlarni bajarishi, soliqqa tortilishi bilan bog'liq holda o'zining xususiyatlariga ega bo'ladilar.

Tijorat korxonalari moliyasi, moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, YaIM qiymatini yaratish, taqsimlash va ishlatish jarayonlarini qamrab oladi. Ular, asosan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad yaratiladigan, moddiy ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadilar.

Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida tadbirkorlik faoliyatining yakuniy maqsadi foyda olishga qaritiladi.

Tijorat korxonalari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish davomida ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot realizatsiyasi, xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish, o'z moliyaviy resurslarini shakllantirish va moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb qilish, ularni taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan ma'lum moliyaviy munosabatlarni yuzaga keltirishadi. Moliyaviy munosabatlarning moddiy asosi pul hisoblanadi. Moliyaviy munosabatlar – pul munosabatlarining bir qismi va faqatgina pul mablag'larining real harakatida yuzaga keladi, xususiy kapitalni, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllanishi va ishlatilishi bilan kuzatiladi.

Tijorat korxonalari moliyasi – bu xususiy kapitalni, maqsadli pul fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va ishlatish jarayonidagi tadbirkorlik faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan pul munosabatlaridir. Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarda moliyaning taqsimlash funksiyasi ta'sischilarning qo'yilmalari hisobiga birlamchi kapitalni shakllantirish, ularni ishlab chiqarishga avanslashtirish, kapitalni takror ishlab chiqarish, daromadlar va moliyaviy resurslarni taqsimlanishida alohida tovar ishlab chiqaruvchilarning, xo'jalik subyektlarining va to'laligicha davlat manfaatlarini optimal hisobga olinishini aks ettiradi. Taqsimlash funksiyasi tijorat faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarning pul fondlarini daromadlar taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi orqali shakllanishiga bog'liqdir. Bularga ustav kapitali yoki ustav fondi, zahira

CamScanner yordamida skanerlangan

fondi, qo'shimcha kapital, jamg'arish fondi, iste'mol fondi, valyuta fondi kiradi.

Tijorat korxonalarida moliyaning nazorat funksiyasi mahsulot ishlab chiqarish va sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish xarajatlarini qiymat hisobi, daromadlar va pul fondlarini shakllanish jarayonini aks ettiradi. Moliya, taqsimlash munosabatlari sifatida, takror ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlaydi va bu bilan takror ishlab chiqarish jarayonining ishlab chiqarish, ayirboshlash, iste'mol bosqichlarini umumlashtiradi. Biroq, daromadlarni mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida yaratilgan va ularni sotishdan so'ng olinganidan ortiq taqsimlash va ishlatishning imkoniyati bo'lmaydi. Tijorat korxonasining raqobatbardoshligi uning moliyaviy barqarorligi ishlab chiqarishning samaradorligiga, xarajatlarning qisqartirilishiga va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishligiga bog'liq.

Tijorat korxonalari xo'jalik faoliyatining ijobiy moliyaviy natijasi moliyaviy resurslarni boshqarishda qo'llanilayotgan shakl va usullarning samarali ekanligidan dalolat bersa, aksincha, salbiy natija yoki uning yo'qligi moliyaviy resurslarni boshqarishdagi, ishlab chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklardan va korxonani bankrot bo'lish ehtimolidan dalolat beradi.

Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarining moliyaviy munosabatlari xo'jalik faoliyatining mustaqilligi, o'zini-o'zi moliyalashtirish, moddiy manfaatdorlik, moddiy javobgarlik, moliyaviy zahiralar bilan ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanadi.

Xo'jalik faoliyatining mustaqilligi tamoyili – tijorat korxonalarining moliya sohasidagi mustaqilligisiz amalga oshirilishi mumkin emasligini anglatadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, iqtisodiy faoliyat sohasini, moliyalashtirish manbalarini, foyda olish maqsadida pul mablag'larini joylashtirish yo'nalishlarini mustaqil belgilaydilar. Bozor tijorat korxonalarining kapital jalb qilishning yangi sohalarini izlab topishini, iste'mol ehtiyojiga moslashuvchan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni rag'batlantiradi. Tijorat korxonalari qo'shimcha foyda olish maqsadida boshqa subyektlarning ustav kapitalini shakllanishda ishtirok etib, ularning, davlatning qimmatli qog'ozlarini sotib olish shaklidagi qisqa muddatli va uzoq muddatli investisiyalar xarakteridagi investisiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Biroq, to'la xo'jalik mustaqilligi to'g'risida gapirish mumkin emas, chunki davlat ular faoliyatini ma'lum darajada tartibga

CamScanner yordamida skanerlangan

solib turadi. Demak, tijorat korxonalari turli darajadagi byudjetlar bilan o'zaro aloqalari qonunchilik asosida o'rnatiladi. Mulkchilikning barcha shaklidagi tijorat korxonalari o'rnatilgan tartibida tegishli soliqlarni to'laydilar, byudjetdan tashqari fondlarni shakllanishida ishtirok etadilar.

O'zini-o'zi moliyalashtirish tamoyili – bu xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini ta'minlovchi tadbirkorlik faoliyatini asosiy shartlaridan biri.

O'zini-o'zi moliyalashtirish mahsulot ishlab chiqarish va sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish xarajatlarini to'laligicha o'zi qoplashi, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun investisiyalarni o'zining ,pul mablag'lari va zarurat bo'lganda bank va tijorat kreditlari hisobiga amalga oshirilishi tushuniladi.

Rivojlangan bozor munosabatlariga ega davlatlarning o'zini-o'zi moliyalashtirish darajasi yuqori bo'lgan korxonalarining xususiy kapitali 70% va undan ko'pni tashkil qiladi.

Tijorat korxonalari va korxonalarini moliyalashtirishning asosiy o'z manbalariga quyidagilar kiradi: amortizasiya (eskirish) ajratmalari, foyda, ta'mirlash fondlariga ajratmalar. Hozirgi kunda barcha tijorat korxonalari va korxonalari bu tamoyilga rioya qilish imkoniga ega emaslar. -Qator soha korxonalari, iste'molchi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan, obyektiv sabablarga ko'ra ularning rentabelligini ta'minlay olmaydilar. Ularga shahar yo'lovchi transporti, uy-joy kommunal xo'jaligi, qishloq xo'jaligining alohida korxonalari kiradi. Bunday korxonalar imkoniyat darajasida qaytarish va qaytarmaslik asosidagi byudjetdan qo'shimcha moliyalashtirish ko'rinishidagi davlat yordamini oladilar.

Moddiy manfaatdorlik tamoyili. Bu tamoyilnnig obyektiv zarurligi tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi – foyda olish bilan asoslanadi. Tadbirkorlik faoliyatining natijalaridan manfaatdorlik nafaqat uning ishtirokchilarida, balki to'laligicha davlatda ham namoyon bo'ladi. Bu tamoyilning amalga oshirilishi korxonaning alohida xodimlariga yuqori darajada mehnatga haq to'lash bilan ta'minlanishi mumkin. Korxona uchun bu tamoyil davlat tomonidan optimal soliq siyosatini, iqtisodiy asoslangan amortizatsiya siyosatini olib borilishi, ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratilishi natijasida amalga oshishi mumkin. Korxonaning o'zi bu tamoyilning amalga oshishiga yangitdan yaratilgan qiymatni taqsimlashda, iste'mol fondi va jamg'arma fondini shakllantirilishida iqtisodiy asoslangan mutanosibliklarga rioya qilish bilan yordam berishi mumkin. Davlatning

CamScanner yordamida skanerlangan

manfaatlari korxonalarning rentabelli faoliyati bilan, ishlab chiqarishning o'sishi va soliq intizomiga rioya qilinishi bilan ta'minlanishi mumkin.

Moddiy javobgarlik tamoyili moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritish va uning natijalari uchun ma'lum javobgarliklar tizimining mavjudligini bildiradi. Bu tamoyilni amalga oshirishning moliyaviy usullari turli xildir va qonunchilik bilan tartibga solinadi. Shartnomaviy majburiyatlarni, hisob-kitob intizomini, olingan kreditlarni qaytarish muddatlarini, soliq qonunchiligi va shu kabilarni buzgan korxonalar penya va jarimalar to'laydilar. Rentabelli bo'lmagan, o'zining majburiyatlari bo'yicha javob bera olmaydigan korxonalarga bankrotlik tadbirlari qo'llanilishi mumkin.

Korxonalarning rahbarlari soliq qonunchiligini buzilishi yuzasidan ma'muriy javobgarlikka egadirlar. Korxonalar va korxonalarning alohida xodimlariga bankrotlikka yo'l qo'yganligi uchun jarimalar tizimi, mukofotlardan mahrum qilish, mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shatish choralari qo'llaniladi.

Moliyaviy zahiralar bilan ta'minlash tamoyili biznesga qo'yilgan mablag'larni qaytmaslik havfini mavjudligi bilan asoslanuvchi tadbirkorlik faoliyatining shartlari bilan xarakterlanadi. Bozor munosabatlari sharoitida tavakkalchilikning oqibatlari tadbirkorning o'ziga yuklanadi, chunki u o'zi ishlab chiqqan dasturini o'zining tavakkalchiligi asosida ixtiyoriy va mustaqil amalga oshiradi. Bundan tashqari, xaridorlar uchun iqtisodiy kurashda tadbirkorlar o'zining mahsulotlarini pullarini o'z vaqtida qaytmaslik tavakkalchilik bilan ham sotishga majbur bo'ladilar. Korxonalarning moliyaviy qo'yilmalari ham qo'yilgan mablag'larni o'z vaqtida qaytmaslik yoki ko'zlangandan oz daromad olish tavakkalchiligi bilan ham bog'liqdir. Nihoyat, ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqishda bevosita iqtisodiy hatoliklarga ham yo'l qo'yilishi mumkin. Mazkur tamoyilning amalga oshishi xo'jalik yuritishning noqulay davrlarida korxonaning moliyaviy holatini mustahkamlash imkoni beruvchi moliyaviy zahiralarni va turdagi fondlarni shakllantirish hisoblanadi.

Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan moliyaviy zahiralar byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng qoladigan sof foydadan shakllantiriladi. Biroq, amaliyotda, moliyaviy imkoniyatlarining sustligi sababli, ularning moliyaviy barqarorligi uchun zaruriy moliyaviy zahiralarni shakllantira olmaydilar.

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Notijorat faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar moliyasi

Notijorat tashkilot – foyda olish maqsadida emas, balki ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish, ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, hayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlar, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun tuzilgan yuridik shaxsdir. Ta'kidlash joizki, Fuqarolik Kodeksida notijorat korxonalarning tadbirkorlik faoliyati uning tashkil etilish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan va bu maqsadlarga mos kelsa shug'ullanishga ruxsat beriladi. Notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (1-qism, 4-bob, 3-§) bilan belgilangan[1]. Yuridik shaxs sifatida NTT to'la huquqiy subyekti hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, har qanday NTT uning faoliyati maqsadlariga mos keluvchi fuqarolik huquqlariga va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarga ega.

Notijorat tashkilotining asosiy maqsadlari quyidagilar:

– ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish;

– ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qondirish;

– hayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni tashkil qilish;

– boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Yuridik shaxs sifatida notijorat tashkilot quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

– o'z mulkida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lishlik;

– mulklar bilan o'zining majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lish;

– o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la olishlik va ularni amalga oshish, majburiyatlarni bajarish, sudda da'vogar va javobgar bo'lish;

– mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishi.

Notijorat korxonalariga matlubot kooperativlari, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, muassasalar kiradi.

Matlubot kooperativlari – ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning a'zolikka asoslangan

[1] O'ZR Fuqorolik Kodeksi

CamScanner yordamida skanerlangan

ixtiyoriy birlashma hisoblanib, uning a'zolari tomonidan o'z mulkiy (pay) badallarini qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladi. U boshqa notijorat tashkilotlar bilan taqqoslaganda alohida maqomga ega. Ular o'zining faoliyatini ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida olib boradilar (uy-joy qurilish kooperativlari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari). Boshqa NTTlar esa, boshqa ijtimoiy (nomoddiy) manfaatlarga ega bo'lishlik uchun tuziladi.

Jamoat birlashmalari – ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qondirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalardir. Jamoat birlashmalari o'z Nizomida nazarda tutilgan ishlab chiqarish yoki boshqa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirisht mumkin.

Jamoat fondlari – fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, hayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

Muassasalar – boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot.

Yuridik shaxslar birlashmalari. Tijorat tashkilotlari o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalariga birlashishlari mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir.

Ijtimoiy-madaniy xususiyatga, jamoat tartibini saqlash, boshqaruv va mudofaaga taalluqli bo'lgan rang-barang xizmatlarni ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlari notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan muassasa va tashkilotlarni tashkil etadi.

Iqtisodiyotning notijorat sektori muassasa va tashkilotlarining moliyaviy mablag'lari – o'z faoliyatini amalga oshirish va kengaytirish uchun turli manbalar hisobidan shakllantiriladigan pul mablag'laridan iborat bo'ladi. Notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan muassasa va tashkilotlar moliyaviy resurslarining shakllanishi ikki xususiyatga bog'liq bo'ladi.

1. Ko'rsatayotgan xizmatlar ko'rinishi.

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Iste'molchiga yetkazib berilishi (pullik yoki bepul).

Ayrim xizmatlar iste'molchilarga faqat bepul ko'rsatiladi, boshqalari – pullik, qolganlari esa, ham pullik, ham tekinga ko'rsatiladi.

Jamiyatga to'laligicha xizmat ko'rsatuvchi moqamga ega davlat boshqaruvi va mudofaasi sohasida har bir fuqaro va yuridik shaxs bunday xizmatlarni bepul iste'mol qiladi. Bularni moliyalashtirishning yagona manbai bo'lib davlat byudjeti mablag'lari hisoblanadi, lekin shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, bu mablag'lar xizmat ko'rsatayotgan xodimlarni to'laligicha ijtimoiy-iqtisodiy hayotini qondira olishi va hech ham tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan muassasa va tashkilotlardagi o'rtacha ish haqidan kam bo'lmasligi lozim. Aks holda bu sohada xizmat ko'rsatayotgan xodimlar ichida xizmatiga nisbatan loqaydlik, korrupsiya kabi salbiy illatlar tomir otishi tabiydir.

Yuqorida keltirganimizdek, ayrim muassasa va tashkilotlar notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan bo'ladi, ammo keng ommaga pullik xizmat ko'rsatadilar. Jumladan, teatr, kinoteatr, advokatlar, notarial idora va boshqalar. Zero, mazkur xo'jalik subyektlariga byudjetdan mablag' ajratilsada, u e'tiborli xususiyatga ega emas.

Iqtisodiyotning notijorat sohasiga ijtimoiy-madaniy xizmatlar kiradi. Ular iste'molchilarga pulli va bepul xizmatlar ko'rsatish, keyinchalik moliyalashtirishning turli manbalariga ega bo'ladi. Ijtimoiy-madaniy talablar uchun yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning aniq tarkibi avvalo, talab xususiyatiga ega bo'ladi. Bu talabni uch guruhga ajratish mumkin: jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan talablar - har bir fuqaro oladigan daromadga bog'liq bo'lmagan, davlat tomonidan kafolatlangan talab. Bu xarajatlar byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ajratiladigan umumdavlat moliyaviy resurslari hisobidan qoplanadi.

4. Jamoat tashkilotlari moliyasi

Jamoat tashkilotlari mamlakat jamoatchilik tizimining ajralmas qismidir. Ular jamiyat a'zolarining ma'lum soha yoki ijtimoiy guruhga, umumiy maqsadlarga, qiziqish yoki umumfuqarolik masalalarini hal qilishda bir xil yondashuvligi, g'oyaviy maqsadlar uchun birlashishi asosida vujudga keladi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, ijodiy uyushmalar, sport va boshqa ixtiyoriy birlashmalar, maxsus tashkiliy shakl asosida birlashgan va

CamScanner yordamida skanerlangan

so‘nggi yillarda keng ommalashib borayotgan maqsadli fondlar va hayriya fondlari bunga misol bo‘ladi.

Jamoat tashkilotlari moliyasi quyidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi:

– jamoat tashkilotlari va ularning a’zolari o‘rtasidagi jamoatga kirish va a’zolik badallarini to‘lash, shuningdek jamoat tashkiloti bo‘yicha har xil to‘lovlar va imtiyozlarni qo‘llash;

– jamoat tashkilotlarining korxonalar, ishlab chiqarish birlashmalari va tashkilotlar bilan moliyaviy munosabatlari. Korxonalar tomonidan hayriyalar, shuningdek har xil madaniy tadbirlar va ko‘rgazma, festivallar o‘tkazish uchun mablag‘lar ajratish;

– jamoat birlashmalari ichida fondlarni tashkil qilish va foydalanish bo‘yicha (ish haqi fondi, kapital qo‘yilmalar) munosabatlar;

– yuqori va quyi turuvchi jamoat tashkilotlari o‘rtasida daromadlarini yuqori tashkilotga o‘tkazish yoki yuqori tashkilotdan yordam olish;

– jamoat tashkilotlari va ularga bo‘ysinuvchi xo‘jalik-ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar.

Jamoat tashkilotlari moliyasining shakllanishida birinchi omil fuqarolarning o‘z xohishiga ko‘ra birlashishi asosida yuzaga kelishidir. Shuning uchun pul fondlarini moddiy bazasi sifatida shakllantirish va ulardan foydalanish o‘z xususiyatlariga ega. Mablag‘lar tushishining asosiy manbai birlashmalarga kirish va a’zolik badallaridan tashkil topadi. Ikkinchi omil, jamoat birlashmalari ma’lum mulkka (imoratlar va asbob-uskunalar), korxonalar va ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan (sanoat, qurilish, nashriyot va boshqalar), shuningdek, moliyaviy mablag‘larga ega bo‘ladi. Jamoat birlashmalari ulush asosidagi mulkka ham ega bo‘lishi mumkin (masalan, tijorat banklari, qo‘shma korxonalar va boshqalarni tashkil etishda). Natijada jamoat tashkilotlari moliyasi davlat tomonidan qisman boshqariladi, lekin asosan nizom bilan belgilangan bo‘ladi. Jamoat birlashmalarining nizomida uning maqsadlari, vazifalari va boshqa tizimlar bilan hamkorlikning yo‘nalishlari, shuningdek moliyaviy-moddiy ko‘rinishdagi mablag‘larning shakllanish tamoyillari o‘z aksini topadi.

Jamoat birlashmalarining mulkidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ayrim olingan a’zolar uchun daromad manbai bo‘ladi. Jamoat birlashmalarining barcha daromadlarlari umumiy xizmat ko‘rsatishga, nizom ehtiyojlarini to‘la qondirishga yo‘naltiriladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

A'zolik badallarini to'lash va u yoki bu ko'rinishdagi moddiy yordam olish o'rtasida hech qanaqa bevosita bog'liqlik mavjud emas.

Jamoat birlashmalarining moliya rejasidagi daromad qismi jamoatga kirish va a'zolik badallaridan, xo'jalik asosidagi korxonalarning faoliyatidan va pulli tadbirlar asosida yuzaga keladigan daromadlardan tashkil topadi. Ijodiy birlashmalarni moliyalashtirish manbai bo'lib, shuningdek korxona va tashkilotlar foydasidan ajratiladigan maxsus pul ajratmalari ham bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bo'yicha, bu ko'rinishdagi foydadan ajratmalar daromad solig'idan ozod etilgan.

So'nggi yillarda jamoat birlashmalari nafaqat bepul, balki pulli xizmatlar doirasini (sport seksiyalari, tikuvchilik kurslari, sihatgohlarga yo'llanmalar va h. k.) va ularning daromad manbasini kengaytirmoqda. Bundan tashqari ayrim jamoat birlashmalari daromadlari tarkibida davlat byudjetidan ajratmalar ham bo'lishi mumkin.

Jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyaviy rejalarining xarajatlar qismida, jamoat birlashmalarining asosiy faoliyati va ular apparatini saqlash, kapital qurilish va kapital ta'mirlash, ma'muriy xo'jalik xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar aks ettiriladi. Jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyaviy rejasining xarajat moddalarini aniqlashtirish mazkur birlashmalarning faoliyat xususiyatidan kelib chiqadi.

Ko'pchilik jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyaviy rejalarida xalqaro aloqalar bo'yicha xarajatlar ham ko'zda tutiladi. Bunday xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi: xorijiy delegatsiya vakillarini mamlakat ichida qabul qilib olish va chet ellarga safar xarajatlari, xalqaro seminarlar, kongresslar, uchrashuvlar tashkil etish xarajatlari. Ayrim holatlarda ushbu xarajatlar xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallari uchun ham ishlatilishi mumkin, bunda ushbu jamoat birlashmalari xalqaro tashkilotning haqiqiy a'zosi bo'lmog'i lozim. Jumladan, mamlakatimiz sport federatsiyalari:

- alohida sport turlari bo'yicha Xalqaro sport federatsiyalariga a'zolik badallarini to'laydilar;
- Xalqaro federatsiya o'tkazayotgan sport tadbirida ishtirok etish uchun qatnashish badallarini to'laydi;
- o'yinlardan tushgan mablag'lardan ajratmalar qiladilar.

Jamoat tashkilotlari va birlashmalari o'z nizom faoliyatiga ko'ra odatda davlat byudjeti oldida hech qanday moliyaviy majburiyatlarga ega emas.

CamScanner yordamida skanerlangan

Jumladan, faxriylar, nogironlar jamoat birlashmalari, Qizil yarim oy jamiyati, ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati va h. k. lar soliqlardan to'la ozod etilgan.

Jamoat birlashmalari qoshida faoliyat yurituvchi korxonalar tijorat hisobi tamoyilida faoliyat yuritadilar. Shuning uchun ular moliyasini tashkil etish boshqa korxonalardagi asosiy xususiyatlar bilan umumiy bo'lib, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar doiraviy aylanishini tashkil ctish (nizom fondini shakllantirish), foyda olish va taqsimlash, byudjet bilan hisob-kitoblar odatdagi tartibda amalga oshiriladi.

Xo'jalik faoliyatidan daromadlarning o'sishi jamoat birlashmalariga o'z mulkini ko'paytirish va umumiy daromadlar so'mmasida a'zolik badallari ulushini kamaytirish imkonini beradi, jumladan, qurolli kuchlarga ko'maklashuv ko'ngilli jamiyatlarida xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar uning 80% atrofidagi xarajatlarini, a'zolik badallari esa, taxminan 20% ini qoplashga imkon berdi. Kinochilar uyushmasi, rassomlar uyushmasida a'zolik badallarining jami daromadlardagi ulushi 3% dan ortmaydi.

Kasaba uyushmalari – ishlab chiqarishda, xizmat ko'rsatish va madaniyat sohasida faoliyatining umumiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlarni birlashtiruvchi ommaviy tashkilotlardir. Ular "Kasaba uyushmalari" to'g'risidagi qonunga asosan faoliyat yuritadilar. Hozirgi kunda Kasaba uyushmalarining umumiy federatsiyasi tashkil etilgan. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarida kasaba uyushmalari ishchi va xizmatchilarning manfaatlarini, ayniqsa, davlat va tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solish va himoya qilishga qaratilgan. Kasaba uyushmalari mehnatkashlar moddiy va kasbiy holatiga aloqador bo'lgan barcha qonun loyihalarini (masalan, aholi bandligi to'g'risidagi, ijtimoiy-ta'minot va ijtimoiy himoya to'g'risidagi qonunlar) ishlab chiqishda faol ishtirok etishlari lozim. Kasaba uyushmalari mehnatkashlar mehnat sharoitlari, turmush tarzi va dam olishlarini tashkil etish va yaxshilash uchun harakat qiladilar.

Kasaba uyushmalari moliyasini tashkil qilish, asosan, o'zida jamoat birlashmalari moliyasiga xos bo'lgan xususiyatlarni aks ettiradi. Kasaba uyushmalari va ularga bo'ysunuvchi korxona va tashkilotlar quyidagi uch tur pul munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi:

- kasaba uyushmalari va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar. Ular ikki tomonli xarakterga ega, ya'ni a'zolar kirish va a'zolik badallarini to'laydi va ikkinchi tomondan, kasaba uyushmalaridan har xil moddiy va moliyaviy yordam oladilar;

CamScanner yordamida skanerlangan

- kasaba uyushmalarini korxona, tashkilot va birlashmalar bilan moliyaviy munosabatlari. Ular tarkibiga ish haqidan ajratmalar, korxonalarning ixtiyoriy badallari, jumladan, madaniy tadbirlar o'tkazish uchun ajratmalar kiradi;

- kasaba uyushmalari tizimi ichidagi pul munosabatlari, ya'ni kasaba uyushmalari yuqori va quyi bo'g'inlari o'rtasidagi, kasaba uyushmalari va ular qaramog'idagi ijtimoiy-madaniy muassasalar, xo'jalik tashkilotlari o'rtasidagi pul munosabatlari va h. k. Kasaba uyushmalari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun mustahkam moddiy-moliyaviy vositaga egadirlar. Ularning ixtiyorida sihatgohlar, pansionatlar, dam olish uylari, turistik bazalar, madaniy muassasalari, sport inshootlari mavjud. Mazkur fondlarning ayrim qismi davlat (byudjet) mablag'larini jalb etish hisobiga yaratilgan. Kasaba uyushmalari qator qo'shma korxonalar, tijorat banklari kabi yirik investorlarning ta'sischilari, ya'ni ular nizom jamg'armasining mulkdorlari hisoblanadi. Kasaba uyushmalari mablag'larining bir qismi qimmatli qog'ozlarni sotib olishga safarbar etilgan.

Kasaba uyushmalari to'la moliyaviy mustaqil bo'lib, davlat byudjeti oldida o'zining asosiy faoliyati bo'yicha hech qanday moliyaviy majburiyatlarga ega emas (ularga qarashli bo'lgan korxonlar foyda, va h. k. soliqlaridan tashqari).

Kasaba uyushmalari tashkilotlarining o'z mablag'lari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a'zolik badallari;
- xo'jalik tashkilotlari faoliyatidan daromadlar;
- pullik tadbirlardan daromadlar.

Kasaba uyushmalari tashkilotlari daromadlarida a'zolik badallari ular umumiy hajmining yarmidan ko'p qismini tashkil etadi. A'zolik badallari hisoblangan daromad solig'idan 0,01% miqdorida belgilanadi.

Kasaba uyushmalari tashkilotlari o'z daromadlarining ikkinchi manbai Kasaba uyushmalari tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyati, jumladan, uning qaramog'idagi korxona va tashkilotlar, yordamchi xo'jaliklar (qishloq xo'jaligi, savdo, transport, sanoat, maishiy xizmat va h.k.) yuritilishi bilan bog'liqdir. Kasaba uyushmalari tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyati o'zini-o'zi qoplash tamoyiliga asoslanadi. Kasaba uyushmalari tizimi ichida o'z mablag'larini bo'g'inlar o'rtasida qayta taqsimlash bilan bog'liq smeta asosidagi moliyalashtirish ham qo'llanilishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

Kasaba uyushmalari tashkilotlarining xarajatlari ularning nizom vazifalaridan kelib chiqadi. Ular tarikibiga avvalo, moddiy yordam ko'rsatish, mehnat muhofazasi hamda ma'muriy-xo'jalik xarajatlari kiradi. Tashkiliy xarajatlariga yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazish va safar xarajatlari kiradi. Kasaba uyushmalari xarajatlarining belgilovchi qismi madaniy va sport muassasalarini saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq.

Kasaba uyushmalarining umumiy konfederatsiyasi (KUUK) Xalqaro tashkilot – Umumjahon Kasaba uyushmalari federasiyasi (UKF) tarkibiga kiradi. Shuning uchun KUUK xarajatlariga xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash xarajatlari, jumladan, UKFga a'zolik badallarini to'lash xarajatlari kiradi.

Kasaba uyushmalari tashkilotlari moliyasi vertikal boshqaruv tizimini hisobga olgan holda tuziladi. Kasaba uyushmalarining daromadlari uning yuqori va quyi tashkilotlari orasida taqsimlanadi. A'zolik badallari, asosan, birlamchi tashkilotda qoladi va uning ayrim qismi Kasaba uyushmalari bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanadi. Hozirda mamlakatimizda mustaqil kasaba uyushmalarining konfederasiyasi (MKUK) shakllangan va faoliyat yuritmoqda.

Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar jamoat birlashmalarining muhim ko'rinishidir. Bu yerda jamoaga birlashtirishning asoslari sifatida g'oyaviy tamoyillar yoki ijtimoiy g'oyalar maydonga chiqadi. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar moliya tizimi boshqa jamoat birlashmalaridagi kabi bo'lsada, ma'lum xususiyatlarga ham ega.

Har qanday siyosiy partiya faoliyatining asosiy manbai sifatida a'zolik badallari maydonga chiqadiki, ular odatda barcha xarajatlarni qoplashga imkon bermaydi. Shu bilan bir vaqtda ijtimoiy harakatlar uchun bundan tashqari korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, xususiy tadbirkorlar va alohida fuqarolarning jamg'armalari va hayriya – ehsonlari ham qo'llaniladi. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar daromadlari manbalarining uchinchi guruhiga nashriyotchilik va boshqa faoliyatdan tushumlar kiradiki, ushbu manba tijorat xususiyatiga ega bo'ladi.

Demokratik jamiyatlarda ko'p holatlarda siyosiy partiyalarni nafaqat to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish, balki ularga moddiy yordam (yig'ilishlar uchun binolarni tekinga yoki imtiyozli shartlarda berish, siyosiy-partiyaviy yo'nalishdagi muzeylarni moliyalashtirish va h.k.) ko'rsatish uchun ham davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish qonun yo'li bilan taqiqlangan. Shu bilan bir vaqtda qonunan rasmiylashtirilgan

CamScanner yordamida skanerlangan

ma'lum cheklanishlar ham ko'zda tutilishi mumkin. Masalan, Chexiya va Slovakiyada parlamentga saylangan barcha partiya va harakatlar har bir saylov ovozi uchun 10 krondan mablag' oladi. Shunday qilib, davlat oz miqdorda bo'lsada partiyalar saylov tadbirlarini va ularning joriy faoliyatini subsidiyalashtiradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar natijasida siyosiy partiyalarning moliyaviy ta'minoti, shu jumladan davlat byudjetidan ham moliyalashtirishning huquqiy asosi yaratildi, ya'ni 2004-yil 30-aprelda siyosiy partiyalarni moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Unga asosan siyosiy partiyalarni moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

– kirish va a'zolik badallari, agar siyosiy partiyaning ustavida bunday badallar to'lash nazarda tutilgan bo'lsa;

– qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan qonunga muvofiq ajratiladigan mablag'lar;

– O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan qonunga muvofiq beriladigan hayriya yordamlari.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish qonuniylik, ochiqlik, oshkoralik va siyosiy partiyalarning teng huquqliligi kabi asosiy prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, qonunda siyosiy partiyalar faoliyatining turli jabhalarni davlat tomonidan moliyalashtirish ko'zda tutilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunining 7-moddasida siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish to'g'risida quyidagilar nazarda tutilgan: «Siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga (bundan buyon matnda qonunchilik palatasi deb yuritiladi) saylov yakunlari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini olgan bo'lsa, o'zining ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining yillik hajmi shu mablag'larni ajratish mo'ljallanayotgan yildan oldingi yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan bazaviy miqdorning ikki foizini qonunchilik palatasiga o'tkazilgan oxirgi saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolar soniga ko'paytmasi miqdorida shakllantiriladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan davlat mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonunchilik palatasiga oxirgi saylovning O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan aniqlangan natijalari asosida bu mablag'larni olish huquqiga ega bo'lgan siyosiy partiyalar o'rtasida ularning qonunchilik palatasida olgan deputatlik o'rinlari miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlaydi».

Mazkur qonunning 8-moddasida esa, siyosiy partiyalarning qonunchilik palatasiga va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishini davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi keltirilgan: «Siyosiy partiyalarning qonunchilik palatasiga va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish belgilangan tartibda faqat ana shu maqsadlar uchun ajratiladigan davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalarni saylovda boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish va moddiy jihatdan o'zgacha tarzda qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalarning qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining bir deputatlikka nomzod hisobiga to'g'ri keladigan miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Siyosiy partiyaning qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'lari shu partiyadan qonunchilik palatasi deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatga olingandan keyin ro'yxatga olingan nomzodlar soniga muvofiq hajmda siyosiy partiyaning hisob-kitob varag'iga belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasiga saylovda siyosiy partiyalarning ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari siyosiy partiya tomonidan:

– saylovoldi ko'rgazmali tashviqot vositalarini nashr qilishga;

CamScanner yordamida skanerlangan

– qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning televideniya, radio orqali va boshqa ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tashkil etishga;

– qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga;

– qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakillari va bevosita saylov okrugida saylovoldi tashviqotini o'tkazish uchun jalb qilinadigan boshqa faollar ishini tashkil etishga;

– saylov kampaniyasini o'tkazishga doir umumpartiyaviy tadbirlarga sarflanishi kerak.

Agar qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha siyosiy partiya fraksiya tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini ololmagan bo'lsa, siyosiy partiyaning qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari mazkur partiyaning boshqa manbalardan olgan mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qaytarilishi kerak».

Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish manbai va uni ajratish tartibi qonunning 10-moddasida keltirilgan: «Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish manbai O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'laridir.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'lari siyosiy partiyalarning hisob-kitob varaqlariga belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Moliya yili uchun ajratilgan, lekin shu yil mobaynida siyosiy partiya tomonidan foydalanilmagan davlat mablag'lari moliya yili tugaganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qaytarilishi kerak. Siyosiy partiya davlat mablag'larini olishdan voz kechishga haqli».

Shuningdek, siyosiy partiyalarning daromadlari yuridik va jismoniy shaxslarning hayriya mablag'lari hisobidan ham shakllanishi mumkin. Siyosiy partiyalarga hayriya yordamlari berishning tartibi va umumiy jihatlari yuqoridagi qonunning 3-qismida keltirilgan. Unga ko'ra siyosiy partiya hayriya yordamini faqat O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bundan mustasno) va fuqarolaridan pul shaklida hamda mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tarzida va faqat ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun olish huquqiga ega.

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan hayriya yordami berish ixtiyoriy ravishda va ularning faqat o‘z mablag‘laridan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasining bir yuridik shaxsidan bir yil mobaynida olgan hayriya yordami summasi hayriya yordami berilgan yilning 31-dekabrdagi holatiga ko‘ra belgilangan bazaviy miqdorning besh ming baravaridan oshmasligi lozim. Hayriya yordami, agar u yuqorida ko‘rsatilgan summadan ortiqroq bo‘lsa, olingan kundan e’tiboran bir oy ichida siyosiy partiya hayriya yordami beruvchiga uni qaytarishi, qaytarish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa, davlat daromadiga o‘tkazishi lozim.

Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasining bir fuqarosidan bir yil mobaynida olgan hayriya yordami summasi hayriya yordami berilgan yilning 31-dekabrdagi holatga ko‘ra belgilangan bazaviy miqdorning besh yuz baravaridan oshmasligi lozim. Ushbu cheklash siyosiy partiya a’zolari partiya ustaviga asosan to‘laydigan a’zolik badallariga tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi siyosiy partiyaga pul mablag‘lari shaklidagi hayriya yordamini berishda uni siyosiy partiyaning hisob-kitob varag‘iga shaxsan, pasporti yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatni taqdim etgan hamda to‘lov topshiriqnomasida yoxud pul jo‘natmasida familiyasi, ismi, otasining ismi va pasportiga oid ma’lumotlarni ko‘rsatgan holda o‘z mablag‘laridan o‘tkazadi.

Hayriya yordami, agar yuqorida ko‘rsatilgan summadan ortiqroq bo‘lsa, olingan kundan e’tiboran bir oy ichida siyosiy partiya hayriya yordami beruvchiga uni qaytarishi, qaytarish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa, davlat daromadiga o‘tkazishi lozim.

Siyosiy partiyalarga pul mablag‘lari shaklidagi, mol-mulk berish, xizmatlar ko‘rsatish, ishlar bajarish tariqasidagi (shu jumladan grantlar ajratish, texnik yordam ko‘rsatish, safarlar bilan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida o‘tkaziladigan treninglar, seminarlar, konferensiyalar bilan bog‘liq xarajatlarga haq to‘lash orqali) hayriya yordami quyidagilar tomonidan berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi:

– chet davlatlar;

– chet davlatlarning yuridik shaxslari, ularning vakolatxonalari va filiallari;

– xalqaro tashkilotlar, ularning vakolatxonalari va filiallari;

– chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar;

CamScanner yordamida skanerlangan

– chet el fuqarolari;

– fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, diniy tashkilotlar va nomi yashirilgan yoki faqat tahallusi ko'rsatilgan shaxslar tomonidan siyosiy partiyalarga pul mablag'lari shaklida, mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tarzida hayriya yordami berilishiga ham yo'l qo'yilmaydi.

Siyosiy partiyalar uchun boshlang'ich partiya tashkilotlari va markaziy boshqaruv apparati mavjudligi sharoitida boshqarishning vertikal tarkibi xosdir. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar moliyasini tashkil etish uchun yuqori va quyi partiya tashkilotlari o'rtasidagi, jumladan, dotatsiya shaklidagi ichki partiyaviy moliyaviy munosabatlar ham xosdir.

Siyosiy partiyalar moliyaviy rejalarida daromadlar tarkibini to'liqligini ko'rish mumkinki, ular tarkibida tijorat hisobi asosida xo'jalik yurituvchi tashkilotlardan tushum muhim o'rin eggallaydi. Ijtimoiy harakatlarda moliyaviy reja sifatida yillar bo'yicha farq qiladigan smeta maydonga chiqadi.

Alohida siyosiy partiyalar xarajatlarining tarkibi ular faoliyatining ko'lamiga bog'liq. Mazkur xarajatlar siyosiy partiya nizom faoliyati bilan bog'liq bo'lib o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- partiya rahbariyati va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ish haqi xarajatlari;
- mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazish xarajatlari;
- ko'rgazmali tashviqot bo'yicha xarajatlar;
- memorial uy-muzeylarni saqlashni joriy xarajatlari.

Bundan tashqari bu xarajatlar tarkibida ma'muriy binolarni saqlash va yangilarini qurish xarajatlari va boshqalar ham hisobga olinishi mumkin.

Ijtimoiy harakatlar smetasida asosiy o'rinni homiylarning va maxsus maqsadli badallar mablag'larining harakatning faol qatnashchilari uchun qilinadigan xarajatlar egallaydi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxona moliyasining ahamiyati nimada?
2. Korxona moliyasining davlat moliya tizimidagi o'rni va ahamiyati qanday?

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Korxonalar va moliya tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida moliyaviy munosabatlar shakllanishiga asosiy sabab nimada?
4. Tijorat va notijorat, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasi korxonalari moliyasining o‘ziga xos jihatlarini tushuntirib bering.
5. Korxonaning moliyaviy resurslari tarkibiga nimalar kiradi?
6. Korxonaning asosiy pul fondlari va zahiralari qaysilar va ular qanday shakllanadi?
7. Tijorat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning moliyaviy resurslari manbasiga nimalar kiradi?
8. Korxonaning asosiy va aylanma mablag‘lariga nimalar kiradi?
9. Korxona moliyaviy siyosatinning maqsadlarini tushuntirib bering.
10. Korxona qachon to’lovga qodir bo’ladi?
11. Korxonalar moliyasining xususiyatlari.(moliyaviy natijalar....)
12. Korxonalar uzoq muddatli aktivlarining doiraviy aylanishida moliyaning roli.(Amartizasiya....)
13. Korxonalar xarajatlari va uning turkumlanishi.(tannarx, davr xarajatlari....)
14. Korxonalarning asosiy va aylanma aktivlari.(Asosiy vositalar takibi,oborot mablag’lari)
15. Korxonalarning daromadlari, xarajatlari va foydasi. (STST, Davr xarajati)

CamScanner yordamida skanerlangan

9-MAVZU: SUG'URTA TASHKILOTLAR MOLIYASI

Reja:

1. **Sug'urtaning mohiyati, funksiyalari va turlari.**
2. **Sug'urta bozori.**
3. **Sug'urta tashkilotining daromadlari va ularning guruhlanishi.**
4. **Sug'urta tashkilotining xarajatlari va ularning tarkibi.**

Kalit so'zlar: sug'urta fondlari, zahira fondi, xavf-xatar funksiyasi, jamg'arish funksiyasi, himoyalash funksiyasi, sug'urta bozori.

1. Sug'urtaning mohiyati, funksiyalari va turlari

Sug'urta ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriya sifatida jamiyat shakllanishining ilk davrlarida vujudga kelib, ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas qismiga aylangan. Sug'urta tushunchasi mulkning saqlanishiga, tabiy ofatlar, yong'in, o'g'irlik va iqtisodiy hayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf-xatarlari natijasida nobud bo'lishi yoki yo'qotilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlardir.

Sug'urta – bu uning ishtirokchilari o'rtasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisidir.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri – bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun xavotirlanishining asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi.

Ko'rilgan zararni qoplashning ancha oddiy shakli natural sug'urta bo'lgan. Don, yem-xashak va boshqa bir turdagi oson taqsimlanadigan mahsulotlar hisobidan alohida talofat ko'rgan dehqonlarga moddiy yordam ko'rsatilgan. Bunday sug'urta, chegaralangan bo'lib, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan o'z o'rnini pul shaklidagi sug'urtaga bo'shatib bergan.

Jamiyat taraqqiyoti natijasida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlarini himoya qilishning asosiy vositasiga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash va aholini turli tabiy ofatlar va hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning muhim o'rni bor. Sug'urta bozori

CamScanner yordamida skanerlangan

mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiy ofatlardan saqlashda, turli falokatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar har bir xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun tadbirkorlik bilan harakat qilishi, shu bilan birga favqulodda va tasodifiy zararlarning oqibatida yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash, ularning oldini olishga ham alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida sug'urtaga bo'lgan talabning ortib borishini ta'minlab beradi.

Sug'urta faoliyatini nafaqat korxona miqyosida, balki mamlakat miqyosidagi munosabatlarda ham amalga oshirish zarurdir. Sug'urtaning qayta taqsimlash munosabatlari bir tomondan, sug'urta fondini shakllantirish, ikkinchi tomondan, shu fonddan sug'urta ishtirokchilarining zararini qoplash bilan bog'liqdir.

Sug'urta – ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liq. Takror ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uzliksizlikdir. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda, jumladan rivojlangan jamiyatda ham mavjud chtiyojlarini qondirish uchun zarurdir. Agarda ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tabiy ofatlar yoki boshqa favqulodda hodisalarning (yong'inlar, epidemiyalar, suv toshqinlari) salbiy oqibatlari ta'sirida to'xtab qolishi yoki sikllı o'zgarishlarga uchrashi mumkin bo'lsa, sug'urta avvalo ularning oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning me'yoriy sharoitlarini qayta tiklashga imkon beradi.

Inson faoliyati va tabiy ofatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilikka asoslanganligi, birinchi navbatda, tabiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish hamda yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obyektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud chtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug'urta vositasida himoyalashni tashkil etadi.

Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, moliya to'laligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa, faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarini

CamScanner yordamida skanerlangan

qamrab oladi. Sug'urtaning xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urtaning tasodifiy, oldindan ko'zda tutilmagan va yengib bo'lmaydigan holatlar bilan bog'liqligi, ya'ni sug'urta holatlari ehtimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi qayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi.

2. Sug'urta ko'rilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar o'rtasida qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli ishtirokchilar soni yetarlicha katta bo'lganda zarar ko'ruvchi xo'jaliklar soni doimo sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bo'lish ehtimolligiga asoslanadi. Zararni bunday qoplashni tashkil qilish uchun maqsadga yo'naltirilgan sug'urta fondi tashkil qilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining badallari hisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari faqatgina uni tashkil qilganlar o'rtasida ishlatiladi, sug'urta badalining hajmi esa, har bir ishtirokchining zararni qoplashdagi ulushini bildiradi. Shuning uchun, sug'urta ishtirokchilarining doirasi qanchalik keng bo'lsa, sug'urta badalining hajmi shunchalik oz va sug'urta ham samarali bo'ladi. Agarda sug'urtada millionlab sug'urtalanuvchilar ishtirok etsa va yuz millionlab obyektlar sug'urtalansa, u holda minimal badallar hisobiga maksimal zararlarni qoplash imkoni paydo bo'ladi.

3. Sug'urta faoliyati zararlarni qoplashni hududiy birlik va ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda yil davomida sug'urtalanuvchi xo'jaliklar o'rtasida sug'urta fondini hududlar bo'yicha samarali qayta taqsimlash uchun yetarlicha katta hudud va anchagina sug'urtalashga tegishli obyektlar talab qilinadi. Faqatgina mazkur shartga rioya qilish bilangina katta hududlarni qamrab oluvchi tabiy ofatlar yetkazgan zararlarni qoplash imkoni bo'ladi.

Zararni sug'urta yordamida qoplash ma'lum vaqt davomida amalga oshiriladi, chunki ixtiyoriy sug'urta doimo vaqt bilan chegaralanadi.

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyatiga uning funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. Ushbu funksiyalar sug'urta – moliya tizimining bir bo'g'ini sifatida xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tavakkalchilik funksiyasi sug'urtaning talofat ko'rgan xo'jaliklarga pullik yordam ko'rsatish bo'yicha asosiy yo'nalishi zarar ko'rishning tasodifiy ehtimolligi bilan bevosita bog'liq. Aynan tavakkalchilik funksiyasining amal qilish doirasida sug'urta ishtirokchilari o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisalari

CamScanner yordamida skanerlangan

oqibatlari bilan bog'liq pul shaklidagi qiymatning qayta taqsimlanishi ro'y beradi.

Oldini olish funksiyasi sug'urta fondi mablag'larining bir qismi hisobidan sug'urta tavakkalchiligini kamaytirish bo'yicha tadbirlar moliyalashtiriladi.

Jamg'arish funksiyasida sug'urta mablag'lari sug'urta fondlari sifatida to'planadi va ma'lum muddatgacha sug'urtalash shartnomalari bo'yicha mablag'larni jamg'arish uyg'unlashib ketadi. Bunda pul mablag'larini jamg'arish sug'urtaviy himoyaga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqdir. Shu bilan sug'urta jamg'arish funksiyasini bajarishi amalga oshadi.

Sug'urtaning nazorat funksiyasi sug'urta fondining qat'iy maqsadli shakllantirilishi va ushbu mablag'lardan to'g'ri foydalanishdan iborat. Mazkur funksiya yuqoridagi funksiyalardan kelib chiqadi va muayyan sug'urta munosabatlarida aks etadi. Nazorat funksiyasi qonunchilik va turli direktiv hujjatlar asosida sug'urta taomillarining to'g'ri bajarilishi ustidan moliyaviy sug'urta nazoratini amalga oshiradi.

Sug'urtaning tasniflanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning turli soha, tarmoq va faoliyat turlari doirasida amalga oshiriladi. Shunga muvofiq sug'urta munosabatlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Mulkiy sug'urta – moddiy qiymatliklarni turli baxtsiz hodisa va tabiy ofatlardan zarar ko'rmasligini ta'minlash yoki ro'y bergan holatda qoplash hisoblanadi; fuqarolar hayot sug'urtasida – ularning hayoti, sog'ligi, mehnatga layoqati; javobgarlik sug'urtasida sug'urtalanuvchilarning turli javobgarliklari, mas'uliyatlari, majburiyatlari; tadbirkorlik faoliyatida esa uning tadbirkorlik ishlari turli tavakkalchiliklardan sug'urtalanadi.

Mulkiy sug'urta mulkchilik shakli va sug'urtalanuvchilar toifalaridan kelib chiqib, bir nechta tarmoqlarga bo'linadi: davlat korxonalari mol-mulk sug'urtasi, jamoa xo'jaliklari, ijarachilar, shirkatlar, hissadorlik jamiyatlari va jamoatchilik tashkilotlari mol-mulk sug'urtasi hamda fuqarolar mol-mulk sug'urtasi.

Mulkiy sug'urtaning turlariga turli jihozlar, asbob-uskunalar, chorva mollari, ro'zg'or buyumlari, transport vositalari, qishloq xo'jalik ekinlari hosili va boshqa turli xo'jalik kategoriyalari sug'urtasi misol bo'la oladi.

Javobgarlik sug'urtasi – qarz sug'urtasi hamda yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq bo'lib, fuqarolik javobgarligi sug'urtasi ham

CamScanner yordamida skanerlangan

deb yuritiladi. Tadbirkorlik xatari sug'urtasida daromadlarning bevosita hamda bilvosita yo'qotilishi bilan bog'liq risklar sug'urtalanadi.

Javobgarlik sug'urtasi bo'yicha – kreditni yoki boshqa qarzlarni qaytara olmaslikdan sug'urtalash, yuqori xavf-xatar manbalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, xo'jalik faoliyati jarayonida zarar yetkazish holati bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtasi va boshqalar.

Ijtimoiy sug'urtaning turlariga pensiya va turli nafaqalar sug'urtasi kiradi.

Shaxsiy sug'urta hayotni aralash sug'urtasi, o'lim holati va mehnatga layoqatini yo'qotishdan sug'urtalash, bolalar sug'urtasi, qo'shimcha pensiya sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi dastgohlarni to'xtab qolishi, savdodagi to'xtalishlar natijasida zarar kurish yoki foyda ololmaslik sug'urtasi, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash tavakkalchiliklari sug'urtasi va boshqa turlarga bo'linadi.

Hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir-yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini qamrab oladi).

Umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Majburiy sug'urta – davlat sug'urta tashkilotlari amalga oshirish huquqiga ega sug'urta turi. Shu bilan birga sug'urta tashkilotlari majburiy sug'urta qilinishi lozim bo'lgan obyektlarning but saqlanishi ustidan nazorat o'rnatishga haqlidirlar. Majburiy sug'urtaning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Majburiy sug'urta qonun yo'li bilan o'rnatiladi. Shunga mos ravishda sug'urta qildiruvchi tegishli obyektlarni sug'urtalashga, sug'urtalovchilar esa, sug'urta hodisalari ro'y berganda tegishli sug'urta to'lovlarini to'lashga majburdirlar.

2. Qonunda ko'rsatilgan majburiy sug'urta obyektlarini hammasini sug'urtaga qamrab olish. Buning uchun sug'urta organlari mamlakatda har-yili sug'urtalangan obyektlarni, hisoblangan sug'urta badallarini va ularni o'rnatilgan muddatlarda undirilishini hisobga olib boradilar.

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Qonunda ko‘rsatilgan obyektlarga majburiy sug‘urtaning avtomatik ravishda qo‘llanilishi. Sug‘urtalanuvchi xo‘jalikda sug‘urtaga tegishli yangi obyekt paydo bo‘lganligi haqida sug‘urta organlariga xabar berishi shart emas. Bu mulk sug‘urta sohasiga avtomatik ravishda qo‘shiladi. Navbatdagi ro‘yxatga olish davrida hisobga olinadi va sug‘urtalanuvchiga to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta badallari ko‘rsatiladi.

4. Majburiy sug‘urtani sug‘urta badallari to‘lanishidan qat’iy nazar amal qilishi. Agarda sug‘urta qildiruvchi tegishli sug‘urta badallarini to‘lamagan hollarda, badallar sud orqali undirib olinishi mumkin. Sug‘urta badallari to‘lanmagan mulkni talofat ko‘rishi yoki shikastlanish hollarida sug‘urta to‘lovlari to‘lanaveradi, faqatgina sug‘urta badallari bo‘yicha qarz va kechiktirilgan kunlar uchun jarima so‘mmasi ushlab qolinadi.

5. Majburiy sug‘urtaning muddasizligi. Majburiy sug‘urta sug‘urtalanuvchi sug‘urtalangan obyektdan foydalanish davrining to‘la qismida amal qiladi. Mulkni boshqa shaxsga o‘tishi bilan ham sug‘urta to‘xtatilmaydi. U faqatgina sug‘urtalangan mulk to‘la talofat ko‘rgandagina o‘z kuchini yo‘qotadi.

6. Majburiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta ta’minotining me’yorlashtirilishi. Sug‘urtaviy baholash va sug‘urtaviy qoplash tartibini soddalashtirish maqsadida sug‘urta bahosiga nisbatan foizlarda yoki bir obyektga so‘mlarda sug‘urta ta’minotining me’yorlari belgilanadi.

Ixtiyoriy sug‘urta – tomonlarning xohish-irodasiga ko‘ra amalga oshiriladigan sug‘urta hisoblanadi. Ixtiyoriy sug‘urtaning shartlari tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi. Sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalovchining huquqlari hamda burchlari, shuningdek, har bir sug‘urta turining aniq shartlari tegishli sug‘urta shartnomalari bilan belgilab quyiladi. Ixtiyoriy sug‘urtaning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Ixtiyoriy sug‘urta qonun asosida va ixtiyoriy ravishda amal qiladi. Qonun ixtiyoriy sug‘urtaga tegishli obyektlarni va sug‘urtaning umumiy shartlarini belgilab beradi. Konkret shartlar esa sug‘urtalovchilar tomonidan ishlab chiqiladigan sug‘urta qoidalari orqali tartibga solinadi.

2. Sug‘urtada ixtiyoriy qatnashish to‘la holda faqat sug‘urtalanuvchilar uchun xarakterlidir. Agar sug‘urtalanuvchining xohishi sug‘urta qoidalariga zid kelmasa, sug‘urtalovchi obyektni sug‘urta qilishdan bosh tortish huquqiga ega emas. Bu tamoyil sug‘urtalanuvchining birinchi talabi bo‘yicha sug‘urta shartnomasi tuzilishini kafolatlaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Ixtiyoriy sug'urtani tanlab, qamrab olishi. Barcha shaxslar ham unda ishtirok etish istagini bildiravermaydilar. Bundan tashqari, shartnomalar tuzishda sug'urta shartlari bo'yicha chegaralashlar ham amal qiladi.

4. Ixtiyoriy sug'urta doimo sug'urta muddati bilan chegaralanadi. Bunda muddatning boshlanishi va tugashi shartnomada qat'iy kelishib olinadi. Shundan kelib chiqib, sug'urta qoplamasi yoki sug'urta so'mmasi sug'urta holati faqatgina sug'urta davrida sodir bo'lgandagina to'lanadi. Ixtiyoriy sug'urtaning uzluksizligini faqatgina yangi muddatga qayta shartnoma tuzish yo'li bilangina ta'minlash mumkin.

5. Ixtiyoriy sug'urta faqatgina bir martalik yoki davriy sug'urta badallari to'langandagina amal qiladi. Ixtiyoriy sug'urta shartnomasining kuchga kirishi bir martalik yoki birinchi sug'urta badalini to'lanishi bilan asoslanadi. Uzoq muddatli sug'urta bo'yicha navbatdagi badalning to'lanmasligi natijasida shartnomaning amal qilishi to'xtaydi.

6. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minoti sug'urtalanuvchi istagidan kelib chiqadi. Mulkiy sug'urta bo'yicha sug'urtalanuvchi sug'urta so'mmasini sug'urta bahosi chegarasida belgilashi mumkin. Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urta so'mmasi shartnomada tomonlar kelishuvi orqali belgilanadi.

2. Sug'urta bozori

Sug'urta bozori – sug'urta hodisasi ro'y berganda jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy mafaatlarini sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari hisobidan himoya qilishda aks etuvchi sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Sug'urta bozorini amal qilishining asosiy sharti sug'urta xizmatlariga ehtiyoj (talab) va bu ehtiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalovchilarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Sug'urta bozori tarkibiy jihatdan tashkiliy-huquqiy va hududiy belgilar bo'yicha tasniflash mumkin.

Tashkiliy-huquqiy jihatdan aksiyadorlik, xususiy va davlat sug'urta tashkilotlaridan iborat bo'ladi.

Hududiy jihatdan milliy, mintaqaviy va xalqaro sug'urta bozorlariga bo'linadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

1-jadval

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlari

№	Sug‘urta kompaniyalari	Tashkiliy huquqiy shakli
1	ALSKOM	OAJ
2	Agro Invest Sug'urta	OAJ
3	Alfa Invest	MChJ
4	Alfa Life	MChJ
5	Asia Inshurans	MChJ
6	Asko-Vostok	MChJ
7	Chartis Uzbekistan	MChJ
8	DD General Insurance	MChJ
9	Euroasia Insurance	MChJ
10	Global Insurance Gr.	MChJ
11	Gross Insurance	MChJ
12	Hamkor Sug'urta	MChJ
13	Ingo-Uzbekistan	MChJ
14	Kafil-Sug'urta	MChJ
15	Kafolat	DASK
16	Kapital Sug'urta	MChJ
17	Madad	MChJ
18	O'zagrosug'urta	DASK
19	O'zbekinvest	DUK
20	O'zbekinvest Hayot	Sho‘ba korxonasi
21	Temir Yo'l - Sug'urta	MChJ
22	Universal Sug'urta	MChJ
23	XALQ SUG'URTA	MChJ

Milliy sug‘urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug‘urta muassasalarini va ularning faoliyatini qamrab oladi. Mustaqillikgacha bo‘lgan davrda mamlakatimizda davlat sug‘urtasi mavjud edi. Hozirgi kunda milliy sug‘urta bozorida 35 ga yaqini sug‘urta tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan eng yiriklari “O‘zbekinvest” EIMSK, “O‘zagrosug‘urta” DASK, “Kafolat” DASK, Agro Invest Sug'urta, Alfa Invest va boshqa sug‘urta kompaniyalaridir.

Bulardan tashqari bir nechta chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan, xususiy sug‘urta kompaniyalari ham o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Jahondagi eng yirik sug'urta bozori AQShga tegishli. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tushumlarining qariyib 50% dan ortig'i AQSh hissasiga to'g'ri keladi.

Mintaqaviy sug'urta bozori deganda savdo-iqtisodiy va boshqa jihatlardan o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan bir nechta mamlakatlar hududlarini qamrab oluvchi bozor tushuniladi.

Xalqaro sug'urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug'urta faoliyatini olib boruvchi mamlakatlarning sug'urta bozori tushuniladi.

Sug'urta bozorining subyektlari quyidagilardan iborat:

– o'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar (sug'urta qildiruvchilar);

– bunday xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar (sug'urtalovchilar);

– mazkur shaxslar o'rtasidagi vositachilar (sug'urta agentlari va brokerlari);

– sug'urtalangan shaxslar (sug'urtalanuvchilar);

– manfaatdor shaxslar (naf oluvchilar);

– uchinchi shaxslar.

Ichki sug'urta bozorini moliyaviy tarkibini sug'urta tashkilotlarining moddiy va moliyaviy resurslari tashkil qiladi. Sug'urta bozorining asosiy vazifasi sug'urta xizmatlariga talabni shakllantirish (marketing, reklama), shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini sotish, maqsadga muvofiq va egiluvchan tarif siyosatini olib borish, o'z infratuzilmasini tartibga solish hisoblanadi.

Sug'urta brokeri — sug'urta bozorining mustaqil subyekti bo'lib, o'z nomidan ish ko'radi. Ular sug'urta bozorining shart-sharoitlarini va iste'molchilarining xulq-atvorini muntazam ravishda o'rganib boradilar.

3. Sug'urta tashkilotining daromadlari va ularning guruhlanishi.

Sug'urta tashkiloti hayotni sug'urta qilish borasida tuzilgan har bir shartnomada turli darajadagi sug'urta tarifini qo'llashi yoki daromadlilik me'yorini har bir shartnoma bo'yicha mustaqil ravishda hisoblab chiqishi va belgilashi mumkin. Hayotni sug'urta qilish klasslari bo'yicha daromadlilik me'yorlari qat'iy belgilangan bo'lishi, uning tarif stavkalariga o'zgarishlar kiritish esa, davlatning vakolatli organi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Sug'urta tashkilotlarida asosiy daromad va xarajatlar hisobi o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Sug'urtani amalga oshirish, qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish natijasida hisob

CamScanner yordamida skanerlangan

raqamiga kelib tushgan pul mablag'larining jami uning daromadi hisoblanadi.

Sug'urta tashkiloti daromadlarini guruhlashning turli variantlari mavjud. Ular ichida manbalarga ko'ra, olingan daromadlarni uch guruhga bo'lishga asoslangan variant keng qo'llaniladi (1-chizma):

a) sug'urta faoliyatidan olingan daromadlar. Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishdan olingan daromadlar sug'urtachi daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi.

Bu daromadlarning asosiy qismi sug'urta shartnomalari bo'yicha undirilgan mukofotlar hisobiga shakllantiriladi. Sug'urta tashkilotining mukofot tushumlari hajmiga sug'urta majburiyatlari portfelining tarkibi va tuzilishi, tarif siyosati, marketing strategiyasi hamda boshqa qator omillar o'zaro bog'liqlikda ta'sir etadi. Masalan, ishlab chiqilgan marketing strategiyasini unga mos bo'lgan tarif siyosatisiz amalga oshirib bo'lmaydi, o'z navbatida, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan marketing strategiyasi sug'urta portfeli balanslashuvini ta'minlaydi va aksincha.

Sug'urta tashkilotining yana bir daromad manbai qayta sug'urta tizimida qatnashish orqali mukofotlar ulushini undirishdir. Bu ulushning qanday kattalikda bo'lishi qayta sug'urtalashning rivojlanganlik darajasi, unga bo'lgan talab, qayta sug'urtalovchilarning kasbiy etukligi kabi omillar hamda birlamchi sug'urta bozori ko'lami, sug'urta risklarining hajmi kabilarning ta'siriga bog'liqlikda kechadi.


Sug'urta tashkiloti qayta sug'urtalashni amalga oshirish huquqiga ega bo'lsa, u sug'urta hodisasi yuz berganda shartnoma shartlariga binoan qayta sug'urtalashga o'tkazilgan risklar bo'yicha zarar qoplamasidagi ulushini ham undirib oladi.

Sug'urta tashkiloti vositachilik vazifasini ham bajarishi mumkin. Masalan, riskni qayta sug'urtalashga o'tkazish jarayonida sug'urtachi vositachilik haqini undirib oladi. Sug'urta tashkiloti ayrim holatlarga ko'ra, riskni boshqa sug'urtachiga siylov etishi orqali vositachilik va brokerlik rag'batlantirishlarini olishdan ham daromad ko'rishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

1-chizma

Sug'urta tashkilotlari daromadlarining manbalari va tarkibi



Sug'urta tashkilotining mukofot tushumlariga bozor kon'yunkturasi, inflyasiya sur'ati, me'yoriy qonunchilik bazasi, amaldagi soliqqa tortish tizimi, sug'urta bozorining monopollashganlik darajasi, kredit foizi dinamikasi, mamlakatdagi ijtimoiy himoyaning holati va boshqa qator omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'sirining qandayligidan qat'iy nazar amaliyotda sug'urta tashkilotining mukofot tushumlari oqimi ortishi yoki kamayishi hodisasi kuzatiladi.

O'zaro kelishuv shartnomasiga muvofiq sug'urta tashkiloti sug'urta riskining ma'lum ulushi bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu jarayonda u sug'urta operatsiyalarini birgalikda sug'urtalash mexanizmi orqali sug'urta mukofotining mos bo'lgan qismi o'z hisobiga o'tkazilishidan ham daromad olishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

Teng ulushdagi qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtachiga tantem to'lovlari ham nazarda tutilishi sug'urtachining qayta sug'urtalovchining foydasida o'z ulushiga ega bo'lishi shaklidir.

B) investitsiya joylashtiriluvidan olingan daromadlar. Sug'urta tashkilotining ushbu faoliyati to'g'ridan-to'g'ri sug'urta faoliyati bilan bog'liq emas. Sug'urtachining investitsiya joylashtirish imkoniyati sug'urta mukofotlari hisobidan yuzaga keladi. Odatda, sug'urta mukofotlari ma'lum vaqt oralig'ida sug'urtachi ixtiyorida bo'lishi davrida amaldagi me'yoriy qoidalarga asoslanib, daromad aktivlariga joylashtirilishi unga investitsiya daromadlarini keltiradi. Investitsiya imkoniyatlari bo'yicha uzoq muddatga hayotni sug'urtalash zaxiralari ko'proq manfaatlidir.

Sug'urta tashkilotining investitsiya faoliyatidan oladigan daromadlari tarkibi:

- bank jamg'armalari foizlari;
- aksiyalardan dividend foizlari;
- qimmatli qog'ozlardan daromadlar;
- ko'chmas mulkdan olingan daromadlar kabilardan iborat bo'ladi.

Bu faoliyatning ahamiyatli jihati shundaki, sug'urtachi o'z mijozlariga bonus to'lovlarini aynan investitsiya joylashtiriluvidan oladigan manbalari hisobidan to'laydi.

Investitsiya bozorlari rivojlangan mamlakatlarda ushbu faoliyatdan sug'urtachining olgan daromadlari ayrim sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga kelgan zararlarni qoplash imkoniyatini bermoqda.

Shu nuqtai nazardan sug'urta tashkiloti investitsiya faoliyatini samarali olib borishi uning daromad manbalari tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

V) sug'urta tashkilotining boshqa daromadlari. Sug'urtachi sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishi va investitsiya joylashtiriluvidan tashqari boshqa faoliyatdan ham daromad olishi mumkin.

Bunday daromadning manbalari:

- depo mukofotlar hisobiga o'tkazilgan foiz summalari;
- regress tartibida olingan summalar;
- asosiy fondlar, moddiy boyliklar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda;
- ijarachilik faoliyatidan olingan daromadlar;
- sug'urta zaxiralarining qaytim summalari;

CamScanner yordamida skanerlangan

- o‘qitish, maslahat ishlarini olib borish bo‘yicha undirilgan to‘lovlar hisoblanadi.

Sug‘urtachining sug‘urta xizmatlarini sotuvidan tashqari olgan daromadlari asosan o‘z filiallariga ish qog‘ozlarini (hisobot blanklari va shu kabilarni) tayyorlab berish, ularning yangi «mahsulot»ini reklama qilish kabilar hisobiga olinadi. Ayrim hollarda ular ijara munosabatlari orqali ham shakllantiriladi. Sug‘urtachining sotuvdan tashqari daromadlarini hajmi sug‘urta tashkilotining kattaligiga bog‘liqdir.

Sotuvdan tashqari daromadlarni olish uchun amalga oshirilgan xarajatlarni sug‘urta faoliyatiga yoki sug‘urtadan boshqa faoliyatga taalluqli ekanligini aniqlash murakkab kechadi. SHuningdek, sug‘urta tashkiloti ma’lum bir sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urtalashni amalga oshirmayotgan bo‘lsa-da, uni yo‘lga qo‘yish yuzasidan xarajatlarni sotuvdan tashqari daromadlari hisobiga bajaradi.

Ma’lumki, sug‘urtada risklar transformatsiyasi jarayonida hamda bosh tashkilot va filiallar (yakuniy moliyaviy natija balansi yoki hisob raqamiga egaligiga ko‘ra) o‘rtasida mas’uliyat taqsimotining mexanizmi turlichadir.

Sug‘urta faoliyati – sug‘urta hodisasi yuz berishi oqibatida sug‘urtalanuvchining zararini qoplash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos iqtisodiy faoliyat turidir. Sug‘urta hodisasi yuz berishi yoki bermasligiga ko‘ra qoplama to‘lashning ilmiy asoslanganlik (o‘rganilgan, hisoblangan, aniqlangan) me’yorini belgilash va ko‘rilgan zararni sug‘urta tashkilotining zaxira fondidan to‘lash maqsadga muvofiqdir.

Sug‘urta hodisasining yillar bo‘yicha yuz berishi ehtimolligi turlichadir. Ayrim aniq bir yilda bu hodisalarning soni ko‘p bo‘lishi ham mumkin. Aynan shu yil bo‘yicha sug‘urta tashkilotining faoliyati zarar bilan tugashi mumkin. Zaxira fondining mablag‘i etishmasligi holatida sug‘urta tashkilotida qolgan daromad hisobidan uning har yilgi zaxira fondiga ajratma me’yorini qayta ko‘rib chiqish zarur. Statistik ma’lumotlarga asoslanib, qayd etish kerakki, sug‘urtaning ko‘p turlari bo‘yicha amalga oshirilgan sug‘urta qoplamasi undirilgan mukofotlari summasiga nisbatan past foizlarni tashkil etadi. SHunga asoslanib, tariflarni oshirish emas, balki uning tarkibini o‘zgartirish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Qayta sug‘urtalash shartnomasini tuzishda qayta sug‘urtalovchi (Xalqaro terminda «sedent») qayta sug‘urtalash mukofotining ma’lum qismini yoki hammasini deponentga o‘tkazishi nazarda tutilishi mumkin. U shartnoma davri tugashi hamda sug‘urta hodisasi yuz bermagan

CamScanner yordamida skanerlangan

taqdirda mazkur mukofotlar hisobidan olingan depo foizlari bilan birgalikda qayta sug'urtalovchi hisobiga o'tkaziladi. Uning hajmi (foizda) shartnomada qayd etilgan bo'ladi.

Shunday kafolat berilishi qayta sug'urtalash mukofotlarini moliyaviy zaxira sifatida ishlatish imkoniyatini oshiradi.

Fuqarolik qonunchiligiga binoan sug'urta tashkiloti o'z mijozi manfaatlarini himoya qiluvchi vakil sifatida sug'urta hodisasiga sababchi bo'lgan aybdor shaxsga regress da'vo qilish huquqiga ham egadir. Odatda regress tartibidagi summa sug'urtachi o'z kafilligini bajarib bo'lganidan keyin undiriladi. Bunday faoliyat natijasida undirilgan summa sug'urta tashkilotining sug'urta ta'minoti to'lovlari bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun manba hisoblanadi.

Sug'urta tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida o'z faoliyatida foydalanilayotgan asosiy fondlarini sotish huquqiga egadir. SHunda faoliyat bo'yicha sug'urtachining foydasi asosiy fondni sotishdan olgan tushum summasi bilan mulkning balans (qoldiq) bahosida hisobdan chiqarish summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Sug'urta tashkilotining mulki ijaraga berilishi mumkin. Masalan, ko'chmas mulk obyektlari hamda asosiy fondlardan ayrim hollarda ijara obyekti sifatida foydalaniladi. Bu faoliyat natijasida undirilgan ijara to'lovi ham sug'urtachining daromadi hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotining yana bir daromad manbai o'qitish, maslahat ishlari uchun undirilgan to'lovlar summasi, shuningdek, risk-menejment bo'yicha xizmatlar ko'rsatishi, dastur «mahsulot»larini o'rnatib berishi kabilar hisoblanadi. Bu daromadlar sug'urtaga to'g'ridan-to'g'ri daxldor bo'lmasa-da, ammo u bilan uzviy bog'liqlikda shakllanadi.

Sug'urta tashkiloti daromadining shakllanish mexanizmi, tarkibi va tuzilishini o'rganish uning o'ziga xos faoliyat turi ekanligini namoyon etadi.

4. Sug'urta tashkilotining xarajatlari va ularning tarkibi.

Sug'urtachining jami mablag'lar sarfi sug'urta «mahsulot» i tannarxini tashkil etadi. U amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi hamda sug'urtachi xarajatlarning tarkibini belgilashi uchun asos hisoblanadi. Soliqqa tortish bazasini aniqlashda sug'urtachining jami xarajatlari va ularning tarkibini aniqlashtirish ham talab etiladi.

Sug'urta tashkiloti xarajatlarining tarkibi ham xilma-xildir (2-chizma). Sug'urta tashkilotining xarajatlari sakkiz turdan iborat bo'lib,

CamScanner yordamida skanerlangan

har bir tur o'z navbatida, asosiy va maqsadli faoliyat hamda xarajatlarning amalga oshirilishi vaqtiga qarab guruhlanadi. Sug'urta tashkiloti xarajatlarining turlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular o'z ahamiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

a) sug'urtani amalga oshirish xarajatlari. Bu xarajatlar sug'urtachi faoliyatini moliyalashtirish uchun amalga oshiriladi. Sug'urta tashkiloti faoliyatini tahlil etishda mazkur xarajatlar tarkibini ma'lum belgilariga ko'ra guruhlash maqsadga muvofiqdir.

Sug'urtachining faoliyati jarayonida mablag'lar sarf etilishi yuzasidan belgilangan vazifalarga ko'ra, sug'urta tashkiloti daromadi va zararlari haqidagi hisobotiga mos ravishda sug'urta ishini yuritish xarajatlari tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin:

- shartnomalarni tuzish va bajarish xarajatlari;
- investitsiya faoliyati bo'yicha xarajatlar;
- boshqaruv xarajatlari.

B) sug'urta ishini yuritish xarajatlari sarflanishiga ko'ra quyidagicha bo'lish mumkin:

- ish haqi to'lovlari;
- davlat fondlariga ajratmalar, xodimlarni tayyorlash xarajatlari, reklama hamda marketing xarajatlari, xo'jalik xarajatlari va boshqalar;

Sug'urta ishini yuritish xarajatlarining yuzaga kelishi davriga ko'ra, ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

2-chizma

Sug'urta tashkiloti xarajatlarining turlari va ularning tasniflanishi

t/r	Xarajat turlari	Xarajatlarning tasnifi		
		Asosiy faoliyat bo'yicha	Maqsadli faoliyat bo'yicha	Amalga oshirilish vaqtiga ko'ra
1	Ma'muriy-xo'jalik yuritish xarajatlari	Sug'urtalash bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lmagan xarajatlar	Shartnomani amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
2	Vositachilik taqdirlashlarini undirish xarajatlari	Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
3	Reklama va marketing	Sug'urtalash bilan to'g'ridan-to'g'ri	Shartnomani tayyorlash va	Shartnomani tuzishga

CamScanner yordamida skanerlangan

	xizmati xarajatlari	bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	tuzish xarajatlari	qadar
4	Maxsus ish qog‘ozlarini tayyorlash xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
5	Sug‘urta zaxiralariga ajratmalar	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
6	Qayta sug‘urtalash xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
7	Investitsiya joylashtiriluvi xarajatlari	Sug‘urtalash bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	Shartnomani bajarish xarajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
8	Sug‘urta qoplamasi xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	Shartnomani bajarish xarajatlari	Sug‘urta hodisasi yuz berganda

- sug‘urta shartnomasini tuzish uchun oldindan qilingan (ish qog‘ozlarini tayyorlash, statistik ma’lumotlarni yig‘ish, tarif hisob-kitoblari va shu kabi) xarajatlar;

- sug‘urta shartnomasi tuzish davrida qilingan (Xalqaro terminda «acquisition») xarajatlar;

- sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida qilingan (masalan, riskni qayta sug‘urtalashga o‘tkazish bo‘yicha) xarajatlar;

- sug‘urta hodisasi yuz berganda (sabablarini o‘rganish va uning oqibatlarini tugatish uchun) qilinadigan xarajatlar.

Sug‘urta ishini yuritish xarajatlarini, shuningdek, ayrim sug‘urta turi yoki shartnomasiga daxldor bo‘lgan o‘zgaruvchan va barcha tuzilgan sug‘urta shartnomalari portfeliga aloqador bo‘lgan doimiy kabi guruhlarga ham bo‘lish mumkin[1].

Xalqaro amaliyotda sug‘urta tashkilotining xarajatlari akvizitsiya (ommaviy-tashkiliy kompleks tadbirlar), inkassatsiya (sug‘urtaning

[1]Дубровина Т.А., Сухов В.А., Шеремет А.Д. Аудиторская деятельность в страховании. Учебное пособие под ред. проф. Шеремета А.Д.-М.: ИНФРА-М, 1997. с. 160

CamScanner yordamida skanerlangan

ayrim turlari bo'yicha mukofotlarning naqd pullarda qabul qilinishi), likvidatsiya (sug'urta hodisasi yuz berganligi yuzasidan sug'urtalanuvchi arizasida bayon qilingan talablarning qondirilishi) va boshqaruvga oid kabi turlardan iboratdir1.

Sug'urta tashkiloti daromad va xarajatlarini sug'urta faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi o'rni va roliga qarab tasniflash ko'proq maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagichadir:

- sug'urta himoyasini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan (sug'urta operatsiyalari hamda investitsiya joylashtiriluvi bo'yicha) daromad va xarajatlar;
- sug'urta himoyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan boshqa daromad va xarajatlar.

Sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi hamda ularni hisoblash ko'p jihatdan milliy sug'urta qonunchiligi me'yorlariga ham bog'liqdir. SHuningdek, sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlariga amaldagi soliq qonunchiligiga binoan to'lanadigan daromad(foyda) solig'ining soliq bazasini aniqlash uslubiyati hamda stavkalari darajasi ham ta'sir etadi.

5. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijani shakllanishi.

Sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi bo'yicha yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, uni aniqlash bo'yicha quyidagi uslubiyatni taklif etamiz:

$$SM = SMs + SMqs + O'MZo' \quad (1),$$

Bu yerda: SM- ishlab topilgan sug'urta mukofotlari summasi;
SMs – bevosita sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari summasi;
SMqs – qayta sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari summasi;
O'MZo' – o'zlashtirilmagan mukofotlar zaxirasining o'zgarishi.

$$UNz = Nz + Nvt \quad (2),$$

Bu yerda: UNz – ko'rilgan zararning umumiy netto qismi;
Nz – ko'rilgan zararning netto qismi;

[1]Қаранг: Страховое дело. Учебник. Под ред. Рейтмана Л.И.-М.: Банковский и биржевой научно-консультационный центр, 1992. с. 333.

CamScanner yordamida skanerlangan

Nvt – qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlarining netto qismi.

$$\mathbf{Nz = SM - SQs - (SQqs - SQqsq)} \quad (2.1),$$

Bu yerda: SQs – to'langan sug'urta qoplamalari;

SQqs – qayta sug'urtalash bo'yicha to'langan sug'urta qoplamalari;

TSQqsq – qayta sug'urtalash shartnomalariga ko'ra, qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'langan sug'urta qoplamalari.

$$\mathbf{Nvt = VTqs + VSqs} \quad (2.2),$$

Bu yerda: VTqs – qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik to'lovlari;

VSqs – qayta sug'urtalash bo'yicha vositachilik siylovlari.

$$\mathbf{Tsx = UNz - (YUk + SMqsrr + SQs + VTqs + Zm + SQqs)} \quad (3)$$

Bu yerda: Tsx – sug'urta xizmatlarining tannarxi.

YUk – sug'urta ishini yuritish xarajatlari;

SMqsrr – qayta sug'urtalash va retrotsessiyaga o'tkazilgan risklar bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari;

VTqs- vositachilik to'lovlari va brokerlik siylovlari, qayta sug'urtalash tantemlari va yig'imlari;

Zm – zaxira fondiga o'tkazilgan mablag'lar.

$$\mathbf{YAD(Z) = D(Z)af + D(Z)bf} \quad (4),$$

Bu yerda: YAD(Z) – yalpi daromad yoki zarar (soliq to'langunga qadar

bo'lgan daromad yoki zarar);

D(Z)af- asosiy faoliyatdan olingan daromad yoki zarar;

D(Z)bf – boshqa faoliyatdan daromad yoki zarar.

$$\mathbf{D(Z)af = Ns + Nz + Nvt + YUk - DX} \quad (4.1),$$

Bu yerda: Ns – sug'urta mukofotlarining netto qismi;

DX – davr xarajatlari.

$$\mathbf{D(Z)bf = Dbf - Xbf} \quad (4.2),$$

Bu yerda: Dbf – boshqa faoliyatdan daromadlar;

CamScanner yordamida skanerlangan

Xbf – boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun qilingan xarajatlar

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sug‘urta kategoriyasining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Sug‘urta fondlarining tuzilishi va o‘zaro farqli jihatlarini tushuntirib bering.
3. Sug‘urtaning asosiy funksiyalari qaysilar?
4. Sug‘urta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari kimlar?
5. Sug‘urta mablag‘larining sarflanishi qanday amalga oshiriladi?
6. Qayta sug‘urtalash, ijtimoiy sug‘urtalash nima?
7. Sug’urta fondlari, ularning shakllanishi va foydalanish yo’nalishlari aytib bering.
8. Sug’urta fondini tashkil etish bilan bog’liq atamalar.
9. Sug’urta fondidan foydalanish bilan bog’liq atama va tushunchalar.
10. Xalqaro sug’urta amaliyotida ishlatiladigan atama va tushunchalar.
11. Sug’urtaning kelib chiqish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
12. Sug’urta jarayonida paydo bo’ladigan iqtisodiy munosabatlar?
13. Sug’urta bozor infratuzilmasining tarkibiy qismlarinin bilasizmi?
14. Mulkiy sug’urta nima?
15. Sug’urta riskiga ta’rif bering?

CamScanner yordamida skanerlangan

10-MAVZU: DAVLAT MOLIYASI

Reja:

1. **Davlat moliyasi.**
2. **Davlat daromadlari.**
3. **Davlat xarajatlari.**
4. **Davlat qarzlarining mohiyati va ahamiyati.**
5. **Davlat kreditining shakllari va tasniflanishi.**
6. **Davlat qarzlarini boshqarish.**

Kalit so'zlar: davlat moliyasi, byudjet, byudjetdan tashqari fondlar, davlat krediti, davlat korxonalari moliyasi, davlat qarzi.

1. Davlat moliyasi

Davlat moliyasi mamlakat moliya tizimining asosiy sohasi bo'lishi bilan bir qatorda u davlatni o'z oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik funksiyalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslar bilan ham ta'minlab turadi.

Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati – bu yalpi ichki mahsulotning qiymatini va milliy daromadning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida davlat va davlat korxonalari ixtiyorida markazlashgan va markazlashmagan moliyaviy resurslarning shakllanishi va ulardan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bir qatorda jamiyatning o'sib borayotgan ijtimoiy, madaniy tadbirlarida foydalanishdagi pul munosabatlari yig'indisidir. Mazkur sohadagi pul munosabatlarining subyektlari bo'lib davlat, korxonalar, birlashmalar, muassasalar va keng aholi qatlami hisoblanadi.

Davlat moliyasining iqtisodiy tuzilishi tom ma'noda bir xil emas, u bir-biriga bog'liq bo'lgan bo'g'inlardan tashkil topsada, lekin bajarayotgan funksiyalari bilan bir-biridan farq qiladigan bo'g'inlar yig'indisidan iboratdir.

Davlat moliyasi sohasining bo'g'inlariga davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, davlat krediti va davlat korxonalari moliyalari kiradi.

Respublikamizda davlat byudjetining tuzilishi ikki bo'g'inlidir – bu Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar yig'indisidan iborat. Respublika byudjetidan asosan jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan chora-tadbirlar moliyalashtiriladi, jumladan, markazlashtirilgan

CamScanner yordamida skanerlangan

investisiyalar, mudofaa xarajatlari, boshqaruv xarajatlari. Respublika byudjetidan mamlakat miqyosidagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalar ijobiy hal qilinishiga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti byudjet munosabatlarida mahalliy byudjetlarga asosiy urg'u berilishini talab etadi. So'nggi paytlarda mahalliy hokimiyat organlarining ko'pgina sohalardagi mustaqilligi asosan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim chora-tadbirlarning o'z vaqtida to'liq moliyalashtirilishini jadallashtiradi. Jumladan, hududiy infratuzilmani tashkil qilishda, mehnat resurslarining qayta tiklash, aholining mehnat farovonligini oshirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tadbirlar va hakozolar. Davlat moliyasi sohasining tarkibiy qismidan biri bu byudjetdan tashqari fondlardir.

Har bir darajadagi byudjetdan tashqari fondning asosiy maqsadi – bu ayrim maqsadli chora-tadbirlarni maxsus ajratmalar va boshqa manbalari evaziga moliyalashtirishdir.

Byudjetdan tashqari fondlar funksional maqsadlarini vazifalari kabi boshqarish darajasida ham xilma-xildir. Funksional maqsadlari bo'yicha ularni iqtisodiy yoki ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan fondlarga ajratish mumkin. Boshqarish darajasi bo'yicha esa, byudjetdan tashqari fondlarni davlat va mahalliy ahamiyati bo'yicha ajratish mumkin.

Byudjetdan tashqari fondlar respublika va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan boshqarilsada, o'ziga xos moliyaviy siyosatga va mustaqillikka egadirlar. Byudjetdan tashqari fondlarning xususiyatli tomoni shundaki, ular oldindan ma'lum bir maqsadga yo'naltiriladi va faqat shu yo'nalishlarda foydalaniladi. Byudjetdan tashqari fondlar tarkibiga: davlat Pensiya fondi, davlat aholisini bandligiga ko'maklashish fondi, davlat yo'l fondi va boshqa fondlar kiradi.

Davlat moliyasining xarakterli bo'lagidan biri bu davlat kreditidir. Davlat kreditining mazmuni shundaki, bu davlat o'z xarajatlarini moliyalashtirish uchun aholining, xo'jalik subyektlarining ortiqcha moliyaviy resurslarini vaqtincha foydalanishidir. Demak, bu yerda davlat qarz bermasdan, balki qarz olishidir. Davlat kreditidan foydalanish uchun hukumat moliyaviy bozorga jismoniy va yuridik shaxslarga mo'ljallangan zayomlar, qisqa muddatli obligatsiyalar, g'aznachilik majburiyatlari va boshqa turdagi davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqaradilar. Mamlakat hayotida davlat krediti iqtisodiyotni barqarorlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Muomaladan pul oqimini sustlashishini oldini olishga xizmat qiladigan davlat krediti pul muomalasidagi aylanishini tezlashtiradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Davlat moliyasi tarkibida respublika va mahalliy darajada tashkil etilayotgan byudjetni o'zaro bog'liqliklari muhim ahamiyatga ega. Byudjet munosabatlari yordamida davlat tuzimlari ixtiyorida moliyaviy usullari bilan qayta taqsimlanayotgan milliy daromadni asosiy qismi yig'iladi. Turli darajadagi byudjetlar – respublika, mahalliy har biri o'ziga tegishli ravishda respublika va mahalliy hukumat boshqaruv organlarining faoliyatini moliyaviy bazasidir. Bozor islohotlari sharoitida bu byudjetlar o'zaro bog'langan. Byudjet daromadlar va xarajatlar tarkibidagi har bir darajasini belgilanishi respublika va mahalliy davlat hukumat boshqaruv organlarining orasidagi funksiyalarini bir-biridan chegaralanishiga bog'liq.

Davlat umumiy funksiyalarini amalga oshirish uchun respublika byudjetini tashkil etadi. Respublika byudjeti butun respublika miqyosida iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni to'g'ri hal etishda muhim ahamiyatga ega. Uning resurslarini maqsadi makroiqtisodiy darajada o'z funksiyalarini bajarish uchun bog'liq bo'lgan davlat xarajatlarini moliyalashtirishdir hamda uni yordamida iqtisodiyotni barqarorlash, ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan umumdavlat chora-tadbirlarini amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Byudjet munosabatlari tizimida mahalliy byudjetlarga muhim ahamiyat berilmoqda. Ular, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, hududiy infratuzilmani tashkil etishda, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun moliyalashtirishda va boshqalarda ta'sirini ko'rsatib, borgan sari ko'proq ishlatilmoqda. Ijtimoiy rejalarni amalga oshirishda va o'sib borayotgan ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishda ham mahalliy byudjetlar muhim ahamiyatga ega.

Umumdavlat moliyasi korxona moliyasi bilan uzviy ravishda bog'langan. Bir tomondan, moddiy ishlab chiqarish natijasida vujudga kelayotgan milliy daromad byudjet daromadlarining asosiy manbaidir. Ikkinchi tomondan, keng takror ishlab chiqarish tashkil topilishida faqat korxonalarni o'z mablag'laridan emas, balki umumdavlat pul mablag'larining fondlari, byudjetdan ajratmalar shaklida va bank kreditlaridan foydalanib amalga oshiriladi. O'z mablag'lari yetishmaganda, korxona boshqa korxonalarning mablag'lari bilan aksionerlik asosida hamda qimmatli qog'ozlar (zayom mablag'lari) bilan operatsiyalar bazasida foydalanishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Davlat daromadlari

Davlat va davlat korxonalari ixtiyorida moliyaviy resurslarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlar yig'indisiga **davlat daromadlari** deyiladi.

Davlat ixtiyorida shakllanayotgan moliyaviy resurslar majmuasi markazlashgan pul resurslari va davlat korxonalari ixtiyoridagilar esa, markazlashmagan pul fondlaridir. Markazlashgan davlat daromadlari asosan soliqlardan, ajratmalardan va tashqi iqtisodiy faoliyat daromadlaridan tashkil topadi. Korxonalar o'zlarining daromad va jamg'armalaridan shakllanayotgan moliya resurslari yig'indisi markazlashmagan pul daromadlarini tashkil etadi.

Davlat daromadlarini ikkiga bo'lishdan maqsad, hozirda umumdavlat va jamoa iste'mollarini qoplash qanday amalga oshirilishini nazorat qilish bilan bog'liqdir.

Davlat moliyasining asosiy daromad manbai bo'lib milliy daromad hisoblanadi. Ammo, ayrim hollarda, ya'ni behosdan urush, tabiy ofat va h. k. lar paytida davlat daromadi manbai bo'lib oldin jamg'arilgan milliy boyliklar (oltin zahira, pullik xususiylashtirish) ham bo'lishi mumkin. Davlat daromadiga moliyaviy resurslar jalb etishni shartli holatda uchta guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlar.
2. Davlat zayomlari.
3. Qog'oz pullar emissiya qilish.

Davlat daromadlari tizimida markaziy moliyaviy manba bo'lib soliqlar xizmat qiladi. Soliqlar asosan fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatni kasb etadi. Hukumatga kerak bo'lgan moliya resurslarini shakllantirib borish bilan soliqlar fiskal funksiyasini kasb esa, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida ayrim tarmoqlar iqtisodiyotiga molik imtiyozlarni berish bilan iqtisodiy yo'nalish kasb etiladi va nihoyat kam daromadli aholini soliqlardan ozod qilish hisobiga ijtimoiy vazifalar hal etiladi.

Davlat daromadini davlat zayomlari orqali ta'minlash nafaqat byudjet taqchilligini moliyalashtirishga balki, rang-barang kapital xarajatlarga, iqtisodiyotning davlat sektoriga yo'naltiriladi. Davlat zayomlaridan foydalanishga asosan moliyaviy tanglik davrlarida keng yondoshiladi, ayrim hollarda esa, uning miqdori soliqlarga nisbatan ham

CamScanner yordamida skanerlangan

oshib ketishi mumkin, chunki soliqlar sonini va stavkalarini oshirish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Davlat daromadlari tushunchasini mazmunan ifoda etgan pul munosabatlarining obyekti bo'lib, turli bosqichlarda va taqsimlash davrlarda har xil moliyaviy shakllarda ifodalangan ijtimoiy mahsulotning qiymatidir. Masalan, davlat korxonalarida taqsimlash obyekti bo'lib, mahsulot sotishdan tushadigan daromad va quyidagi tarkibiy elementlaridir: foyda, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizasiya ajratmalari va boshqalar. Byudjet munosabatlarini obyekti sifatida quyidagi shakllar ko'rilishi mumkin: foyda va ish haqi, byudjet daromadlarini tashkil etish manbai bo'lgan soliq to'lovlari. O'z navbatida davlat krediti munosabatlarining obyekti bo'lib korxonalarni vaqtincha bo'sh bo'lgan moliyaviy resurslari va aholini jamg'armalaridir.

Davlat daromadlarini tashkil etishni asosiy manbai bu milliy daromaddir.

Milliy daromad deganimizda, moddiy ishlab chiqarish sohalarida bir yilda yangidan hosil qilingan qiymat yoki yalpi ijtimoiy mahsulotning ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlangandan so'ng qolgan qismini tushunamiz.

Milliy daromad moddiy ne'matlar ishlab chiqariladigan sharoitlarda jonli mehnat tomonidan yaratilib, ham qiymat-pul, ham moddiy-buyum shakliga ega bo'ladi. Milliy daromaddan xalq iste'moli va ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadlarida foydalaniladi. U xalq xo'jaligining umumlashtiruvchi hamda xalq turmush farovonligining asosiy ko'rsatkichi.

Davlat daromadlari hamma manbalarini ikki guruhga ajratish mumkin – ichki va tashqi. Ichkiga, davlatni ichida vujudga kelgan va davlatni o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalanadigan milliy daromad va milliy boyliklar kiradi. Tashqiga esa, davlat zayomlari shaklida boshqa davlatni milliy daromadi va ayrim hollarda milliy boyligi kiradi, agar ular davlat zayomlari shaklida qarzga olinsa yoki reparasion (urushda ko'rilgan zararlarni qoplash uchun yig'ilgan va urush chiqishiga sababchi bo'lgan davlat tomonidan yengan davlatga to'lanadigan tovon) to'lovlar shaklida bo'lsa. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat daromadlarini yig'ish uchun asosiy usullaridan biri – bu turli ko'rinishlardagi soliqlar, zayomlar va emissiyadir.

Davlat daromadlarini yig'ish usullaridan biri – bu emissiyadir va faqat qog'oz pullar emas, balki kredit emissiyasi ham. Soliq va zayomlardan tushgan daromadlar o'sib borayotgan xarajatlarni

CamScanner yordamida skanerlangan

qoplamagandagina va moliyaviy bozorda yangi zayomlarni chiqarish uchun noqulay ahvol tug'ilganda davlat emissiyaga murojaat qiladi: ham qog'oz pul, ham kredit emissiyasi.

Davlat daromadiga moliyaviy resurslarni emissiya hisobiga jalb qilish eng noiloj paytlarda amalga oshiriladi. Qachonki soliqlardan tushadigan daromadlar va zayomlar davlat xarajatlarini qoplay olmasa, ya'ni moliyaviy bozorda davlat qimmatli qog'ozlarni joylashtirish imkoniyati bo'lmagan taqdirda qog'oz pullar emissiya qilinadi. Qog'oz pullar emissiyasi qachonki xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish aylanmasi bilan bog'liq bo'lgan taqdirda iqtisodiy samara beradi.

Agarda byudjet taqchilligini qoplash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplash maqsadida qog'oz pul emissiyasi amalga oshirilsa, milliy valyutaning qadrsizlanish jarayoni tez sur'atlar bilan ko'tariladi. Pirovardida daromadi cheklangan aholi qatlami bundan qattiq moliyaviy aziyat chekadi.

3. Davlat xarajatlari

Markazlashgan va markazlashmagan davlat daromadlarini foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlarga **davlat xarajatlari** deyiladi.

Davlat xarajatlarining xususiyatli tomoni davlat sohalari moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tadbirlari ila ajralib turadi. Davlat xarajatlarining mazmuni, xususiyati bevosita davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, boshqaruv va mudofaa funksiyalari bilan bog'liqdir.

Mamlakatimizda davlat xarajatlarining asosiy qismi aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilmoqda. Bugungi kunda mazkur sohaning 60% dan ortig'i davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar hisobiga moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda nodavlat sektoridagi korxonalar o'z daromadlarini bir qismini ishchi va xizmatchilarning ijtimoiy-madaniy tadbirlariga yo'naltirilsa, ularga nisbatan davlat iqtisodiy rag'batlantirish usullarini qo'llamoqda.

Davlat xarajatlari ichida tarmoqlar iqtisodiyotini iqtisodiy rivojlantirishda ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Faqat ayrim hollarda, agarda umumjamiyat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina yangi qurilishlarga davlat mablag'lari xarajat qilinmoqda.

CamScanner yordamida skanerlangan

Davlat xarajatlarining ma'lum bir qismini davlat boshqaruvi va mudofaa xarajatlari tashkil etadi. Ammo, moliya siyosatining asosiy yo'nalishi ushbu maqsadlarga davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich qisqartirishdir va yo'naltirilayotgan mablag'lardan ham oqilona foydalanishdir. Zero, mudofaa xarajatlarini kamaytirish ayrim hollarda davlat kompetensiyasida bo'lmasada, lekin boshqaruv xarajatlarini kamaytirish davlat ixtiyoridadir.

Davlat xarajatlari deb, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish, xalq farovonligini oshirish, butun jamiyatni boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadida rejali taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarga aytiladi.

Davlat xarajatlarini moliyalashtirishda asosiy manba davlat byudjetida markazlashgan yoki korxona va tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan jamiyatning sof daromadlaridir. Davlat xarajatlarining asosiy qismi aholidan soliq to'lovlar sifatida tushgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari davlat xarajatlari uzoq muddatli bank kreditlari, korxonalar va tashkilotlarning boshqa daromadlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat xarajatlarini tartibga solinishi, ularni rejalashtirish hamda mablag' ajratish va mablag'lardan foydalanish usullariga qat'iy rioya qilish orqali erishiladi.

Iqtisodiyotni mutanosib ravishda rivojlanishini va xalqni moddiy va madaniy hayot darajasini ko'tarish maqsadida davlat umumiy ijtimoiy mahsulotni va milliy daromadni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish hamda viloyatlar orasida to'g'ri taqsimlash va qayta taqsimlashni vakolatli organlar tomonidan olib boradi. Davlat rejalashtirishining asosiy usuli bo'lib – balansli usul hisoblanadi. Bu degani korxonalar va tashkilotlarga o'z moliyaviy resurslaridan foydalanishida keng vakolat berilishi bilan markalashgan moliyalashtirishni uzviy birligiga erishishdir.

Davlat xarajatlarining tashkiliy tuzilishi. Davlat xarajatlarni o'zaro chambarchas bog'langan konkret turlarini majmui davlat xarajatlarining tizimini ifodalaydi. Bu tizim, davlat orqali belgilangan ma'lum tamoyillar asosida tashkil etiladi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

– berilgan mablag'larni ko'zda tutilgan maqsadlarga yo'naltirish va ishlatish (iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalaridagi qat'iy belgilangan chora-tadbirlarga davlat mablag'larini yo'naltirish). Bu bilan hududiy va xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarini rivojlanishida tasdiqlangan mutanosiblikni saqlanishi bilan amalga oshiriladi va birinchi

CamScanner yordamida skanerlangan

navbatda ilmiy-texnik taraqqiyotini aniqlaydigan va asosiy ijtimoiy muammolarni hal qiluvchi istiqbolli tarmoqlarni rivojlanishiga mablag'lar ajratish;

– davlat resurslarini qaytmasligi – bu korxonalar va tashkilotlarni ta'minoti uchun davlat byudjetidan ajratilgan pul mablag'larini qaytarishga zaruriyat yo'qligi. Kredit usulida moliyalashtirishni farqligi – bu kredit oluvchi kreditga bergan mablag'larga belgilangan vaqtda va ulardan foydalanganligi uchun tasdiqlangan foizlar bilan korxona o'z foydasidan davlatga qaytarishi zarur;

– iqtisod tartibiga rioya qilish – byudjet, kredit va o'z mablag'lari hisobidan davlat xarajatlarini moliyalashtirishda optimal birlikni saqlash. By rejalarni bajarish me'yorida davlat xarajatlarini moliyalashtirish faqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bajarilganda hamda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tartibi asosida moliyaviy resurslar ajratilishi ko'zda tutiladi.

Davlat xarajatlarining ayrim turlari iqtisodiy mazmuni va ahamiyati bo'yicha har xil. Bu har xillik xarajatlarni moliyalashtirishning usullari, shakllari va manbalarida ifodalanadi.

Davlat xarajatlari iqtisodiy jihatidan quyidagi uch asosiy guruhga bo'linadi:

1. Birinchi guruh ishlab chiqarish xarajatlari – bu davlatning mulki, boyligini ko'paytiradi yoki xususiy xo'jaliklarni iqtisodiy asoslarini mustahkamlaydigan xarajatlardir yoki boshqacha qilib aytganda, davlatni xo'jalik faoliyatini ta'minlash va milliy daromadni yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish sohasiga tegishli xarajatlardir. Davlat xarajatlarini jamg'arish fondi bilan iste'mol fondi orasidagi optimal taqsimlanishi davlatning iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

2. Ikkinchi guruhdagi xarajatlar milliy daromadni iste'mol qilinishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatning nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Noishlab chiqarish sohasiga qilinadigan xarajatlar miqdoriy jihatdan ifodalash murakkab bo'lgan natijani bermasada, davlatning ijtimoiy manfaatlari uchun juda muhim hisoblanadi. Noishlab chiqarish sohasiga sarflanayotgan davlat byudjetining mablag'lari, avvalo, aholini ijtimoiy himoyaga olish fan va ta'lim, madaniyat, tibbiy xizmatlari, jismoniy tarbiya va sport, tabiatni muhofaza qilish va ekologik sharoitni yaxshilash hamda boshqa madaniy chora-tadbirlarga yo'naltirilgan. Undan tashqari davlat xarajatlari mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlashga va samarali boshqarishga ham yo'naltiriladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Uchinchi guruh davlat rezervlarini shakllantirish xarajatlari bo'lib, xoh ishlab chiqarish, xoh noishlab chiqarish sohalarida favqulodda zaruriyat tug'ilganda uni bartaraf qilish uchun va muammoni hal qilish uchun yo'naltiriladi.

Davlat xarajatlarining ushbu guruhi o'zaro uzviy bog'langan. Iqtisodiy mazmuni bo'yicha davlat xarajatlarini turkumlash muhim ahamiyatga ega, chunki milliy daromadni taqsimlash vositasi sifatida ijtimoiy takror ishlab chiqarishni moliyalashtirishda xarajatlarning ahamiyatini aniqlashga imkon yaratadi. Davlat xarajatlari quyidagi shakllarda moliyalashtiriladi:

– o'zini-o'zi moliyalashtirish (davlat korxonalari xarajatlarini o'z moliyaviy resurslari evaziga moliyalashtirishi);

– byudjet orqali moliyalashtirish (umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirilishini ta'minlash);

– kredit orqali moliyalashtirishni ta'minlanishi (bir tomondan, davlat korxonalari o'z joriy va investision xarajatlarini qoplash uchun olingan bank ssudalarini ishlasa, ikkinchi tomondan esa, davlatni turli darajadagi boshqaruv organlari davlat krediti shaklida moliyaviy bozordan pul mablag'larini jalb qiladi).

Davlat xarajatlarining moliyaviy ta'minotini yuqorida ko'rsatilgan shakllari orasidagi oqilona nisbati iqtisodiy manfaatini to'g'ri balansini topishiga imkon yaratadi va har bir shaklni qo'llashdan yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

4. Davlat qarzlarining mohiyati va ahamiyati

Umumdavlat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul resurslarining asosiy qismi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar shaklida jalb qilinadi. Iqtisodiyotning moliyaviy holati barqaror bo'lmaganda, davlat daromadlarining kamayib ketgan sharoitda davlat o'zining xarajatlarini qoplashga boshqa manbalardan ham mablag' jalb qilishga majbur bo'lib qoladi. Davlat tomonidan jalb qilishning asosiy shakli bo'lib davlat krediti hisoblanadi. Davlat krediti – bu davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi kredit munosabatlaridir. Bu yerda davlat, asosan, qarz oluvchi bo'lib ishtirok etadi. Davlat krediti hukumat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olingan kreditlarni davlatning kafolat majburiyatlari shaklida chiqishi ham mumkin.

Kafolat majburiyati – bu kreditorga berilishi lozim bo'lgan so'mmani o'z vaqtida to'lanilishini ta'minlash kafilligini olgan organ

CamScanner yordamida skanerlangan

tomonidan berilgan hujjatdir. Kafolat majburiyatining ta'sir kuchi kafolat xatida ko'rsatilgan hamma so'mma to'laligicha to'langanidan so'ng tugaydi.

Davlat zayomlari – davlatning qimmatli qog'ozlarini sotish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu asosda davlat qarzi shakllanadi.

Davlat kreditlari umumdavlat moliyasining muhim elementi bo'lib, bunda kreditor sifatida yuridik va jismoniy shaxslar, davlat nomidan qarz oluvchi bo'lib esa davlat organlari o'tadi. Xalqaro munosabatlar doirasida davlat bir vaqtda ham kreditor, ham qarz oluvchi bo'lishi mumkin.

Davlat krediti qaytarilishi va to'lanishi asosida beriladi. Davlat krediti bank kreditidan farq qiladi. Davlat krediti orqali yig'iladigan qo'shimcha moliyaviy resurslar ishlab chiqarish kapitali aylanishida ishtirok etmaydi, balki byudjet taqchilligini qoplash uchun yo'naltiriladi.

Byudjet taqchilligi – bu muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan so'mmasidir. Davlat tomonidan mablag'lar jalb qilinganda kreditning ta'minoti bo'lib davlatning barcha mol-mulki hisoblanadi.

Davlat krediti kelgusida davlat qarzining shakllanishiga olib keladi. Davlat qarzi – bu davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan muayyan mamlakatning majburiyatlari yig'indisidir. Bu so'mma davlatning qarz oldi-berdi bilan bog'liq chiqarilgan va qaytarilmagan, ular bo'yicha hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda, davlatning majburiyatlari sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat krediti o'zining iqtisodiy mohiyati bo'yicha YaIMning qayta taqsimlash shakli hisoblanadi. Uning manbasi aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh turgan mablag'lari hisoblanadi. Davlat kreditidan foydalanish davlat ixtiyoriga mablag'larni jalb etishning asosiy shaklidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi kelgusi moliya yili uchun Davlat byudjetini qabul qilish jarayonida davlatning ichki va tashqi qarzining eng yuqori me'yorlarini tasdiqlaydi.

5. Davlat kreditining shakllari va tasniflanishi

Emissiya qilish huquqiga qarab zayomlar davlat zayomlari va mahalliy zayomlarga bo'linadi. Davlat zayomlari markaziy boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi va ular bo'yicha tushgan mablag'lar davlat byudjetiga yo'naltiriladi. Mahalliy zayomlar mahalliy boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi va ular bo'yicha tushgan mablag'lar tegishli mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Qimmatli qog'ozlarning ishlatilish xususiyatiga qarab bozor uchun mo'ljallangan va bozor uchun mo'ljallanmagan zayomlarga bo'linadi. Bozor uchun mo'ljallangan obligatsiyalar (g'azna majburiyatlari) qimmatli qozlar bozorlarida erkin sotib olinadi, sotiladi va qayta sotiladi. Bozor uchun mo'ljallanmagan zayomlar qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi, ya'ni, ularning egalari bozor uchun mo'ljallanmagan zayomlarni qayta sota olmaydi.

Davlat zayomlari ta'minlanganligini belgilanishiga qarab kafolatlangan va kafolatlanmaganlarga bo'linadi. Kafolatlangan zayomlar davlat mulki bilan yoki aniq daromalari bilan kafolatlanadi. Kafolatlanmagan zayomlar aniq moddiy kafolatga ega bulmaydi. Bunday zayomlarning ishonchliligi davlatning ishonchliligi bilan belgilanadi.

Zayomlarni qaytarish muddatlariga qarab qisqa muddatli (qaytarish muddati bir yilgacha), o'rta muddatli (qaytarish muddati 1 yildan 5 yilgacha) va uzoq muddatli (qaytarish muddati 5 yildan yuqori) davlat zayomlariga bo'linadi.

Davlat zayomlari daromad to'lash xususiyatiga qarab foizli, yutuqli va diskontli (nol kuponli) zayomlarga bo'linadi. Foizli zayomlar bo'yicha daromad qarz foizi ko'rinishida belgilanadi. Foizlar zayomlarni harakat qilish davri davomida bir xil qilib o'rnatilgan bo'lishi yoki kredit bozorida bu zayomga bo'lgan talab va takliflar asosida o'rnatiladigan o'zgarib turuvchi foizlar belgilanishi mumkin. Foiz daromadlari bir yilda bir marta, yarim yilda bir marta yoki har chorakda bir marta to'lanadigan bo'lishi mumkin. Yutuqli zayomlar bo'yicha kreditorlarga daromad to'lash yutuq tirajlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda daromadni barcha kreditorlar olmaydi, balki yutuq chiqqan obligatsiyalar egalargina oladi. Diskontli davlat zayomlari ma'lum chegirma bilan sotiladi, ammo obligatsiya qiymati qaytarilganda davlat zayomining nominal qiymati kreditorlarga qaytariladi. Diskontli davlat zayomining nominal qiymati bilan kreditor tomonidan sotib olgan qiymati o'rtasidagi farq kreditorning daromadi bo'lib hisoblanadi.

Qarzlar qaytarish xarakteriga qarab birdaniga qaytariladigan va qism-qismlarga bo'lib qaytariladigan qarzlarga bo'linadi. Qarzni qism-qismlarga bo'lib qaytarishning uchta varianti bo'lishi mumkin. Birinchi variant – zayom qiymati bir necha yil davomida uning turli qismlarini qaytarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ikkinchi variant – zayom qiymati doimo o'sib borish yo'li bilan qaytariladi. Bu tartib kelajakda davlat daromadi har yili oshib borishi ko'zda tutilgan hollarda qo'llaniladi. Uchinchi variantda zayom so'mmasi doimo kamayib borish

CamScanner yordamida skanerlangan

yo'li bilan qaytariladi. Bu tartib kelajakda davlat daromadi har yili qamayib borishi yoki davlat xarajatlari ko'payib borishi ko'zda tutilgan hollarda qo'llaniladi.

Davlatning qarzlarni to'lash bo'yicha majburiyatlariga qarab muddatidan avval qaytarish huquqi bilan va muddatidan avval qaytarish huquqisiz zayomlarga bo'linadi. Qarzni muddatidan avval qaytarish huquqi davlatga moliyaviy bozordagi vaziyatni hisobga olish imkonini beradi.

Davlat qarzlarining yuzaga kelish sabablari. Byudjet taqchilligi deganda muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan so'mmasi tushuniladi. Byudjet taqchilligini yuzaga kelish sabablari quyidagilar:

– iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida davlat byudjeti hisobidan kapital quyilmalar hajmining oshib ketishi;

– favqulodda holatlar – urushlar, davomiy ommaviy tartibsizliklar, tabiy ofatlar;

– mamlakatning yalpi ichki mahsulotini o'sish sur'atlarini pasayib ketishi, ishlab chiqarishning izdan chiqishi;

– byudjet daromadlari bazasining mustahkam emasligi;

– mamlakatning YaIM o'sish sur'atlariga erishmasdan markazlashgan uzoq muddatli investitsiyalarni, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishni muttasil oshirib borish;

– iqtisodiy inqirozlar va boshqalar hisoblanadi.

Davlat byudjetining taqchilligi hamda uning o'sishi mamlakat iqtisodiyotini normal ishlashiga salbiy ta'sir qiladi. Lekin ko'pgina mamlakatlarning amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, davlat byudjetining taqchilligini umuman bartaraf etish zarurati yo'q degan fikrga kelinyapti.

Davlat qarzida davlatning bankrot bo'lishi va qarz yukini kelgusi avlod zimmasiga yuklanish xavfi katta bo'ladi. Bunda davlat o'zining qarzini qayta moliyalashtirish yo'li bilan bu holatdan chiqishi mumkin. Buning uchun yangi obligatsiyalarni chiqarib sotishdan tushgan mablag'ni davlatni eski qarzlarini qaytarish uchun yo'naltiradi. Albatta, davlatning bankrot bo'lishini tasavvur qilish juda qiyin, chunki hukumat pul-kredit emissiyasi huquqiga ega va u emissiya qilish natijasida davlat qarzlarini asosiy qismi va tegishli foizlarni to'lashi mumkin. Pul emissiyasi yo'li bilan davlat qarzlarining asosiy summasini va ularning foizlarini to'lanishi kelgusida taqchillikni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

Davlat qarzining kupayib ketishi real salbiy iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Birinchidan, davlat qarzlari bo'yicha foizlarni to'lash aholining daromadlarini nomutanosibligiga olib keladi. Chunki davlatning majburiyatlarini ko'pgina qismi aholining badavlat qismiga to'g'ri keladi. Davlatning ichki qarzlarini qaytarilishi aholining kam ta'minlangan qismi "hisobidan" badavlat aholi cho'ntagiga tushishiga olib keladi va natijada badavlat aholi yana badavlatroq bo'ladi. Ikkinchidan, davlatning ichki qarzlarini qaytarish yoki uni kamaytirish vositasi sifatida soliq stavkalarini oshirilishi ishlab chiqarish rivojlantirishning iqtisodiy stimullariga putur yetkazilishiga, yangi tavakkalchilikka asoslangan korxonalarga, innovatsiyalarga mablag' yo'naltirishning kamayishiga va jamiyatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu yo'l bilan davlatning katta ichki qarzlarini to'lash iqtisodiy rivojlanishga putur yetkazishi mumkin. Uchinchidan, chet el davlatlariga qarzlar bo'yicha foizlarni yoki qarzning asosiy summasini to'lash, mamlakatning real mahsulotlarini ma'lum qismini chet elga o'tkazib berilishiga olib keladi. To'rtinchidan, davlat o'zining qarzini real iqtisodiy yukini kelgusi avlodlar zimmasiga o'tkazishi mumkin. Bu esa davlatning tashqi qarzining ko'payishiga, mamlakatning xalqaro obro'ining pasayishiga va iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlat qarzlarining turlari va tasniflanishi. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuniga asosan davlat tomonidan ichki va tashqi mablag'larni jalb qilishda qarz majburiyatlarining: (1) qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq davrga chiqariladigan) davlat qimmatli qog'ozlari; (2) kreditlar (qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli); (3) O'zbekiston Respublikasining kafolatlari; (4) byudjet daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik tafovvutni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar hamda (5) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlaridan foydalanish mumkin[2].

Davlat qarz majburiyatlari – bu davlatning o'z kreditorlariga bo'lgan qarz majburiyatlarining summasidir. Davlat qarzlari joriy va mukammal, ichki va tashqi qarz majburiyatlariga bo'linadi. Davlatning joriy qarz majburiyatlari – bu joriy yilda qaytariladigan qarzlar va

[2] O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrdagi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni.

CamScanner yordamida skanerlangan

muayyan vaqtda barcha chiqarilgan zayomlar bo'yicha hozirgi davr ichida to'lanishi lozim bo'lgan foizlar so'mmasidir. Davlatning umumiy qarz majburiyatlari – bu zayomlar bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan barcha qarzlar va foizlarning umumiy so'mmasidir.

Davlat qarz majburiyatlari o'zining manbalari bo'yicha 2 turga (ichki va tashqi qarzlarga) bo'linadi:

Davlat ichki qarz majburiyatlari – bu davlat tomonidan ichki mablarni jalb qilish natijasida vujudga kelgan davlatning majburiyatlarini yig'indisi.

Davlat tashqi qarz majburiyatlari – bu davlat tomonidan xorijdan mablag'lar jalb qilish natijasida vujudga kelgan davlatning majburiyatlari yig'indisi. Xorijdan jalb qilingan mablag'larga:

– davlat yoki O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan zayomlar, tovarlar yoki xizmatlarni import qilish shaklida kreditlar jalb etilishi;

– norezidentlar mablag'larining O'zbekiston Respublikasining moliyaviy institutlari tomonidan depozitlarga jalb etilishi;

– lizing operatsiyalari;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va rezidentlarining obligatsiyalar, veksellar hamda boshqa xil qimmatli qog'ozlar chiqarish, xorijiy bozorlarda joylashtirishi hamda boshqa tur va shakllardan foydalanish yo'li bilan jalb qilinadi[3].

Xorijdan mablag' jalb qilish – bu O'zbekiston Respublikasi yoki uning rezidenti tomonidan xorijiy davlatlar yoki norezidentlar aktivlarining (kreditlar, zayomlar va boshqalarning) mazkur xorijiy davlatga yoki norezidentga yoxud ularning talabiga ko'ra uchinchi shaxsga shartlashilgan davrda adekvat aktivlarni, shu jumladan, aktivlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda jalb etilishidir.

Davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi – bu aktivlarni chet el manbalaridan (xorijiy davlatlar, ularning yuridik shaxslaridan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (zayomlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishidir.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish – bu aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda

[3] O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgustdagi "Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida"gi qonuni.

CamScanner yordamida skanerlangan

buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishidir.

6. Davlat qarzlarini boshqarish

Davlatning qarzlari bo'yicha daromadlarni to'lash va ularni qaytarish davlat byudjeti xarajatlarining asosiy moddalaridan biri hisoblanadi. Davlat qarzlari hajmi mamlakat o'zining qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmaydigan holatga yetganda qarzlarni qaytarish muddatlarini uzaytirish yoki zayomlar bo'yicha to'lanadigan foizlarni qisqartirishga davlat majbur bo'ladi.

Davlat qarzlarini boshqarish – davlat zayomlarini qaytarish, ular bo'yicha daromadlar to'lashni tashkil qilish, oldin chiqarilgan zayomlar uchun belgilangan shartlar va muddatlarni o'zgartirish hamda yangi qarz majburiyatlarini joylashtirish bo'yicha davlatning moliyaviy tadbirlarining majmuasi tushuniladi. Davlat qarzlarini boshqarish qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini ta'minlashdan iborat. Bu joriy qarzlarga ham, mukammal qarzlarga ham tegishlidir. Joriy qarzlarni qaytarish real manbalar bilan ta'minlash zarur bo'ladi. Mukammal qarzlar uchun qaytarish muddatlarini shunday belgilash kerakki, ularni qaytarish uchun tegishli manbalar mavjud bo'lishi kerak[4]. Davlatning ichki qarzlari uchun to'lov qobiliyati uning ichki manbalari hisobidan ta'minlanadi. Davlatning tashqi qarzlari bo'yicha to'lov qobiliyati birinchi navbatda valyuta tushumlariga bog'liq. Bu qarzlarni qaytarish imkoniyati to'lov balansining holati bilan aniqlanadi. To'lov balansining ijobiy saldosi davlatning to'lov imkoniyatini ta'minlaydigan resursni xarakterlaydi va u oltin-valyuta zahiralarini tartibga solish imkoniyatini beradi.

Qarzlarga xizmat ko'rsatish – bu zayomlarning qaytarilishi, ular bo'yicha foizlarni to'lash va chiqarilgan zayomlarning qaytarilish shartlarining o'zgarishga doir davlat tadbirlarining majmuasidir. Zayomlarni qaytarish byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Ayrim hollarda davlat o'zining qarzlarini qaytarishni yangi zayomlar chiqarish yo'li bilan amalga oshiradi. Davlat qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlarining asosiy qismi foizlarni to'lash, zayomlar bo'yicha yutuqlarni to'lashga ketgan mablag'lar tashkil qiladi. Davlat qarziga

[4] M.Ostonoqulov. G'aznachilikkka o'tish sharoitida davlat qarzlarni boshqarish // IQTISOD VA MOLIYA №5, 2010. 41-51 bb

CamScanner yordamida skanerlangan

xizmat ko'rsatishning boshqa xarajatlariga davlat qimmatli qog'ozlarini tayyorlash, jo'natish va sotish, yutuq tirajlarini o'tkazish, tirajlarni yo'q qilish hamda ayrim boshqa tashkiliy xarajatlari kiradi. Ayrim mamalakatlarning davlat byudjeti tarkibida davlat qarz majburiyatlarini joylashtirish, qayta moliyalashtirish, daromadlarni to'lash va qarzlarni qaytarish bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish uchun mamlakatning ichki qarziga xizmat ko'rsatish fondi tashkil qilinadi[5].

Davlat qarz majburiyatlarini boshqarish – bu davlat zayomlarini qaytarish, ular bo'yicha daromad to'lashni tashkil qilish, oldin chiqarilgan zayomlar uchun belgilangan shartlar va muddatlarni o'zgartirish hamda yangi qarz majburiyatlarini joylashtirish bo'yicha davlatning moliyaviy-tashkiliy tadbirlarining majmuasidir. Davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning asosiy maqsadi davlat qarzlari hajmini iqtisodiy xavfsiz darajada saqlab turish, davlat qarz majburiyatlariga xizmat ko'rsatish qiymatini ma'lum nisbatga keltirish va davlat majburiyatlarini to'la hajmda va eng past qiymatda bajarilishini ta'minlashdir.

Davlat qarz majburiyatlarini boshqarish usullariga quyidagilar kiradi:

– davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning konversiya usuli – bu davlat tomonidan kreditorlarga to'lanadigan daromad bo'yicha foiz stavkasini pasaytirish yoki ko'tarish orqali zayomlar daromadliligini o'zgartirishdir. Bu usul moliyaviy bozorda vaziyat o'zgargan yoki davlatning moliyaviy holati yomonlashgan hollarda qo'llaniladi. Davlatning moliyaviy holati yomonlashuvi natijasida davlat obligatsiya shartlari bo'yicha ko'zda tutilgan daromadni to'lay olmaslik holatiga kelganda bu usul qo'llaniladi.

Davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning konsolidatsiya usuli – bu davlat zayomlarining muddatini o'zaytirish maqsadida avval chiqarilgan zayom bo'yicha majburiyatlarni yangi zayomga o'tkazib berishdir. Bunda, avval chiqarilgan zayom obligatsiyalari yangi zayom obligatsiyalariga almashtiriladi.

Davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning unifikatsiyalash usuli – bu bir qancha zayomlarni bir zayomga birlashtirishdir. Bunda, ilgari chiqarilgan zayom obligatsiyalari yangi zayom obligatsiyalariga almashtiriladi. Bu esa davlat qarzlarini boshqarishni soddalashtiradi. Davlat qarzlarini boshqarishning unifikatsiyalash usuli alohida yoki

[5] Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.:"Iqtisod-moliya", 2008.

CamScanner yordamida skanerlangan

davlat qarzlarini boshqarishning konsolidatsiya usuli bilan birga amalga oshirilishi mumkin.

Davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning regressiv nisbat bo'yicha obligatsiyalarni almashtirish usuli – bu davlat qarzini qisqartirish maqsadida avval chiqarilgan zayom obligatsiyalarini yangi zayom obligatsiyalariga almashtirishdir. Bunda, davlat o'zining qarz bo'yicha majburiyatlaridan qisman bosh tortadi. Shuning uchun ham bu usulni qo'llashda oqilona moliya siyosati yuritish talab qilinadi.

Davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning qarzlarni qaytarishning muddatlarini kechiktirish usuli – bu qarzlarni to'lash muddatini kechiktirish orqali ko'chirishdir. Bunda, qarzlarni to'lash muddati ko'chirilgan davr uchun majburiyatlar bo'yicha davlat daromad to'lamaydi.

Davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning restrukturizatsiya usuli – bu yuqorida ko'rsatilgan usullar majmuasini to'la yoki qisman qo'llanilishidir. Jahon amaliyotida suveren qarzlarni restrukturizasiyalashning bir qarz majburiyatlarini boshqalariga almashtirish (obligatsiyaga obligatsiya), davlatning xususiylashtirish dasturi doirasida qarz majburiyatlarini aksiyalarga almashtirish (obligatsiyaga aksiya), diskont asosida qarz majburiyatlarini muddatidan ilgari qaytarib sotib olish (qaytarib sotib olish sxemasi) va qarz majburiyatlarining bir qismini hisobdan chiqarish) kabi sxemalari mavjud.

Davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning majburiyatlarni bekor qilish usuli – bu davlat o'zining qarz majburiyatlarini to'la bekor qilishidir. Davlat qarz majburiyatlarini boshqarishning bu variantini yul qo'yib bo'lmaydigan variant deb qabul qilinadi. Chunki, davlatning obro'i uning o'zini qarz majburiyatlarini tan olishi va qarz majburiyatlarini belgilangan muddatlarda to'la qaytarishiga bog'liq bo'ladi. Davlat moliyaviy nochor bo'lishi, ya'ni, bankrot bo'lishi yoki hokimiyatga yangi siyosiy kuchlar kelishi sababli davlat o'zining qarzlarini bekor qilishini e'lon qilishi mumkin.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat moliyasining vazifalari va tamoyillari nimalardan iborat?
2. Davlat daromadlariga ta'rif bering.
3. O'zbekistonda davlat xarajatlarining mohiyati nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasida davlat xarajatlarini moliyalashtirish?

CamScanner yordamida skanerlangan

5. Davlat kreditini tushuntirib bering.
6. Davlat krediti qanday vazifalarni bajaradi?
7. Davlat kreditining asosiy shakllarini tushuntirib bering.
8. Davlat zayomlari qanday tasniflanadi?
9. Davlat qarzlari deganda nimalarni tushunasiz?
10. «Davlat qarzlarini boshqarish tushunchasi» nimalarni o‘z ichiga oladi?
11. Davlat moliyasi va davlatning jamiyatdagi iqtisodiy roli.(izga solish nazorat....)
12. Davlat moliyasi va uning bo'g'inlari.(sug'urta bank tizimi....)
13. Davlat moliyasni boshqarishning funksional elementlari.
14. Davlat moliyaviy salohiyatining shakllanish asoslari va tarkibiy bo‘g‘inlari.
15. Davlat moliyaviy siyosati nimaga qaratilgan bo'lishi kerak?

CamScanner yordamida skanerlangan

11-MAVZU: MAHALLIY MOLIYA

Reja:

1.Mahalliy moliyaning mohiyati va tarkibi. Mahalliy byudjet.
2.Hududlarni rivojlantirishda mahalliy byudjetning moliyaviy imkoniyatlari.
3.Mahalliy byudjetdan tashqari fondlar.

Kalit so'zlar: mahalliy boshqaruv organlari, moliyaviy resurslar, mahalliy byudjet.

1. Mahalliy moliyaning mohiyati va tarkibi. Mahalliy byudjet.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 14-dekabrdagi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunida "Mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori ko'zda tutilishi ko'rsatilgan.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlaridan ajratmalar hisobiga shakllanadi. Respublika va mahalliy byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqlikni yanada takomillashtirish, shubhasiz regionlarni iqtisodiy rivojlantirish ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barham berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarning haqiqiy holati hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy byudjet faoliyatini hamda mahalliy byudjet daromadlari bazasini o'rganib chiqish va tahlil qilish zarurdir. Mahalliy byudjetlar daromadlari bazasini mustahkamlashga oid

CamScanner yordamida skanerlangan

muammolarni hal qilishda va ularning hozirgi holatini tahlil qilishda rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanib, bu tajribalarni Respublikamizning mahalliy sharoitidan kelib chiqqan holda tadbiq qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir. Ushbu kurs ishi loyihasida mahalliy byudjetlar daromadlarning amaldagi bo'linish tamoyillarini o'rganish va mahalliy byudjetlarni tartibga solish amaliyoti yuzasidan tegishli takliflar kiritish, amaliyotda qo'llanilayotgan soliqlar, mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar turini kamaytirish asosida yangi soliq bazalarini yaratish yo'llarni aniqlash va boshqa masalalar ko'rib chiqildi. Byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar rolini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ularning shu jarayondagi salmog'ini oshirish e'tirof etilgan va unga, bir tomondan, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va ikkinchi tomondan, tegishli mahalliy soliqlarning stavkalarini o'zgartirish orqali erishish ko'zda tutilgan ekan, to'g'risini aytganda, unga osonlikcha o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Bu ancha murakkab bo'lgan yo'nalish hisoblanib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ko'p jihatdan, byudjet va soliq to'lovchilar manfaatlarining mushtarakligiga bog'liq. Ana shunday mushtaraklilikka erishilmas ekan, byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar rolini oshirishning birinchi yo'nalishi o'z samarasini ko'zlanganidek bera olmaydi. Bunday sharoitda, albatta, ushbu maqsadga erishishning boshqa yo'nalishini qidirib topishga ehtiyoj tug'iladi. Bizning fikrimizcha, ana shunday yo'nalishlardan biri mahalliy soliqlarning undirish mexanizmini takomillashtirish orqali ularning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi rolini oshirish hisoblanishi kerak.

Mahalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Respublika byudjeti – Davlat byudetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy byudjet davlat byudjetining muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlab boriladi. Mahalliy byudjetlarning mavqeyini yanada oshirish byudjet siyosati samaradorligini oshirishga

CamScanner yordamida skanerlangan

xizmat qiladi. Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, byudjetlarni mustahkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidagi manfaatdorligi va bu boradagi mas'uliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustahkamlaydi.

Mahalliy byudjet daromadlari quyidagilardan tashkil topadi:

1. Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
2. Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'imlari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;
3. Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;
4. Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
5. Yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subvensiyalari va byudjet ssudalari;
6. Yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
7. Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirish uchun tegishli daromadlarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun mahalliy byudjet daromadlarini shakllanishining amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini tahlil qiladigan bo'lsak, avvalambor, daromadlarning shakllanishiga e'tibor berish lozim.

Bulardan tashqari, byudjet ijrosi jarayonida yuqori byudjet bilan yuzaga keladigan o'zaro hisob-kitoblar hisobiga shakllanadigan daromadlar ham mahalliy byudjet daromadlari bo'lishi mumkin. Shunga muvofiq mahalliy byudjetlar daromadlari o'z daromadlari (mahalliy soliqlar va yig'imlar) va yuqori byudjetdan ajratiladigan ajratmalar (umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar, ssudalar) hisobidan shakllanadi.

Mahalliy byudjetlarning eng birinchi daromad manbai bo'lib mahalliy soliqlar va yig'imlar xizmat qiladi. Bu daromad turlari

CamScanner yordamida skanerlangan

qonunchilikka asosan **mahalliy byudjetlarga biriktirilgan daromad manbai** hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar quyidagilardan iborat:

1. Mol-mulk solig'i;
2. Yer solig'i;
3. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bilan savdo qilish huquqini olish uchun litsenziya yig'imlari;
3. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar hamda jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy byudjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar va yig'imlar mahalliy byudjetga biriktirilgan xarajatlarini to'lashda yetarli moliyaviy manba bo'la olmaydi. Mahalliy byudjet balansliligini ta'minlash uchun byudjet parametrlarini belgilash vaqtida yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratiladigan dotatsiya va subvensiya miqdorlari belgilanadi.

Respublika byudjetidan subvensiyalar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga tasdiqlangan Davlat byudjeti doirasida ajratiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari tumanlar va shaharlar byudjetlariga tegishli tasdiqlangan byudjetlar doirasida ajratiladi. Ularning miqdori quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

1. Hududning moliyaviy holatiga o'z daromadlari bazasining yetarliligiga;
2. Ijtimoiy – iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat dasturlari va vazifalariga;
3. Hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farq;
4. Har bir hududdagi aholi soniga;
5. Byudjet assignovasiyasidagi hududlarda joylashgan tashkilotlar ehtiyojlarga ;
6. Mintaqalarda moliyaviy disbalansni yo'qotishga ta'sir etuvchi boshqa omillar.

O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuniga asosan mahalliy byudjetlarga bir qancha cheklovlar belgilangan. Mahalliy byudjetlar balansli daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi kerak, mahalliy byudjetlarning taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

Mahalliy byudjetlarni qabul qilish va ijro etishda:

1. Qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbalar hisobiga jamg'armalar tashkil etishga;

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Mablag‘ jalb qilishni amalga oshirishga (yuqori byudjetdan quyi byudjetga beriladigan ssudalar bundan mustasno);

3. Byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag‘dan ortiqroq mablag‘ sarflashga;

4. Byudjet mablag‘lari hisobidan boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

5. Yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2. Hududlarni rivojlantirishda mahalliy byudjetning moliyaviy imkoniyatlari

Ma’lumki, mahalliy byudjetlarni shakllantirishda quyidagi to‘rt komponent muhim hisoblanadi: xarajat vakolatlarini ular va markaziy byudjet o‘rtasida cheklash; soliqli daromadlarni taqsimlash; byudjet transfertlari va qarzlari. Byudjet xarajatlarini amalga oshirish vakolatlarini aniq ajratmasdan turib, soliqli daromadlarni taqsimlashda barqarorlikka erishib bo‘lmaydi, hamda transfertlarning muvozanatlashtiruvchi tizimini yaratib bo‘lmaydi. Jahon tajribasidan ma’lumki, xarajatlarni cheklashning umumqabul qilingan metodi yo‘q. Ammo optimal variantga erishish imkonini beruvchi tamoyillar mavjud. Dastlab quyidagi tushancha – davlat xarajatlarini maqsadli amalga oshirish degani shuki, xizmatlarni maqsadli ravishda iste’molga maksimal darajada yaqin bo‘lgan hukumatga biriktirib qo‘yishdir. Bunda xizmatlarning bir organ tomonidan amalga oshirish xarajatlari bir necha organ tomonidan amalga oshirishga qaraganda ancha arzon bo‘lishini inobatga olish kerak. Shundagina iqtisodiyotda kam- shtat birligi, mamlakat bo‘yicha xizmat ko‘rsatish birligi, yagona informatsion bazaga ega bo‘lishlik kabi tamoyillarga amal qilingan bo‘ladi. Mazkur tamoyillar harajat vakolatlarini cheklashni soddalashtirib ularning samaradorligi va adolatliligini ta’minlaydi. Masalan, ijtimoiy ta’minot xarajatlari markaziy byudjetga biriktirilishi kerak chunki, har bir fuqaro qayerda yashashidan qat’iy nazar bir xildagi ijtimoiy ta’minotga ega bo‘lishga haqlidir. Shuning uchun ham bunday xarajatlarni rejalashtirish va boshqarishni markazga biriktirib, ularni amalga oshirishni esa mahalliy byudjetlar zimmasiga yuklash kerak. Chunki ular aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishi va boshqa afzalliklarga ega.

O‘zbekiston Respublikasida “Byudjet tizimi” to‘g‘risidagi qonunga asosan, umumdavlat harakteridagi umumjamiyat xizmatlarni

CamScanner yordamida skanerlangan

hamda maxsus xarakterdagi (masalan, maxsus tibbiy muassasalar) uchun markaziy hokimiyat javob beradi. Mahalliy byudjetlar esa o'zining administrativ hududi doirasidagi xarajatlarga javobgar bo'ladi. Umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga mudofaa. Milliy xavfsizlik va sud organlarini saqlash kirsa, aniq bir hudud aholisi sharoitiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, hududiy ahamiyatdagi umumjamiyat xizmatlariga umumta'lim, tibbiy sanitar yordam va boshqalarni misol qilish mumkin. Shuning uchun ham Respublika byudjeti faqat mudofaa (istisno ravishda mudofaa ishlarini boshqarish xarajatlari)ni 100 foizga amalga oshiradi, qolganini turli darajadagi byudjetlar amalga oshiradi. Umuman olganda mavjud qonunchilikka ko'ra xarajatlarni taqsimlash jahon standartlariga javob beradi. Ammo amaliyotda hamma vaqt ham xarajatlardan samarali foydalanish ta'minlanmaydi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. Asosiy sabab real biriktirilgan xarajatlar qonunchilikka mos kelmasligidir. Bu avvalo, respublika va mahalliy byudjetlar orasida xarajatlarni amalga oshirish mas'uliyatining aniq chegarasi va reglamentasiyasining yo'qligidandir. Amaldagi qonunchilikka ko'ra atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari mahalliy hukumat organlari qaramog'ida deyilgan, lekin, Davlat tabiatni muhofaza qilish vazirligi va uning quyi tashkilotlari bu ishni amalga oshirishib, to'liq respublika byudjetidan moliyalashtiradi. Huddi shunday holatni fuqarolarning aktivlarini ro'yxatga olishda ham ko'rish mumkin. Amaldagi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida xarajatlarni taqsimlash mohiyati ko'rsatilgan, biroq, mazkur qonun doirasida umumta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minot va boshqa jamiyat ehtiyojlari uchun qilinadigan xarajatni amalga oshirishga bo'lgan mas'uliyatlarni cheklashning aniqroq reglamentasiyasi talab etiladi. Ayniqsa yuqorida aytib o'tilgan sohalarni moliyalashtirish aynan qaysi byudjetdan amalga oshirilishini aniqlashtirish kerak. Yana bir muammmoning mohiyati shundaki, mahalliy byudjetlarga mintaqaviy emas, balki umummilliy xarakterdagi xarajatlarning biriktirib qo'yilganligidir. Gap markazlashgan investitsiya xarajatlari va ijtimoiy nafaqalar haqida borayapti. Ijtimoiy himoyani boshqarish, ularning me'zon va shakllarni belgilash vakolati markaziy hukumatga qolayapti. Mahalliy darajada esa bu xizmatlar amalga oshiriladi, moliyalashtiriladi. Shuning uchun bu xizmatlarni ko'rsatish maqsadli ravishda mahalliy hukumat organlariga biriktirib, moliyalashtirishni esa respublika byudjeti amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Bunday yondashuv mintaqalarda rivojlanish darajasida

CamScanner yordamida skanerlangan

muvozanatlilik va adolatlilik tamoyillarga bo'ysunish imkonini beradi. Xuddi shunday holatni mahalliy byudjetlarga berilgan markazlashgan investitsiya xarajatlarni moliyalashtirishda ko'rish mumkin. Amaldagi qonunchilikka ko'ra xarajatlarini amalga oshirish funksiyalarini taqsimlashda moliyalashtirish manbalarini aniqlashga nisbatan turli xil qarashlar yuzaga keladi. Shunday ekan, kapitil qo'yilmalarni moliyalashtirish ularga javob beruvchi hukumat darajasida qolishi kerak. Bu degani – davlat investisiya dasturi asosida amalga oshiriluvchi kapital qo'yilmalar respublika byudjetidan amalga oshirilishi va ular markaziy darajada ishlab chiqilishi hamda mos ravishda moliyaviy resurslar birikтirib qo'yilishi kerak. Mahalliy byudjetlar esa qarorlari mahalliy byudjetlar darajasida qabul qilinadigan investisiyalarni moliyalashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda moliyani boshqarish tizimini shakllantirishning strategik yo'nalishi – hokimiyatlarning barcha darajadagi xarajatlar vakolatlari va ularni respublika, viloyat, tuman byudjetlar o'rtasidagi aniq cheklanishlari inventarizatsiyasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda mahalliy byudjet moliyaviy imkoniyatlarini oshirishda quyidagi usullar qo'llanilishi mumkin:

1. Mahalliy byudjetlarga ajratiladigan tartibga soluvchi daromadlar miqdorini qat'iy foizlarda va nisbatan uzoq vaqt mobaynida o'zgartirilmaydigan qilib belgilab qo'yish.

2. Byudjet ijrosi davomida mahalliy byudjetlarning daromad rejasini o'zgartirish orqali mahalliy byudjetlar tomonidan amalga oshirilayotgan xarajatlarni daromadlar bilan ta'minlash amaliyotidan voz kechish.

3. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan va byudjet tushumlari hisobidan qoplashga asoslangan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish. Bunda obligatsiyalardan keng ko'lamda foydalanish mumkin. Chunki obligatsiyalar qat'iy belgilangan foizlarda daromad keltiradi. Ularni qisqa muddatli qilib chiqarish, foiz to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish obligatsiyalarning bozor bahosining o'sishiga olib keladi. Bunda mahalliy byudjetga obligatsiyalarning bozor bahosi va nominal qiymati o'rtasidagi farq ko'rinishida sof daromad keltirishi mumkin. Byudjet ijrosi jarayonida vujudga keladigan qisqa muddatli pul yetishmasligining oldini olish maqsadida obligatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mahalliy byudjet moliyaviy imkoniyatlarini oshirishning yana biri – mahalliy hokimiyatlarni byudjetlarga qarz majburiyatlarini jalb qilishning qonuniy asoslarini yaratish bilan bog'liqdir, ya'ni bunda mahalliy byudjetlarga tijorat veksellarini chiqarish huquqini berish nazarda tutilayapti. Masalan, Rossiya Federatsiyasida mahalliy hokimiyat

CamScanner yordamida skanerlangan

organlari veksellar chiqarish yo'li bilan byudjet tashkilotlarining boshqa xo'jalik tashkilotlari oldida qarzdorligi muammosini hal qilish imkoniga ega bo'ladilar. Lekin afsuski yurtimizda ba'zi bir kamchiliklar tufayli veksellar muomalada mavjud emas. Bu kamchiliklarni o'rganib chiqib, ma'lum bir doirada veksellarning joriy qilinishi xo'jalik muomalalarini tezlashtirib turli muammolarni hal etish imkonini beradi.

Hozirgi kunda ko'pgina korxona va tashkilotlar o'z xodimlari va ularning oilalari uchun ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Bu o'z navbatida, ularning mablag'larini ishlab chiqarishdan chiqib ketishiga olib kelib, moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu tomondan korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy xarajatlarni mahalliy byudjetlar tomonidan amalga oshirilishi ushbu korxonalar uchun ishlab chiqarishni rivojlantirishga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish imkonini beradi.

3. Mahalliy byudjetdan tashqari fondlar

Byudjetdan tashqari fondlar quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

– fuqarolar, xo'jalik yurituvchi subyektlar va jamoat tashkilotlarining ixtiyoriy badallari;

– mahalliy zayomlar, pul-buyum lotareyalari va auksionlar.

Mahalliy byudjetdan tashqari fondlarni tashkil qilish bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari qaror qabul qiladi. Banklarda maxsus hisob raqam ochiladi. Byudjetdan tashqari fondlar quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

– Ijtimoiy maishiy obyektlar qurilishi;

– Joriy moliya yilida rejalashtirilgan qurilishlar (kapital xarajatlar);

– Mahalliy byudjetning to'lov qobiliyatini oshirish uchun;

Mahalliy byudjet smetalarida ko'zda tutilgan mablag'lar, yetishmagan taqdirda byudjetdan tashqari fondlar quyidagi masalalarini hal etish uchun yo'naltiriladi:

– Xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning hududiy boshqaruv organlari bilan aloqadorligini kuchaytirish;

– Hududning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish;

– Mahalliy hokimiyat organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini mustahkamlashda ishtirokini kengaytirish;

– Ijtimoiy va maishiy infratuzilmalarni kengaytirish.

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar deganda nimalarni tushunasiz?
2. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar mablag‘larni qanday taqsimlaydi?
3. O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi qaysi mahalliy byudjetlarni o‘z ichiga oladi?
4. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlarning asosiy daromadlari nimalardan ibarat?
5. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetga soliqlarning ta’siri qanday?
6. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetga davlat kreditining o‘rni.
7. Mahalliy soliqlar necha turga bo’linadi, ular haqidan tushuncha bering?
8. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti qanday byudjetlarni ifoda etadi?
9. Mahalliy byudjetlar loyihalarini qaysi organ tuzadi?
10. Mahalliy byudjetlarga biriktirilgan daromadlar qaysi qatorda ko‘rsatilgan?
11. Mahalliy byudjetning tartibga soluvchi daromadlariga nimalar kiradi?
12. Byudjet transferti nima?

CamScanner yordamida skanerlangan

12-MAVZU: DAVLAT BYUDJETI

Reja:

1. **Davlat byudjetining mohiyati va ahamiyati.**
2. **Davlat byudjetining daromadlari tarkibi.**
3. **Davlat byudjetining xarajatlari.**
4. **Byudjet taqchilligi va uni boshqarish.**
5. **Byudjet tizimi va qurilishi.**
6. **Byudjet jarayoni.**

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, byudjet daromadlari, byudjetxarajatlari, byudjetdan moliyalashtirish, soliqlar, byudjet defitsiti, sekvestr.

1. Davlat byudjetining mohiyati va ahamiyati

Davlat va korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar ham mavjud bo'lib, ular byudjet munosabatlari deb ataladi. Ushbu munosabatlar obyektiv xususiyatga ega bo'lib, davlatning milliy daromadning bir qismiga egalik qilishi zarurligini, ushbu mablag'larning kelgusida ijtimoiy tadbirlar, takror ishlab chiqarishni kengaytirish, davlatni boshqarish va davlat hamda milliy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltiradi. Byudjetning hajmi har bir mamlakatning milliy daromadiga, uning oldiga qo'yilgan ijtimoiy maqsad va vazifalarga bog'liq bo'ladi.

Davlat byudjeti – bu davlat vazifalarini, mamlakat yoki tegishli ma'muriy – hududiy birlik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishning asosiy moliyaviy rejasidir. Sodda qilib aytganda, u davlatning bir moliya (byudjet) yiliga mo'ljallangan xarajatlari va ularni qoplash manbalari ko'rsatilgan daromadlar smetasidir.

Davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib, u davlatning asosiy daromadlari va xarajatlarini birlashtiradi va o'zida soliq, davlat krediti va davlat xarajatlari yaxlitligini o'zida mujassamlashtiradi. Davlat byudjeti asosini davlat boshqaruv apparati, qurolli kuchlar, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy sohalar xarajatlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan hukumatning markazlashgan pul mablag'lari jamg'armasi tashkil qiladi. Mamlakat hududida amalda bo'lgan va ijtimoiy munosabatlar va huquqiy me'yorlarga asoslangan barcha turdagi byudjetlar to'plamiga **byudjet tizimi** deyiladi. Byudjet

CamScanner yordamida skanerlangan

tizimining tashkil etilishi va tuzilishi tamoyillariga (yaxlitligi, to'laliligi, haqqoniyligi, oshkoraligi, mustaqilligi)ga byudjet tuzilmasi deb aytiladi.

Davlat mahalliy byudjetlarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish bo'yicha davlat, mahalliy hokimiyat organlarining qonunchilik tomonidan belgilab qo'yilgan faoliyatiga **byudjet jarayoni** deb aytiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasiga muvofiq, "O'zbekiston Davlat byudjeti o'z ichiga respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi".

Davlat byudjetining asosiy funksiyalari quyidagilar:

– YaIM va MD ni qayta taqsimlash;

– iqtisodni davlat tomonidan (boshqarish) tartibga solish va rag'batlantirish;

– ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish;

– markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va uni ishlatilishini nazorat qilish.

O'zbekiston Respublikasida byudjet siyosatining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– iqtisodiyotni inqirozlardan holi etish;

– moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;

– investitsion jarayonlarni rag'batlantirish va iqtisodiyotda jamg'arish ulushini oshirish;

– byudjetning moddiy soha tarmoqlari korxonalariga ajratilayotgan dotatsiya shaklidagi unumsiz xarajatlarini kamaytirish;

– soliq to'lash va soliq tizimini takomillashtirish va nazorat qilish orqali byudjetning daromad bazasini mustahkamlash;

– davlat xarajatlarining samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan faol moliyaviy nazorat o'rnatuvchi tizimni yaratish;

– davlat qarzi hajmi ustidan nazoratni kuchaytirish.

Iqtisodiy o'sishni va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash davlat byudjeti siyosati oldida turgan va iqtisodiy islohotlar jarayonida o'ziga xos bo'lgan vazifalardandir.

Bugungi kunda davlat byudjeti YaIMni qayta taqsimlashda muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda davlat odatda, YaIMning 20 dan 50 foizigacha qismini soliqlar va boshqa davlat daromadlari va to'lovlari shaklida davlat byudjetiga safarbar etib davlat xarajatlari orqali iqtisodiyotni va investisiyalarni tartibga soladi va rag'batlantiradi, ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga yo'naltiradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

O'zbekiston Respublikasi byudjet qurilmasi ham byudjet tizimining yagonaligi, to'laligi, haqqoniyligi, oshkoraliligi va unga kiruvchi ma'muriy-hududiy byudjetlarning mustaqilligi tamoyillariga asoslanadi. Mamlakat byudjet tizimiga uning mustaqil bo'laklari sifatida Respublika va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari kiradi. O'zbekiston Respublikasi jamlangan byudjetiga Davlat maqsadli jamg'armalari ham kiritiladi. Mamlakatimizda 5 ta davlat jamg'armalari mavjud bo'lib ularga:

- Moliya vazirligi hududidagi Respublika yo'l jamg'armasi;
- Pensiya jarg'armasi;
- Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jarg'armasi;
- Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob varaqasi;
- Maktab ta'limi jamg'armalari kiradi.

Maqsadli davlat jamg'armalarini tuzish orqali hukumat byudjetga kiritilmagan xarajatlarni moliyalashtirish mablag'larini mazkur nobyudjet jarg'armalarida shakllantiradi.

Byudjet xarajatlari O'zbekiston Respublikasi va uning tegishli ma'muriy-hududiy birliklarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari bilan belgilanib navbatdagi moliya (byudjet) yilida qonunchilikda belgilangan yo'nalish va hajmlarda amalga oshiriladi.

Barcha ma'muriy-hududiy birliklar byudjetlarining muvozanatlashganligi mamlakat byudjet-moliya siyosatining zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat byudjeti taqchililigining chegaraviy miqdorlari navbatdagi moliya (byudjet) yilida qonun tomonidan belgilanadi. Respublika byudjeti Oliy Majlis tomonidan tasdiqlansa, mahalliy bdyujetlarni mahalliy hokimiyat Kengashlari tasdiqlaydilar. Tasdiqlangan va qonun kuchiga kirgan Davlat byudjeti hukumat tomonidan belgilangan muddatlarda va miqdorlarda amalga oshirilishi shart hisoblanadi.

2. Davlat byudjetining daromadlari tarkibi

Byudjet daromadlari – davlatning markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, uning faoliyati va funksiyalarini to'laqonli amalga oshirishi uchun zarurdir. Unitar davlatlarda byudjet daromadlari markazlashgan va mahalliy daromadlarga (O'zbekiston Respublikasi), federal davlatlarda esa federal va mahalliy daromadlarga bo'linadi (RF).

CamScanner yordamida skanerlangan

Davlat byudjetining asosiy manbai soliq daromadlari (SD), agarda uning tanqisligi kuzatilsa milliy boylik (MB) hisoblanadi.

Davlat byudjetining daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (byudjet) kategoriyaning namoyon bo'lish shakli byudjetga borib,tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan Davlat byudjetining daromadlari yaratilgan yalpi ichki mahsulot(YaIM)da davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda Davlat byudjetida mablag'larni konsentratsiya qilish (to'plash, yig'ish) miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Byudjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri byudjet tizimida boshqa darajada turgan byudjetdan dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi byudjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, Xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham byudjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllanadi:

1. To'g'ri (bevosita) soliqlar. Ularning tarkibiga foyda soliq, jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq.

2. Egri (bilvosita) soliqlar. Bu soliqlarning tarkibi qo'shilgan qiymat solig'I, aksizlar, bojxona bojlari, jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi.

3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i. Bu guruhga kiruvchi soliqlar va to'lovlar mol-mulk solig'I, yer solig'I, yer osti boyliklaridan

CamScanner yordamida skanerlangan

foydalanganlik va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni o'z ichiga oladi.

4.Boshqa daromadlar.

O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra, davlat byudjetining daromadlari ikki guruhga bo'linishi mumkin:

– xo'jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan daromadlar;

– aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko'ra, Davlat byudjetining daromadlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

– nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;

– davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar;

– aholidan olinadigan mablag'lar.

Byudjet daromadlarining yuqorida sanab o'tilgan har bir guruhlari daromadlarning manbalari, to'lovlarning turlari va hokazolar bo'yicha kichik guruhlarga bo'linishi ham mumkin. Masalan, davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlarga davlat korxona va tashkilotlarining to'lovlari, davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar, davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromadlar kiradi. Aholidan byudjetga kelib tushadigan mablag'lar esa soliqlar va boshqa ixtiyoriy to'lovlardan iborat bo'lishi mumkin.

O'z navbatida, har bir kichik guruhlarga biriktirilgan davlat byudjetining daromadlari tushumlarning alohida turidan iborat.

Masalan, davlat korxonalari tomonidan byudjetga o'tkaziladigan daromadlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat, aksiz, foyda soliqlari va boshqalar kiradi. Shuningdek, davlat mulkidan olinadigan daromadlar tarkibi bojxona daromadlaridan, egasiz va musodara qilingan mol-mulkni, talab qilib olinmagan yuklar va pochta jo'natmalarini, meros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan mol-mulklarni realizatsiya qilishdan olingan tushumlardan iborat. Davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlarga davlat avtomobil inspeksiyalari tomonidan undiriladigan yig'imlar, tovar belgilarini qayd etganlik uchun yig'imlar, o'lchov asboblarini davlat tekshiruvidan o'tkazilganligi uchun haq, sud va arbitraj organlari hamda notarial idoralari tomonidan aholiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan haq va boshqalar kiradi.

Davlat byudjetining daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda jalb qilinishi ham mumkin. Bunda daromadlarni majburiy shaklda jalb qilish hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to'lovlarga davlat

CamScanner yordamida skanerlangan

obligatsiyalarini va pul-buyum lotoreyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma'lum bir mablag'lar belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazilishi zarurligini anglatadi. U yoki bu to'lovni qonun tomonidan majburiy deb e'tirof etilishi to'lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko'zda tutadi. Bu holat byudjetning ijrosi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib, mablag'larni to'liq va o'z vaqtida byudjetga mobilizatsiya qilishga (jalb etishga) yo'naltirilgan.

Subyektlarning daromadlari davlat byudjeti ixtiyoriga ikki xil metodlarni qo'llash evaziga olinishi mumkin:

1) soliqli metodlar;

2) nosoliqli metodlar.

Soliqli metodlar uchun mablag'larning davlat byudjeti foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o'rnatilgan muddatlarda undirilishi xarakterlidir. Soliqlarning undirilishi mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Ular yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Soliqlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat, aksiz, foyda, yer, mol-mulk soliqlari va boshqa soliqlar kiradi.

Nosoliqli daromadlar davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlardan olinadigan to'lovlardir.

Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarilishini talab etmaydigan mablag'lar ham Davlat byudjetining daromadlari bo'lishi mumkin. Biroq ayrim to'lovlar davlatning ixtiyoriga vaqtinchalik foydanish uchun o'tkazilishi ham mumkin. Bunday holda davlat olingan mablag'larni sarf etsa-da, u bu mablag'larni belgilangan muddatlarda va to'liq ravishda qaytarishga majbur. Ana shunday byudjet daromadlarining ko'rinishlaridan biri davlat obligatsiyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar hisoblanadi.

Davlat byudjetining daromadlariga ular shartli ravishda, faqat shu yilning byudjeti daromadlari nuqtai-nazaridan kiritilishi mumkin.

Davlat byudjeti daromadlarining deyarli barchasi sarflanish nuqtai-nazaridan oldindan mo'ljallangan maqsadlarga ega emas. Ular umumiy fondga tushiriladi va odatdagi moliyalashtirish tartibida foydalaniladi. Byudjet daromadlarining faqat ba'zi birlarigina oldindan belgilangan maqsadlar uchun mo'ljallangan. Ularning tarkibiga ijtimoiy soliqni kiritish mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va majburiy ajratmalarning alohida shakllari va turlarining yig'indisi davlat byudjeti daromadlarining yagona tizimini shakllantiradi. Turli subyektlardan kelib tushadigan davlat byudjetining daromadlari umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlab, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy bo'lmasdan, ular mamlakat taraqqiyoti va davlatning oldidagi vazifalarning o'zgarishiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi.

Shuningdek, davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy tuzilmasida to'g'ri (bevosita) soliqlar ham o'z o'rniga ega. Ular yordamida byudjet daromadlarining salmoqli qismi tashkil topayapti. Uning asosiy qismi esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hissasiga to'g'ri kelayapti. Bu yerda foyda solig'i ham shu guruhga kiruvchi boshqa soliqlarga nisbatan byudjet daromadlarini shakllantirishda alohida rol o'ynamoqda.

Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i yordamida davlat byudjeti daromadlarining 18,3% ga yaqini tashkil topayapti. Uning asosiy qismi (shu guruhga kiruvchi soliqlarning 57,0%) yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqqa to'g'ri kelayapti. Milliy iqtisodiyotda qo'llanilayotgan davlat byudjeti daromadlari tizimining samaradorligi mablag'larning byudjetga tushumini tashkil etishga bevosita bog'liq.

3. Davlat byudjetining xarajatlari

Davlat byudjetining xarajatlari – davlatning markazlashgan pul mablag'larini hudud, mamlakat, tarmoq yoki sohalar doirasida taqsimlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Eng avvalo, o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra, davlat byudjetining xarajatlari **kapital va joriy xarajatlarga** bo'linadi.

Davlat byudjetining kapital xarajatlari davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan byudjet xarajatlari, boshqa byudjetlar va iqtisodiyot alohida tarmoqlariga dotatsiya, subsidiya va subvensiya shaklida ko'rsatiladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.

Byudjetning joriy xarajatlari davlat byudjeti xarajatlarining turkumlanishiga muvofiq kapital xarajatlarning tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlardir.

CamScanner yordamida skanerlangan

Takror ishlab chiqarishdagi roliga ko‘ra, Davlat byudjetining xarajatlari milliy iqtisodiyotga (xo‘jalikka) qilinadigan xarajatlar va ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlariga bo‘linadi. Bu xarajatlarga, eng avvalo, davlat korxonalari va davlat ulushi bor bo‘lgan korxonalarning ustav kapitalini shakllantirish, ularni yanada kengaytirish va rivojlantirish, davlat moddiy zahiralarini yaratish xarajatlari kiradi. Byudjetning ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari ham ijtimoiy jihatdan zarur bo‘lgan xarajatlardir.

Davlat byudjeti iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanishiga davlat tomonidan ta’sir o‘tkazilishining muhim vositasi bo‘lib, jamiyat hayotiga byudjet ta’sirining shakl va usullarini ham o‘zgartirmoqda. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti byudjet mablag‘larini yo‘naltirishga bog‘liqdir. Byudjet xarajatlari aniq ko‘rinishlarining rang-barangligi muayyan xususiyatlariga qarab tabaqalashtiriladi: takror ishlab tarmoq jarayonida ularning vazifasi, ijtimoiy yo‘nalishi, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari, qaysi maqsadga yo‘naltirilganligi hisobga olinadi. Davlat byudjeti xarajatlari ijtimoiy yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- ijtimoiy sohaga qilinadigan xarajatlar;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga qilinadigan xarajatlari;
- mudofaa xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Xo‘jalik yuritishning bozor usullariga o‘tish bilan byudjet mablag‘larini taqsimlashdagi ustivor yo‘nalishlar ham o‘zgardi, davlatning ijtimoiy funksiyasi kuchaydi.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti, ya’ni jamiyat a’zolarining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish yo‘li tanlandi.

Ijtimoiy soha tarmoqlari – maktabgacha tarbiya, xalq maorifi, madaniyat, tibbiy xizmat, jismoniy tarbiya va sportga byudjet mablag‘laridan ko‘proq ajratilmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilashga ketadigan xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlash ham shular jumlasidandir.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini mablag‘ bilan ta’minlash uchun ajratiladigan xarajatlar salmog‘i kamayib boradi. Vaholanki, bunday ulush ma’lum vaqtgacha

CamScanner yordamida skanerlangan

katta bo'lib turishi mumkin, chunki iqtisodiyotdagi tanglik holatini yengish uchun davlat tomonidan bu sohaga ancha-muncha mablag' sarflash talab etiladi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi byudjetning ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarini ko'paytirish, fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishini kuchaytirish hamda keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni, ularni mablag' bilan ta'minlash manbalari bilan oqilona uyg'unlashtirib borishni taqozo etadi.

Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'nalitiriladigan xarajatlari pirovard natijada faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ladi, chunki jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi, shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan mablag' sarflashdan butunlay voz kechishning iloji yo'q, chunki iqtisodiyotning davlat sektori saqlanib turadi, u esa davlat investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni, kapital sarflarning tarmoq va hududiy tuzilishilarini izga solib turishni talab etadi. Aniq maqsadli byudjet kreditlari ko'rinishida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ham saqlanib turadi. Bundan tashqari, davlat mulkchilikning muqobil shakllaridagi korxonalarning qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish va egalik qilishi ham mumkin.

Davlat byudjeti mablag'larining bir qismi mamlakatning mudofaa qobiliyatini qo'llab-quvvatlash sohasidagi tadbirlarni mablag' bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga, uning moliyaviy imkoniyatlari va xalqaro vaziyatga ham bog'liq bo'ladi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni, jumladan: xalq xo'jaligi ahamiyatidagi qurilish-montaj ishlarini, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zahiralarini mablag' bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy kommunal xo'jaligi va obodonlashtirish, maorif va sog'liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy ta'minot sohasidagi tadbirlar mablag' bilan ta'minlanadi.

Davlat byudjeti xarajatlarining kattagina qismi faoliyat ko'rsatishning o'ziga xos sohasi hisoblangan boshqaruv xarajatlariga to'g'ri keladi.

Davlat byudjetining xarajatlari va daromadlari bir biri bilan o'zaro bog'liqdir, ular bir biriga ta'sir etib turadi, bir birini muvofiqlashtirib borishi lozim. Davlat byudjeti xarajatlari kelib tushadigan byudjet

CamScanner yordamida skanerlangan

daromadlarining hajmlariga karab kattik cheklanadi. Davlat byudjetining daromadlari esa davlatning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham byudjet xarajatlarining muddati va hajmlarini kelib tushadigan daromadlarining muddat va hajmlariga muvofiq qilib belgilash juda muhimdir. Ayni paytda, ta'kidlab o'tish joizki, byudjet mablag'laridan foydalanishda ziddiyatli hollar ham bo'lib turadi. Byudjet xarajatlarini to'g'ri rejalashtirmasligi natijasida byudjet yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin.

Davlat byudjeti ijrosida qatnashuvchi hamma organlarda davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarini hisobga olish asosida byudjet tasnifi yotadi. Byudjet tasnifi Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalanish va u byudjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlash maqsadida davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, ularning taqchilligini mablag' bilan ta'minlash manbalarini guruhlash hisoblanadi. Byudjet tasnifi hamma byudjetlarni yagona davlat byudjetiga jamlash imkoniyatini yaratadigan asosiy tashkiliy funksiyani amalga oshirivchi hujjat bo'lib qolmasdan, u katta iqtisodiy ahamiyatga ham egadir. Tasnifda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari bir xil alomatlari bo'yicha guruhlashtiriladi va uning bo'linmalari deb yuritiladi. Bo'limlar, paragraflar, boblar va moddalar byudjet tasnifi bo'linmalari deb hisoblanadi.

Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Hamma darajadagi byudjetlar yagona byudjet tasnifi ko'rsatkichlari doirasida shallantiriladi va ijro etiladi, ya'ni tasnif obyektlariga berilgan guruhlashtirish kodlari bo'yicha daromadlar va xarajatlar guruhlashtiriladi.

Davlatning jamiyat hayotida muhim vazifalarni bajarishi uchun ma'lum miqdorda xarajat qilish talab etiladi. Davdat xarajatlari – bu davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini davlat faoliyati bilan ehtiyojlarni qondirish uchun qilingan sarflar yig'indisidir.

Byudjetning barcha xarajatlari: joriy xarajatlar va kapital xarakteridagi xarajatlardan iborat bo'ladi. Mablag'ning asosiy qismi joriy xarajatlarga, qolgan qismi kapital xarajatlarga to'g'ri keladi. Shu o'rinda byudjet xarajatlarini tasnifini ko'rib chiqish lozim.

Byudjet xarajatlarining tasnifini 3 ta asosiy guruhga bo'lib o'rganib chiqish mumkin bo'ladi. Bular quyidagilardir:

CamScanner yordamida skanerlangan

A) Byudjet xarajatlarining vazifasi bo‘yicha tasnifi;

B) Byudjet xarajatlarining tashkiliy tasnifi;

V) Byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi.

A) Byudjet xarajatlarining vazifasi bo‘yicha tasnifi:

Xarajatlarni davlat organlari funksiyalari bo‘yicha tasnifi davlat sektoriga kiruvchi organlariga yuklatilgan funksiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning to‘liq tasnifidan iborat.

B) Byudjet xarajatlarining tashkiliy tasnifi:

A) Muassasa va tashkilotlar bo‘yicha byudjet tasnifi byudjet xarajatlari

B) hokimiyatlar, davlat organlari va tashkilot va muassasalar bo‘yicha taqsimlashda foydalaniladi.

V) Byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi:

Byudjet iqtisodiy tasnifining asosiy vazifasi byudjet va xarajatlar smetasidan o‘z aksini topgan xarajatlar va daromadlar turlari va naturalarini belgilab berishdan iborat.

Byudjet iqtisodiy tasnifi 7 ta raqamdan tashkil topgan.

Byudjetdan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1. Fan, talim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublika byudjetidan – respublika byudjetida turuvchi tashkilotlar mablag‘ bilan ta’minlanadi; mahalliy byudjetlardan esa – Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarida turuvchi tashkilotlar mablag‘ bilan ta’minlanadi);

2. Ijtimoiy taminot (respublika byudjetidan – respublika byudjetida turuvchi tashkilotlar mablag‘ bilan ta’minlanadi; mahalliy byudjetlardan esa – Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarida turuvchi tashkilotlar mablag‘ bilan ta’minlanadi);

3. Aholini ijtimoiy himoya qilish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarida turuvchi tashkilotlar mablag‘ bilan ta’minlanadi);

4. Mudofaa, milliy xafsizlik va jamoat tartibini ta’minlash (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

5. Sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta’minlash. (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

6. Davlat zahirasi va safarbarlik zahirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

7. Davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

CamScanner yordamida skanerlangan

8. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari faoliyatini ta’minlash (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi), Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta’minlash esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

9. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari tashkilotlarini saqlash xarajatlari (respublika byudjetidan – respublika byudjetida turuvchi tashkilotlar mablag‘ bilan ta’minlanadi; mahalliy byudjetlardan esa – Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarida turuvchi tashkilotlar mablag‘ bilan ta’minlanadi);

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va taldablarini amalga oshirish (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi); qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning tarmoq dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

11. Yer tuzish, melorativ, tabiyatni muhofaza qilish va epizootsiyaga qarshi kurash chora tadbirlarini amalga oshirish (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

12. Qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurash (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

13. Gidrometeorologiya, do‘lga qarshi kurash chora – tadbirlari va boshqalar (respublika byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadi);

Ijtimoiy-madaniy tadbirlarga qilinadigan xarajatlar davlatning ijtimoiy funksiyalarini bajarish bilan bog‘liqdir. Bu xarajatlar quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1) xalq ta’limi, mutaxassis kadrlari tayyorlash;
2) madaniyat, san’at va ommaviy axborot vositalari;
3) sog‘liqni saqlash;
4) jismoniy tarbiya va sport;
5) ijtimoiy ta’minot.

Ijtimoiy-madaniy tadbirlarga qilinadigan xarajatlar smeta tartibida rejalashtirish tamoyillari asosida aniqlanadi. Bu xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlash aniq tadbirlar va xarajat turlari bo‘yicha mablag‘ bilan ta’minlashtiriladi. Xarajatlar hajmi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan noishlab chiqarish tarmoq sohalari tashkilotlarida ishlab-chiqiladigan

CamScanner yordamida skanerlangan

smetalar va moliya organlarida tuziladigan mablag‘ bilan ta’minlash hisob-kitoblari asosida aniqlanadi. Hamma hisob-kitoblar asosida tashkilotlarning faoliyatini xarakterlaydigan qancha kontengentga (o‘quvchilar, hisob guruhlari, sinflar, koykalar, o‘tkazilgan operatsiya va boshqalar miqdori) xizmat qilish ko‘rsatkichlari yotadi. Bunda yil davomida qancha vaqt faoliyat ko‘rsatishi ham hisobga olinadi. Bu ko‘rsatkichlar hisob-kitob o‘lchovlari sifatida xizmat qiladi. Hisob-kitob o‘lchovi qilinadigan pul xarajatlari byudjet tashkilotining faoliyat ko‘rsatishini va rivojlanishini ta’minlaydigan me’yor bo‘yicha belgilanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va uni bosqichma – bosqich qayta tashkil qilish, ko‘p kanalli mablag‘ bilan ta’minlashni joriy etish, davolash tashkilotlariga mablag‘lar amalga oshiriladigan xizmatlarning hajmi va sifatiga ko‘ra ajratishni ko‘zda tutadi. Byudjet mablag‘larining katta so‘mmasi internat uylarini saqlashga, tibbiy mehnat ekspertizalariga, protezlashga va boshqa tadbirlarga yo‘naltiriladi.

Davlat byudjeti xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlash (mablag‘ ajratish) doirasida quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1) byudjet mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari;

2) joriy byudjet transfertlari;

3) kapital xarajatlar: a) asosiy fondlar va vositalarini (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham ular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun sotib olish va takror ishlab chiqarish; b)chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk sotib olishga; d) davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni sotib olishga; e) davlat zahiralarini vujudga keltirishga;


4) kapital xarajatlarini qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari;

5) rezidentlik shaxslarga va chet davlatlarga beriladigan byudjet ssudalari;

6) davlat maqsadli fondlariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari (byudjet dotatsiyasi deganda o‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlarni o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari tushuniladi. Byudjet ssudasi deganda yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoki respublika byudjetidan rezident yuridik

CamScanner yordamida skanerlangan

shaxsga yoki chet davlatga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘ tushuniladi);



3-rasm. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi

7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shakllarida.

Byudjetning joriy xarajatlari yuridik shaxslarga ularni saqlashga va joriy ehtiyojlarini qoplashga byudjet mablag‘larini berilishi bilan bog‘liqdir. Bu xarajatlarga davlat ehtiyojiga qilingan xarajatlar (iqtisodiyot va infratuzilma, xalq xo‘jaligining davlat tomonidan, fuqaroviy harbiy xususiyatiga molik mahsulotlarni sotib olish, xizmatlarga haq to‘lash, davlat tashkilotlarining joriy xarajatlari), quyi davlat organlariga davlat va xususiy korxonalarga joriy subsidiyalar, transport to‘lovlari, davlat qarzi bo‘yicha foizlarni to‘lash va boshqa xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar asosan byudjetda yoki joriy xarajatlar va daromadlarning byudjetda qayd qilingan xarajatlariga to‘g‘ri keladi.

Byudjetning kapital xarajatlari asosiy kapitalga va zahiralarni ko‘paytirishga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan pul xarajatlaridan iboratdir. Ularga xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga byudjet hisobining qilingan

CamScanner yordamida skanerlangan

kapital quyilmalar kiradi. Davlat korxonalari va xususiy korxonalarga, mahalliy davlat organlariga berilgan investitsiya, subsidiyalari va uzoq muddatli byudjet kreditlari, xarajatlarning mazkur guruhi byudjetda davlat kapital xarajatlari va daromadlarida qayd qilinadi.

4. Byudjet taqchilligi va uni boshqarish

Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida davlat byudjeti defitsiti bilan pul massasining o'sishi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro byudjet amaliyotida davlat byudjetining uch asosiy holati, ya'ni **defitsitli, profisitli, muvozatlashgan** byudjetlar mavjud ekanligi qayd etilgan.

Davlat byudjetini xarajatlarining daromadlardan oshishi **byudjet defitsitini** tashkil qiladi.

Byudjet daromadlarining xarajatlardan ortib ketishi **byudjet profisiti** deyiladi.

Muvozanatlashtirilgan byudjet deganda, defitsit yoki profisit summasi byudjet harajalarining 1 foizidan oshmaydigan davlat byudjetiga aytiladi.

Byudjet defitsiti dunyoning ko'plab malakatlarida davlat moliyasining ajralmas qismiga aylanganligi uning yuzaga kelish sabablarini, muta'dil darajasini, makroiqtisodiy tartibga solishning davlat tizimidagi o'rnini ilmiy o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Davlat byudjeti defitsitining yuzaga kelishida ikki asosiy sabab quyidagilardan iborat:

- Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bilan bog'liq xarajatlari;
- Davlatning noishlab chiqarish xarakteridagi xarajatlari hajmining keskin oshib ketishi hisoblanadi.

Byudjet defitsiti yuzaga kelishini mamlakatdagi iqtisodiy inqiroz holatlari bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir. Buning sababi iqtisodiy inqiroz paytida soliq tushumlari keskin kamayadi, hukumatning qimmatli qog'ozlarini sotish darajasi pasayadi va hokazo. Bu pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining rejalashtirilgan miqdorda tushmasligiga sabab bo'ladi. Natijada byudjet defitsitining hajmi yanada oshadi va hukumat uchun bank tizimining kreditlaridan foydalanishidan ko'ra qulayroq va osonroq yo'l qolmaydi. Shuning uchun iqtisodiy inqiroz holatlarining yuzaga kelishini alohida sabab sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Shunisi xarakterliki, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida tarkibiy defitsit tushunchasi ham qo'llaniladi. Tarkibiy

CamScanner yordamida skanerlangan

defitsit deganda, aholining to'liq bandligi sharoitida davlat byudjetining salbiy qoldig'i tushuniladi. Bunda byudjet defitsitining miqdori davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning joriy tadbirlari bilan emas, balki sikllik tebranishlar bilan belgilanadi. Iqtisodiy inqirozlar paytida odatda ishsizlik ko'payadi, bu esa tarkibiy defitsit miqdoriga bevosita ta'sir qiladi. Demak, iqtisodiy inqirozlarni nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti uchun, balki rivojlangan mamlakatlar amaliyoti uchun ham xos bo'lgan omil sifatida qayd etish mumkin.

Davlat byudjeti defitsitining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan asosiy masalalardan biri byudjet defitsiti hajmini aniqlash metodologiyasini tahlil qilish hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda byudjet defitsitining hajmini aniqlashda ikkita uslubiyatdan keng foydalanilmoqda:

Sof defitsit – o'z tarkibiga ko'ra byudjet investitsiyalaridan tashqari bo'lgan davlat byudjeti xarajatlaridan iborat.

Umumiy defitsit – nafaqat to'g'ri byudjet investitsiyalari balki joriy byudjet yilida qaytariladigan va hukumat tomonidan kafolatlangan, kredit hisobidan amalga oshiriladigan investitsiyalardan ham iboratdir.

Fikrimizcha, umumiy defitsit byudjet defitsitining real hajmini to'liqroq ifoda etadi. Chunki bunda hukumat kafolatlangan kreditlaridan samarali foydalanishni nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati uchun ikkinchi metodologiyaning katta ahamiyatga ega ekanligiga asosiy sabab shundaki, hozirgi kunga qadar mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilingan kreditlarning 80 %dan ortiq qismi respublika hukumatiningi kafolati asosida olingan kreditlardan iboratdir. Demak, ulardan foydalanishda nazoratni kuchaytirish davlat byudjet defitsiti oshishining oldini oladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan qayta qurishning zarurligi yirik investitsion xarajatlarni talab qildi. Xususiy sektorga mansub korxonalarning xorijiy investitsiyalarni va investitsion kreditlarni jalb qilish imkoniyati cheklangan sharoitda, davlat bosh islohotchi sifatida xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish muammosining chuqurlashuviga yo'l quymaydi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz hukumatining xorijiy valyutadagi majburiyatlarining ko'payishiga olib keldi. Demak, byudjet defitsitining iqtisodiyotni muvozanatlashtirishdagi roliga baho berishda har bir mamlakatning moliya-byudjet siyosatidan kelib chiqish lozim. Byudjet defitsitining o'sishi natijasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida qanday ijobiy o'zgarishlar yuz berganligini aniqlash lozim. Masalan, davlat byudjet defitsitining yuqori

CamScanner yordamida skanerlangan

darajada o'sishi davlat investitsiya xarajatlarining o'sishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday sharoitda byudjet defitsitining iqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun iqtisodiy o'sish suratidagi soliq tushumlaridagi o'zgarishlarni va ishsizlik darajasini baholash lozim, chunki investision xarajatlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Ayni vaqtda investitsiya xarajatlarini samarasiz tarzda amalga oshirish byudjet defitsitining iqtisodiyotga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga keltiradi. Xususan, davlat mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan investitsion loyihalarning o'zini oqlamasligi qilingan xarajatlarni tuliq kapitalga aylanishiga, hukumat to'lovlarining oshib ketishiga olib keladi. Buning oqibatida byudjet defitsitini qoplash muammosi yanada chuqurlashadi va ko'pchilik hollarda hukumat defitsitni qoplashning inflyatsion manbalaridan foydalanishga majbur bo'ladi. Bunda byudjet defitsitining oshishi hisobiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga erishilsa, u holda byudjet defitsiti faol shaklga ega bo'ladi.

Taqchillikning kelib chiqish sabablari:

– iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida davlat byudjeti hisobidan kapital qo'yilmalar hajmining oshib ketishi;

– favqulodda holatlar – urushlar, davomiy ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar;

– YaIM o'sish sur'atlarining pasayib ketishi, ishlab chiqarishning izdan chiqishi;

– byudjet daromadlari bazasining mustahkam emasligi;

– YaIM ning o'sish sur'atlariga erishmasdan turib markazlashgan uzoq muddatli investitsiyalarni, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishning muttasil oshirib borilishi;

– iqtisodiy inqirozlar va boshqalar.

Byudjet defitsitini bank resurslari hisobidan moliyalashtirishning eng keng qo'llanilgan turi bu – davlat bankining kredit resurslari hisobidan defitsitni moliyalashtirish bo'lib hisoblanadi. Jahon tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, aksariyat mamlakatlarda byudjet defitsitini bartaraf etishda pul emissiyasi xizmatidan keng foydalanilgan. Bu esa o'z vaqtida byudjet defitsitini emission kredit berish orqali tartiblashtirishga yo'l ochib berdi. Shu tariqa byudjet defitsitini moliyalashtirish mexanizmi orqali muomalaga tovar-moddiy qimmatliklar bilan ta'minlanmagan pullar chiqartirilishi uchun yo'l ochib berildi.

Rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh, YeI davlatlarida byudjet defitsiti bilan pul massasining o'sishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri

CamScanner yordamida skanerlangan

bog'liqlik bo'lmasada, mazkur mamlakatlarning Markaziy banklari iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil bo'lib, pul-kredit siyosatiga oid qarorlarni hukumatning yo'riqnomalarisiz mustaqil tarzda qabul qilishi yuqoridagi bog'liqlikni chetlab o'tmaydi. Byudjet siyosati ham o'z navbatida, pul-kredit siyosatidan ajratilgan holda ishlab chiqiladi va pul massasining tovarlar bilan qoplanishini nazarda tutadi.

Amaliyot natijalariga nazar tashlasak, byudjet defitsiti soliqlarning qisqarishi yoki davlat xarajatlarining ko'payishi hisobidan bo'lishi mumkin, ammo bunday jarayonda doimo foiz stavkalarining o'sishi kuzatiladi. Markaziy bank foiz stavkalarining keskin o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ochiq bozordan davlatning qimmatli qog'ozlarini sotib olishi orqali pul massasining o'sishiga imkoniyat yaratib bermoqda. Bu esa defitsit va pul massasining o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni Markaziy bank orqali yuzaga keltirish imkoniyatini yaratmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun investitsiyalarning byudjetdan moliyalashtirishi zarurligini hech kim inkor etmaydi. Lekin ayni paytda bu byudjet defitsitini qisqarishiga olib kelmasligini ham hisobga olish kerak. Binobarin, iqtisodiyotni erkinlashtirish byudjet xarajatlarini investisiyalardagi ustuvorligining nodavlat moliyaviy manbalarga qaratilishi muhimdir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, investitsiyalarning moliyaviy manbalari sanoqlidir. Ular aholi jamg'armalari, byudjet mablag'lari, xo'jalik faoliyati subyektlari mablag'lari va nihoyat pulga chaqilgan turli moddiy aktivlardan iborat.

Byudjet daromadlari, xarajatlari va taqchillikni moliyalashtirish tasnifidan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

-Inflyatsiya sharoitida taqchillikni moliyalash manbalari asosan ichki qarz mablag'lari va manbalari hisobiga amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, tashqi qarz mablag'larini jalb etish milliy iqtisodiyotning yanada taraqqiy topishi uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur jarayonni xorijiy mamlakatlar va milliy modelning xususiyatlarini hisobga olgan hoda amalga oshirish mumkin.

-Milliy iqtisodiyotning so'nggi yillardagi barqaror rivojlanishi, davlat byudjetning ikki davomida profisit bilan ijro etilishi iqtisodiyotda investisiya uchun zahira jamag'armalarining mavjudligidan dalolat beradi, bu esa davlat xarajatlarini yanada oshirish, ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini oshirishga shart-sharoit yaratadi. Shu ma'noda byudjet ijrosining

CamScanner yordamida skanerlangan

yangi tizimi hisoblangan G'aznachilikni joylarda qisqa muddatlarda joriy etishga sarf-xarajatlarni moliyalashtirishni oshirish imkoniyati mavjud.

-Byudjet taqchilligini kamaytirish iqtisodiyotda mutanosiblikni ta'minlashi muhim omili hisoblanadi. Buning uchun esa boshqaruv xarajatlarini qisqartirish, dotatsiyalarning har xil turlarini va narxlarini qoplash uchun mablag' ajratilishini kamaytirish, markazlashtirilgan kafolatlash tizimidan voz kechish, mahalliy byudjetlar mustaqilligi va o'z-o'zini moliyalashtirishga erishish lozim.

Sekvestr – davlat xarajatlarini har oyda barcha xarajatlar moddalari kesimida kamaytirib borish amaliyotidir.

Byudjetning himoyalangan xarajat moddalari: ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, moddiy yordam, stipendiya, qishloq xo'jaligi investisiyalari va ko'mir sanoati.

5. Byudjet tizimi va qurilishi.

Davlat byudjeti davlat moliyasining markaziy bo'g'ini bo'lishi bilan bir qatorda moliya tizimining asosini tashkil etadi. Davlat byudjetning iqtisodiy tuzilishi va mazmuni bevosita davlatning funksiyasi va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Chunki davlat jamiyatni boshqarish uchun o'z oldiga bir nechta vazifalarni qo'yadiki, u vazifalarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda byudjet mablag'lari xizmat qiladi.

Davlat byudjeti yaxlit hukumatga xizmat qilish bilan bir qatorda moliyaviy resurslarni tarmoqlararo qayta taqsimlashda, hududlararo, mulk shakllari kesimida qayta taqsimlashda ham bevosita ishtirok etadi. Masalan, tarmoqlararo qayta taqsimlashda har qanday iqtisodiy tizimda ham ayrim tarmoqlar uchraydiki, zamon ularning daromadlari o'z xarajatlarni qoplay olmasada, lekin ular ishlab chiqarayotgan tovarlar, ko'rsatayotgan xizmatlar va bajarayotgan ishlar umumjahon ahamiyatiga molik bo'lgan tadbirlar bilan bog'liqdir. Bunday tarmoqlar tarkibiga: energetika, tarnsport, sport va boshqalar kirishi mumkin. Ushbu tarmoqlarga byudjet orqali yuqori rentabelli tarmoqlarning moliyaviy resurslari olinib qaytadan taqsimlab beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Respublika byudjeti;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar;
3. Davlatning maqsadli fondlarining byudjetlari.

CamScanner yordamida skanerlangan

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti o'zida Qoraqalpogiston Respublikasining respublika byudjetni va respublikaga buysunuvchi shaharlar va tumanlar byudjetlarini birlashtiradi.

Viloyatlar byudjeti – o'zida viloyat byudjeti va viloyatga kiruvchi shaharlar va tumanlar byudjetlarini birlashtiradi.

Shahar byudjeti – agar u tumanlarga bo'lingan bo'lsa, uning tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjeti va shahar byudjetidan tashkil topadi.

Tumanlar byudjeti – tuman byudjeti va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar byudjetidan tashkil topadi.

Respublika byudjeti – umumdavlat xarakteriga ega tadbirlarni moliyalashtirish uchun daromadlar hajmi, manbaini va ulardan tushadigan tushumni ko'zda tutuvchi, shuningdek, ma'lum vaqt oralig'ida aniq xarajatlar yo'nalishi va hajmini ko'zda tutuvchi pul fondlaridir (shakllantirish va xarajat qilish rejasi Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi).

Mahalliy byudjet – daromadlar hajmi, manbaini va ulardan tushadigan tushumni ko'zda tutuvchi, shuningdek, ma'lum vaqt oralig'ida aniq xarajatlar yo'nalishi va hajmini ko'zda tutuvchi respublika hududlarida tuziladigan pul fondlaridir.

Davlatning maqsadli fondlari – davlat byudjeti tarkibiga konsolidatsiya tushuvchi har biri uchun qonunchilik yo'li bilan daromad manbasi va bu daromaddan kelib tushish sharti, normasi, shuningdek, bu mablaglarni qaysi maqsadlarga ishlatish belgilangan fondlardir.

Byudjet tizimini boshqarish Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi yagona moliyaviy siyosatni amalga oshiradi, davlat byudjeti resurslarini davlat byudjeti asosida rejalashtiradi va boshqa moliya muassasalarni uslubiy jihatdan boshqaradi.

Byudjet tizimini boshqarish moliya organlari va bank institutlari orqali O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi prinsiplaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimini tashkil etishning asosiy prinsiplari quyidagilardan tashkil topgan:

– normativ-qonuniy asosni unifikatsiyalash;

– pul tizimini qurilishni, byudjet tasnifi tizimini, byudjet hisoblash hujjatlarini, byudjet jarayonining birligi;

– byudjet qurilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi bilan mosligi;

CamScanner yordamida skanerlangan

– davlat byudjetini tashkil etuvchi byudjetlarning o‘zaro aloqadorligi;

– davlat byudjeti taqchilligini mumkin bo‘lgan darajasini hisobga olgan holdagi davlat daromad va xarajatlarining tengligi;

– davlat daromad va xarajatlarining aniq manbalar va yo‘nalishlar bo‘yicha rejalashtirilishi;

– davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun bilan belgilangan assignovaniya chegarasida davlat byudjeti xarajatlarini amalga oshirilishi;

– kapital va joriy xarajatlarni chegaralanishi;

– byudjetlarning mustaqilligi;

– hisobotlarni to‘g‘riligi;

– byudjet bajarilishini sifatini nazorati.

O‘zbekiston Respublikasida barcha darajadagi byudjetlarni shakllanishi, ko‘rib chiqilishi, tasdiqlanishi va bajarilishining hisobi milliy valyutada amalga oshiriladi.

Davlat maqsadli fondlari respublika byudjeti va mahalliy byudjeti bilan birgalikda konsolidatsiyalashgan byudjet tushunchasini beradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

– Mahalliy soliqlar, majburiy to‘lovlar va boshqa soliqsiz to‘lovlarni qonunlar asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga ajratish orqali;

– Davlat byudjeti qonuni asosida umumdavlat soliqlari va boshqa tushimlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga yo‘naltirish orqali;

– Davlat aktivlarini foydalanishga berishdan keladigan daromadlarning bir qismi;

– Tasdiqlangan normalar asosida vorislik, sovg‘a asosida davlat ixtiyoriga o‘tgan pul mablag‘larining bir qismi;

– Yuqori byudjetdan byudjet dotatsiya va subvensiyalari hisobiga;

– Boshqa manbalardan qaytarib berilmaslik sharti bilan olingan pul tushumlari;

– Harakatdagi qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa daromadlardan.

Bundan tashqari Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga yuqori turuvchi byudjetdan byudjet ssudasi shaklida mablaglar kelib tushishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

6. Byudjet jarayoni

Byudjet jarayoni – hukumat (moliyaviy) organlarining faoliyati: byudjetni tuzish, ko'rib chiqish, nazorat qilish, qonun bilan tartibga solishlardir. Byudjetni tuzish va amalda bajarish ijro etuvchi hokimiyat tomonidan, uni tasdiqlash esa qonun chiqaruvchi organ tomonidan bajariladi.

Davlat byudjeti loyihasini tayyorlash. Shaharlar va tumanlar hokimiyatlari (uning tarkibiga kiruvchilar) keyingi moliya yili uchun ko'rsatilgan hududlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Viloyatlar hokimiyati va Toshkent shahri hokimiyati qarorlari bilan aniqlangan byudjet loyihalarini kelishilgan muddatlarda (ammo yigirma beshinchi iyundan kechikmasdan) yuqori turuvchi moliya organlariga taqdim etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining vazirliklari va boshqarmalari, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining bo'lim va boshqarmalari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining Respublika byudjetidan, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining byudjetidan mablag' oluvchilar Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya Vazirligiga, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlari moliya bo'limlariga kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengisi, viloyatlar hokimiyati va Toshkent shahri hokimiyati qarorlari bilan aniqlangan muddatlarda (ammo birinchi iyundan kechikmasdan) o'zlarining arizalarini topshiradilar. Shundan so'ng, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengisi, viloyatlar hokimiyati va Toshkent shahri hokimiyati o'z hududlari bo'yicha byudjet loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda (ammo birinchi iyuldan kechikmasdan) taqdim etadilar. Vazirliklar va respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'ini oluvchilar xuddi yuqoridagi ko'rinishda o'z arizalarini taqdim etadilar. Moliya vazirligi kerakli ma'lumotlarni va hujjatlarni talab qiladi va kelgusi moliya yili uchun joriy yilning birinchi oktyabrigacha davlat byudjetining loyihasini tuzadi.

Byudjet loyihasini tayyorlash muddatlari har bir mamlakatning amaldagi qonunchiligida o'z aksini topishi shart. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni byudjet loyihasini tayyorlashning quyidagi muddatda bajarilishini belgilaydi, kelgusi moliya yiliga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar olishga buyurtmalar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar

CamScanner yordamida skanerlangan

tomonidan —joriy yilning 1 iyunidan kechikmay tegishli moliya organlariga;

—respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan — joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilishi kerak.

Kelgusi moliya yiliga tegishli byudjetlar loyihalari:

tumanlar va shaharlar hokimliklari moliya organlari tomonidan — mahalliy hokimiyat vakillik organlari belgilangan tartibda va muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktir- masdan yuqori moliya organlariga;

—Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi; viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlar tomonidan — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va muddat- larda, biroq joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilmog'i lozim.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjetining loyihasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tayyorlab, joriy yilning 15 sentyabrigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti loyi- hasini byudjetdan mablag' oluvchilar taqdim etgan buyurtmalarga va davlat byudjetining tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi

Bir vaqtning o'zida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, shuningdek, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagilami o'z ichiga olgan byudjetnoma loyihasiiii ibhlab chiqiblii va 15 senlyabigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishi kerak:

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining bashorat bahosi;

o'tgan yilgi Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot va joriy yilgi Davlat byudjetining kutilayotgan ijrosi bahosi;

kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yilning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari;

mamlakat byudjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlariga sharhlar;

CamScanner yordamida skanerlangan

davlatning ichki va tashqi qarzlari hamda bu xarajatlarning holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasi. Yuqoridagilarni o'z ichiga olgan byudjetnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirilmasdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritilishi shart.

1. Davlat byudjeti loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etilishi. Mamlakatning oliy ijroiya organi — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qullanganidan so'ng Davlat byudjetining loyihasini muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) uchun qonunchilik organi bo'lgan Oliy Majlisga taqdim etiladi. Odatda, byudjetning loyihasi Oliy Majlisning har bir palatasida (oldin quyi palata bo'lgan Qonunchilik palatasida va yuqori palata sanalgan Senatda) alohida-alohida muhokama qilinadi. Byudjet loyihasida:

1.Davlat byudjeti loyihasi tuzilgan o'rta muddatli asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar;

2. O'zbekiston Respublikasi hukumatining byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari;

3. O'tgan yilgi va joriy yilning birinchi yarim yilida byudjetning bajarilishi bo'yicha hisobot;

4. Harakatdagi tasnif tizimiga ko'ra keyingi yil uchun daromad va xarajatlar prognozi;

5. Makaroiqtisodiy tahlil natijalariga asoslangan keyingi moliya yili uchun tuzilgan byudjet daromadlari va xarajatlari prognoziga sharhlar;

6. Harakatdagi va tasdiq uchun taqdim etilayotgan byudjet dasturining ro'yxati;

7. Joriy investesiyalar uchun kapital qo'yilmalarning prognozi;

8. Davlatning tashqi va ichki qarzlarining holati va bular bo'yicha o'tgan moliya yilidagi mablag'lar harakati;

9. Davlat korxonalarining o'tgan va o'tayotgan moliya yilidagi moliyaviy holati, kelgusi moliya yili uchun asosiy moliya ko'rsatkichlarining prognozi;

10. Kelgusi yil uchun davlat byudjeti haqidagi qonunning loyihasi.

Kelgusi yil uchun davlat byudjeti haqidagi qonunning loyihasida:

1. Tavsiya etilayotgan assignovaniyani moliyalashtirish uchun zarur bo'ladigan, harakatdagi qonunchilikka to'g'ri keladigan daromadlar manbai, turi va hajmi ko'rsatiladi;

CamScanner yordamida skanerlangan

2. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlarida ko'zda tutilgan, kelgusi moliya yilida byudjet mablag'larini oluvchilarga mablag' ajratishni ko'zda tutuvchi assignovaniya;

3. Daromad va xarajatlar harakatdagi byudjet tasnifi tizimida ko'zda tutilgan holda kapital va joriy xarajatlarga bo'lingan holda aks ettiriladi;

4. Umumdavlat solig'laridan Qoraqalpog'iston Respublikasining Respublika byudjetiga, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining byudjetiga ajratiladigan ajratmalar me'yori, shuningdek, daromadlar hajmi, dotatsiya va subvensiyalar bilan birgalikda, va ko'rsatilgan byudjetlarning xarajatlari;

5. Davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi byudjetlarning aylanma kassa(naqd) hajmi aniqlanadi;

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpogiston Respublikasining Respublika byudjeti fondining, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun tuziladigan rezerv fondining hajmi ko'rsatiladi;

7. Davlat byudjeti taqchilligining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan hajmi va uni moliyalashtirish manbalari ko'rsatiladi;

8. Davlat tomonidan beriladigan kreditlarning, davlatning tashqi va ichki qarzlarining chegarasi ko'rsatiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan davlat byudjet loyihasini ko'rib chiqish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat byudjeti loyihasiga ilova qilingan byudjet taqchilligini hisobga olgan holda davlat byudjeti loyihasining daromadlar va xarajatlarining har qanday moddasini qaytadan ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan xarajatlar moddasining oshirilishi boshqa xarajat moddalarining mos ravishda qisqarishini ko'zda tutishi yoki daromadlarining ortishiga asoslangan bo'lishi kerak. Xuddi shunday daromad moddalarining qisqarishi boshqa daromad moddalarining ortishini yoki ma'lum xarajatlarning qisqarishini ko'zda tutishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat byudjeti qonuni tasdiqlangandan so'ng uch kunlik muddat ichida Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashiga, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlariga ularning daromad va xarajatlari, shuningdek, ularga respublika byudjeti tomonidan ajratiladigan byudjet dotatsiya va subvensiyalarining hajmi to'g'risida ma'lumotni beradi. Shundan so'ng, Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qg'ori Kengesi va Toshkent

CamScanner yordamida skanerlangan

shahri, viloyatlar xalq deputatlari kengashi ikki haftalik muddatda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti doirasida o‘z byudjetlarni tasdiqlaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Jo‘qg‘ori Kengesi va Toshkent shahri, viloyatlar xalq deputatlari uch kunlik muddat ichida shahar va tumanlar hokimiyatlar ular byudjetining daromad va xarajatlari shuningdek, yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan dotatsiya va subvensiyalar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotni yetkazadi.

3. Tasdiqlangan daromad va xarajatlarning hajmi bo‘yicha ma’lumot berish. Davlat byudjeti haqidagi qonun qabul qilingandan keyin, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bir haftalik muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va Bojxona qo'mitasini tasdiqlangan daromadlar hajmi bo‘yicha ma’lumotni beradi. 10 kunlik muddat ichida Moliya vazirligi Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarni belgilangan daromad va xarajatlar hajmi bo‘yicha ma’lumotni beradi. Mahalliy darajadagi korxona va tashkilotlarga byudjet daromad va xarajatlari to‘g‘risidagi ma'lumotni berish xuddi shu tarzda bir haftalik muddat ichida amalga oshiriladi.

4. Byudjetni ijro etish. Davlat byudjetni bajarilishi va uni bajarish ustidan nazorat:

1. Barcha turdagi byudjet daromadlari mazkur qonunda ko‘zda tutililgan muddatlarda va tartibda shuningdek, soliq va bojxona kodekslari, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik aktlarda ko‘zda tutilgan tarzda shakillanadi.

2. Byudjetga daromadlarni o‘z vaqtida kelib tushishi uchun soliq va bojxona organlari mas’uldirlar.

3. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni byudjetga o‘tkazish muddati qonunlar bilan belgilanadi. Yuridik shaxslardan to‘lanmagan soliqni so‘zsiz undirib olish soliq organlari zimmasiga yuklatiladi.

4. Joriy yilning 31-dekabrigacha byudjetga o‘tkazilmagan daromadlar keyingi yilda o‘tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayidan kechiktirmay, taqdim etishi kerak. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay, taqdim etishi kerak.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Davlat byudjetiga ta’rif bering.
2. “Byudjet mexanizmi” tushunchasi nimalarni o‘z ichiga oladi?
3. O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjetining daromadlari nimalarni o‘z ichiga oladi?
4. O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjetining daromadlari nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Davlat budjetidagi defitsit YaIMning necha foizi atrofida bo’lishi kerak, unga ta’sir etuvchi omillar?
6. Davlat byudjetdan tashqari jamg‘armalarining vazifalari nimalardan iborat?
7. Davlat byudjeti – mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi nimani anglatadi?
8. Davlat byudjeti daromadlarinirng o‘z manbalariga ko‘ra nechta guruhlarga bo‘linadi?
9. Davlat byudjeti xarajatlarining turkumlashtirish belgilari.
10. Davlat byudjetining ahamiyati va ularning namoyon bo‘lish shakllari.
11. Davlat byudjetining daromadlarida soliqlarning tutgan o’rni (Soliq va soliqsiz to’lovlar...)
12. Davlat byudjetining egri soliqlardan shakllanadigan daromadlari(QQS, aksiz...)
13. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari tarkibi.
14. Davlat byudjetining joriy xarajatlari va ularning tarkibi.
15. Davlat byudjetining kapital xarajatlari va ularning tarkibi.

CamScanner yordamida skanerlangan

13-MAVZU: UY XO'JALIKLARI MOLIYASI

Reja:

1. **Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi va uning ta'rifi.**
2. **Uy xo'jaliklari moliyasining davlat moliya tizimida tutgan o'rni va uning moliyaviy ahamiyati.**

Kalit so'zlar: iste'mol, pirovard, jamiyat va qarindoshlik.

1. Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi va uning ta'rifi

Uy xo'jaliklari moliyasi har bir davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi (elementi) hisoblanadi. Bozor munosabatlari tizimida uy xo'jaliklarining moliyaviy ahamiyati uning iqtisodiy jihatdan nimaga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi. Bir tomondan, uy xo'jaliklari ishlab chiqarish omillarining (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va boshqalarning) xususiy egalari hisoblanadi va xuddi shu asosda o'zlarining daromadlar manbalari va moliyaviy tushilmalarini shakllantiradi. Boshqa bir tomondan esa, uy xo'jaliklari iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar sifatida maydonga chiqadi va demak, bozor talabini belgilab (aniqlab) beradi. Bir vaqtning o'zida, uy xo'jaliklari jamiyat yalpi daromadining bir qismini jamg'aradi, real va moliyaviy aktivlarni sotib olish orqali moliyaviy rezervlarni yaratishda ishtirok etadi, soliq to'lovlari orqali esa davlatning markazlashtirilgan moliyaviy fondlarini shakllantirishda katta (muhim) rol o'ynaydi.

Odatda, "uy xo'jaligi" atamasidan milliy statistikada aholidan (kishilar to'plamidan) iborat bo'lgan institutsional birlikni ifodalash uchun foydalanmoq kerak. Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan tavsiya etilgan Milliy hisoblar tizimining (MHT) zamonaviy xalqaro andozasi (standarti) uy xo'jaligini yagona (bir) yashash maydonchasida (maydonida) birgalikda yashayotgan, umumiy fondga o'zlarining daromadlari va boyliklarini to'liq yoki qisman o'tkazayotgan (berayotgan) va ayrim tovarlar hamda xizmatlarni, eng asosan uy-joy va iste'mol mahsulotlarini umumiy tarzda (birgalikda) iste'mol qilayotgan kishilarning katta bo'lmagan guruhi, deb ta'riflaydi (aniqlaydi).

CamScanner yordamida skanerlangan

Ayrim hollarda o'zbek iqtisodiy adabiyotida "uy xo'jaligi" atamasining "xonadon" yoki "oila" atamalari bilan almashtirilishiga yo'l qo'yilmoqda. Shunga mos ravishda "uy xo'jaligi moliyasi" iborasining o'rniga "xonadon moliyasi" va "oila moliyasi" iboralari ham ekvivalent yoki sinonim iboralar shaklida ishlatilmoqda. Shu munosabat bilan "oila" yoki "xonadon"ni "uy xo'jaligi"dan ajratmoq (farqlamoq) lozim. Eng avvalo, "uy xo'jaligi" aniqlilik darajasining "oila"ga nisbatan kamroq darajada cheklangan xarakterga ega ekanligini qayd etib o'tmoq lozim. Masalan, o'zlarining o'g'illariga tegishli bo'lgan joyda (binoda) yashayotgan keksa ota-onalar uy xo'jaligining a'zolari bo'lsalar-da, uning oilasi bo'la olmaydi. Xuddi shuningdek, bir xonani ijaraga olgan talaba uy-joy egasining uy xo'jaligi tarkibiga kiradi, lekin uning oilasi tarkibiga kira olmaydi va h.k. Boshqacha aytganda, uy xo'jaligi qarindosh bo'lmaganlarni ham o'z ichiga olishi yoki bir kishidan (shaxsdan) iborat ham bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ta'kidlash joizki, uy xo'jaligining iqtisodiy jihatdan aniqliligini (aniqlanishini) belgilashda oilaviy aloqalar asosiy omil bo'la olmaydi. Buning ustiga, uy xo'jaligining miqdoriy tarkibi ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar, eng avvalo, shu bilan belgilanadiki, birgalikda yashayotgan va umumiy xo'jalikni yuritayotgan shaxslar (kishilar) guruhi ham va bir vaqtning o'zida, o'zining iste'molini mustaqil ravishda ta'minlayotgan yagona bir shaxs (kishi) ham uy xo'jaligi bo'lib hisoblanishi mumkin. Uy xo'jaligini xo'jalik yuritishning mustaqil iqtisodiy va moliyaviy birligi sifatida ajratilishi quyidagi me'zonlar asosida amalga oshirilmog'i lozim:

- birgalikda (bir joyda) yashash;
- umumiy byudjetning mavjudligi;
- iqtisodiy qarorlarni birgalikda (hamkorlikda) qabul qilish.

Uy xo'jaliklari moliyasi moliya tizimining muhim elementi hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida u uy xo'jaliklarida iste'mol maqsadlari va jamg'arish uchun pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga tegishli (oid) bo'lgan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iboratdir. Ana shuni e'tiborga olgan holda uy xo'jaliklari moliyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. *Uy xo'jaliklarida iste'mol maqsadlari va jamg'arish uchun pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga tegishli (oid) bo'lgan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar majmuiga uy xo'jaliklari moliyasi deyiladi.*

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Uy xo'jaliklari moliyasining davlat moliya tizimida tutgan o'rni va uning moliyaviy ahamiyati

Zamonaviy adabiyotlarda oilaga turlicha ta'rif beriladi. Oila – bu uy joy sharoiti umumiy va bir qator tovarlar xizmatlarni birgalikda iste'mol etish pul daromadlari va moddiy mablag'larni birlashtirgan kishilar guruhi tushuniladi. Oila evolyutsion tarzda rivojlanadi, uning tarkibi o'zgaradi, undagi qadriyatlar yangilanadi, urf odatlar, uning funksiyalarida ham siljishlar yuz berishi namoyon bo'ladi. Baribir, oila iste'molni yakunlovchi vazifasini bajaraveradi. Binobarin, oila o'tkinchi emas, u doimiy, biroq evolyutsion shaklda rivojlanish salohiyatiga ega. Oila xo'jaligining iqtisodiyot sektorida muhim o'rin tutishi, uning davlat bilan aralashivi, bu esa hozirgi kunda davlatning qay darajada rivojlangan yoki rivojlanmaganligini oilalarning iqtisodiy ahvolidan bilib olish qiyin emas. Shuning uchun oilani o'rganish, oilani boshqarish, oila xo'jaligi rejalarini tuzish, oilani iqtisodiy ahvolining yaxshilanishi davlatga katta ta'sir ko'rsatadi.

Oila moliyasi – bu bizga maosh yoki daromadning boshqa manbalari (meros, renta daromadi, lotoreya yutug'i investitsiya daromadi) va biz xarajat qiladigan va xarajat qilmaydigan, investitsiya qiladigan ko'rinishda keladigan puldir.

Iqtisodiyotning ijtimoiyligi birinchi navbatda oilada ifoda etilganligi sababli, oilaning moliyaviy resursi qanchalik ko'p bo'lsa shunchalik u to'q va faravon yashaydi. Xalqi faravon yashaydigan mamlakatgina gullab – yashnashi, xalqi nochor mamlakat esa xarob bo'lishi tarixiy ma'lumotlarda aniq ko'rinib turadi. Barcha ijtimoiy muammolar oilalarda jamlanadi, yig'iladi va ularni hal etishda oila moliyasi faol qatnashadi, chunki oilaning moliyaviy salohiyatining qanchalik kuchli yoki kuchsizligi aytilgan muammolarning shu yerning o'zida qanchalik tez yoki sekin bajarilishida o'z aksini topadi.

Oila moliyasini o'rganish, uni tatqiq etish birinchi bo'lib g'arb mamlakatlarida boshlangan. Oila iqtisodiyotiuning moliyasini fundamental tatqiq etishga bir necha g'arb olimlari o'z hissalarini qo'shgan bo'lib, ular N.Pigu, L.Atkinson va D.Stiglislar o'z asarlarida oila hatti-harakatlari, motivatsiyasi, moliya-kredit tizimidagi o'rni oila moliyasi tahlilining metodologiyasi ilk bor g'arb olimlari asarlarida ishlab chiqilgan.

Davlat va uy xo'jaliklari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar ham to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va qaytarma (yana orqaga qaytariluvchi)

CamScanner yordamida skanerlangan

aloqalar asosida quriladi (vujudga keladi) va ular byudjet hamda nobyudjet fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishdagi munosabatlarni ifodalaydi. Uy xo'jaliklarining daromadlari va mol-mulklari soliqqa tortilish obyekti sifatida maydonga chiqadi. Demak, byudjet tizimi daromadlar bazasining tuzilmaviy elementi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida soliqlar, pensiya tizimi transfertlar orqali davlat moliyaviy oqimlarni uy xo'jaliklarining turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlaydi. Uy xo'jaliklari va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida milliy daromadning ikkilamchi qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan daromadning taqsimlanish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish instrumentlariga ega emas. Moliyaviy munosabatlarning bu sohasi davlat tomonidan eng kam darajada reglamentatsiya qilinadi. Buning sababi shundaki, uy xo'jaliklari pul fondlarini shakllantirishning zarurligi, usuli va maqsadi to'g'risida, ularni sarflashning o'lchami va vaqti xususida qarorlar qabul qilishda mustaqildir. Shu bilan birgalikda davlat uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan daromad va yakuniy (oxirgi) iste'molning o'lchamiga (ko'lamiga) ta'sir qilishga qodir. Bu narsa, jumladan, quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

– soliqli tartibga solish (tartiblash);

– mehnat haqini to'lash stavkalarini o'rnatish (belgilash);

– birinchi darajali zaruriy mahsulotlar baholarini tartibga solish (tartiblash);

– imtiyozlar tizimi;

– sog'liqni saqlash va maorifni byudjetdan moliyalashtirish orqali ta'minotni rivojlantirish;

– va boshqalar.

Uy xo'jaliklarining o'zlari o'rtasidagi (uy xo'jaliklararo) moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklari sektorining ichida moliyaviy resurslarning harakatlanishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar sifatida qaraladi. Bu yerda ushbu jarayon hamma vaqt ham oydinlashmagan va kuchsiz tartibga solinuvchi hisoblanadi.

Uy xo'jaliklarining moliyaviy institutlar bilan o'zaro aloqalari moliyaviy munosabatlarning alohida guruhini ifodalaydi. Ularning kredit muassasalari bilan munosabatlari uy xo'jaligi byudjeti defitsitini to'ldirish (iste'mol krediti vositasida, yordamida), bo'sh turgan pul mablag'larini bank hisob varaqalarida joylashtirish yoki ularni saqlash va jamg'arish maqsadida boshqa moliyaviy aktivlarga qo'yish orqali

CamScanner yordamida skanerlangan

namoyon bo‘ladi. Uy xo‘jaliklarining sug‘urta kompaniyalari bilan bo‘ladigan munosabatlari esa turli ko‘rinishdagi sug‘urta fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida gavdalanadi.

Moliyaning mohiyati uning funksiyalari orqali namoyon bo‘lganligi uchun uy xo‘jaliklari moliyasining mohiyati ham uning funksiyalari yordamida ifodalanadi. Uy xo‘jaliklari moliyasining funksiyalari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

– taqsimlash;
– takror ishlab chiqarish;
– nazorat;
– tartibga solish (tartiblash);
– rag‘batlantirish;

Uy xo‘jaliklari moliyasining bu funksiyalari o‘zaro bog‘langan va bir-birini doimiy ravishda to‘ldirib turadi. Bir vaqtning o‘zida, ma’lum ma’noda va darajada ular o‘zlarining namoyon bo‘lishiga qarab moliyaning umumiy funksiyalaridan biroz farqlanishi ham mumkin.

Uy xo‘jaliklari darajasida daromadlarni shakllantirish bo‘yicha moliyaviy qarorlar quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

• mol-mulk va undan foydalanish (buyumlashgan yoki pul shaklida) imkoniyatining mavjudligiga;

• uy xo‘jaligi ishtirokchilari ish vaqti fondining taqsimlanishiga – uy xo‘jaligi a’zolari ishlovchilarining soni, ularning ish joylari, ish vaqti rejimi va h.k.;

• uy xo‘jaligi a’zolarining tashabbuskorligiga, faolligiga va inson kapitalidan foydalanishga;

• uy xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatadigan tashqi muhitga.

Daromadlarni shakllantirish omillari va baholarning darajasi bu yerda cheklanmalar (cheklanishlar) sifatida amal qiladi, ya’ni iste’mol tanlanmasining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan variantlari majmuini belgilab (aniqlab) beradi. Ana shu nuqtai-nazardan uy xo‘jaliklarining iste’mol fondi minimal va ratsional iste’mol byudjetlari yoki yanada detallashtirilgan tarzda quyidagicha klassifikatsiya qilinishi mumkin:

– hayotiy minimum byudjeti;
– minimal iste’mol byudjeti;
– optimal iste’mol byudjeti.

Hayotiy minimum byudjeti o‘z ichiga uy xo‘jaligi a’zolarining minimal, odatda, fiziologik ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlari to‘plamini qamrab oluvchi iste’mol savatchasi asosida aniqlanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Minimal iste'mol byudjeti uy xo'jaligi a'zolarining nisbatan kengroq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi va iste'molning tiklanuvchi (tiklanuvchan) darajasini ta'minlaydi.

Optimal iste'mol byudjeti esa uy xo'jaligi darajasida (doirasida) inson kapitalini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash va rivojlantirishga moliyaviy imkoniyat yaratadi. Chunki bu byudjet insonning faqat zaruriy ehtiyojlarini emas, balki undan ham yuqoriroq (oliyroq) bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Optimal iste'mol byudjetini quyidagi ikki darajadagi byudjetlarga bo'lish (ajratish) mumkin:

- o'rtacha darajadagi yetarlilik byudjeti;
- yuqori darajadagi yetarlilik byudjeti.

Iste'molga xarajatlarning har qanday ko'rinishi va uning umumiy hajmiga oid har qanday moliyaviy qarorlar uy xo'jaliklari ma'lum ko'rinishdagi byudjetlari doirasidagi ratsional tanlashga asoslanadi. Agar uy xo'jaligining daromadi faqat hayotiy minimumni qoplashga yetadigan bo'lsa, u holda moliyaviy qarorlar uy xo'jaligi iste'mol fondini minimallashtirishga va bir vaqtning o'zida daromadlarning yangi manbalarini qidirib topishga hamda hayot kechirishning moslashtirilgan mexanizmlarini (o'z-o'zini ta'minlash, ikkilamchi bandlik, qarindoshlar va davlatning yordami, savdo va boshqalar) "yoqish"ga qaratilgan bo'lishi kerak. Daromadlarning o'sishi bilan iste'molning o'lchami (hajmi) oshadi (o'sadi, ortadi) va uning tarkibiy tuzilmasi o'zgaradi. Biroq, bu holda ham iste'molning o'sish sur'atlari daromadning o'sish sur'atlaridan pastligicha qolaverishi lozim. Bunday qonuniyat iqtisodiy adabiyotda J.M.Keyns [6] tomonidan ifodalangan "asosiy psixologik qonun" nomini olgan. Moliyaviy qarorlarda bu uy xo'jaligi iste'mol fondi va jamg'armalar yo'nalishini optimallashtirish tendensiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor munosabatlari tizimida uy xo'jaliklarining moliyaviy ahamiyati uning iqtisodiy jihatdan nimaga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi.

Boshqa bir tomondan esa, uy xo'jaliklari iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar sifatida maydonga chiqadi va demak, bozor talabini belgilab (aniqlab) beradi.

[6] Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М., 1999. с.96.

CamScanner yordamida skanerlangan

Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi

Daromadlar	Xarajatlar va jamg'arma
1. Mehnatga haq to'lash; 2.Mehnat haqidan boshqa korxona va tashkilotlardan olinadigan yollanma ish haqi daromadlari; 3. Dividentlar; 4.Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olinadigan tushumlar; 5. Pensiya va nafaqalar; 6. Stipendiyalar; 7. Moliya tizimidan olinadigan tushumlar (sug'urta qoplamalari, omonatlarning foizlari, lotoreya yutuqlari va b.); 8.Xorijiy valyutani ayirboshlashdan kelgan daromad; 9. Boshqa tushumlar. a) komission magazinlar orqali buyumlarni sotish b) chiqindi ashyo, metallom va boshqalarni sotish pullari	1. Tovarlarni sotib olish va xizmatlarni to'lash; 2. Majburiy to'lovlar va ixtiyoriy badallar: a) soliqlar va yig'imlar; b) sug'urta bo'yicha to'lovlar; v) jamoatchilik va kooperativ tashkilotlarga badallar; g) ssudalarni qaytarish; d) lotoreya chiptalarini xaridi; ye) tovar krediti uchun foizlar; yo) pensiya fondlariga sug'urta badallari; 3. Omonatlar va qimmatli qog'ozlardan divedentlar; 4. Uy-joy binolarini sotib olish; 5. Xorijiy valyutani sotib olish bo'yicha aholi xarajatlari; 6.O'tkazmalar bo'yicha jo'natma pullar.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklarining daromadlarini shakllantirish boyicha moliyaviy qarorlar qabul qilish asosida qanday munosabatlar yotadi ?
2. Uy xo'jaliklarining jami daromadlarini nechta guruhga bo'lish mumkin ?
3. Aholining shaxsiy daromadlari qanday ko`rsatkichlar yordamida hisoblanadi?
4. Uy xo`jaliklari nominal daromadlarining YaIM dagi salmog`i rivojlangan mamlakatlarda necha foizni tashkil etadi?
5. Uy xo'jaligi va unga tegishli bo'lgan xarakterli xususiyatlar.
6. Uy xo'jaliklari daromadlarining guruhlari tavsiflang?
7. Uy xo'jaliklari moliyasining funksiyalari nechta?
8. Uy xo'jaliklari natural daromadlari, pul daromadlari va nominal daromadlariga qanaqangi daromadlar kiradi?

CamScanner yordamida skanerlangan

9. Uy xo'jaliklarining pul daromadlari nechta?
10. Uy xo'jaliklarining xarajatlari aytib bering?
11. Uy xo'jaligi moliyasi bilan xonadon, oila moliyasini farqlab bering?
12. Uy xo'jaligini yuritishda qanday moliyaviy qonunlarga rioya qilish zarur?
13. Uy xo'jaligi davlat byudjetida qanday o'rin tutadi?
14. Uy xo'jaligi moliyasi mamlakat iqtisodiyotida qanday o'rin egalaydi va bunga misol?
15. Nima uchun uy xo'jaligi moliyasiga ta'rif berilgan, uning davlat moliyasida ajratish mumkin emasmi?

CamScanner yordamida skanerlangan

14-MAVZU: XALQARO MOLIYA

Reja:

1. **Xalqaro moliya: mazmuni va tashkiliy tamoyillari.**
2. **Xalqaro moliya(ning) asoslari va rivojlanish tendensiyalari.**
3. **Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi.**

Kalit so'zlar: transmilliy korporatsiyalar, transmilliy banklar.

1. Xalqaro moliya: mazmuni va tashkiliy tamoyillari

Xalqaro moliya – xalqaro moliyaviy resurslar va ularning global harakatini tavsiflovchi tushunchadir. Jahon savdosining shiddatli o'sib borishi, ishlab chiqarish masshtabi va ixtisoslashuvining rivojlanishi, kapitallarnining xalqaro oqimini, davlatlararo tovarlar, xizmatlar va mehnat resurslarining harakatini rivojlanishi xalqaro moliyaning rivojlanishi va xalqaro moliyaviy bozorlarning shakllanishi, davlatlararo moliyaviy munosabatlarni tobora murakkablashuvi uchun sharoit yaratdi.

Jahon moliya tizimining asosiy ishtirokchilari banklar, transmilliy korporatsiyalar, portfel investorlar va xalqaro rasmiy qarz beruvchi donorlar hisoblanadi.

Jahon moliyaviy resurslari (global moliyaviy resurslar)- barcha mamlakatlar, Xalqaro tashkilotlar va jahonning moliyaviy markazlariga tegishli moliyaviy resurslarning global hajmidir. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarda, ya'ni rezident va norezidentlar o'rtasidagi munosabatlarda foydalaniladi.

Jahon moliyaviy resurslarining manbalari quyidagilardan iborat:

- donor mamlakatlar, qaysiki, jahon moliyaviy resurslarida ustuvor ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar;
- Xalqaro tashkilotlar fondlari;
- xususiy shaxslar, kompaniyalar, tashkilotlar, rivojlangan mamlakatlar hukumatlariga tegishli jahon oltin valyuta zahiralarining sezilarli qismi va boshqalar.

Keyingi yillarda xalqaro moliyaning rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatdi.

Xalqaro moliyaviy operatsiyalar alohida mamlakatlarning milliy moliya tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ega bo'la boshladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuviga transmilliy korporatsiyalar (TMK) va transmilliy banklarning (TMB) vujudga kelishi va keskin

CamScanner yordamida skanerlangan

rivojlanishi ham sezilarli turtki bo'ldi. Butunjahon xo'jaligining transmilliylashuvi natijasida mamlakatlararo milliy ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va birlashishi TMKlarning faoliyatini yanada rivojlantirdi. TMKlar tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga bevosita investitsiyalash ishlab chiqarishda menejment, marketing, texnologiyalarni joriy etishning yangi usullarining yoyilishiga va shu asosda, jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonini tezlashtirdi.

Iqtisodiyotni tartibga soluvchi eski davlatlararo mexanizm o'rniga globallashuv, integratsiya, transmilliylashuv va mintaqalashuv jarayonlariga muvofiq keladigan munosabatlar qaror topa boshladi. Ikki tomonlama manfaatli munosabatlar ko'p tomonlama hamkorlikka, milliy ishlab chiqarish transmilliy ishlab chiqarish shakliga o'ta boshladi. Jahon iqtisodiy ta'sirchan subyektlari rolini butunjahon xo'jaligining qariyb barcha sohalarini tartibga solib turuvchi turli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar egallay boshladi.

Ayniqsa, keyingi yillarda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining ta'sirida jahon xo'jaligining taraqqiyotidagi o'zgarishlar xalqaro moliyaga jiddiy ta'sir etdi.

Byudjet defitsiti esa dunyodagi har 5 mamlakatdan 4 tasida kuzatildi. Bunga sabablardan xom ashyo mahsulotlar narxining tushishi, kredit berishdagi ko'plab cheklovlar hamda davlatlarning proteksionizm siyosatining unchalik qattiq qo'llamasligi orqali tovarlarga nisbatan talabning kamayib ketishiga olib keldi. Shu bilan bir qatorda davlatlarning tashqi qarzdorligi oldingi yilga nisbatan o'rtacha 6%ga kamaydi, chunki xalqaro banklarning yangi kredit ajratmalari yo'qoldi. Global tanazzul aslida esa moliya bozoriga nisbatan ishonchsizlikning oshishi, banklarning tanazzuli, kredit ajratmalarining qisqarishi, ipoteka bozorlaridagi narxlarning tushib ketishi, kapital qo'yilmalarning foiz ulushlarining qisqarishi, iste'molchilarning ishonchsizligi hamda savdo tushumining keskin kamayishi asosiy sabablardan, deb belgilanadi. Bunday ko'rinishdagi moliyaviy qiyinchiliklarga javoban ko'pgina davlatlar ko'proq monetar va fiskal siyosatga e'tiborni qaratib, proteksionistik siyosatni esa amalga oshirishni ma'qul topmadilar. Byudjet defitsiti oqibatida har 15 davlatdan 14 tasi aylanma kapitalga chtiyoj sezdi. Bu esa global miqyosda g'aznadagi yangi davlat qarzlarini keltirib chiqardi, ya'ni iqtisodni rivojlantirishga sarflanadiga chiqimlar miqdori jahon bo'yicha o'rtacha 4 trillion AQSh dollarni tashkil etib qo'ydi. Ustama foiz ulushi darajasi past ko'rsatkichlarda ushlab turish hamda qarzlarni to'lash uchun iqtisodiyotdagi valyuta

CamScanner yordamida skanerlangan

miqdorini oshirdilar. 2019- yilning boshida inflyatsiya bilan ta'sirlashuvsiz mahsulot hajmi bozorda ko'payib ketdi. Bu yerda foiz darajalarni ko'paytir- masdan inflyatsiya darajasini me'yorda ushlab turish markaziy banklarning mas'uliyatli ishidir, ammo iqtisodiy o'sishga bu salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jahondagi tannazzul dunyoning yana boshqa masalalarida global mumammolarni yuzaga chiqardi. Allaqachon to'lib toshgan globusdagi har yili o'rtacha 80 millionga ko'payib borayotgan dunyo aholisi endi ishsizlik, ekologiya muhitining yomonlashuvi, zararli chiqindilarni yo'qotish muammosi, epidemiya, ichimlik suvining tanqisligi, ochlik, dengiz baliqchi- ligining belgilangan me'yordan ortiq rivojlanishi, daraxtzorlarning kamayishi, cho'llashish hamda qayta tiklanmaydigan resurslarga nisbatan iste'molning ko'pligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Iqtisodiy-siyosiy boshqaruv organi bo'lgan mahalliy hukumatlar esa xalqaro emigratsiya, tovarlar oqimi, moliyaviy holat hamda texnologik o'zgarishlarni boshqarolmay qoldilar. Davlat ichkarisi- dagi regional separatistik harakatlar kichik etnik va millatlararo kelishmovchiliklar ustidan boshqaruvni yo'lga qo'ya oldilar. Bunga ko'pgina sobiq ittifoq davlatlari, sobiq Yugoslaviya, Hindiston, Iroq, Indoneziya va Kanada davlatlari misol bo'la oladi. Ammo, markaziy davlat boshqaruvlari asosan Yevropa Ittifoqida Xalqaro miqyosidagi muammolarni hal qilish borasida o'z kuch va mavqeylarini yo'qotib bormoqdalar. G'arbiy Yevropadagi 1999- yilda yagona umumiy valyuta yevroning joriy qilinishi aslida iqtisodiyotlarni umumlashtirish yo'lida qilingan yangi qadam bo'lsa-da ammo, bunga aloqador bo'lgan yevro davlatlaridagi mahalliy daromad o'sish darajalari, pul islohoti yo'nalishlari hamda madaniy-siyosiy vaziyatlarning turlichaligi sababli iqtisodiy risk tobora ortib ketdi. G'arb davlatlaridagi resurslarni tashkil qilish borasidagi ijtimoiy yordam masalaridagi murakkabliklar tufayli yangi ishchi o'rinlarni barpo qilish uchun investitsiyalar sonini ko'paytirish borasidagi mumammolar tug'ildi. Natijada sanoatga yetarli ishchi kuchini tayyorlash uchun, mehnat resurslari sonini kambag'al davlatlar ishchi kuchi hisobiga to'ldira boshladilar. AQSHdagi 11-sentyabr voqeayasidan keyin iqtisodiyotdagi moliyaviy riskning ortishi natijasida investorlar o'zlarining pullarini antiterror dasturlari uchun emas, balki boshqa yo'nalishlarga yo'naltira boshladilar. Iroq va Afg'onistondagi urushlar iqtisodiy investitsion loyihalarga o'z tahlikasini o'tkazdi. Lekin shunga qaramasdan hozirgi barcha jabhalardagi texnologik rivojlanishlar kengaydi. Bu masalan, qishloq xo'jaligida, tibbiyotda, alternativ energiya resurslarini barpo qilishda, metallurgiya

CamScanner yordamida skanerlangan

hamda transport sohasida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, yaxshilangan global aloqa tarmoqlari xalqaro savdoda sarf-xarajatlarni qisqartirdi. Bunday qulayliklar mehnat resurslarining va mehnatni taqsimlashning global mavqeyi oshishida qulaylik yaratmoqda. Mana shunday ko'rsatkichlar esa dunyo iqtisodiyotini qayta rivojlanish potensiyali hali yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro aloqalarning rivojida moliyaning roli uch yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1.Turli xil yo'nalishdagi xalqaro hamkorlikni moliyalashtirish uchun kerakli manbalar qidirish va mobilizatsiyalash.

2. Xalqaro integratsion jarayonlarni muvofiqlashtirish.

3. Har qaysi xalqaro munosabatlarning turi va bevosita ishtirokchilarini rivojlantirishga rag'batlantirish.

2. Xalqaro moliya(ning) asoslari va rivojlanish tendensiyalari

Xalqaro moliya xalqaro moliya bozorlari, Xalqaro bank faoliyati, Xalqaro korporatsiyalarning moliyasi, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish va shular bilan bog'liq munosabatlarni o'rganadi. Bundan tashqari, xalqaro moliya umumjahon darajasidagi moliyaviy operatsiyalar va ularning o'zaro aloqadorligi, yirik industrial davlatlar, rivojlanayotgan yoki o'tish davlatlarida ularning qanday xususiyatlar kasb etishini va ulardagi doimiy o'zgarishlarni tushuntiradi.

"Xalqaro moliya"ga doir xorijiy adabiyotlarda xalqaro moliya bozorlari va risklarni boshqarish, TNK va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, xalqaro qarz inqirozlariga asosiy urg'u beriladi. Shuningdek, xalqaro moliya doirasida dunyo mamlakatlarining xalqaro moliya tizimidagi o'rni, holati, tashqi moliyalashtirish mexanizmi, rivojlanayotgan moliya bozorlarining xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

XXI asrning boshlarida milliy xo'jalik aloqalarining integratsiyalashuvi bilan, globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi yuz berdi. Globalizatsiya natijasida jahon xo'jaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy hamda texnologik to'siqlar yo'qolishiga, uning o'rniga xalqaro iqtisodiy xo'jalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xalqaro xo'jalikning funksional aloqalarini tatbiq etilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlar hayotidagi globalizatsiya – iqtisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital hamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon

CamScanner yordamida skanerlangan

bo'lmoqda. Tashqi savdo aloqalari erkinlashtirilayotgan mamlakatlar soni yil sayin ortib bormoqda.

Jahon iqtisodiy tarixida moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) 1957-yili Londonda Britaniya hukumatining funt sterling ustidan nazorat o'rnatishiga javob tariqasida yevrodollar bozorining yuzaga kelishi;

2) 1958-yilda dastlab, «Umumiy bozor» deb atalgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (YeIH) – hozirgi Yevropa Ittifoqining (YeI) tashkil topishi;

3) Amerika korporatsiyalari xorijiy faoliyatlarini kengaytirishga intilishi (1950-yillardan boshlab). Jahon bozorida Yevropa va Yaponiya korporatsiyalari faoliyatining sezilarli o'sishi, shuningdek, xalqaro maydonda Amerika korporatsiyalari bilan ushbu mamlakatlar o'rtasida raqobatning kuchayishi;

4) O'tgan asrning 60-yillarida Yaponiya iqtisodiyotini tez sur'atlar bilan o'sishi, uzoq Sharq biznes faoliyatida yangi imkoniyatlarning ortishi;

5) 1971-1973-yillarda Brettonvud tizimini qulashiga olib kelgan jahon moliya inqirozlari, valyutaning belgilangan kursi tizimidan, suzuvchi valyuta kurslariga o'tish;

6) 1971-1979-yillardagi birinchi va ikkinchi neft inqirozlari jahon iqtisodiy tizimiga bosim o'tkazishi. Ushbu sanalarda neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) neft narxini sezilarli darajada oshirshi;

7) Rivojlanayotgan mamlakatlarning 1982-yilda tashqi qarzlarga xizmat ko'rsatishi bilan bog'liq jahon qarzdorlik inqirozining boshlanishi;

8) 1980-yillarda Yaponiyaning xalqaro moliyaviy kuch va jahon kapitalining manbasi sifatida yetakchi mamlakatga aylanishi;

9) 1987-yilda yettita mamlakatning ("Katta yettilik") Parijda Luvr bitimini imzolashi. Ular o'z valyuta kurslarining dollarga nisbatan tor tebranish doirasida sun'iy ravishda almashtirish orqali, kuchsizlanib borayotgan dollarni qo'llab-quvvatlashni rejalashtir- dilar. Shuningdek, ushbu mamlakatlar kelishilgan iqtisodiy siyosat yuritishni mo'ljalladilar;

10) 1989-1992-yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'z siyosiy yo'nalishlarini o'zgartirishi. Ularning kommunistik dunyo qarashdan ko'p partiyaviylikka, markazdan rejalashtiriladigan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishi, jahondagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy holatga chuqur ta'sir etdi;

CamScanner yordamida skanerlangan

11) 1992-yildan keyin yaxlit Yevropa bozorining yuzaga kelishi, 1993-yil noyabr oyidan erkin savdo bo'yicha Shimoliy Amerika bitimining kuchga kirishi, 1993-yilda Osiyo tinch okeani iqtisodiy hamkorligi konferensiyasi va boshqa jarayonlar, o'tgan asrning 90-yillarida hududiy rivojlanishni jadallashtirdi.

12) Yevropa Ittifoqining yagona valyutasi – Yevroning muomalaga kiritilishi, xorijiy valyuta zahiralarining diversifikasiya darajasi, valyutaviy bitimlar hajmi va ko'lamiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, yevrodagi hosilaviy moliyaviy vositalar hajmi dunyoda yetakchi o'rinni egalladi.

XXI asrda jahon iqtisodiyotida to'rtta asosiy tarkibiy tendensiyalar kuzatildi:

Birinchidan, xom ashyo eksportiga asoslangan hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi munosabat-lardagi o'zgarishlar. Xom ashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar va sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida an'anaviy iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lib, ularning o'zaro munosabatlar modeli quyidagicha edi: xom ashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar, xom ashyoni eksport qilib, olingan valyuta tushumlaridan sanoat mahsulotlari importini moliyalashtirganlar.

O'tgan asrning 70-yillarida «Rim klubi» nomi bilan mashhur G'arbiy Yevropa olimlari «dunyo miqyosida tez orada tabiiy resurslarning global taqchilligi yuzaga keladi», deb bashorat qilgan edilar.

Ushbu mulohazalarga asoslanib ko'pgina xom ashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar xom ashyo sotish evaziga valyuta tushumini oshirish maqsadida kartellarga birlashdilar. Ammo, sanoat texnologiyasi va qishloq xo'jalik sohasining keskin rivojlanishi, xom ashyoga bo'lgan talabning qisqarishiga ta'sir ko'rsatdi va natijada xom ashyo bahosining pasayishi yuz berdi.

Ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan, innovatsion, bilim va malakaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tildi.

Jahon iqtisodiy tuzilmasidagi ushbu o'zgarishlar natijasida bandlik tarkibida yuqori malaka talab qiluvchi mutaxassislarga ehtiyoj ortib, nisbatan past malakali mutaxassislarga talab pasayib bordi. Axborot almashuvining osonligi – tadbirkorlik faoliyatini, kichik biznes va shaxsiy tashabbusni rag'batlantirdi.

Ilmiy-texnika progressi yutuqlaridan foydalanish, bilimni va yuqori malakani talab qildi, shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligi va

CamScanner yordamida skanerlangan

raqobatbardoshlikni oshirish uchun, inson kapitaliga investitsiya qilish muhimligi ortdi[7].

Uchinchidan, jahon savdosida xalqaro kapital harakatining sezilarli darajada ortishi. Ushbu o'zgarish xalqaro savdoga nisbatan xalqaro kapital harakatining tez sur'atda o'sishi bilan yuz berdi.

To'rtinchidan, transmilliy korporatsiyalar(TMK)ning qo'shma korxonalarni tashkil etish uchun xalqaro investitsiyalari va hamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi.

TMKlar o'zlarining tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo'l bilan tovar, xizmat, kapital va texnologiyalarini ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro harakatlarga ta'sir etdi. Qo'shma korxonalar xalqaro biznes integratsiyasining keng tarqalgan shakliga aylandi.

Shuningdek, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur.

O'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarning jahon bozoriga integratsiyalashuvi uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Ba'zi milliy bozorlarning ochiq, ba'zilarining qattiq tartibga solinadigan bo'lgan hozirgi holati bilan, globallashuvning asosiy tamoyillaridan bo'lgan erkinlashuv, bir-biriga nomuvofiq bo'lgan ko'rinishni hosil qilmoqda.

Xalqaro tovarlar, xizmatlar va kapitallar almashinuvining erkinlashish an'anasi kengayayotgan bir paytda, har bir davlat eksport va importni tartibga solishning ma'lum instrumentlarini saqlab qolmoqdalar. Ularning asosiy maqsadi — tarkibiy qayta qurish va inqiroz davrining qiyinchiliklarini yengib o'tish, milliy xavfsizlikni ta'minlash – takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlovchi (energetika, transport, aloqa va h.k.) va mamlakat mudofaa qobiliyati kabi strategik sohalarni moliyaviy ta'minlash, shuningdek, savdo sheriklardan munosib imtiyozlar olish hamda byudjet tushumlarini oshirishdan iborat bo'lmoqda. Amaldagi bunday proteksionizm fiskal muammolarni hal etishdan ko'ra, ko'proq tarkibiy siyosat o'tkazish vositasi hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda nafaqat erkin savdo g'oyasi (erkinlashuv) bilan proteksionizm o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga chiqmoqda, balki milliy xo'jalikni jahon xo'jaligiga kirish samarasini maksimal tarzda ta'minlash maqsadida, xo'jalikni tartibga solishning yuqoridagi ikki instrumentining

[7] Kodres, Laura E., "What Is Shadow Banking?", Finance & Development 50(2), June 2013.

CamScanner yordamida skanerlangan

optimal aralashmasidan foydalanilmoqda. Bunday aralashmaning shakl va nisbatlari, ma'lum vaqtdagi pragmatik manfaatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda globalizatsiya bilan birga, integratsiya jarayonlarining yana bir shakli – ma'lum geografik joylashuvga asoslangan hududiy integrasiya yuz bermoqda.

O'sib boruvchi globallashuv, hududiylashuv, iqtisodiyotning transmilliylashuvi va integrasiya natijasida, eski – davlatlararo tartibga solish mexanizmi tubdan o'zgardi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ikkiyoqlama munosabatlar chegarasidan chiqib, ko'pyoqlama tus olmoqda.

Ammo, «milliy xo'jalik majmui», «mamlakatning milliy iqtisodiy manfaatlari» tushunchalari o'z ma'nosini saqlab qolmoqda. Milliy xo'jalik hamon ishlab chiqarish, almashuv, taqsimot va iste'mol, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning asosiy markazidir.

Har bir davlatning yillar davomida shakllangan o'z tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanish xususiyatlari mavjud bo'lib, boshqa mamlakatlarning tajribalarini ko'r-ko'rona ko'chirib olish, yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan, iqtisodiy rivojlanishning hamma uchun umumiy retseptlarini qo'llash, samarasiz va iqtisodiy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin.

Umuman olganda, moliyaviy globallashuv sharoitida jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalariga tahliliy yondashish va ushbu tajribalarni milliy xususiyatlar bilan eng optimal tarzda uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

3. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar. Jahon banki va xalqaro valyuta fondi.

Qat'iy belgilangan paritet tizimiga o'tilgunga qadar, ya'ni oltin va oltin deviz standarti sharoitida barcha global xarakterga ega bo'lgan moliyaviy muammolar xalqaro konferensiyalarda hal qilinar edi. Boshqacha aytganda, jahon moliya tizimining rivojlanishi ustidan doimiy monitoring olib boruvchi, uning amal qilish tamoyillarini ishlab chiquvchi va mamlakatlarga iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun moliyaviy ko'mak beruvchi organlar mavjud emas edi. 1944-yilda AQShdagi Bretton Vuds konferensiyasida Xalqaro valyuta fondi (XVF) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining (XTTB) tashkil etilishi Xalqaro moliya va valyuta tizimining rivojlanishida muhim qadam bo'ldi.

CamScanner yordamida skanerlangan

"Jahon banki" atamasi tarkiban Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (International Bank for Reconstruction and Development) va Xalqaro rivojlanish assosiasiyasini (International Development Association) qamrab oladi. "Jahon banki guruhi" atamasi esa, 5 ta tashkilotni, xususan, XTTB, XRA, Xalqaro moliya korporatsiyasi (International Financial Corporation), Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (Multilateral Investment Guarantee Agency), Xalqaro investitsion bahslarni tartibga solish markazini (International Center for Settlement of Investment Disputes) o'z ichiga oladi[8].

XTTBga a'zo bo'ladigan davlatlarning bir vaqtda XVFga a'zo bo'lishi talab etiladi. XTTBga a'zolik esa, o'z navbatida, Jahon banki guruhining boshqa tashkilotlariga a'zo bo'lish uchun dastlabki shart-sharoitlardan hisoblanadi.

XTTBning Kelishuvlar moddasining 1-moddasiga muvofiq uning maqsadlari sirasiga quyidagilar kiradi:

– a'zo davlatlarning xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishga ko'maklashish;

– kafolatlar berish, xususiy va boshqa investorlarning investitsiyalari va ssudalarida ishtirok etish orqali xususiy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish;

– jahon savdosining muvozanatli o'sishini va a'zo davlatlar to'lov balansining muvozanatliligini qo'llab-quvvatlash.

XTTBning faoliyati o'rta daromadli va kreditga layoqatli rivojlanayotgan davlatlarda ssudalar, kafolatlar, riskni boshqarish mahsulotlari, maslahat xizmatlari orqali qashshoqlikni qisqartirishga qaratilgan. 2018 -il 1-yanvar holatiga unga a'zo mamlakatlar soni 195 tani tashkil etgan.

XTTBning asosiy mablag'lari hozirgi kunda o'rta va uzoq muddatli qarz majburiyatlarini emissiya qilish orqali xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar hisobidan shakllanadi. XTTB qimmatli qog'ozlari yuqori kredit reytingiga (AAA) ega bo'lib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlariga joylashtiriladi. XTTBning kreditlari qarz oluvchi davlat milliy valyutasida emas, balki devizlarda, ya'ni xalqaro darajada to'lov vositasi sifatida tan olingan valyutalarda ajratiladi.

[8]Noeth, Bryan, and Rajdeep Sengupta, "Global European Banks and the FinancialCrisis," *Economic Research: Federal Reserve Bank of St. Louis Review* 94(6), November/December 2012, pp. 457–480.

CamScanner yordamida skanerlangan

XRA 1960-yilda tashkil topgan bo'lib, dunyoning sust rivojlangan, qashshoq davlatlariga moliyaviy ko'mak beradi.

XRA Kelishuvlar moddasining 1-moddasiga muvofiq, uning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, samaradorlikni oshirish va shuning asosida, sust rivojlangan a'zo mamlakatlarda aholi turmush tarzini oshirish, shuningdek, ana'naviy kreditlarga nisbatan og'ir bo'lmagan qulay shartlarda moliyaviy ko'mak berish hisoblanadi.

XRA foizsiz kreditlar va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan grantlar ajratish orqali qashshoqlikni qisqartirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va aholi turmush tarzini oshirishni ko'zda tutadi. XRA moliyaviy yordamlaridan aholi jon boshiga YaIM ko'rsatkichi 1025 AQSh dollaridan (2019-moliyaviy yil uchun) kam bo'lgan davlatlar foydalanishi mumkin. Hozirgi kunda 82 ta mamlakat XRA xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega.

XRA kreditlarining qaytarish muddatlari 20, 35 va 40 yilni tashkil etadi, shundan dastlabki 10 yili imtiyozli davr hisoblanadi va bu davrda asosiy qarz bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi. Ta'kidlash lozimki, XRA kreditlariga foiz to'lanmaydi, biroq xizmat ko'rsatish uchun kam miqdordagi (hozirda ajratilgan kredit summaning 0,75 foizi) xarajatlar qarz oluvchi tomonidan qoplanadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 1956-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning bosh maqsadi rivojlanayotgan davlatlarda xususiy sektor investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hisoblanadi.

XMK hukumat kafolatini talab qilmagani bois, benefisiarlarining kreditga layoqatliligini sinchkovlik bilan tahlil qiladi. Shuningdek, XMK kreditlarining moliyaviy shartlari, XTTB va XRA bilan taqqoslaganda, sezilarli darajada og'ir hisoblanadi. XMK kreditlarining katta qismi 7-12 yil muddatga qat'iy va suzuvchi stavkalarda turli valyutalarda ajratiladi.

Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (MIGA) 1988-yilda tashkil etilgan bo'lib, Jahon banki guruhining eng yosh a'zosi hisoblanadi. Bu tashkilotning bosh maqsadi – notijorat (siyosiy) risklarga qarshi kafolat berish orqali rivojlanayotgan davlatlardagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga ko'maklashishdir. Bundan tashqari, u rivojlanayotgan davlatlar hukumatlariga xorijiy investitsiyalarga ko'maklashish dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar beradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Xalqaro investitsion bahslarni tartibga solish markazi esa, davlatlar va xususiy investorlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash orqali investitsiya sohasidagi bahslarni hal qiladi va muvofiqlashtiradi.

XVFning bosh maqsadi Xalqaro valyuta tizimi, ya'ni mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlarning erkin ayirboshlanishiga xizmat qiladigan valyuta kurslari va Xalqaro to'lovlar tizimi barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

XVF kelishuvlar moddalarining birinchi moddasiga muvofiq, uning maqsadlari qatoriga quyidagilar kiradi:

– Xalqaro valyutaviy muammolarni bartaraf etish borasida maslahatlar va hamjihatlik mexanizmini ta'minlovchi doimiy institut orqali Xalqaro valyutaviy hamkorlikni rag'batlantirish;

– Xalqaro savdoning kengayishi va muvozanatli o'sishini qo'llab quvvatlash va shu orqali bandlik va real daromadlarning yetarlicha yuqori darajasini ushlab turish va iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi sifatida barcha a'zo davlatlar resurslarining samaradorligini oshirishga hissa qo'shish;

– a'zo davlatlar o'rtasida joriy bitimlarga doir ko'p tomonlama to'lovlar tizimini tashkil etish va jahon savdosi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi valyuta ayirboshlashdagi cheklovlarni bekor qilishga ko'maklashish;

– a'zolarning umumiy resurslari hisobidan yetarlicha xavfsiz asosda mablag' bilan ta'minlash orqali ularning ishonchini qozonish, va shuning asosida ularga to'lov balansidagi nomuvofiqliklar (tartibsizliklar)ni milliy yoki xalqaro taraqqiyotga g'ov bo'ladigan chora-tadbirlarsiz to'g'rilash imkonini berish;

– yuqoridagilarga muvofiq a'zo davlatlarning xalqaro to'lovlar balanslaridagi nomuvofiqlik (muvozanatsizlik)larning davomiyligini qisqartirish va uning darajasini pasaytirish.

XVFni tashkil etish mobaynida qat'iy belgilangan paritet tizimining tamoyillari shakllantirilgan bo'lib, ularga valyutalarning oltin paritetiga muvofiq tarzda ularning rasmiy almashuv kursini o'rnatish, a'zo mamlakatlar tomonidan almashuv kurslarining valyuta yo'lakchasi doirasida bo'lishini ta'minlanishi, oltinning jahon puli funksiyasini saqlanishi bilan birga, AQSh dollariga ushbu funksiyani bajaruvchi valyuta maqomining berilishi kabilarni kiritish mumkin.

Bretton – Vuds tizimi tanazzulga uchragach, majburiy valyuta yo'lakchalari bekor qilindi va valyuta kursining erkin suzish tizimiga o'tildi. Shuningdek, oltin demonetizatsiya qilindi, ya'ni oltin standarti,

CamScanner yordamida skanerlangan

xalqaro hisob-kitoblarda va Markaziy bankning zahiralarini shakllantirishda oltindan majburiy foydalanish amaliyoti, AQSh dollarining oltinga erkin ayirboshlanishi bekor qilindi. Bundan tashqari, har bir mamlakat valyuta kursini rejimini mustaqil tanlash huquqiga ega bo'ldi. Shunday bo'lsada, XVF nizomiga muvofiq, a) mamlakatda moliyaviy va valyuta siyosati barqarorligini qo'llab-quvvatlash hamda Markaziy bank tomonidan valyuta kursining kuchli tebranishi yuz berganda intervensiyadan foydalanilishi; b) bir tomonlama ustunlikka ega bo'lishga qaratilgan valyuta kursining manipulyatsiyasidan voz kechish; v) valyutani tartibga solish va valyuta kursi mexanizmida ko'zda tutilayotgan o'zgarishlar haqida XVFni zudlik bilan xabardor qilish; g) valyutalarni oltinga bog'lab qo'yish tartibidan voz kechish talab etiladi.

XVF bu taraqqiyot instituti emas, kelishuvlar moddasiga muvofiq, qashshoq mamlakatlarga infratuzilmani shakllantirish, ekport va boshqa sektorlarni diversifikatsiya qilish yoki ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratmaydi.

Har qanday mamlakat xoh u rivojlangan bo'lsin, xoh u sust rivojlangan, agar u kapitallar bozorida qulay shartlarda xalqaro to'lovlarni amalga oshirish va zahiralarning muvofiq darajasini ta'minlash uchun yetarlicha moliyalashtirish manbasini topa olmasa, to'lov balansi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun moliyviy yordam so'rab XVFga murojaat qilishi mumkin. XVF Jahon banki va boshqa taraqqiyot agentliklaridan farqli ravishda loyihalarni moliyalashtirmaydi.

XVFning kreditlash dasturlarini quyidagicha kategoriyalarga ajratish mumkin:[9]

1. **Rezerv (Stand-By) kelishuvlari** asosan qisqa mudatli to'lov balansi muammolarini bartaraf etishga mo'ljallangan. XVFning eng yirik kreditlari ham mazkur kategoriyaga tegishlidir. Keyingi yillarda XVF **Qo'shimcha rezerv dasturi**ni amaliyotga joriy qildi. Mazkur dastur kapital hisobraqami bilan bog'liq inqirozlarni boshdan kechirayotgan davlatlarga zudlik bilan juda qisqa muddatli kreditlarni ajratishni ko'zda tutadi.

2. **Uzaytirilgan fond dasturi** XVF tomonidan to'lov balansi qiyinchiliklariga yuz tutgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida joriy qilingan bo'lib, bunda muammolar qisman strukturaviy muammolar

[9] Shin, Hyun Song. "Global Banking Glut and Loan Risk Premium," *IMF Economic Review*60(2), 2012, pp. 155–192.

CamScanner yordamida skanerlangan

bilan bog'liq va uni bartaraf etish makroiqtisodiy nomuvofiqliklarga nisbatan uzoqroq muddatni taqozo etadi.

3. **Qashshoqlikni qisqartirish va iqtisodiy o'sish dasturi** asosida XVF yillik foiz stavkasi 0,5 foiz va so'ndirish muddati 10 yil bo'lgan kreditlarni o'zining eng qashshoq a'zo davlatlariga taqdim etadi. Ta'kidlash lozimki, XVF kreditlarining ko'pchilik qismi shu kategoriyaga mansubdir. 2005-yilda **Ekzogen shoklar dasturi** ishlab chiqilib tasdiqlandi. Bu dastur asosida Qashshoqlikni qisqartirish va iqtisodiy o'sish dasturi orqali kredit olmaydigan sust rivojlangan davlatlarga ularning nazorat doirasidan tashqarida bo'lgan shoklar tufayli vujudga keladigan to'lov balansi muammolarini bartaraf etish uchun kreditlar taqdim etiladi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xalqaro hisob-kitoblarda qatnashuvchi subyektlar nima?
2. Xalqaro kredit munosabatlarining subyektlari qaysilar?
3. Tijorat kreditining muddati odatda necha yil bo'ladi?
4. O'zbekiston Respublikasida valyutani tartibga solish tizimi qachon joriy qilingan?
5. Xalqaro moliya mazmunini aytib bering?
6. Xalqaro moliya tashkiliy tamoyillari tavsiflang?
7. Xalqaro moliyaviy institutlar sanab bering?
8. Jahon banki o'z ichiga qaysi xalqaro muassasalarni oladi?
9. Xalqaro qashshoqlik to'g'risida nimalarni bilasiz?
10. Xalqaro valyuta fondlarni bilasiz?
11. Xalqaro valyuta fondlarni tashkil etishdan maqsad nima?
12. Xalqaro valyuta fondler kreditlash dasturi bo'yicha nechta kategoriyalarga ajratsih mumkin?
13. Bretton – Vuds tizimi nima?
14. Bretton – Vuds tizimi nima uchun tannazulga uchradi?
15. Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik qachon tashkil qilingan va maqsadi?

CamScanner yordamida skanerlangan

IKKINCHI QISM
15-MAVZU: SOLIQLARNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Reja:

1.Soliqlar va soliqqa tortish amaliyotining paydo bo'lish sabablari.
2.Soliq va to'lovlar tushunchasi.
3.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati.
4. Soliqlarning funksiyalari va ularning o'zaro bog'liqligi.

Kalit so'zlar: soliq, yig'im, forsologiya, fiskal funksiya, tartibga solish funksiyasi, ijtimoiy funksiyasi, nazorat funksiyasi.

1. Soliqlar va soliqqa tortish amaliyotining paydo bo'lish sabablari

Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Davlatning shakllanishi bilan mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyati – soliqlar va soliqqa tortish orqali amalga oshiriladi.

Soliqlar va soliqqa tortish soliq voqeyliklarini chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo'llaridir.

Soliqlar aholidan va xo'jalik yurituvchi subyektlardan davlat (markaziy va mahalliy hokimiyat organlari) tomonidan undirib olinadigan majburiy to'lovlardir. Soliq o'z mohiyatiga ko'ra yalpi ijtimoiy mahsulotning (YaIM) bir qismi bo'lib, soliq to'lovchilar bundan biror-bir foyda ko'rish ko'rmasligidan qat'iy nazar, o'z mablag'laridan davlat hisobiga majburiy ajratmalar ko'rinishida aks etadi.

Soliqlarning mohiyati uning quyidagi xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi:

1. Soliq to'lovchi pulning u yoki bu so'mmasini davlatga to'lar ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko'ra soliq narxdan (tovar yoki xizmatlarni ihtiyoriy iste'mol qilganligi uchun to'lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik

CamScanner yordamida skanerlangan

yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblansada, hamma vaqt ham hukumat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

2. Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to'la va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsada, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlar tegishli tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi.

Soliqlarning belgilari borasida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar mavjud. Masalan, prof. Q.Yahyoev soliqlarni umumiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi.

1. Soliqlar va yig'imlar majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida byudjetga olib qo'yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi.

2. Soliqlar xazinaga davlat byudjetiga tushadi. Ammo boshqa turdagi to'lovlar «Umid», «Ekosan» kabi jamg'armalarga tushishi soliq munosabatlarini aks ettirmaydi.

3. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixan asrlab o'zgarmay harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Uning ilmiy asosi qancha chuqur bo'lsa, shuncha qat'iy va uzoq yillar o'zgarmasdan harakat qiladi.

4. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qaytmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir[10].

Aksariyat mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonning ham soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlash faqat oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar tomonidan amalga oshirilishi qonun hujjatlari asosida mustahkamlab qo'yilgan. Fuqarolar yoki boshqa tashkilotlar o'z xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlash vakolatiga ega emaslar. To'lovlarning qonuniy, shaffof bo'lishi soliqlarning bosh tavsifidir.

[10] Яҳёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Т.: «Ғафур Ғулом» 2000 й. 10-бет.

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Soliq va to'lovlar tushunchasi

Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, shuningdek, Soliq kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo'lgan taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati soliq to'lovchining hisobvarag'ida yetarlicha pul mablag'lari bo'lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e'tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to'lov naqd pul mablag'lari bilan to'langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e'tiboran bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasini o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi soliq to'lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to'lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek, agar soliq to'lovchi bankka to'lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to'lovchining hisobvarag'iga qo'yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo'lsa hamda soliq to'lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda yetarlicha pul mablag'lariga ega bo'lmasa, soliq yoki boshqa majburiy to'lov to'langan deb hisoblanmaydi.

Soliq kodeksida belgilangan to'lovlari quyidagilar:

– soliqlar;

– boshqa yig'imlar.

Soliqlar – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to'lovlar – Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Soliq solish obyekti molk-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatiga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u

CamScanner yordamida skanerlangan

mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi.

Soliq to'lovlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

– Daromad keltiruvchi mehnat yoki faoliyatning ma'lum bir qismidan majburiy undirilishi;

– Moddiy boyliklarning qaytarilmaslik sharti bilan olinishi;

– Moddiy boyliklarni o'zaro almashinish o'rtasida aniq farqlarning mavjud emasligi.

Soliqlar davlatning amal qilish uchun zaruriy unsur hisoblanadi, shuning uchun soliqlarni to'lashning majburiyligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham aniq belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli (11-bob, 51-modda, 25-bob 123-modda).

Soliqlarning belgilanishi va to'lanishi mulkning ixtiyoriy ravishda tortib olinishini anglatmaydi, balki uning ma'lum bir qismi qonunga muvofiq huquqiy majburiyat sifatida to'lov tarzida undiriladi.

To'lovlarning xususiyatlari quyidagilar:

– Muayyan sharoit vujudga kelganda pul to'lovlarini amalga oshirishning majburiyligi;

– To'lovlar shaxsiy va qaytarib to'lash xususiyatiga ega;

– Majburiy to'lovlar davlat tomonidan ko'rsatiladigan turli xizmatlarga to'lanadigan to'lov(xizmat haqi)dan farq qiladi.

3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga chiqishi davlatning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir. Soliq – tor ma'noda davlat ixtiyoriga boshqalardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi.

Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarning obyektiv amal qilishini talab etadi. Jamiyatning norentabel (mudofaa, tibbiyot, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi

CamScanner yordamida skanerlangan

hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarning obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladi, natijada ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning obyektiv zarurligini birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari asosida tushuntirishimiz mumkin.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p, shu bois bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qolib boradi va yangi vazifalar paydo bo'ladi. Bozor munosabatlari sharoitida davlatning yangi vazifalari yuzaga keladi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajarganda yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun byudjetning asosiy manbayi hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqil- ligining bosh manbayidir.

Aholini soliq munosabatlariga kiritishga, insoniyat tarixida yirik davlat arboblaridan biri, o'rta asrda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur katta e'tibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda, asosan, soliqlarga tayangan.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldida turgan vazifalarning bajarilishini moddiy ta'minlashning manbayi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funksiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.

D.Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida, A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini yanada rivojlantirgan. Uning fikricha, "Soliqlar – hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi"[11].

S.Pepelyayevning fikriga ko'ra, "Soliq – hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini majburiylik, yakka tarzda, xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir"[12].

D.Chernikning fikricha, "Soliqlar – davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi"[13].

B.Boldrev "Soliqlar – davlat tomonidan undirib olinadigan, jismoniy va huquqiy shaxslarning majburiy to'lovlari" deb ta'riflagan[14].

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq tushunishimiz uchun, dastavval, soliq so'zining tarixan mavjud bo'lgan iqtisodiy ma'nosini to'g'ri tushunib, tahlil qilib olishimiz lozim.

Soliq tushunchasi — iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. U tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va mahalliy tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida undiriladigan majburiy,

[11] Д.Рикардо. Сочинения. Т.1. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с анг. -М., «Госполитиздат», 1990, стр. 360.
[12] С.Г.Пепеляев. Основы налогового права. -М., 1995
[13] Д.Г.Черник. Налоги в рыночной экономике. -М., «Финанс», 1992, стр. 19.
[14] В.Болдрев. Финансы капитализма. -М., «Финанс», 1987

CamScanner yordamida skanerlangan

yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq – davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron-bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imidir.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi. Demak, soliqlar — bu byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Shunday ekan, soliqlarni to'lamaslikka, soliq obyektini yashirishga, soliq so'mmasini kamaytirib ko'rsatishga na huquqiy, na jismoniy shaxslarning haqqi yo'q.

Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biron-bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga, kichik biznesni rivojlantirishga, bozor infratuzilmasini barpo qilishga hamda umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali biror davlat soliqlarsiz mavjud bo'lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora- tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va h.k. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag'larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga taalluqli eng kam xarajat hajmi bilan bog'liq bo'ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo'lib, albatta, yanada kengroq kategoriya – davlat byudjeti bilan chambarchas bog'langan. Chunki soliqlar byudjetning shakllanishida ishtirok etadi[15].

Soliqlar moliyaviy resurslarning davlat ixtiyorida to'planib borishini ta'minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va

[15] A.Vahobov, Z.Sirojiddinova. O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. -T., TMI, 2002.

CamScanner yordamida skanerlangan

sifatini rag'batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Moliyaviy va iqtisodiy tushunchalardan farqli ravishda soliq nomoddiy xarakterga ega hisoblanadi. Chunki soliqlar nomoddiy bo'lganligi uchun ko'rish yoki ushlab ko'rish mumkin emas. "Soliq to'lash" tushunchasi "pul to'lash" tushunchasi bilan teng mazmunga ega emas. Soliqlar avvalo, fuqarolarning majburiyati hisoblanib, har doim ham to'lov amalga oshirilishi ro'y bermaydi. Bunda yaratilgan mahsulotning bir qismi davlat hisobiga o'tkazilishi yoki majburiy tarzda undirilishi ham mumkin demak, soliq bir vaqtning o'zida tovarni ham, huquqiy jihatdan majburiyatni ham ifodalamoqda.

Iqtisodiy munosabatlarning tub mohiyatini ifodalovchi ayirboshlash munosabatlari dastavval "tovar-tovar" shaklida amalga oshgan. Kelgusi taraqqiyot mahsulot va xizmat turlarining ko'payishiga va ushbu shakldagi ayirboshlash jarayonining yanada murakkablashi- shiga olib keldi. Bunday masalani hal etish moliya tizimini yaratish orqali hal etildi. O'sha davrlarda ayirboshlash munosabatlarida qiymat vazifasini bajarib kelgan alohida tovarlar, ya'ni qimmatbaho metallar (masalan, oltin, kumush, mis), asta-sekinlik bilan moliyaviy vositalar (pul, qarz majburiyatlari, veksel)ga almashib borgan. Bu esa o'z navbatida moliya tizimining "tovar-pul-tovar" munosabatlarini shakllanishiga olib keldi.

Moliya tizimining taraqqiy etishiga qaramasdan zamonaviy iqtisodiyotda hanuzgacha barter operatsiyalari saqlanib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida soliq tizimining shakllanishiga olib keldi.

Soliqqa tortish tizimining rivojlanishi bilan davlatning tovar-moddiy boyliklarga bo'lgan ehtiyojini qondirish davlat byudjetini tashkil qilish orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Bunda soliq mablag'larini to'plash, qayta taqsimlash va sarflash bilan bog'liq jarayonlar byudjet jarayonida o'z aksini topdi.

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida ham byudjet jarayoni tashkil etishning samarali moliyaviy mexanizmi mavjud emas. Zamonaviy davlat tizimining byudjet tizimi moliyaviy xarakterga ega bo'lsada, uni mablag' bilan to'ldirishning asosiy manbasi soliqlardir. Bunda soliqlarni to'lash nafaqat pul shaklida (byudjetni shakllantirishning moliyaviy-soliq mexanizmi), balki, davlat hisobiga turli qimmatbaho tovar-moddiy boyliklarni o'tkazib berish (byudjetni shakllantirishning iqtisodiy-soliq mexanizmi) orqali ham amalga oshadi.

Soliqqa tortishning mohiyati moliyaviy-iqtisodiy va davlat-huquq sohasiga oid fanlarning kesishuvida paydo bo'lgan. Soliqqa tortish

CamScanner yordamida skanerlangan

tarmoqlararo xarakterga egadir. Chunki uni davlat–huquq munosabatlari nuqtai nazaridan ham, iqtisodiy fanlar nuqtai nazaridan ham olib qarashimiz mumin. Bunday yondashuv soliqqa oid fanlarning majmuaviy tarzda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sifatida tizimlashuviga olib keldi va forosologiya fanining vujudga kelishini ta'minladi.

Forosologiya (yunoncha, foros – soliq va logos – fan) – bu soliqlarning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi, mohiyati, soliq tizimlari va soliqqa tortish amaliyotini o'rganuvchi fandir. Forsologiyaning asosiy vazifasi nafaqat tovar ishlab chiqarish sohasida, balki iste'mol sohasida ham oqilona soliqqa tortish tizimini yaratishdan iborat. Forsologiya soliq munosabatlarining rivojlanish dinamikasi va qonuniyatlarini tahlil qiladi, turli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish orqali soliq sohasida oqilona soliq apparatini vujudga keltiradi.

4. Soliqlarning funksiyalari va tamoyillari

Soliqlarning quyidagi funktsiyalai mavjud:

Soliqlarning asosiy funksiyasi fiskal (lotincha fiscus – g'azna) xususiyatga ega ekanligidir. Bu o'rinda funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi, hozirgi vaziyatda esa butun bozor xo'jaligi tizimi ishlab turishi uchun moddiy imkoniyat vujudga keltiriladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat apparatini, mamlakat mudofaasini, noishlab chiqarish sohasining umuman o'z daromadlari manbaiga ega bo'lmagan qismini (ko'pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishi ta'minlash uchun o'zining mablag'i yetishmaydigan tarmoqlarni (fundamental kutubxona, teatrlar, muzeylar, ko'plab o'quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish jarayoni ro'y beradi.

Soliqlarning tartibga solish funksiyasi davlat soliqlar orqali ishlab chiqarish sharoitlarini, tovarlar va xizmatlarning sotilishini izga solib boradi, iqtisodiy faoliyat uchun muayyan «soliq iqlimi» yaratadi. Soliqlar o'zining iqtisodiy funksiyasi orqali takror ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi, uning o'sish sur'atlarini rag'barlantiradi yoki pasaytiradi, mablag' to'planishini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi, aholining to'lov qobiliyati talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga solish funksiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar

CamScanner yordamida skanerlangan

faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

Soliqlarning qayta taqsimlash funksiyasi – davlat soliqlar yordamida korxonalar va tadbirkorlar foydasi, aholi daromadi bir qismini qayta taqsimlaydi, bunda olingan soliq ishlab chiqarishga va ijtimoiy tarmoqlarga ko'maklashuvchi sohalarni, ya'ni infratuzilmani rivojlantirishga, xarajatlar uzoq muddat o'tganidan keyin qoplanadigan mablag' va fond talab tarmoqlarni investisiyalashga yo'naltiriladi. Soliqlarning qayta taqsimlash funksiyasi ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Tegishli tarzda tuzilgan soliq tizimi bozor iqtisodiyotiga ijtimoiy yo'nalish berishga imkon tug'diradi. Jahon tajribasida soliqqa tortishining progressiv stavkalari joriy etilganini, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning muayyan muddat yoki umrbod soliqlardan to'la yoki qisman ozod qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday yondashuv O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»gi qonunida ham ifodasini topgan. Aytaylik, soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayotganida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdoridagi daromad qo'shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa yuqori progressiv stavkalar bo'yicha tortiladi.

Bozor iqtisodiyotida soliq – moliya resurslarini jamlash, xo'jalik faoliyatini izga solib turish va daromadlarni ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga qayta taqsimlash bilan bog'liq muhim vazifalarni bajaradi. Puxta ishlab chiqilgan, aniq amal qiladigan soliq tizimisiz samarali bozor iqtisodiyotini shakllantirish imkonsizdir.

Rag'batlantirish funksiyasi soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali davlat iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlaydi, bu bilan fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlab, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish yo'li bilan

CamScanner yordamida skanerlangan

soliq yukini oshirmasdan xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

Soliqlarning nazorat funksiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish obyekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqli tushumlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarurdir. SHunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Soliq funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqilishi soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi deb xulosa chiqarishi uchun imkon beradi.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

Soliqqa tortishning etarlilik tamoyiliga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlashi lozim. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni choqda o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Umuman olganda, etarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Soliqqa tortishning tadbirkorlik vainvestitsiyalarni rag'batlantirish tamoyili. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, jumladan, chet el subyektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni

CamScanner yordamida skanerlangan

takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyili bir qancha asosiy guruhdagi soliqka tortish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to'lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Vertikal adolat deganda, xo'jalik yuritishning bir muncha og'ir sharoitlarida ishlayotgan subyektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, engil daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan subyektlar uchun esa og'irroq shartlarni qo'llash tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin.

Soliqqa tortishning Oddiylik va xolislik tamoyili. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliqqa tortishning boshqarishga qulaylik tamoyili. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

Ma'muriy boshqaruvchilik bilan soliqqa tortish tamoyillarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan maqsadga erishish o'rtasida muvozanat saqlanib qolishi nihoyatda muhimdir. Murakkab tuzilgan choralarning samarasi kam bo'ladi, ularni amalga oshirishdagi muvaffaqiyat ko'pdan-ko'p axborot to'plash va undan foydalanishga bog'liq. Soliq xizmati va soliq madaniyatining rivojlanganlik darajasini ham hisobga olish kerak.

Soliqqa tortishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili. Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llanish orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

Soliqqa tortishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, engil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida esa soliqqa tortish tamoyillari o‘rniga soliq qonunchiligi prinsiplari berilib, ular quyidagilardan iborat:

8 modda Majburiylik prinsipi;

9-modda Soliq solishning aniqlik va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorli prinsipi;

10- modda Adolatlilik prinsipi;

11-modda Soliq tizimining yagonaligi prinsipi;

12-modda Oshkorali prinsipi;

13-modda Soliq to'lovchilarning haqligi prezumpsiyasi prinsipi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi prinsiplari ma'lum o‘xshashlikka ega bo‘lib, ularni amaliyotga tadbiq etish iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qadimgi davlatlarda qanday soliqlar mavjud bo‘lgan?
2. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi qachon shakllana boshladi va qanday xususiyatlarga ega?
3. Soliq siyosatining o‘ziga xos jihati nimada?
4. Soliq islohotlarining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib bering.
5. Soliqqa tortish tizimiga kiritilgan sezilarli o‘zgarishlar mohiyati nimalardan iborat?
6. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi boshqa mamlakatlar soliq tizimidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
7. XX asrning boshlarida O‘zbekistonda o‘tkazilgan soliq siyosatining o‘zagi xos jihatlari nimalardan iborat edi?
8. Korxonalardan qanday soliqlar undiriladi?
9. Tadbirkorlardan qanday soliqlar undiriladi?
10. Aholi daromadi nima?
11. Oila daromadi qanday tarzda taqsimlanishi mumkin?
12. Barter operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
13. Soliqlar moliyaviy resurslarga qanday ta'sir ko‘rsatadi?
14. Egri soliqlar tarkibida qaysi soliq turi katta hissaga ega?
15. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i qaysi guruhga kiradi?

CamScanner yordamida skanerlangan

16-MAVZU: SOLIQ VA BOSHQA YIG'IMLAR TO'LOVCHILARI VA ULARNING VAKILLARI

Reja:

1. Soliq va majburiy yig'im to'lovchilarining huquqlari.
2. Soliq va majburiy yig'im to'lovchilarining majburiyatlari.
3. Soliq va boshqa yig'imlar to'lovchilarining vakillari.
4.Bank muassasalarining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'tkazishga doir majburiyatlari.

Kalit so'zlar: axborot olish huquqi, majburiyatlar, huquqlar, vakolatli shaxs, vakil, soliq agentlari, bank.

1. Soliq va majburiy yig'im to'lovchilarining huquqlari

Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

- Davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

– o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

– soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

Soliq menejmentidan foydalanish huquqi:

– O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksida, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

– Soliq kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash;

Ortiqcha to'langan mablag'larni qayta hisob-kitob qilish yoki qaytarib olish huquqi:

– soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan so'mmalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

– soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

CamScanner yordamida skanerlangan

Rasmiy yozma murojaatlarni olishi hamda o‘z hatti-harakati bo‘yicha tushuntirishlar berish huquqi:

– soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

– soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

– davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

Davlat soliq xizmati organlarining yoki boshqa vakolatli organlarning noqonuniy talablarini bajarmaslik huquqi:

– davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

– davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliqqa oid munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqi:

– soliq to‘lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to‘lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

– soliq to‘lovchi vakillarining mazkur soliq to‘lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to‘lovchining harakati (harakatsizligi) deb e’tirof etiladi.

2. Soliq va majburiy yig‘im to‘lovchilarining majburiyatlari

Soliq majburiyatlarini qonunda belgilangan muddatlarda to‘lash va soliq to‘lovchilar ro‘yxatidan o‘tish majburiyatlari:

– o‘z soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarishi;

– qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

– davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

CamScanner yordamida skanerlangan

– soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi.

Davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning talablarini bajarish majburiyati:

– davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek, mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;

– soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

– soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingan hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi lozim.

3. Soliq va boshqa yig'imlar to'lovchilarining vakillari

Soliq to'lovchilarning soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi ularni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek, vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmasligi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 24-25-moddalarida belgilab qo'yilgan.

Soliq to'lovchi soliq munosabatlarida qonuniy yoki vakolatli vakil orqali ishtirok etishga haqli.

Vakilning vakolatlari Soliq kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchining qonuniy vakili deb ushbu yuridik shaxsga qonun yoki uning ta'sis hujjatlari asosida vakillik qilishga vakolatli shaxslar e'tirof etiladi.

Yuridik shaxs qonuniy vakillarining mazkur yuridik shaxsning soliq munosabatlarida ishtirok etishi munosabati bilan sodir etilgan harakatlari (harakatsizligi) ushbu yuridik shaxsning harakati (harakatsizligi) hisoblanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlari, bojxona organlari va soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarda o'z manfaatlarini ifodalash vakolati berilgan soliq

CamScanner yordamida skanerlangan

maslahatchilari tashkilotlari yoki boshqa shaxslar soliq to'lovchining vakolatli vakillari bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchining vakolatli vakili, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, o'z vakolatlarini tuzilgan shartnoma yoki fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari soliq to'lovchining vakolatli vakillari bo'la olmaydi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi qonun asosida soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi barcha ishtirokchilarining vakolatli vakili hisoblanadi.

Soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnoma qoidalaridan qat'i nazar, ushbu guruhning mas'ul ishtirokchisi quyidagilar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda mazkur konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalashga haqli:

soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnomani soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ushbu shartnomaga o'zgartirish kiritish, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi qaror va uni tugatish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda;

soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisidan soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun foyda solig'i bo'yicha qarzlarni majburiy undirish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda;

soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar (harakatsizlik) xususiyati bo'yicha ular soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxsning huquqlariga bevosita ta'sir qilsa.

Amal qilish muddati tugashi bilan soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to'g'risidagi shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda yoki tugatilganda ushbu guruhning mas'ul ishtirokchisi bo'lgan shaxs ushbu moddaning o'ninchi va o'n birinchi qismlarida nazarda tutilgan vakolatlarini saqlab qoladi.

Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi bo'lgan shaxslar mazkur guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalash bo'yicha soliq o'zlariga berilgan vakolatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan shartnoma yoki berilgan ishonchnoma asosida uchinchi shaxslarga berishga haqlidir.

CamScanner yordamida skanerlangan

Quyidagilar vakolatli organlardir:

soliq organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari;

bojxona organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, "Toshkent – AERO" maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;

yig'imlarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar.

Jismoniy shaxslarning qonuniy vakillari – O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq ishtirok etuvchi shaxslar hisoblanadi.

– vakolatli vakillar ushbu vakolatlar yuklatilgan shaxslar hisoblanadi. Soliq to'lovchilarning vakolatli vakillari soliq munosabatlarida ushbu vakolatlar yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Bularga soliq organlari, bojxona xizmati, davlatning ichki ishlar va byudjetdan tashqari fondlarining mansabdor shaxslari, sudyalar, tergovchilar, prokurorlar bo'lishi mumkin. Vakolatli vakillar o'z faoliyatini yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq berilgan ishonchnoma asosida olib boradi.

Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchining qonuniy vakili deb fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq uning vakillari sifatida faoliyat olib boradigan shaxslar e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchining vakolatli vakili o'z vakolatlarini fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

4. Bank muassasalarining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'tkazishga doir majburiyatlari

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari o'zgargan taqdirda va Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda soliqni to'lash majburiyati bank kafolati bilan ta'minlanishi mumkin.

Agar soliq to'lovchi to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalarini va tegishli penyalarni belgilangan muddatda to'lamasa, bank kafolati tufayli

CamScanner yordamida skanerlangan

bank soliq organlari oldida soliq to'lovchining soliqni to'lash bo'yicha majburiyatini to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Bank kafolati quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) kafolat qaytarib olinmaydigan va boshqa shaxsga o'tkazilmaydigan bo'lishi kerak;

2) kafolatda soliq organi tomonidan kafolat beruvchiga ushbu moddada nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishga doir ko'rsatma bo'lishi mumkin emas;

3) amal qilish muddati soliq to'lovchi tomonidan bank kafolati bilan ta'minlangan soliq to'lash majburiyatini bajarishning belgilangan muddati o'tadigan kundan e'tiboran kamida olti oydan keyin tugashi kerak;

4) qaysi summaga berilgan bo'lsa, o'sha summa kafolat beruvchi tomonidan soliq to'lovchining soliqni va tegishli penyalarni to'lash bo'yicha majburiyati, agar soliq kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'liq hajmda bajarilishini ta'minlashi kerak;

5) kafolat beruvchi tomonidan ushbu bank kafolati bo'yicha pul summasini to'lash to'g'risidagi talabnoma belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda, soliq organi tomonidan to'lash majburiyati bank kafolati bilan ta'minlangan summalarni kafolat beruvchidan undirish choralari qo'llanilishini nazarda tutishi kerak.

Kafolat beruvchidan undirish, agar soliq organining mazkur talabnomasi kafolat beruvchiga bank kafolatining amal qilish muddati tugagunga qadar yuborilgan bo'lsa, soliq kodeksning 121 va 123-moddalarida nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqni to'lash bo'yicha majburiyatning bajarilishi bank kafolati bilan ta'minlangan soliq belgilangan muddatda to'lanmagan yoki to'liq to'lanmagan taqdirda, soliq organi soliqni to'lash to'g'risidagi talabnomani bajarish muddati tugagan kundan e'tiboran besh kun ichida kafolat beruvchiga bank kafolati bo'yicha pul summasini to'lash haqida talabnoma yuboradi.

Bank kafolati bo'yicha majburiyat kafolat beruvchi tomonidan u bank kafolati bo'yicha pul summasini to'lash to'g'risida talabnoma olgan kundan e'tiboran besh kun ichida bajarilishi lozim.

Kafolat beruvchi soliq organiga bank kafolati bo'yicha pul summasini to'lash to'g'risidagi talabnomani qanoatlantirishni rad etishga haqli.

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda va shartlarda O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki chet el yuridik shaxsi tomonidan soliqni to‘lash majburiyati xalqaro reyting agentliklarining yuqori reytingiga ega bo‘lgan chet el bankining bank kafolati bilan ta’minlanishi mumkin.

Soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari tomonidan o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga qabul qilinishi mumkin.

Soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror elektron shaklda soliq organi tomonidan bankka yuboriladi. Bir vaqtning o‘zida soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga uning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatib turilishi to‘g‘risida xabarnoma buning sabablarini ko‘rsatgan holda yuboriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish soliq organi tomonidan mazkur soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlari bajarilishini ta’minlash uchun quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

1) ushbu soliq to‘lovchi tomonidan soliq organiga moliyaviy va soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o‘n kun ichida taqdim etilmaganda;

2) soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq organining kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnomasiga tushuntirishlar va tuzatishlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganda, shuningdek, soliq to‘lovchi tomonidan soliq organi talab qilgan hujjatlar taqdim etilmaganda;

3) soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslarini ko‘rsatilgan hududga yoki binoga kirishiga to‘sqinlik qilishda. Soliq organi mansabdor shaxsining kirishiga to‘sqinlik qilinishi uning o‘zi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadigan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunday dalolatnoma asosida soliq organi bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turadi;

4) soliq to‘lovchining (soliq agentining) o‘zi ko‘rsatgan manzilda yo‘qligida.

Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatib turilishi banklar tomonidan soliq to‘lovchining (soliq agentining) barcha hisobvaraqlari bo‘yicha barcha chiqim operatsiyalari to‘xtatib turilishini anglatadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarning to'xtatib turilishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda ko'rsatilgan to'lovlarga, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq undiruvga yo'l qo'yilmaydigan banklardagi hisobvaraqlarga tatbiq etilmaydi.

Soliq to'lovchi (soliq agenti) boshqa soliq organida hisobga qo'yilganda, agar hisobda turish joyi o'zgarganligi haqidagi ma'lumotlar oldingi hisobda turish joyidagi soliq organiga ma'lum bo'lmasa, shuningdek, texnik xatolar yuz berganda va boshqa shu kabi hollarda soliq to'lovchining hisobga olingan joyda yo'qligi asosli deb e'tirof etilishi mumkin.

Soliq organining qaroriga ko'ra hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilishi oqibatida soliq to'lovchi (soliq agenti) ko'rgan zarar uchun bank javobgar bo'lmaydi.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror bankka elektron shaklda yuborilganda, bank tomonidan ushbu qaror olingan sana va vaqtni belgilash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risida soliq organi yoki sudning qarorini olganidan keyin banklar ushbu soliq to'lovchiga (soliq agentiga) yangi hisobvaraqlar, omonatlar va depozitlar ochishga haqli emas, bundan qonun hujjatlariga muvofiq undiruv yo'l qo'yilmaydigan hisobvaraqlar mustasno.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida kimlar soliq to'lovchilar sifatida e'tirof etiladi?
2. Soliq to'lovchilarning qanday huquqlarini bilasiz?
3. Soliq to'lovchilarning asosiy majburiyatlariga nimalar kiradi?
4. Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraq to'xtatib turilishi nimani anglatadi?
2. Qonun hujjatlariga muvofiq banklardagi hisobvaraqlar muzlatilishi kimlarga tatbiq etilmaydi?
3. Soliq organining qaroriga ko'ra hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilishi mumkinmi?
4. Qonuniy vakili deb kimga aytiladi?

CamScanner yordamida skanerlangan

5. Soliq summalarini va tegishli penyalarni belgilangan muddatda to'lamasa inspektsiya tomonidan qanday ishlar amalga oshiriladi?

6. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankdagi hisobvaraqlari to'xtatilib qo'yilishi mumkinmi?

7. O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki chet el yuridik shaxsi tomonidan soliqni to'lash majburiyati qaysi tashkilot tomonidan kafolatlanadi?

8. O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlarini sanab bering?

9. Qaysi davlat organlarining mansabdor shaxslari soliq to'lovchining vakolatli vakillari bo'la olmaydi?

10. O'zbekiston Respublikasining soliq bo'yicha barcha normalar qaysi hujjatda belgilab qo'yilgan?

11. Soliq to'lovchilar qanday huquqlarga ega?

12. Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi nima?

CamScanner yordamida skanerlangan

17-MAVZU: SOLIQ VA YIG'IMLARNI BELGILASH VA TO'LASH TARTIBI

Reja:

1. Soliq elementlari va ularning tavsifi.
2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati.
3.Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini o'zgartirish.
4. Soliq hisoboti.

Kalit so'zlar: soliq elementlari, soliq deklaratsiyasi, to'lov muddati, soliq majburiyati, soliq hisoboti, to'lov muddatini o'zgartirish.

1. Soliq elementlari va ularning tavsifi

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilashda soliq to'lovchilar va soliqqa tortish elementlarini aniqlash muhimdir.

Soliq elementlari soliq subyekti, soliq obyekti, soliq predmeti, soliq manbayi, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq normasi, soliqni to'lash muddatlari, soliq yuki, soliq bazasini hisoblash usullari, soliqqa tortish usullari va shu kabi tushunchalarni qamrab oladi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliqning barcha elementlari aniqlab qo'yilgan taqdirdagina ushbu soliq belgilangan deb hisoblanadi.

Bunday soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

1) soliq solish obyekti;
2) soliq bazasi;
3) soliq stavkasi;
4) soliq davri;
5) soliqni hisoblab chiqarish tartibi;
6) soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
7) soliqni to'lash tartibi.

Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Soliq solish obyekti. Soliq obyekti – soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq obyekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarning qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq obyekti aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan

CamScanner yordamida skanerlangan

foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq subyektlarining huquqlarini soliqqa tortishni xarakterlaydi.

Soliq solish obyekti mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi.

Har bir soliq soliq kodeksning Maxsus qismiga muvofiq belgilanadigan mustaqil soliq solish obyektiga ega bo'ladi.

Soliq bazasi. Soliq bazasi – soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan obyektning miqdoriga ham bog'liq bo'ladi. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq obyektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi.

Soliq bazasi soliq solish obyektining qiymat, fizik yoki boshqa xususiyatini ifodalaydi.

Har bir soliq uchun soliq bazasi va uni aniqlash tartibi soliq kodeks bilan belgilanadi.

Soliq stavkasi. Soliq stavkasi – obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat sohalariga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin. Soliq stavkalari ikki xil ko'rinishda: qat'iy stavkalarda va nisbiy (foiz) stavkalarda ifodalanadi. Soliq stavkasi qat'iy stavkada belgilangan holda soliq obyektga nisbatan qat'iy so'mda belgilanadi. Masalan, yer solig'ining har bir gektari uchun qat'iy so'mda soliq miqdori o'rnatilgan. Yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlariga, mol-mulklariga esa nisbiy stavkada yoki foizda soliq miqdori belgilangan.

Soliq stavkasi soliq bazasining o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan soliqning foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorini ifodalaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq stavkalari, agar ushbu moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq kodeks bilan belgilanadi.

Aksiz solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va qat'iy belgilangan summada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilanadi. Aksiz solig'ining stavkalari, mahsulot narxi dinamikasidan va realizatsiya qilish hajmidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan yil davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Soliq davri. Soliq davri deganda tugagandan keyin soliq bazasi aniqlanadigan hamda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi hisoblab chiqariladigan kalendar yil yoki boshqa davr tushuniladi.

Soliq davri bir necha hisobot davrlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadigan soliqlarga nisbatan ushbu qismning qoidalari mazkur moddaning to'rtinchi — o'ninchi qismlarida nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Agar yuridik shaxs kalendar yil boshlanganidan keyin, lekin shu yilning 1-dekabriga qadar tashkil etilgan bo'lsa, uning uchun u tashkil etilgan kundan e'tiboran shu yilning oxiriga qadar bo'lgan davr birinchi soliq davri deb e'tirof etiladi.

Agar yuridik shaxs 1-dekabrdan 31-dekabrga qadar bo'lgan davrda tashkil etilgan bo'lsa, tashkil etilgan kundan e'tiboran tashkil etilgan yildan keyingi kalendar yilning oxirigacha bo'lgan davr uning uchun birinchi soliq davri deb e'tirof etiladi. Bunda yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kun u tashkil etilgan kun deb e'tirof etiladi.

Ushbu moddaning to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar soliq kodeksda belgilangan tartibda o'zini mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e'tirof etgan hamda faoliyati bunday e'tirof etish sanasida O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa tuzishga olib kelmagan chet el yuridik shaxslari uchun foyda solig'i bo'yicha birinchi soliq davrini aniqlashga nisbatan qo'llanilmaydi.

Agar yuridik shaxs kalendar yil oxirigacha tugatilgan bo'lsa, uning uchun shu yil boshidan to tugatish tamomlangan kungacha bo'lgan davr oxirgi soliq davri deb e'tirof etiladi.

Agar kalendar yil boshlanganidan keyin tashkil etilgan yuridik shaxs shu yil oxiriga qadar tugatilgan bo'lsa, uning uchun u tuzilgan

CamScanner yordamida skanerlangan

kundan e'tiboran tugatilgan kungacha bo'lgan davr soliq davri deb e'tirof etiladi.

Agar yuridik shaxs joriy kalendar yilning 1-dekabridan 31-dekabriga qadar bo'lgan davrda tashkil etilgan bo'lsa va tashkil etilgan yildan keyingi kalendar yil oxirigacha tugatilgan bo'lsa, uning uchun u tuzilgan kundan e'tiboran tugatilgan kungacha bo'lgan davr soliq davri deb e'tirof etiladi.

Soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.

Soliqni to'lash tartibida esa, soliqning yo'naltirilganligi (byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondlarga), soliqni to'lash vositasi (milliy valyuta, so'mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valutasida. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq, soliqlar faqat milliy valyuta, so'mda to'lanishi mumkin) hamda soliqni to'lash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek mavjud bo'lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi.

Agar soliq bo'yicha soliq davri bir necha hisobot davrini tashkil etsa, ulardan har birining natijalari bo'yicha joriy to'lovlar to'lanadi. Joriy to'lovlarni to'lash majburiyati soliqni to'lash bo'yicha majburiyatga tenglashtiriladi.

Alohida soliq turlari uchun bo'nak to'lovlari nazarda tutilishi mumkin. Bo'nak to'lovlarini to'lash majburiyati soliqni to'lash bo'yicha majburiyatga tenglashtiriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni banklar orqali naqd pulsiz shaklda to'laydi.

Soliqlar va yig'imlarni turlari bo'yicha hisoblab chiqarish tartibi hamda to'lash muddatlari Soliq kodeksining Maxsus qismida belgilanadi.

Soliq imtiyozlari. Soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin.

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchiga soliqlarni to'lash bo'yicha muddatni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyati berilishi soliq imtiyozlari hisoblanmaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq imtiyozlari soliq kodeks bilan taqdim etiladi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag'lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag'lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so'ng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar budjetga o'tkazilishi lozim.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar, shu jumladan tovarlar O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kirilishida (importida) soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan, berilishi mumkin emas.

12-jadval

Soliqqa tortish obyektlari

Soliqqa tortish obyekti	Mazmuni
Mahsulot (tovar ish, xizmat)	Tovar – realizatsiya qilishga mo'ljallangan har qanday predmet. Ish – yuridik va jismoniy shaxslarning muayyan ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan hamda moddiy qiymatga ega bo'lgan faoliyat.
Mulk	Mulk – Fuqarolik kodeksiga asosan fuqarolik huquqi vujudga keladigan obyektlar
Foyda	Realizasiya yoki faoliyat natijasida tushgan daromaddan xarajatlarning chegirilishidagi ijobiy farq
Daromad	Pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naflilik bo'lib, soliq kodeksiga muvofiq baholash, o'lchash mumkin bo'lgan faoliyat natijasidir
Xarajat	Faoliyat natijasida sarflangan u yoki bu to'lovlar, favqulodda zararlar

Soliqqa tortish birligi – bu obyektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida obyektning o'lchov birligi bo'lib uning

CamScanner yordamida skanerlangan

so‘mdagi bahosi ifodalansa, yer solig‘ida o‘lchov birligi bo‘lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

Soliq bazasini hisoblash usullari – soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo‘lib, ular kassa usuli va hisobga olish usullaridir. Kassa usulida soliq to‘lovchida soliqlarni to‘lash majburiyatlari daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushishidan qat’iy nazar tovarlarning jo‘natilishi, o‘z navbatida, soliqlarni to‘lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Soliq yuki – soliq to‘lovchining muayyan vaqt oralig‘ida to‘lagan soliqlari yig‘indisini ifodalaydi. Bunda soliq to‘lovchilarning to‘laydigan barcha soliqlari va soliqsiz majburiy to‘lovlarining yig‘indisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to‘lovchilar zimmasiga qancha to‘g‘ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to‘g‘ri soliqlarda soliq og‘irligi aynan soliqni byudjetga hisoblab o‘tkazuvchi soliq to‘lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda soliq yuki soliqni to‘lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni iste’mol qiluvchilar zimmasiga tushadi.

Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha soliq yukining bir yilda byudjetga to‘langan barcha majburiy to‘lovlar yig‘indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukining darajasi, o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflasiya darajasiga, davlatning vakolatli funksiyalarni qo‘llashiga, qolaversa, bozor munosabatlarining rivojlanishiga va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

2. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati

Soliq to‘lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash, shuningdek, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovchilar:

belgilangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda hisoblab chiqarishi va to‘lashi;

hujjatlarni ko‘rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to‘g‘risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi;

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda xaridorga hisobvaraq-fakturalarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berishi;

CamScanner yordamida skanerlangan

soliq tekshiruvini o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek, elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi;

soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarishi, ko'rsatilgan organlarning va ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;

Soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarning tegishli soliqlarni to'lash uchun belgilangan kalendar yildan keyingi besh yil mobaynida but saqlanishini ta'minlashi;

o'zi soliq bo'yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to'g'risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo'lsa, xabardor etishi shart.

Zimmasiga soliq hisobotini elektron shaklda taqdim etish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq organlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlardagi o'z vakolatlarini amalga oshirish chog'ida foydalaniladigan hujjatlarning soliq organidan telekommunikatsiya aloqa tarmoqlari orqali elektron shaklda olinishini ta'minlashi kerak.

Soliq solish obyekti deb e'tirof etiladigan ko'chmas mulkka ega bo'lgan chet el yuridik shaxslari ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, ko'chmas mulk obyekti turgan joydagi soliq organiga ushbu chet el yuridik shaxsining ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda xabar qilishi shart. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari ko'rsatilgan holatlarda o'z muassislari, benefitsiarlari va boshqaruvchilari haqidagi ma'lumotlarni xabar qilishi kerak. Chet el yuridik shaxsida (yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmasida) ushbu qismda ko'rsatilgan bir nechta mol-mulk obyekti mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu shaxs tanloviga ko'ra, xabar mol-mulk obyektlarining biri turgan yerdagi soliq organiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tilishi munosabati bilan soliqlar to'laydigan soliq to'lovchilar zimmasida O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlar ham bo'ladi.

Soliq to'lovchilarning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati soliq to'lovchining hisobvarag'ida yetarlicha pul mablag'lari bo'lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e'tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to'lov naqd pul mablag'lari bilan to'langanda esa pul so'mmasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e'tiboran bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov so'mmasini o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi soliq to'lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to'lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar soliq to'lovchi bankka to'lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to'lovchining hisobvarag'iga qo'yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo'lsa hamda soliq to'lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda yetarlicha pul mablag'lariga ega bo'lmasa, soliq yoki boshqa majburiy to'lov to'langan deb hisoblanmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov so'mmasi soliq to'lovchi tomonidan belgilangan muddatlarda to'lanadi. Ayrim hollarda soliq to'lovchiga soliq va boshqa majburiy to'lovni, shuningdek, penyani to'lashni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishi mumkin.

Soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilgan hollarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati davlat soliq organining yozma talabnomasi olingan sanadan e'tiboran yuzaga keladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, moliyaviy sanksiyalar byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi tartibda o'tkaziladi:

– asosiy so'mma;
– hisoblangan penya;
– jarimalar.

Soliq organlarining majburiyatlari

Soliq organlari:

– soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishi;

CamScanner yordamida skanerlangan

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

– soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar, hisoblangan va to‘langan soliqlar to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlashi;

– soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq to‘lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berishi, shuningdek, o‘tkazilgan tekshirishlar natijalari to‘g‘risida xabardor qilishi;

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida o‘z vaqtida e’lon qilishi;

– soliq to‘lovchilarga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini ijro etishida yordam berishi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalarini va soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibini tushuntirishi;

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlarini tahlil qilishi va baholashi, soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi takliflarni tegishli davlat organlariga kiritishi;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga doir uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi;

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to‘g‘risidagi arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni o‘rganishi;

– davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan pul mablag‘larining to‘liq va o‘z vaqtida tushishini nazorat qilishi;

– masalani hal etish soliq organlari vakolatlari doirasiga kirmaydigan hollarda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlari bo‘yicha materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishi;

– o‘z vakolatlari doirasida valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishi;

– soliq siriga rioya etishi va uning saqlanishini ta’minlashi;

– Soliq qarzi summasini so‘zsiz undirishi;

– yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarini hisobga olishi, ularga soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamini berishi hamda bu haqda statistika va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarga rasmiy ravishda ma’lum qilishi;

– soliq to‘lovchining talabiga binoan uning soliq organlarida hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomani berishi;

CamScanner yordamida skanerlangan

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma tushuntirishlariga amal qilishi shart.

– Soliq organlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

3. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka ega bo‘lgan korxonalarga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish maqsadida to‘lash muddatini soliq to‘lovchi qarz summasini bir yo‘la yoki bosqichma-bosqich to‘lagan holda keyinroq muddatga ko‘chirishdan iboratdir.

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan bir oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga beriladi.

Oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra joriy aktivlar so‘mmasining jami 20 foizidan ortiq miqdordagi qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda moliyaviy sanksiyalarni undirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran olti oy ichida soliq qarzi oyma-oy bo‘lib to‘langan holda amalga oshiriladi.

To‘lashni kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash soliq qarzining hammasiga yoki uning bir qismiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha penya hisoblash tegishli soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzni to‘lashni kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilish davri boshlanishidan e’tiboran to‘xtatib turiladi.

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi u berilgan muddat o‘tganidan keyin tugaydi.

4. Soliq hisoboti

Soliq hisoboti soliq to‘lovchining soliq va boshqa majburiy to‘lovning har bir turi bo‘yicha yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblar

CamScanner yordamida skanerlangan

hamda soliq deklarasiyalarini, shuningdek hisob- kitoblarga va soliq deklarasiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjatidir.

Soliq deklaratsiyasi – O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining to'lov manbaida soliq solinmagan mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlari, ikkita yoki undan ko'p manbadan olingan daromadlar va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari uchun soliq to'lash haqidagi yozma talabnomasidir. Deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Soliq to'lovchilar daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay taqdim etadi. Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respub- likasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Soliq hisoboti soliq to'lovchi hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Jismoniy shaxslar soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar.

Soliq to'lovchilar soliq hisobotini o'z xohishlariga ko'ra quyidagicha taqdim etishlari mumkin:

– shaxsan olib borib berish tartibida;
– pochta orqali buyurtma xat bilan;
– telekommunikasiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Soliq to'lovchilarning qanday majburiyatlari mavjud?
2. Qanday holatlarda soliq to'lovchilarning majburiyatlari talab etiladi?
3. Qanday holatlarda penya hisoblanmaydi?
4. Penya nima va uning hisoblash tartibi qanday?
5. Yuridik va jismoniy shaxslarga penya hisoblashda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
6. Soliq elementlari nimalardan iborat?
7. Soliq solish obyekti nima?
8. Soliq bazasi tushuntirib bering?
9. Soliq stavkasni tavsiflang?

CamScanner yordamida skanerlangan

10. Soliq davrini tushuntirib bering?
11. Soliqni hisoblab chiqarish tartibida nimalarga rioya qilish zarur?
12. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi qanday?
13. Soliqni to'lash tartibi qanday amalga oshirilishi mumkin?
14. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar nimalar kiradi?
15. Soliq organlarining majburiyatlari nimalardan iborat?

CamScanner yordamida skanerlangan

18-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ MA’MURCHILIGI

Reja:

1. **Soliq ma’murchiligi: maqsad va vazifalari.**
2. **Soliq ma’muriyatchiligi tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari.**
3. **Soliq ma’muriyatchiligi organlarining vazifalari, huquq va majburiyatlari.**
4. **Soliq organlarining tarkibi, tuzilishi va vakolatlari.**

Kalit so‘zlar: soliq ma’murchiligi, soliq organlari.

1. Soliq ma’murchiligi: maqsad va vazifalari

Jahon iqtisodiy rivojlanishida soliq sohasida turli xil fikrlar mavjud bo‘lishi bilan birga, soliq ma’murchiligini xususida, uni talqin etish xususida ham turli xil fikrlar mavjud. Iqtisodiy adabiyotda soliq ma’murchiligining mohiyatini anglash bo‘yicha bir-biridan farqlanuvchi qarashlar mavjud. Ingliz olimi O.Noginaning fikriga ko‘ra[16], soliq ma’murchiligi soliqlarni undirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmuidir. Boshqa bir guruh iqtisodchilar, xususan, AQShlik olim A.Teyt[17] soliq ma’murchiligini barcha soliqlarni minimal xarajat qilib maksimal darajada yig‘ib olishga qaratilgan tadbirlarning yig‘indisi sifatida qaraydilar.

Ayrim mutaxassislar soliq ma’murchiligining ko‘rinishlaridan biri soliq organlarining huquqiy munosabatlari bilan bog‘liq faoliyatidir deb hisoblaydilar. Umuman olganda soliq ma’murchili- gini soliq sferasida o‘ziga xos boshqarish mexanizmi sifatida ham qarash mumkin. Shu sababli, soliq ma’murchiligining muhim elementlaridan biri soliq nazorati hisoblanadi. O‘z navbatida soliq nazorati soliqlar va yig‘imlarni byudjetga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini nazorat qilishni anglatadi.

Davlatning o‘z funksiyalarini o‘z vaqtida muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlash maqsadida soliqlarning mavjud bo‘lishi va ularning o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda (belgilangan tasdiq etilgan muddatlarda) undirilishini taqazo etadi. Shunga mos ravishda bu narsa o‘z vaqtida undirilgan soliqlarning boshqa bir tomondan, o‘z egasiga (davlatning ixtiyoriga) o‘z vaqtida (belgilangan va tasdiqlangan

[16] Миляков Н.В. Налоги и налогообложение: Учебник. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. - 520 с

[17] Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: учеб.пособ. – М.: Эксмо, 2010. – 176 с

CamScanner yordamida skanerlangan

muddatlarda) o'tkazilishi lozimligini anglatadi. Shuning uchun ham soliqlarni undirilishning zarurligi, soliqlarning o'z vaqtida belgilangan summalarda undirilishi, soliq summalarining o'z vaqtida byudjet ixtiyoriga o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni alohida-alohida emas balki, bir-biri bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayon sifatida qaramoq lozim.

Har bir alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarning ixtiyoriy yoki erkin shaklda bo'lmasdan, aksincha, aniq belgilangan shaklda bo'lishi, soliqni to'lash muddati, to'lash uslubi va to'lov so'mmasi soliq to'lovchi va boshqalar uchun tushunarli va aniq bo'lishi kerak, har qanday soliqning, eng avvalo, soliq to'lovchiga to'lash qulay bo'lgan muddatda va uslubda undirilishi lozimligi soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashning mohiyatini ochib berishda xizmat qiladi. Soliq tizimiga asos sifatida olingan mumtoz tamoyllarining (adolatlilik, aniqlilik, qulaylilik, iqtisodlilik) oldiga ham, jumladan, xuddi shunday vazifalar quyilgan.

Soliq ma'murchiligi – davlatning soliq sohasidagi qonun hujjatlariga amal qilinishi va soliq xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruv institutidir.

Davlatning soliq ma'murchiligi – mahalliy boshqaruv organlarining soliq sohasidagi qonun hujjatlariga amal qilinishi va soliq xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari majmui bo'lib, soliqqa tortish mexanizmini qo'llab-quvvatlash va himoya- lashga xizmat qiladi.

Davlat soliq ma'murchiligi va soliq ma'murchiligi tushunchalari xalqaro miqyosda umumiy mazmunda qo'llanilishi mumkin.

Davlat soliq ma'murchiligining funksional tuzilmalari – soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga rioya qilishlari, ular tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzilishlarini o'z vaqtida aniqlash, fosh etish hamda dalillar to'plash bo'yicha vazifalarni amalga oshirishadi. Har bir qo'yilgan vazifani hal etish ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalar o'rtasida vakolatlar sifatida taqsimlanadi.

Soliq ma'murchiligi tizimi soliq sohasiga oid ikkita bosh funksiyani bajaradi: nazorat va huquq-tartibot.

Soliq ma'murchiligining nazorat faoliyatida soliq subyektlari faoliyatidagi turli asossiz, chetga chiqishlar aniqlanadi. Ta'kidlash joizki, nazorat faoliyati soliq tizimidagi turli xato va kamchiliklarni faqatgina aniqlash va fosh etishni o'z zimmasiga oladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Huquq-tartibot nazorat faoliyati davomida to‘plangan dalillarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish va tegishli tartibda choralar ko‘rish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi hamda xolis tadbirlarni amalga oshiradi.

2. Soliq ma’muriyatchiligi tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari

– Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llab, yuzma-yuz aloqani iloji boricha qisqartirib, shaxsiy kabinetlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘li bilan soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi va xizmatlar ko‘rsatishni yanada kengaytirish tizimini joriy etish.

– Mijozlarga mo‘ljallangan servis tizimi bo‘yicha soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish tizimini joriy etish.

– Tavakkalchilikni baholashga asoslangan yondashuv, kameral nazoratning innovasion usullarini joriy etish, jismoniy va yuridik shaxslarning soliq majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot ayirboshlash bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish.

– Davlat soliq xizmati organlarining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish.

– Elektron QQS ma’muriyatchiligi tizimini joriy etish.

– O‘tkazilgan operatsiyalar to‘g‘risida soliq organlariga «onlayn» rejimida axborot uzatilishini ta’minlovchi nazorat-kassa mashinalarini, shuningdek, ayrim turdagi tovarlar (mahsulotlar) axborot beruvchi markirovkasi va harakati monitoringini joriy etish.

– Transfert narxlar shakllanishiga bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning operatsiyalari ustidan nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va soliqqa tortish tartibini takomillashtirish.

– Soliqqa tortish tashkiliy-huquqiy shaklga bog‘liq bo‘lmaydigan tartibni joriy etish.

– Soliq solinadigan bazasi o‘xshash bo‘lgan ayrim turdagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni qayta ko‘rib chiqish va qisqartirish.

– Ortiqcha to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlar so‘mmalarini qaytarish va hisobga kiritish mexanizmlarini takomillishtirish va soddalashtirish.

– Soliq huquqbuzarliklari uchun jarima jazolarini qayta ko‘rib chiqish va javobgarlikni kuchaytirish, jarimalar va penya hisoblashning ochiq-oshkor mexanizmlarini belgilash.

CamScanner yordamida skanerlangan

– Soliq imtiyozlarini faqat maqsadli berish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash, ular qo'llanishini monitoring qilish va samaradorligini baholash tizimini joriy etish, samarasiz foydalanilgan imtiyozlar summalari byudjetga majburiy qaytarilishi to'g'risidagi normalarni belgilash.

– Davlat soliq xizmati organlarida ichki soliq auditini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy amaliyotga muvofiq poraxo'rlikka qarshi ichki nazorat tizimlarini joriy etish.

– Soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal etish mexanizmini joriy etish, ixtisoslashgan jamoatchilik tashkilotlari vakillarini kiritgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida soliq nizolarini sudgacha hal etish bo'yicha mustaqil idoralararo ekspert kengashini tashkil etish.

– Xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda soliq masalalariga doir axborot ayirboshlash va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashni tashkil etishga yo'naltirilgan ilg'or xalqaro tashabbuslarga qo'shilish.

– Axborot texnologiyalarini (vebinarlar, onlayn-chatlar) ham qo'llagan holda soliq organlari tomonidan tushuntirish ishlari kuchaytirilishi vositasida soliq to'lovchilarning soliqqa oid savodxonligini oshirish.

Xalqaro soliq konsepsiyalarini joriy etish:

1. Narxlar va foiz stavkalarini manipulyatsiya qilishga qarshi kurashish: transfert narxlar shakllanishi va kam kapitallashtirish qoidalari (thin capitalization).

2. Ofshorlarga qarshi kurash: nazorat qilinadigan xorijiy kompaniyalar (NXK), benefisiar mulkdor, yuridik shaxslar uchun soliq rezidentligi.

3. Soliqqa tortish sohasidagi ilg'or xalqaro tashabbuslarga qo'shilish (IHTT konvensiyalarini imzolash, imzolangan xalqaro hujjatlar sonini oshirish, soliq axboroti bilan avtomatik ayirboshlashuv).

Transfert narxlar shakllanishi konsepsiyasini takomillashtirish. Konsepsiya tavsiyalarida bu borada quyidagilar belgilangan:

- guruhlar ichidagi bitimlar doirasida narxlar darajasini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi;
- O'zbekiston soliq organlari tomonidan narxlar nazorati;
- transfert narxlarni shakllantirish maqsadida narxlarni hisoblash usulini belgilash;

CamScanner yordamida skanerlangan

• bitim narxi bozor darajasiga muvofiq bo'lmasa, narxlarga tuzatish kiritish va soliq belgilash.

Soliq organlari va soliq to'lovchilarning hamkorligi:

• hujjatlarni taqdim etish tartibini takomillashtirish;

• elektron hujjat aylanishini joriy etishni talab etadi.

Soliq nazorati tizimida:

• sayyor soliq tekshiruvlaridan kameral tekshiruvlarga e'tibor qaratish;

• asosiy soliqlar bo'yicha soliq tekshiruvlarini o'tkazish reglamentini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur.

Konsepsiya **soliq, ma'muriy** va **jinoiy** javobgarlikni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Soliq tizimini isloh qilish natijalari:

1. Kapital va mehnat bozoridagi mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlay oladigan soliq tizimini yaratish.

2. Insofli soliq to'lovchilarga soliq yukini (fiskal va ma'muriy) kamaytirish.

3. Soliq nazorati samaradorligini oshirish hisobiga soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish.

3. Soliq ma'muriyatchiligi organlarining vazifalari, huquq va majburiyatlari

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladilar.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Davlat soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tuzilishi va faoliyatini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Soliq ma'muriyatchiligi organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

CamScanner yordamida skanerlangan

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, soliqlarning, O‘zbekistan Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya va Respublika pul jamg‘armalariga majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi;

– fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob-varaqlariga jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to‘g‘ri va to‘liq hisoblab chiqarilishi hamda o‘z vaqtida kiritilishini nazorat qilish;

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlash, soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko‘rsatish;

– soliq siyosatining ro‘yobga chiqarilishida bevosita qatnashish; soliqqa tortiladigan obyektlar va subyektlarning to‘liq

– hamda o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlash; soliqlar bo‘yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

Soliq organlarining huquqlari quyidagilardan iborat:

Soliq organlari quyidagilarga haqli:

soliq to‘lovchilardan va uchinchi shaxslardan soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni (axborotni), shu jumladan, elektron tarzda taqdim etishini talab qilish;

soliq kodeksda belgilangan tartibda soliq tekshiruvlari va boshqa soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

hududni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan, soliq to‘lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoki soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni ko‘zdan kechirish;

mol-mulkni inventarizatsiya qilish va bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning nazorat o‘lchovlarini o‘tkazish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda kassani va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni ikki kundan ortiq bo‘lmagan muddatga, ikki kundan ortiq muddatga esa, sud qarori bo‘yicha muhrlash;

soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq hujjatlarni va elektron axborot jismlarini olib qo‘yish;

foto- va videotasvirga tushirish, tushuntirishlar hamda boshqa ma’lumotlarni olish;

tarjimonni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash;

CamScanner yordamida skanerlangan

soliq to'lovchi hisob hujjatlarini yo'qotgan yoki yo'q qilgan hollarda soliq to'lovchi to'g'risidagi o'zida mavjud axborot, shuningdek, boshqa shu kabi soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida soliqlar summasini hisob-kitob orqali mustaqil ravishda aniqlash;

o'zaro kelishuv asosida soliq monitoringida ishtirok etayotgan soliq to'lovchi tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarni hisoblab chiqarishning to'g'riligi, to'liqligi va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan soliq monitoringini o'tkazish;

soliq qarzini majburiy undirish choralarini ko'rish;

soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va moliyaviy sanksiyalar qo'llash;

soliq huquqbuzarliklarining aniqlangan holatlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni belgilangan tartibda davlat daromadiga o'tkazish. Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o'tkazish sud tartibida amalga oshiriladi;

soliq to'lovchilarga nisbatan ular tomonidan noqonuniy olingan mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risida sudlarga da'volar kiritish;

hujjatlarning davlat tiliga tarjima qilinishini talab qilish;

soliq to'lovchilarni va soliq agentlarini yozma bildirish asosida soliq organlariga ular tomonidan soliqlarni to'lash (ushlab qolish va o'tkazish) yuzasidan yoki soliq tekshiruvi bilan bog'liq ravishda, shuningdek, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishi bilan bog'liq boshqa hollarda tushuntirishlar berishga chaqirish;

soliq kodeksda nazarda tutilgan tartibda soliq to'lovchining yoki soliq agentining bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish va ularning mol-mulkini xatlab qo'yish;

soliq to'lovchilar va ularning vakillaridan, soliq agentlaridan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishni talab qilish hamda ushbu talablarning bajarilishini nazorat qilish;

soliq kodeksda belgilangan majburiyatlarning banklar tomonidan bajarilishini nazorat qilish.

Soliq organlari qonunga muvofiq boshqa huquqlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Soliq organlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishi;

CamScanner yordamida skanerlangan

soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar, hisoblangan va to‘langan soliqlar to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlashi;

soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq to‘lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berishi, shuningdek o‘tkazilgan tekshirishlar natijalari to‘g‘risida xabardor qilishi;

soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida o‘z vaqtida e’lon qilishi;

soliq to‘lovchilarga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini ijro etishida yordam berishi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalarini va soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibini tushuntirishi;

soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlarini tahlil qilishi va baholashi, soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi takliflarni tegishli davlat organlariga kiritishi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga doir uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi;

soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to‘g‘risidagi arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni o‘rganishi;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan pul mablag‘larining to‘liq va o‘z vaqtida tushishini nazorat qilishi;

masalani hal etish soliq organlari vakolatlari doirasiga kirmaydigan hollarda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlari bo‘yicha materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishi;

o‘z vakolatlari doirasida valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishi;

soliq siriga rioya etishi va uning saqlanishini ta’minlashi;

soliq to‘lovchining talabiga binoan soliqlarni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyatining bajarilishi yuzasidan solishtirma dalolatnoma tuzishi;

soliq kodeksga muvofiq soliq qarzi summasini so‘zsiz undirishi;

yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarini hisobga olishi, ularga soliq to‘lovchilarning

CamScanner yordamida skanerlangan

identifikatsiya raqamini berishi hamda bu haqda statistika va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga rasmiy ravishda ma'lum qilishi;

soliq to'lovchining talabiga binoan uning soliq organlarida hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani berishi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma tushuntirishlariga amal qilishi shart.

Soliq organlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

4. Soliq organlarining tarkibi, tuzilishi va vakolatlari

Davlat boshqaruvi organining tashkiliy tuzilishi (ichki tuzilmasi) deganda uning huquqiy va tashkiliy jihatdan nisbatan mustaqil va alohida tusdagi bir-biriga o'zaro bog'langan bo'linmalarining uyushmasi tushuniladi, ularning har biri alohida tarzda va barchasi birgalikda davlat vakolatlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Organning tuzilishi unga yuklangan vakolatlarning samarali tarzda bajarilishini, har bir tarkibiy bo'linmaning vakolatlari va mas'uliyatining aniq chegaralab qo'yilishini, hammaning yagona bir butun mexanizmning unsurlari sifatida kelishilgan holda ish olib borishini ta'minlashi lozim. 2020-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi yangi tahrirda amalga kiritildi.

Respublika soliq idoralarining tuzilishi bu uch darajali iyerarxiya bo'lib, u markaziy idora, ya'ni Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar soliq boshqarmalarini hamda tumanlar va shaharlardagi soliq inspekpiyalarini o'z ichiga oladi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi – soliq qonunlariga rioya qilinishini ta'minlash, davlatning iqtisodiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat nazoratining hududiy organi hisoblanadi. Viloyat davlat soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomning bajarilishini ta'minlashda mahalliy bojxona idoralari bilan hamjihat harakat qilinishini amalga oshiradi.

Davlat soliq inspeksiyasi – muayyan ma'muriy birlik (shahar, tuman) miqyosida tashkil qilinadi. Tumanlardagi, shaharlardagi va shaharlar tumanlaridagi davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq boshqarmasi tasarrufida bo'lgan va u bilan birgalikda soliq idoralarining bir yagona tizimini tashkil etadigan idoralar hisoblanadi.

Davlat soliq boshqarmasi o'zining faoliyati to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi oldida javob beradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq inspeksiyasi esa o‘zining bevosita rahbari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari oldida javob beradi.

Soliq inspeksiyasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomga amal qilgan holda ushbu Nizomning uning vakolatlariga tegishli talablarini to‘liq amalga oshiradi. Tuman (shahar) soliq inspeksiyasi idorasining tuzilishi va xodimlar soni Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat soliq bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan Davlat soliq qo‘mitasi belgilagan ish haqi fondi va xodimlar soni doirasida tasdiqlanadi.

Davlat soliq qo‘mitasining tuzilmaviy bo‘linmalari, odatda, funksional asosda tashkil etiladiki, uning mohiyati rahbarlikning mustaqil funksiyalarga taqsimlanishi va har bir ana shunday funksiyani maxsus tuzilmaviy bo‘linmaning (boshqarma, bo‘lim, sektor) amalga oshirishidan iboratdir.

Davlat soliq qo‘mitasining tuzilmaviy bo‘linmalari ushbu boshqaruv organining ishchi idorasi hisoblanadi. Ularning faoliyati rang-barang bo‘lib, mazkur organ funksiyalarining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu bo‘linmalar turli materiallarni tayyorlaydi, Davlat soliq qo‘mitasining boshqaruviga taalluqli o‘zga faoliyatni bajaradi, shu jumladan, muvofiqlashtirish tusidagi funksiyalarni bajaradi, maslahatlar beradi, fikr-mulohaza va xulosalar taqdim etadi, loyihalarning ekspertizasini o‘tkazadi, hujjatlarning loyihalarini, yuqori hokimiyat va boshqaruv organlariga takliflarni tayyorlaydi.

Boshqaruv organlarining butun faoliyati, barcha tashkiliy munosabatlari va huquqiy munosabatlari organning o‘z vakolatlarini amalga oshirishining natijasi hisoblanadi. Idoraning vakolatida boshqaruvning irodaviy mazmuni hammadan ko‘proq namoyon bo‘ladi. Davlat huquqiy normalarni chiqarish yo‘li bilan boshqaruv idorasining vakolatini belgilar ekan ushbu organning har qanday sohadagi hatti-harakatlarining chegaralarini belgilab beradi.

Soliq siri (Soliq kodeksi 29-modda):

Vakolatli organlar tomonidan olingan soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar soliq sirini tashkil etadi, quyidagilar bundan mustasno:

1) hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan, shu jumladan egasining roziligi bilan shunday foydalanish imkoni yaratilgan ma’lumotlar;

CamScanner yordamida skanerlangan

2) soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

3) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishlari va bu qoidabuzarliklar uchun javobgarlik choralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

4) soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘llaniladigan soliq rejimlari va qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar sifatida hisobga qo‘yilganlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

5) to‘langan soliqlarning va soliq qarzining summalari haqidagi ma’lumotlar;

6) yuridik shaxsning ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

7) xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

8) moliyaviy hisobot ma’lumotlari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Soliq siri davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, jalb etiladigan mutaxassislar va ekspertlar tomonidan oshkor etilishi mumkin emas, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Soliq sirini oshkor etish jumlasiga, xususan, soliq to‘lovchining tijorat sirini (ishlab chiqarish sirini) tashkil etuvchi va davlat organining mansabdor shaxsiga, jalb etilgan mutaxassisga yoki ekspertga ular o‘z majburiyatlarini bajarishi chog‘ida ma’lum bo‘lib qolgan axborotdan foydalanish yoki uni boshqa shaxsga berish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa davlatlarning soliq organlariga yoki boshqa tegishli organlariga soliq to‘lovchi to‘g‘risida so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etish soliq sirini oshkor etish sirasiga kirmaydi.

Davlat organlariga kelib tushgan soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar maxsus saqlash va foydalanish rejimiga ega.

Soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadigan mansabdor shaxslar foydalanish huquqiga ega.

Soliq sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlarning yo‘qotilishi yoki bunday ma’lumotlarning oshkor etilishi qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tasarrufidagi, soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritadigan va ularga ishlov beradigan tashkilotlar tomonidan olingan ma’lumotlarga, shuningdek, mazkur tashkilotlarning xodimlariga nisbatan tatbiq etiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy asoslarini tushuntirib bering.
2. O‘zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlarining tarkibiy tuzilishi qanday?
3. Soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar, moliya muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini tushuntirib bering.
4. Soliq ma’murchiligi: maqsad va vazifalariga nimalar kiradi?
5. Soliq ma’murchiligi: maqsad va vazifalari.
6. Soliq ma’muriyatchiligi tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari.
7. Soliq ma’muriyatchiligi majburiyatlari?
8. Soliq organlarining vakolatlarini aytib bering?
9. Davlat soliq ma’murchiligining funksional tuzilmalari nimalardan iborat?
10. Xalqaro soliq konsepsiyalarini joriy etish maqsad nima?
11. Soliq ma’muriyatchiligi organlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
12. Soliq organlarining huquqlari nimalardan iborat?
13. Soliq organlarining majburiyatlari nimalardan iborat?
14. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi yangi tahrirda qachon qabul qilindi?
15. Soliq siriga nimalar kiradi?

CamScanner yordamida skanerlangan

19-MAVZU: SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ SIYOSATI

Reja:

1. **O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining o‘ziga xosligi.**
2. **Soliq mexanizmi.**
3. **Soliq munosabatlarining ishtirokchilari.**
4. **Davlatning soliq siyosati.**
5. **Zamonaviy sharoitlarda tashqi soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari.**

Kalit so‘zlar: adolat tamoyili, aniqlilik tamoyili, qulaylik tamoyili, teng soliqqa tortish usuli, proporsional, progressiv va regressiv soliqqa tortish, soliqqa tortish subyekti va obyekti, davlat soliqlari, mahalliy soliqlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining o‘ziga xosligi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilingunga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududida ikki pog‘onali soliqqa tortish tizimi amal qilib kelgan edi:

– davlat soliqlari;

– mahalliy soliqlar va yig‘imlar

2020-yil 1-yanvardan e’tiboran soliq va yig‘imlar bevosita soliqning yangi kodeksi normalari asosida undirilishi belgilangan.

Davlat soliqlari va yig‘imlari – bu Soliq kodeksida belgilangan va respublika hududida to‘lashga majburiy hisoblangan to‘lovlardir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Kodeksining 17 moddasiga asosan quyidagi soliqlari belgilangan:

– qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS);

– aksiz solig‘i

– foyda solig‘i;

– jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

– yer qa’ridan fordalanganlik uchun soliq;

– suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

– mol-mulk solig‘i

– yer solig‘i;

– ijtimoiy soliq.

Mahalliy soliqlar – bu qonunchilik va mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlari bilan belgilangan soliqlar bo‘lib, muayyan hudud (tuman, viloyat) da amal qiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Bugungi kunda quyidagi turdagi mahalliy soliqlar undirilishi mumkin:

– mol-mulk solig'i;

– yer solig'i;

– ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

– boshqalar.

2. Soliq mexanizmi

Soliq mexanizmi – davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo'llaniladigan (huquqiy baza asosida) soliqqa tortish jarayonining elementlari va ularni boshqarishning yig'indisini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizmi – bu soliq munosabatlarini tashkil qilish usullari yig'indisi bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishda qulay shart-sharoitlar ta'minlash uchun davlat tomonidan qo'llaniladi.

Soliq mexanizmi moliya mexanizmi tarkibiga kiradi. Soliq mexanizmi deganda soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarni tashkil qilishning barcha elementlari yig'indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obyekti, subyekti, manbai, soliq stavkasi, to'lov muddatlari, soliq huquqi va hujjatlari kiradi. Soliq mexanizmi amaldagi soliqlarni hayotga tatbiq etishni ifoda etilishini ifodalaydi.

Soliq mexanizmidan foydalanish soliq elementlarining yig'indisidan samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqilgan tushunchadir.

Soliq mexanizmi, iqtisodiy kategoriya bo'lgan soliqlardan farqli o'laroq, kishilar ongli faoliyatining natijasi sifatida ustqurmaga tegishli bo'lib, uni amalga oshirish shakli subyektiv xarakterga egadir. Soliq mexanizmi haqida kengroq tushuncha hosil qilish uchun, soliq va soliqqa tortish jarayonining tarkibiy elementlarini eslab o'tish o'rinlidir.

Soliq obyekti, soliq subyekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliqni to'lash muddatlari, soliq bo'yicha imtiyozlar va jarimalar, soliqlarni hisob-kitob qilish va byudjetga o'tkazish tartibi, soliq to'lovchilarning mas'uliyatlari, soliq idoralari tomonidan nazorat olib borish tartibi va boshqalar soliq mexanizmining muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi.

Makrodarajada soliq mexanizmi davlat soliq ma'murchilikgi va uni tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Soliq ma'murchiligi – mamlakatning soliq tizimini samarali boshqarishning kompleks chora-tadbirlari yig'indisidir. Soliq ma'murchiligi soliq qonunchiligini ishlab chiqish va unga rioya etilishi, soliqqa qarshi turli huquqbuzarliklar, jinoyatlarni hamda soliq

CamScanner yordamida skanerlangan

to‘lovchilarning noqonuniy hatti-harakatlarini aniqlashga va bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi. Qo‘yilgan har bir vazifani amalga oshirish soliq tizimining turli hududiy bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliqlar orqali tartibga solish – davlatning iqtisodiyotni tartibga solishning bilvosita usuli bo‘lib, davlat byudjetiga turli soliq va yig‘imlarni qo‘shimcha jalb etish, ayrim soliq to‘lovchilarga imtiyozlar berish yoki soliq to‘lovidan ozod qilish, soliqlarning undiruvchanlik mexanizmini yanada takomillashtirishga qaratilgan faoliyatidir.

Bu juda murakkab mexanizm bo‘lib, nafaqat soliqlar orqali ta’sir ko‘rsatishni, balki kelgusida soliq to‘lovchilarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini ham oshirishga qaratiladi. Bu shuni anglatadiki, soliqlar aynan soliq to‘lovchilarga qaratiladi, uning ijtimoiy yoki iqtisodiy samarasi, fiskal maqsadlari esa muayyan tarmoqdagi noqulay vaziyatni yaxshilash, uni rivojlantirish yoki qo‘llab quvvatlashni ko‘zda tutadi.

Mikrodarajada soliq mexanizmi soliq menejmenti orqali amalga oshiriladi.

Soliq menejmenti:

– soliq to‘lovlari va majburiyatlarini, shuningdek, har qanday soliqqa tortiladigan bazani samarali tartibga solishga qaratilgan boshqaruv tizimidir;

– soliq to‘lovchilar va davlat o‘rtasida davlatning soliqqa tortish mexanizmini yaxshilashga qaratilgan faoliyatidir.

Soliq menejmentining 3 ta asosiy tarkibiy qismi mavjud. Bular:

Soliq logistikasi – soliq to‘lovchilarning zaruriy soliq to‘lovlarini amalga oshirishini ta’minlash maqsadida ularning moliyaviy yoki soliqqa tortiladigan daromadlarini samarali boshqarishga qaratilgan faoliyatdir. Uning asosiy maqsadi soliq to‘lovlarini belgilangan tartibda va miqdorda to‘lanishiga erishish va ushbu maqsadda iqtisodiy jihatdan samarali va maqsadli bo‘lgan soliqqa tortish usullari va stavkalaridan foydalanishdir. Shu bilan birga soliq imtiyozlaridan ham samarali foydalanish, mablag‘larning manzilli undirilishiga erishish lozim.

Soliqlar orqali takomillashtirish – soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish tartibi, sxemasi, miqdori, muddati va shaklini oqilona tashkil qilishga qaratilgan faoliyatdir. Soliqlar orqali takomillashtirish soliq to‘lovlari miqdorini saqlab qolgan holda ularni undirish shakllarini va muddatlarini qayta ko‘rib chiqishga ham yo‘naltirilgan. Buning natijasida soliq to‘lovchilar uchun qulay bo‘lgan soliqqa tortish tizimi yaratiladi va ular o‘zlari uchun eng qulay bo‘lgan shart-sharoit va tartiblarda belgilangan soliqlarni to‘lashi mumkin bo‘ladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliqlarning minimallashuvi – bu soliq to'lovchilarning iqtisodiy holatini yanada barqarorlashtirishga qaratilgan mexanizm bo'lib, iqtisodiyotning tarmoqlari uchun zarur bo'lgan soliq tushumlarini soliq to'lovlarining eng minimal hajmi orqali amalga oshirishga qaratiladi.

3. Soliq munosabatlarining ishtirokchilari

Bugungi kunda soliq munosabatlarining ishtirokchilari quyidagilar:

1) **Davlat soliq xizmati organlari** – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;

2) **bojxona organlari** – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;

3) **moliya organlari** – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlari;

4) **boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.**

Soliq to'lovchilar – zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.

Soliqlar va yig'imlar yig'uvchilari – soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi, soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingan hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishini ta'minlovchi shaxslardir. Mazkur funksiyani O'zbekiston Respublikasida soliq agentlari, banklar amalga oshiradilar. Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilar zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi va farq qilishi mumkin.

Soliq ma'murchiligi organlari soliq sohasida vakolatli organlar bo'lib, O'zbekiston Respublikasida bu organ davlat soliq organlari hisoblanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Fiskal organlar – davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirishda ishtirok etuvchi va byudjet shaklida jamg'aruvchi organdir. O'zbekistonda fiskal funksiyani vakolatli moliya organlari, jumladan g'aznachilik organlari va davlatning byudjetdan tashqari fondlari (masalan, Pensiya fond).

Ta'kidlash joizki, fiskal funksiya va soliq ma'murchiligi funksiyalarini davlat hokimiyatining boshqa organlari ham amalga oshirishlari mumkin.

Soliq munosabatlarining vaqtinchalik ishtirokchilari. Qonunchilikda ko'zda tutilgan muayan sharoitlarda soliq ishtirok- chilari soliq sohasiga oid bilim, malaka va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni ham jalb etishlari mumkin. Bunday shaxslarning ishtiroki albatta cheklangan bo'ladi, shu sababli ularni ma'lum shartlar bo'yicha taklif etish mumkin bo'ladi. bunga masalan mutaxassislar, tarjimonlar, ekspertlarning soliq nazorati va taftishi jarayoniga jalb qilinishi orqali ko'rishimiz mumkin.

4. Davlatning soliq siyosati

Siyosat deganda, davlatning oldindan belgilab, aniqlab qo'ygan chora-tadbirlari yig'indisi tushuniladi. Soliq bo'yicha ishlarni tashkil qilish ham muayyan siyosat tarzida amalga oshiriladi. Soliq siyosati davlatning moliya siyosatini eng muhim, tarkibiy ajralmas qismidir.

Soliq siyosati – davlatning soliq borasidagi farmon, qonun va qarorlarni ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilishdagi chora-tadbirlari, sa'y-harakatlari yig'indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o'z mustaqil soliq siyosatiga ega bo'la oladi.

Soliq siyosatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berish;

– davlatning ilmiy asoslangan soliq siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish va amaldagi soliqqa tortish amaliyoti bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

– soliqqa tortishning asosiy konsepsiyalarini belgilash, davlat soliq ma'murchiligi asoslarini va uning asosiy tamoyillarini belgilab berish va hokazolar.

Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabat- lardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati orqali respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirishga va rivojlanishiga har tomonlama faol ta'sir ko'rsatish mumkin. Soliqlar pul munosabatlari bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning

CamScanner yordamida skanerlangan

tarkibiy qismi ekan, soliq siyosati ham iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

Soliq davlatning moliyaviy manbayi bo'lganligi sababli va yuqori tashkilot bo'lganligi sababli, soliq siyosatini ishlab chiqishning asosiy tashkilotchisi va ijodkori ham davlatdir. Buning uchun davlat o'z qonunidagi butun kuchni, idoralarni jalb qilib uni ishlab chiqadi. Bunday tashkilotlarga Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi va boshqa ilmiy uslubiy tashkilotlar kiradi. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqayotganda mavjud soliqlar mohiyati, ahamiyati, kelib chiqish va rivojlanish tarixi chuqur o'rganiladi. Yangi kiritilayotgan soliqlarning ilmiy asoslanganligi tekshiriladi. Faqat bir soha mutaxassislari taklifini tezda olib, ularga qarab qaror qilishi to'g'ri bo'lmaydi. Chunki har sohaning vakili o'z sohasining vazifalaridan kelib chiqib takliflar qilishi, umumdavlat manfaatlarini to'liq ilgaridan ko'ra olmasligi mumkin. Ma'lum qarorga kelingandan so'ng soliq siyosati loyihasi qaror chiqaruvchi organ tasdig'iga berilsa maqsadga muvofiq, bozor iqtisodiyoti mohiyatiga mos keladi. Tasdiqlangan soliq siyosatining keng jamoatchilikka ommaviy axborotlar orqali ma'lum qilish zarur. Shunday siyosatning ijrosini ham strategik jihatdan, ham taktik jihatdan ta'minlashni yana davlat o'z zimmasiga oladi. Buning uchun o'zining tegishli idoralarini ishga soladi.

Demak, davlat soliq siyosatini tayyorlovchi va uni to'liq hayotga tadbiq qilishning tashkilotchisi va boshqaruvchisidir. Davlatning faol soliq siyosati yuritishi bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tish va uning munosabatlarini rivojlantirishning muhim omilidir. Shunday qilib, soliq siyosati orqali davlat respublika iqtisodiyotini har tomonlama barqarorlashtirish va rivojlantirishga faol ta'sir ko'rsatadi.

Soliq strategiyasi – davlatning keng miqyosdagi va uzoq muddatga mo'ljallangan soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari- dir.

Soliq taktikasi – soliq strategiyasini amalga oshirishning joriy davr uchun belgilangan chora-tadbirlaridan iborat bo'lib, amaliyotda asosan soliq tizimini muntazam ravishda qo'llab-quvvatlash, qonunchilik bazasiga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Miqyosiga ko'ra **ichki** va **tashqi** soliq siyosatini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Soliq siyosatini faollashtirish maqsadida soliqlar harakati chegarasini kengaytirish, ularni chuqur tahlil qilib borish va ilmiy xulosalar asosida yangi soliqlar joriy etish talab etiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

CamScanner yordamida skanerlangan

1. Soliq sohasidagi xato va kamchiliklari takrorlamaslik uchun soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotini puxta o'rganish lozim bo'ladi.

2. Soliqqa tortish va undirish ishlarini arzonga tushirishni unutmaslik kerak.

3. Soliq obyekti aniq, ixcham bo'lishi va soliqni hisoblash uchun to'lovchilarga va soliqni tekshirish idoralariga oson va qulay bo'lishi zarur.

4. Byudjetga soliqlarni to'liq va o'z vaqtida tushishini rag'batlantirish maqsadida byudjetga ko'p salmoqli soliq to'lovchilarga soliqdan ma'lum hissasini qoldirish ham maqsadga muvofiqdir.

Bunday chora-tadbirlar yig'indisi soliqlar orqali bozor iqtisodiyotini boshqarish imkoniyatini kengaytiradi va unga muvaffaqiyatli o'tishga zamin tayyorlaydi.

Hozirgi davr soliq siyosati negizida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning barcha ustuvor tamoyillari ko'zda tutilgan. Soliq siyosati ana shu tamoyillardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda soliq siyosati ikki yo'nalishga qaratilgan.

Birinchi yo'nalish. Korxona va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati. Bu yerda eng avvalo, korxonalarning bozor munosabatlari sharoitidagi erkinligini hisobga olish zarur. Ya'ni ular tovar va xizmatlarga erkin baho begilaydilar, moliyaviy mustaqillikka egadirlar. Shularni hisobga olib soliq siyosati yo'nalishini belgilash lozim bo'ladi.

Ikkinchi yo'nalish. Aholining turli ijtimoiy qatlamlariga nisbatan soliq siyosatida turlicha yondoshish zarurligi. Nochor, kam ta'minlangan oilalarga soliq imtiyozlarini keng joriy qilish, ko'p daromad oluvchi yoki nisbatan yengil daromad oluvchilarga esa progressiv soliq stavkalarini qo'llash maqsadga muvofiq.

5. Zamonaviy sharoitlarda tashqi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari

Har bir mamlakatda soliq yuridiksiyasini kengaytirish va uni muhofaza etish, shuningdek, tovar, xizmat va kapitalni eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari berish bilan bog'liq tadbirlarning umumiy yig'indisi mamlakatning **tashqi soliq siyosati** deyiladi. Ushbu siyosatning qaysi tomonga yo'nalishi muayyan vaziyatdan kelib chiqadi. U byudjet daromadlarini oshirish nuqtai nazaridan yoki eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadidan kelib chiqishi mumkin. Ammo, shu narsani yoddan chiqarmaslik lozimki, bu sohada manyovrlashtirish imkoniyatlari ancha chegaralangan: yuqorida aytilganidek, hech bir

CamScanner yordamida skanerlangan

mamlakat o'z fuqarolari yoki kapitali uchun boshqa mamlakatdan, mahalliy aholiga qo'llanilayotgan soliqqa tortishga nisbatan imtiyozliroq bo'lgan tartibni talab qilishga haqli emas. Xuddi shuningdek, hech bir mamlakat o'z hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy fuqaro va shaxslarga, soliq yukini mahalliy aholidan keskin farq qiluvchi nisbatlarda oshirishga haqli emas. Bunday holatning yuz berishi, mazkur mamlakatning xorijiy bozorlaridagi faoliyatiga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ikkita konsepsiya mavjud.

"Soliqlar asosida uyg'unlashuv" konsepsiyasi milliy soliq tizimlarini tenglashtirish va soliq yukini birxillashtirishga qaratilgan. Mazkur siyosat "ofshor hudud"larga qarshi kurashishga qaratilgan bo'lib, barcha kompaniyalar uchun ham soliq yukini pasaytirishni ko'zda tutadi.

"Soliqlar orqali raqobatlashuv" konsepsiyasi shundan iboratki, ikkita mamlakat resurslar bilan ta'minlanganligi bo'yicha teng emas, shuningdek, ularning aholisi, iqtisodiy rivojlanish darajasi ham farq qiladi. Demak, ularning soliq tizimi ham bir xil bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari mamlakatlar o'rtasida xorijiy investitsiya, arzon ishchi kuchi va kapitalni jalb qilish bo'yicha raqobatlashuv kuchayib borayotgan bir paytda, raqobatning samarali mexanizmlaridan biri soliq imtiyozlari bo'lib qolmoqda. Bunda soliqqa tortishning jozibador stavkalari arzon ishchi kuchi va xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi. Shu munosabat bilan raqobatlashuvning zamonaviy va madaniy usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy tizimlar integrasiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi xorijiy mamlakatlar soliq tizimlarini o'zaro ta'siriga olib keldi. Lekin turli malakatlarda soliqqa tortishni u yoki bu masala- lariga bo'lgan yondashuvlarni bir biriga mos kelmasligi nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish ana shunday masalalardan biridir.

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ko'p mamlakatda bir soliq to'lovchining faoliyati bir xil yoki shunga o'xshash soliq turi bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortish ifodalanadi.

Ikki tomonlama soliqqa tortishni belgilovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- soliqqa tortish obyektining o'xshashligi;
- soliqqa tortish subyektlarining o'xshashligi;
- soliq to'lash muddatining o'xshashligi;

CamScanner yordamida skanerlangan

- soliq to'lovining bir xilligi va boshq.

Aksariyat mamlakatlar qonunlarida xorijiy shaxslar va kompaniyalarni soliqqa tortishning faqatgina umumiy tomonlari belgilab beriladi va ular keyinchalik hukumat ko'rsatmalarida, sud qarorlarida, ma'lum milliy odatlarda va boshqalarda aniqlashtiriladi.

Har bir mamlakat uchun xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solinishida quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi:

• bir yoqlama chora-tadbirlar yoki milliy soliq siyosatining chora-tadbirlari bo'lib, boshqa mamlakatlar hukumatlari bilan hech qanaqa kelishuvlarsiz amalga oshiriladi (mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijliklar va mamlakatning xorijda faoliyat yuritayot- gan fuqaro va korxonalariga nisbatan soliq tartibining belgilanishi);

• shartnomaviy chora-tadbirlar, ikkinchi tomon bilan yoki ikki tomonlama, yoki ko'p tomonlama asosda (Xalqaro kelishuv), yoki «soliqlarning garmonlashuvi» deb nomlanadigan kelishuvlar doirasida (ya'ni, ikki yoki undan ortiq shartlashayotgan mamlakat- larning milliy soliq siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida)gi chora-tadbirlar.

Hozirgi kunda, amalda yuzdan ortiq soliq kelishuvlari mavjud. Bundan tashqari, u yoki bu darajada mamlakatlar o'rtasidagi soliq munosabatlariga taalluqli bo'lgan turli xil xalqaro kelishuvlar ham mavjud.

Umuman, soliq kelishuvlari bir necha ko'rinishga ega:

– ma'muriy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuv;

– "chegaralangan" soliq kelishuvlari;

– umumiy soliq kelishuvlari;

– hadya va merosdan olinadigan soliqlar bo'yicha kelishuv;

– ijtimoiy sug'urta to'lovlari bo'yicha soliq kelishuvlari va boshqalar.

Hozirda ushbu kelishuvlarning barchasi ko'pchilik vaziyatlarda yangi kelishuv shakli bo'lgan - «Umumiy soliq kelishuvi» bilan almashtirilmoqda (ushbu soliq kelishuvi to'liqligicha «Ikki yoqlama soliqqa tortishni bekor qilish hamda daromad va kapitalni soliqqa tortish sohasidagi chetga chiqishlarga qarshi kurash bo'yicha kelishuv» deb nomlanadi va asosan, birinchi Jahon urushidan so'ng, keng qo'llanila boshlangan).

Birlashgan millatlar tashkiloti u yoki bu xalqaro dasturlar asosida bozor islohotlarini amalga oshirayotgan davlatlarga ma'lum bir loyihalarni ishlab chiqish va joriy etishda yordam berish hamda hamkorlik qilishni amalga oshiradi. Bunday hamkorlik yo'nalishlari- dan

CamScanner yordamida skanerlangan

biri – zamonaviy xalqaro iqtisodiy talablarga javob beradigan milliy soliq tizimining yuzaga kelishiga, shakllanishi va rivojlanishiga yordam berishdir. Soliq qonunchiligining asosiy maqsadi islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlarga ilmiy asosda Soliq munosabatlarini boshqarish, yagona terminologiya va yagona mazmundagi izohni yaratish imkoniyatlarini taqdim etishdir.

Soliq qonunchiligi namuna sifatida bo'lishiga qaramasdan, unda soliq to'lovlarining aniq stavkalari, uning minimumlari va imtiyozlar berilgandir.

Kodeks matni va unda berilgan stavkalar qonunchilikdan foydalanishni xohlovchi davlatlar uchun majburiy emas, balki tavsiyaviy tusga ega.

Milliy soliq qonunchiligi tayyorlanayotganda ushbu davlat mutaxassislari tomonidan mamlakatdagi aniq iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar inobatga olinishi kerak.

Kodeksda berilgan nizom alohida ahamiyatga egadir. Bu nizomga ko'ra, soliq tizimi orqali iqtisodiy subsidiyalar berish to'g'ri subsidiya to'lovlariga nisbatan kam samaralidir. Imtiyoz turlari va yengilliklarning ko'pligi, soliq imtiyozlarini nazorat qilishning qiyinligi sababli, soliq tizimini murakkablashtiradi va samaradorligini tushiradi, uning zarur bo'lgan egiluvchanlik xususiyatlarini yo'qotadi. Bundan kelib chiqadiki, kodeksda soliqlardan vaqtinchalik yoki doimiy ozod etish kabi imtiyozlar ko'zda tutilmaydi. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan holda, Kodeks mualliflari fikricha, ushbu davlatlar daromadlari asosiy qismi bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar hamda korxona va tashkilotlar foydasiga soliq hisobiga shakllanadi. Bunday soliq tizimi ular fikricha, soliqlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xarajatlar jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa nisbatan kam bo'ladi.

Tavsiya etilayotgan qonunchilikdagi soliqlar tizimiga faqatgina yuqori daromadlarga ega bo'lgan aholi qismiga qo'llaniladigan jismoniy shaxslardan olinadigan individual daromad solig'i ham kiritilgandir. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda asosan rivojlanayotgan va sobiq ittifoq davlatlarda individual daromad solig'ini rivojlangan davlatlardagi kabi keng miqyosda qo'llash uchun yetarli darajadagi ma'muriy va huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi bilan izohlanadi. Individual daromad solig'i soliq tushumlari maqsadida emas, balki tenglik hissini qaror toptirish maqsadida joriy etiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq qonunchiligi soliq qonunlarini tayyorlash va qabul qilishga qaratilgan soliq islohotining dastlabki bosqichi bo'ldi. Adolatli va yuqori salohiyatli soliq xizmatining mavjudligi soliq islohotidagi muvaffaqiyatlarning zaruriy sharti hisoblanadi.

Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etishning asosiy mexanizmlaridan biri ikki tomonlama soliq kelishuvlaridir. Soliq kelishuvlarining asosiy maqsadi – hamkor mamlakatlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikki yoqlama soliqqa tortishning barcha ko'rinishlariga barham berishdan iborat. Ushbu kelishuvlar ma'lum qoida va tadbirlar ketma-ketligini qat'iy tartibda amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Soliq kelishuvlari ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berishning uch pog'onali tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Birinchi bosqichda, hamkor mamlakatlarda **"rezident" va "daromad manbasi"** qoidalaridan kelib chiqadigan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Ushbu maqsadlarda kelishuvda ikki yoqlama rezidentlik va "moddiy" moddalar bo'yicha tortishuvlarni yechishga qaratilgan qismlar mavjud bo'lib, ular tomonlardan biriga daromadlarning aniq turlari bo'yicha ma'lum soliqqa tortishda mutloq huquq beradi.

Ikkinchi bosqichda, "rezident" va "daromad manbasi" moddalar bo'yicha barcha munozaralar hal etilgandan so'ng, qolgan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Bunday barham berish har bir mamlakatning ichki me'yorlari asosida ta'minlanadi. Yangi soliq kelishuvida esa, ushbu me'yorlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi ko'rib chiqiladi. Oxirgi holatda, ikki yoqlama soliqqa barham berish bo'yicha yangi tartib, kelishuv asosida joriy etilishi mumkin.

Odatda, "ozod qilish" yoki "soliq krediti" usuli qo'llaniladi. Soliq kelishuvi tuzilayotgan paytda tomonlar ushbu ikki usuldan birini tanlashi, yoki ularni har ikkalasidan ham zaruriy paytlarda foydalanishi mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, soliq kelishuvlarida "soliq krediti" usulidan ko'proq foydalaniladi.

Uchinchi bosqichda, hamkor mamlakatlarda soliqqa tortiladigan daromadlarni turlicha aniqlash sababli kelib chiqadigan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Bunday ikki yoqlama soliqqa tortish, odatda, soliq organlarining o'z vakolatlari doirasida soliqlarni undirish uchun soliq to'lovchilar daromadlarini qayta taqsimlash bo'yicha harakatlaridan kelib chiqadi. Aksariyat mamlakatlarda soliq organlariga bunday huquq ichki qonunchilikda ko'zda tutilgan bo'lib, tadbirkorlik daromadlari, foiz va royalti to'g'risidagi kelishuv moddalari bilan

CamScanner yordamida skanerlangan

tasdiqlanadi. Masalan, 1977- yilda qabul qilingan konvensiyaning tadbirkorlik daromadlari to'g'risidagi moddalariga binoan, "doimiy faoliyat yurituvchi tashkilot"ning foydasi soliq ma'muriyati tomonidan xuddi shunday faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi korxona, tashkilotning foydasi kabi hisob-kitob qilinishi mumkin. Foiz va royalti haqidagi moddada esa, kreditor va qarzdor o'rtasidagi alohida kelishuvlar natijasida kelib chiqadigan o'zgarishlarga barham berish to'g'risida so'z boradi. O'z-o'zidan ma'lumki, agar biror mamlakat mahalliy korxonalarga nisbatan soliqqa tortiladigan daromadni yoki biror shaxsni, xorijiy shaxs foydasiga o'tkazgan va xarajat sifatida aks ettirilgan so'mmasini tiklasa, unda ushbu so'mmani oluvchi xorijiy shaxs daromadlari bo'yicha kerakli o'zgarishlarni amalga oshiriladi. Aks holda, birinchi mamlakat soliq organlarining bunday kvalifikasiyani inobatga olmasligiga qaramasdan, xorijiy shaxs tomonidan olingan ushbu so'mma, xorijiy shaxsning daromadi sifatida qaytadan soliqqa tortilishi mumkin. Soliq kelishuvlari mavjud bo'lmagan sharoitda, birinchi mamlakatning soliq organlari, soliq to'lovchining bunday daromadlari, ikkinchi davlat hukumati tomonidan daromad sifatida tan olinmaydi va ushbu daromadlarni soliqqa tortish bazasidan chiqarish zarurligi bo'yicha iltimos- nomasini ko'pchilik hollarda qondirmaydi.

Soliq kelishuvlari, ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berish amaliyotidan tashqari, soliq to'lashdan chetga chiqish holatlariga qarshi kurashni ham ko'zda tutadi. Ushbu sohada soliq kelishuvlari orqali soliq organlari hamkorligining asosi va tartibi belgilab olinadi. Shuning uchun ham, soliq kelishuvlarida daromadlarni yashirishga qarshi, chet elga daromadni yashirin tarzda o'tkazishga qarshi soliq organlarining birgalikdagi kurashi bo'yicha **bir qator yo'riqnomalar** kiritiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, boshqa asosiy masalalar bilan birga, soliqqa doir masalalarni ham o'z ichida ko'rib o'tadigan bir-qancha **Xalqaro kelishuvlar** mavjud.

Birinchidan, ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosini tashkil etuvchi keng tarqalgan kelishuvlar. Ushbu kelishuvlarda qoidaga binoan, soliqlar bo'yicha diskriminatsiya qilmaslik, ya'ni boshqa mamlakatning fuqaro va kompaniyalariga xuddi mahalliy fuqaro va kompaniyalar uchun joriy qilingan soliq tartibini joriy qilish to'g'risidagi yo'riqnomalar aks etadi. Ammo, shu narsa qayd etiladiki, har bir mamlakat o'z fuqarolariga va kompaniyalariga beradigan soliq imtiyozlarini boshqa mamlakat fuqarolariga va kompaniyalariga berishga majbur emaslar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ikkinchidan, diplomatik va konsullik munosabatlarini o'rnatish bo'yicha kelishuvlar. Ushbu kelishuvlarda tomonlar diplomatik va konsullik idoralari hamda ularda faoliyat yuritayotgan shaxslarga beriladigan soliq imtiyozlarini o'zaro kelishadilar. Imtiyozlar hajmi, odatda, ushbu shaxslarning boshqa mamlakat hududida bo'lish maqsadlari va faoliyat doiralari bilan chegaralanadi. Mazkur imtiyozlar ro'yxati Vena konvensiyalarida ham o'z aksini topgan. Aksariyat mamlakatlari ushbu konvensiyaga a'zo. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi ikki xil kelishuvlarda ko'zda tutiladigan kelishuvlar, u yoki bu ko'rinishda, umumiy soliq kelishuvlarida ham inobatga olinadi.

Uchinchidan, hamkor mamlakatdan olib kiriladigan tovar va xizmatlarga maksimal darajadagi qulay soliq muhitini yaratishga yo'naltiriladigan tartibni qo'llash bo'yicha, tomonlar o'rtasida tuziladigan savdo kelishuvi va shartnomalari. Soliqlar bo'yicha ta'sir etishga ko'ra, ushbu kelishuvlar, ko'pchilik holatlarda faqatgina boj to'lovlari bo'yicha keng tarqaladi. Ammo, ba'zi hollarda, ushbu kelishuvlar umumiy soliqlarga ham taalluqli bo'lishi mumkin hamda tashqi savdo faoliyatining boshqa me'yorlarini (valyuta bo'yicha, bank operatsiyalari bo'yicha va boshqalarini) ham qamrab olishi mumkin.

Davlatlar o'rtasida soliq munosabatlarini to'g'ri tashkil qilish, tashqi iqtisodiy munosabatlardagi faoliyatlarni samarali yo'lga qo'yish jarayonida ayrim muammolarga duch kelamiz. Bu muammolardan biri davlatlar o'rtasida soliqqa tortish huquqini haqqoniy ravishda taqsimlash muammosidir. Ikkinchi asosiy muammolardan biri esa dunyoning aksariyat davlatlarida soliq to'lashdan bo'yin tovlashning aniq chora-tadbirlarini ishlab chiqish muammosi turibdi. Bundan tashqari soliq masalalariga oid xalqaro nizo va kelishmovchiliklarni hal etishni eng maqbul yo'llarini yaratish va qo'llash muammosi hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliq siyosatining subyektlari kimlar?
2. Soliq siyosati davlat daromadlarida roli qanday?
3. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki yillarida qanday soliq siyosati yuritilgan edi?
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi necha pog'onali?
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Kodeksi nechta soliq ko'rsatilgan?

CamScanner yordamida skanerlangan

6. Mahalliy soliqlarni aytib bering?
7. Soliq menejmenti nima?
8. Soliq menejmentining nechta asosiy tarkibiy qism iborat?
9. Soliq logistikasi deganda nimani tushunasiz?
10. Soliq siyosati nima uchun kerak?
11. Soliq strategiyasi nima?
12. Soliq taktikasi nima?
13. Miqyosiga ko'ra soliq siyosatini nimalarga ajtaratamiz?
14. Mamlakatning tashqi soliq siyosati deb nimaga aytiladi?
15. Xalqaro kelishuvlar deganda nimani tushunasiz?

CamScanner yordamida skanerlangan

20-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN TO'LAYDIGAN SOLIQLAR VA YIG'IMLAR

Reja:

1. Yuridik shaxs va ulardan undiriladigan soliqlar, yig'imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to'lovlar.
2.Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi tutgan o'rni.
3. Korxonalarning daromadlari va xarajatlari.
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i.

Kalit so'zlar: Balans, smeta, majburiyat, tashkilot, asosiy va aylanma aktivlar, umumdavlat soliqlar, mahalliy soliqlar, yagona soliq to'lovi va soliq tizimi.

1.Yuridik shaxs va ulardan undiriladigan soliqlar, yig'imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to'lovlar

Yuridik shaxs deb quyidagilar e'tirof etiladi:

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot;

Chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'lgan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilot.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e'tirof etiladi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (notijorat tashkiloti) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Investitsiya fondining (pay fondining yoki jamoaviy investitsiyalarn amalga oshirish boshqa shaklining) boshqaruvchi kompaniyasin O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etish ushbu investitsiya fondini (pay fondinin yoki jamoaviy investitsiyalarni amalg

CamScanner yordamida skanerlangan

20-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN TO‘LAYDIGAN SOLIQLAR VA YIG‘IMLAR

Reja:

1. Yuridik shaxs va ulardan undiriladigan soliqlar, yig‘imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to‘lovlar.
2.Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi tutgan o‘rni.
3. Korxonalarning daromadlari va xarajatlari.
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i.

Kalit so‘zlar: Balans, smeta, majburiyat, tashkilot, asosiy va aylanma aktivlar, umumdavlat soliqlar, mahalliy soliqlar, yagona soliq to‘lovi va soliq tizimi.

1.Yuridik shaxs va ulardan undiriladigan soliqlar, yig‘imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to‘lovlar

Yuridik shaxs deb quyidagilar e’tirof etiladi:

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo‘lgan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot;

Chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatiga ega bo‘lgan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilot.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

Foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (notijorat tashkiloti) yuridik shaxs bo‘lishi mumkin.

Investitsiya fondining (pay fondining yoki jamoaviy investitsiyalarni amalga oshirish boshqa shaklining) boshqaruvchi kompaniyasini O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etish ushbu investitsiya fondini (pay fondinin yoki jamoaviy investitsiyalarni amalga

CamScanner yordamida skanerlangan

oshirishning boshqa shaklini) O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etish uchun asos bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo'lmagan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasining norezidentlari deb e'tirof etiladi.

Chet el yuridik shaxsi O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e'tirof etiladigan yuridik va jismoniy shaxslar chet el yuridik shaxsni nazorat qiluvchi shaxslar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasani tashkil etishga olib keluvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxsi Soliq kodeksning 130-moddasida belgilangan tartibda soliq organida soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tishi shart.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Tijoratchi bo'lmagan tashkilot o'zining ustavda belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Yuridik shaxsning huquq, layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi.

Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yuridik shaxs qonunda ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishi mumkin.

Yuridik shaxsning huquqlari qonunda nazar tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Yuridik shaxsning huquqlarini cheklash haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Yuridik shaxs o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradigan nomiga ega bo'ladi. Notijorate tashkilotlar, unitar korxonalarning nomlari, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa - boshqa tijoratchi tashkilotlarning

CamScanner yordamida skanerlangan

ham nomlari yuridik shaxs faoliyatining xususiyatini ko'rsatishi kerak. Yuridik shaxsning nomiga to'la yoki qisqartirilgan rasmiy nomni (davlatning nomini) kiritishga, yuridik shaxs hujjatlarining rekvizitlariga yoki reklama materiallariga ana shunday nomni yoxud davlat ramzlari elementlarini qo'shishga O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan tartibda yo'l qo'yiladi.

Yuridik shaxsning joylashgan yeri, agar qonunga muvofiq yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bilan belgilanadi. Yuridik shaxs o'zi bilan bo'ladigan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga ega bo'lishi lozim hamda o'zining pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida vakolatli davlat organlarini xabardor etishi shart. Yuridik shaxsning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili) uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs o'z firma nomiga ega bo'lishi lozim. Yuridik shaxs o'z firmasining nomidan mutloq foydalanish huquqiga egadir.

Yuridik shaxslarni davlat byudjeti bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarini tashkil qilishda soliqlar alohida o'ringa egadir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar vositasida yuridik shaxslarning daromadlari davlatning markazlashtirilgan pul fondlariga mobilizatsiya qilinadi.

Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda bajariladi.

Soliq solinadigan mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassasasi bo'lgan soliq to'lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassasasi tomonidan yuklatilgan bo'lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarning aksariyati yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va majburiy to'lovlarni tashkil etadi. Buni quyida ko'rishimiz mumkin.

- qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);
- aksiz solig'i
- foyda solig'i;
- yer qa'ridan fordalanganlik uchun soliq;

CamScanner yordamida skanerlangan

– suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
– mol mulk solig'i
– yer solig'i;
– ijtimoiy soliq.

Soliq tizimida mavjud bilvosita va bevosita soliqlarning aksariyati yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar hisoblanadi. Shuningdek, Respublika byudjeti daromadlarini tashkil qiluvchi soliqlar bilan birga mahalliy byudjetlarning daromad manbai hisoblanuvchi soliqlarning asosiy qismi yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni tashkil qiladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslar (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari va yagona yer solig'ini to'lashga o'tgan qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari) bundan mustasno.

2.Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi tutgan o'rni

Ma'lumki, soliqlar o'ziga xos ravishdagi fiskal funksiyani bajaradi va davlat byudjeti daromadining asosiy manbai hisoblanadi.

Soliq tizimidagi mavjud soliqlar va xususan, yuqori darajadagi fiskal ahamiyat kasb etuvchi soliqlar yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar hisoblanadi.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy salmoqqa ega bo'layotgan bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz soliq va yuridik shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlari hisoblanadi. Bevosita soliqlarning tarkibidagi foyda soliq hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar qatorida yer solig'i, mol-mulk solig'i mavjud bo'lib, ular mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai hisoblanadi. Bu o'z navbatida yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatining yuqoriligidan dalolat beradi.

Umuman, xulosa sifatida aytiladigan bo'linsa, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar soliq tizimida yetakchi mavqeyga ega bo'lib, davlat byudjeti daromadlarini asosiy salmog'ini tashkil qiladi.

3. Korxonalarning daromadlari va xarajatlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat asosida faoliyat yurituvchi har qanday xo'jalik subyektlari moliyaviy iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi bosh omillaridan biri ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasi,

CamScanner yordamida skanerlangan

ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar bo‘yicha olingan pul tushumlari hisoblanadi.

Jami daromad yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlardan iboratdir.

Jami daromad, agar Soliq kodeksning 43 bobiga asosan boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qo‘shilgan qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini inobatga olmagan holda aniqlanadi.

Ushbu bo‘lim maqsadida jami daromadga (bundan buyon ushbu bo‘limda daromad deb yuritiladi) har qanday shaklda va (yoki) har qanday faoliyatdan olinishi lozim bo‘lgan daromadlar (bundan buyon matnda olingan daromadlar deb yuritiladi), xususan, quyidagi daromadlar kiradi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;

2) kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo‘yicha mukofot tarzidagi daromad;

3) sug‘urta, qayta sug‘urta tashkilotining sug‘urta, qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha daromadi;

4) REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad;

5) qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha Soliqning 327 -329 - moddalariga muvofiq olingan daromad;

6) asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning Soliq kodeksning 298-moddasiga muvofiq chiqib ketishidan olingan daromad;

7) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo‘yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;

8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

9) royalti;

10) Soliq kodeksning 299-moddasiga muvofiq tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar);

11) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zahiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;

12) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad, bundan Soliq kodeksning 317-moddasiga muvofiq ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar mustasno;

CamScanner yordamida skanerlangan

13) Soliq kodeksning 300-moddasiga muvofiq talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromad;

14) Soliq kodeksning 301-moddasiga muvofiq ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromad;

15) Soliq kodeksning 302-moddasiga muvofiq xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromad;

16) Soliq kodeksning 319-moddasiga muvofiq birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;

17) qarzdor tomonidan e'tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek, zararlarning (ziyonning) o'rnini qoplash summalari;

18) Soliq kodeksning 320-moddasiga muvofiq kursdagi ijobiy farq;

19) dividendlar va foizlar;

20) ishonchli boshqaruv muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromad;

21) shakllantirilish xarajatlari Soliq kodeksning 44 va 45-boblarida belgilangan tartibda va shartlarda xarajatlar tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zahiralar summalari;

22) aksiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga o'z ulushining (ulushi bir qismining) qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromad;

23) korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingan daromad;

24) Soliq kodeksning VI bo'limida belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatishlar kiritish tufayli olingan daromad;

25) Soliq kodeksning VII bo'limida belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

26) alohida hisobi mavjud bo'lmagan va (yoki) ulardan maqsadli foydalanilmagan maqsadli mablag'lar tarzidagi daromad (bundan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladigan budjet mablag'lari mustasno);

27) ushbu qismning 1-26-bandlarida ko'rsatilmagan boshqa daromadlar.

CamScanner yordamida skanerlangan

294-moddasi birinchi qismining birinchi bandida (O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar (bundan buyon ushbu bo‘limda yuridik shaxslar deb yuritiladi) ko‘rsatilgan yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda ushbu shaxslarning jami daromadidan daromad olish bilan bog‘liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi, bundan ushbu bo‘limga ko‘ra chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno.

Soliq to‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko‘rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari (Soliq kodeksning 333-336-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa zararlar) xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Asoslangan xarajatlar deganda bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar tushuniladi.

Har qanday chiqimlar, basharti ular hech bo‘lmaganda quyidagi shartlardan biriga muvofiq kelgan taqdirda, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar deb e’tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida qilingan bo‘lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlab turish yoki rivojlantirish uchun zarur bo‘lsa yoxud xizmat qilsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan aloqasi aniq asoslangan bo‘lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar deganda quyidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlar tushuniladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

2) tegishli xarajatlar amalga oshirilgan chet davlat hududida qo‘llaniladigan tartibga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

3) boshqa shaklda rasmiylashtirilgan, shu jumladan, xizmat safari to‘g‘risidagi buyruq, yo‘l hujjatlari, shartnomaga muvofiq ko‘rsatilgan xizmat haqidagi hisobot bilan rasmiylashtirilgan hujjatlar.

Soliq kodeksning 37-bobiga muvofiq, jumladan, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni sotib olish va hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi, shu xarajat sifatida e’tirof etilmaydi, bundan Soliq kodeksning 314-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Korxonalarning asosiy va aylanma aktivlari.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida asosiy kapital aylanma mablag‘lardan farqli o‘laroq o‘zining qiymatini asta-sekinlik

CamScanner yordamida skanerlangan

bilan bir necha takror ishlab chiqarish jarayonida amortizasiya fondi shaklida tiklab boradi. Asosiy vositalar takror ishlab chiqarish bosqichlarida kapital qo'yilmalar orqali doiraviy ravishda shakllanib boradi.

- Asosiy fondlarning doiraviy aylanishi.
- Asosiy vositalar
- Balans bo'yicha asosiy fondlarning birlamchi qiymati
- Asosiy fondlarning qoldiq qiymati
- Kapital qo'yilmalar
- Asosiy fondlarning eskirishi
- Amortizasiya ajratmalari
- Ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi

Moliyalashtirish manbalari:

- Foyda va korxonaning boshqa moliyaviy resurslari;
- Aksionerlik kapitali;
- Uzoq muddatli kreditlar;
- Byudjet va BTF mablag'lari.

Amortizatsiya ajratmalari asosiy fondlarning me'yordagi xizmat muddatlari mobaynida ajratiladi.

Amortizatsiya – asosiy vositaning foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya qiymatini muntazam ravishda taqsimlash va ko'chirish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning hissadorlik jamiyatlarining meyordagidek iqtisodiy faoliyati uchun aylanma mablag'lar talab qilinadi.

Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda joriy aktivlarga investitsiya qilingan mablag'larni "Aylanma mablag'lar" atamasidan tashqari "aylanma kapital", "aylanma aktivlar" yoki «joriy aktivlar" kabi iboralar qo'llanilib, asosan iqtisodiy nazariya va xo'jalik yuritishning xorijiy tajribasidan olinadi. Mohiyatiga ko'ra, aylanma aktivlar korxona ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo'lib, uning qiymati ishlab chiqarishning har bir siklida ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkaziladi hamda ushbu tovarni sotgandan so'ng korxonaga qaytariladi. Aylanma kapital ko'pincha korxonaning pul mablag'lari hisoblanuvchi yoki ishlab chiqarish jarayonida pul mablag'lariga aylantiriluvchi harakatchan aktivlari qatoriga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida 2018-yil 27-avgustda 21-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-son BHMS)da aylanma aktivlar «joriy aktivlar deb e'tirof etiladi".

CamScanner yordamida skanerlangan

Amortizatsiya	Eskirish
Amortizatsiya - asosiy vositaning foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya qiymatini muntazam ravishda taqsimlash va ko'chirish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasidir.	Eskirish asosiy vositalardan foydalanish vaqtida ularning texnik ishlab chiqarish xossalarini asta-sekinlik bilan yo'kotishi jarayonidir.
Amortizatsiya hisoblash asosiy vositaning eskirishini hisobga olgan holda qiymatini mahsulot tannarxiga o'tkazilishi hisoblanadi. Amortizatsiya ishlab chiqarish jarayonida is'temol qilingan asosiy vositalar qiymatini shakllantirish maqsadida pul fondini shakllantirish jarayonidir.	Eskirish ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalardan foydalanish xususiyatlariga bog'liq.
Umumiy xulosa qilib aytganda eskirish amortizatsiyaning dastlabki shart sharoitidir.	

Iqtisodiy tabiati, bajaruvchi vazifalari va ishlab chiqarish jarayonidagi o'rniga ko'ra, "aylanma mablag'lar" va "aylanma aktivlar" o'rtasida sezilarli farq yo'q. Korxona doimiy kapitalining tarkibiy qismi sifatida ular xom ashyo, yoqilg'i, energiya resurslari, yordamchi va boshqa materiallarda yuzaga keladi, shuningdek, ishchi kuchlarini yo'llash va ularning mehnatiga haq to'lashga bo'nak (avans) tariqasida beriladi. Aylanma mablag'larga bo'lgan qo'shimcha talab banklardan olinadigan kreditlar hisobiga qoplanadi.

"Joriy aktivlar" tovar-moddiy zahiralar, kelgusi davrlar xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar so'mmalaridan iboratdir. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida 2018-yil 27-avgustda 21-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-son BHMS) "Tovar-moddiy zahiralar"ga muvofiq tovar-moddiy zahiralarga quyidagi alohida oshkor qilinadiganlar kiritiladi:

a) ishlab chiqarish jarayonida yoki ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishda foydalanish uchun mo'ljallangan xom ashyo, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i,

CamScanner yordamida skanerlangan

idish, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, boshqa materiallar zahiralarini, parvarish qilinayotgan va bo'rdoqiga boqiladigan hayvonlar, materiallarni tayyorlash va xarid qilish bo'yicha xarajatlar, materiallar qiymatidagi tafovutlarni o'z ichiga oladigan ishlab chiqarish zahiralari;

b) tugallanmagan asosiy ishlab chiqarish, xususiy ishlab chiqarishdagi yarim tayyor mahsulotlar, tugallanmagan yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlar, ishlab chiqarishdagi brakni o'z ichiga oladigan tugallanmagan ishlab chiqarish;

d) tayyor mahsulot;

e) tovarlar.

2. Debitorlik qarzlari. Debitorlik qarzlari bo'yicha xaridor va buyurtmachilarning qarzlari, alohida bo'linmalar qarzlari, sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari qarzlari, xodimlarga berilgan bo'naklar, yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari, davlat maqsadli jamg'armalariga va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, ustav sarmoyasiga qo'yilmalar bo'yicha ta'sischilarning bo'nak to'lovlari, boshqa operatsiyalar bo'yicha xodimlar qarzlari hamda boshqa debitorlar qarzlari so'mmalari hisoblanadi.

3. Pul mablag'lari bo'yicha kassadagi naqd pul mablag'lari qoldig'i, hisob-kitob raqamidagi pul mablag'lari, valyuta hisobraqamidagi pul mablag'lari va boshqa pul mablag'lari (bankdagi maxsus hisobraqamlar, pul ekvivalentlari, yo'ldagi (o'tkaziladigan) pul mablag'lari) summalari oshkor qilinishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalarning aylanma mablag'larga yetarli tarzda ega bo'lishi ularning normal faoliyat yuritishi garovi hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik zarurki, ishlab chiqarayotgan mahsulot birligiga sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg'i va energiya miqdori mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik kam bo'lsa, mahsulot shunchalik arzonlashadi hamda aylanma mablag'lar kamroq sarflanib, ulardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi.

Kapitalning aylanishi 3 asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

– tayyorlash(sotib olish),
– ishlab chiqarish
– sotish.

P-T-i/ch-T-P

Birinchi bosqichda aylanma mablag'lar pul shaklidan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish zahiralariga aylanadi, ya'ni pul - tovar (D-T).

CamScanner yordamida skanerlangan

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarish, yani mahsulotni tayyorlash jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda aylanma mablag‘lar va birinchi o‘rinda aylanma ishlab chiqarish fondlari, tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar holiga keltirilib, tovar shaklini oladi (T).

Uchinchi bosqichda aylanma mablag‘lar tovar mahsuloti shaklida muomalaga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi (T-P).

Shu tariqa aylanma mablag‘lar barcha bosqichlardan o‘tib, to‘liq aylanishni amalga oshirishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin:

1-bosqich - pul-tovar (P-T);

2-bosqich - ishlab chiqarish (I.Ch);

3-bosqich - tovar-pul (T-P).

Korxonalarning aylanma mablag‘lari aylanma fondlari va muomala fondlariga taqsimlanadi. Bunday taqsimlash ularning moddiy-buyumlashgan tuzilishidan tashqari, ishlab chiqarish jarayoni va umuman, korxonaning iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, taqsimlash rejalashtirishni tashkil qilishda hamda korxonaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini aniqlashda katta rol o‘ynaydi.

Ishlab chiqarishda band bo‘lgan aylanma mablag‘lar kattaligini belgilovchi asosiy omillar bu, mahsulot tayyorlashning ishlab chiqarish sikli uzunligi, mehnatni tashkil qilish, texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasi, mehnat predmetlari va qurollaridan foydalanish normalarıdir. Aylanma mablag‘lar kattaligi, shuningdek, mahsulotlarni sotish sharoitlari, ta’minot va mahsulotni sotish tizimini tashkil qilish darajasi bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, aylanma mablag‘lardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

– xom ashyo, material, ehtiyot qismlar hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishda zarur bo‘lgan boshqa mehnat predmetlari;

– ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinuvchi elektr energiyasi, yoqilg‘i kabi resurslar uchun haq to‘lash;

– korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish davrida oylik ish haqi to‘lanishi;

– soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash.

Bozor munosabatlari va deyarli barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida aylanma mablag‘lar, birinchi o‘rinda moddiy resurslardan ratsional foydalanish va ularni shakllantirish zahiralarini izlab topish har bir korxona oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunda zahira deganda, moddiy va pul resurslarini yaxshilashning yuzaga kelgan yoki

CamScanner yordamida skanerlangan

yuzaga kelayotgan, lekin hali foydalanilmagan (to'liq yoki qisman) imkoniyatlarini tushunish lozim.

Demak, umumlashtrilgan holda xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, aylanma aktivlar korxonaning aktivlarga investitsiya qilingan mablag'larining joriy aktivlarga investitsiya qilingan qismini o'zida aks ettiradi. Ular korxonalarning meyordagidek faoliyati uchun zarur bo'lib, ishlab chiqarish va muomala fondlarini tashkil etadi.

Aylanma aktivlar o'zlarining iqtisodiy tavsifiga ko'ra bir qator guruhlarga turkumlanadi. Bularni quyidagi turkumlanishida ko'rishimiz mumkin.

1. Ishlab chiqarishdagi funksional roliga bog'liq holda:
– Aylanma ishlab chiqarish fondi;
– Muomala fondlari.

Aylanma mablag'larning turkumlanishi.

Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish jaryonida 2 turga ajratiladi: Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma mablag'lar va ma'lum darajada ishlab chiqarish jarayonidan chetlashga muomala fondlari.

Aksariyat iqtisodchilarning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan aylanma mablag'lar tarkibida muomala fondlarining haddan ziyod ko'payib ketishi aylanma aktivlarning samaradorligini pasayishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

2. Nazorat amaliyoti, rejalashtirish va boshqarish amaliyotiga bog'liq holda:

– meyorlashtirilgan aylanma mablag'lar(meyorlashtirilgan aylanma mablag'larga barcha aylanma ishlab chiqarish fondlari va shuningdek, muomala fondlarining bir qismi ham kiritiladi, qaysiki korxona omborlarlaridagi realizatsiya qilinmagan tayyor mahsulot ko'rinishidagi qoldiqlar);

– meyorlashtirilmagan aylanma mablag'lar (mayorlashtirilma- gan aylanma mablag'larga muomala fondlarining boshqa element- lari kiritiladi: istemolchilarga jo'natilgan ammtulanmagan tovarlar, pul mablag'lari va boshqa hisob-kitoblar);

3. Aylanma mablag'larni shakllantirish manbalariga bog'liq holda:
– Xususiy aylanma mablag'lar;
– Qarz aylanma mablag'lar.

4. Likvidliligiga bog'liq ravishda:
– Absolyut likvidli mablag'lar;
– Tez realizatsiya qilinadigan likvidli mablag'lar;
– Tez realizasiya qilinmaydigan mablag'lar.

CamScanner yordamida skanerlangan

5. Kapital quyilmalar xarajatlari darajasiga qarab:

– Past darajadagi riskka moyil bo'lgan aylanma mablag'lar;

– O'rtacha darajadagi riskka moyil bo'lgan aylanma mablag'lar;

– Yuqori darajadagi riskka moyil bo'lgan aylanma mablag'lar.

6. Moddiy mazmuniga bog'liq ravishda aylanma mablag'lar:

– Mehnat predmetlari (xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, tugallanmagan ishlab chiqarish);

– Tayyor mahsulot va tovarlar, pul mablag'lari va hisob-kitobdagi mablag'larga bo'linadi.

5. Balansda aks ettirilish uslubiga ko'ra aylanma mablag'lar quyidagicha guruhlanadi:

– Zahiradagi moddiy aylanma mablag'lar – Yez

– Debitorlik Qarzlari – Yedz

– Pul mablag'lari – Yed.

Umuman xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aylanma aktivlarning turkumlanishi ularning ishlab chiqarish jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Aylanma mabag'larning yuqoridagi tartibda turkumlanishi, ularni tahlil qilish va boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish asosiy omillardan biri vazifasini bajarishi mumkin.

Amortizatsiya xarajatlari:

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu modda maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e'tirof etilmaydi va amortizatsiya qilinmaydi:

1) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);

2) mahsuldor chorva mollari;

3) axborot-kutubxona fondi;

4) muzey ashyolari;

5) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiya qilingan asosiy vositalar;

6) moddiy madaniy meros obyektlari;

7) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'lkalar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;

8) qiymati ilgari to'liq xarajatlar jumlasiga kiritilgan mol-mulk;

CamScanner yordamida skanerlangan

9) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar;

10) notijorat tashkilotlarning Soliq kodeks 318-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan hamda notijorat faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan mol-mulki, bundan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan mol-mulk mustasno;

11) Soliq kodeks 304-moddasining 8, 9, 14, 15 va 17-kichik bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (barpo etilgan) mol-mulk.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati Soliq kodeksning 308-moddasida nazarda tutilgan amortizatsiya ajratmalari va (yoki) investitsiyaviy chegirmalar orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiya ajratmalari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, ushbu moddada nazarda tutilgan xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlarning qiymati Soliq kodeksning 307-moddasida nazarda tutilgan tartibda xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar, bundan nomoddiy aktivlar mustasno, soliq solish maqsadlarida guruhlar (kichik guruhlar) bo'yicha taqsimlanadi va ularni sotib olishga (yaratishga) doir chiqimlar amortizatsiya ajratmalari orqali amortizatsiyaning quyidagi cheklangan normalari bo'yicha xarajatlar jumlasiga kiritiladi:

Guruhlar tartib raqami	**Kichik guruhlar tartib raqami**	**Asosiy vositalarning nomi**	**Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda**
I		**Binolar, imoratlar va inshootlar**	
	1	Binolar, imoratlar	3
	2	Neft va gaz quduqlari	5
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko'priklar	
	6	Dambalar, to'g'onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal insho-	

CamScanner yordamida skanerlangan

		otlari	
	8	Korxonalarning temir yo'llari	
	9	Qirg'oqnimustahkamlovchi, qir-g'oqni himoyalovchi inshootlar	
	10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig'imlar	
	11	Ichki xo'jalik va xo'jaliklararo sug'orish tarmog'i	
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog'i	
	13	Havo kemalarining uchish-qo'-nish yo'llari, yo'lkalari, to'xtash joylari	
	14	Istirohat bog'larining va hay-vonot bog'larining inshootlari	
	15	Sport-sog'lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
II		**Uzatish qurilmalari**	
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	8
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	
	4	Magistral quvurlari	
	5	Boshqalar	
III		**Kuch mashinalari va asbob-uskunalar**	
	1	Issiqlik texnik asbob-uskunalari	8
	2	Turbina asbob-uskunalari va gaz turbinalari qurilmalari	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch mashinalari va asbob-uskunalari (harakatla-nuvchi transportdan tashqari)	
IV		**Faoliyat turlari bo'yicha ish**	

CamScanner yordamida skanerlangan

		mashinalari va asbob-uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va asbob-uskunalar	
	2	Qishloq xo'jaligi traktorlari, mashinalari va asbob-uskunalari	
	3	Kommutatsiyalar va ma'lumotlarni uzatish raqamli elektron asbob-uskunalari, raqamli tizimlar uzatish asbob-uskunalari, raqamli aloqa o'lchov texnikasi	
	4	Yo'ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va tranking aloqa asbob-uskunalari	
	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o'xshash asbob-uskunalari	15
	6	Kinostudiyalarning maxsus asbob-uskunalari, tibbiy va mikrobiologiya sanoati asbob-uskunalari	
	7	Kompressor mashinalari va asbob-uskunalari	
	8	Nasoslar	
	9	Yuk ko'tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunalari, tuproq, karyer hamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalari, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalari	
	11	Texnologik jarayonlar uchun	

CamScanner yordamida skanerlangan

		barcha turdagi sig'imlar	
	12	Neft qazib chiqarish va burg'ulash uskunalari	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V		**Harakatlanuvchi transport**	
	1	Temir yo'lning harakatdagi tarkibi	4
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	20
	5	Yengil avtomobillar	
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	
	8	Maxsus vaxta vagonlari	
	9	Boshqa transport vositalari	
VI		**Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari**	
	1	Kompyutyerlar	20
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarga ishlov berish uskunalari	
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqa kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarga ishlov berish uskunalari	
VII		**Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar**	15

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq Soliq kodeksda belgilangan cheklangan normadan ko'p bo'lmagan tarzda hisoblanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i

O'zbekiston Respublikasida foyda solig'ining rivojlanish bosqichlari:

1. O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxona, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonuniga binoan – tarkibiga foizlar va mehnat resurslari uchun to'lovlarni oluvchi foyda solig'i joriy qilindi.

2. 1992 yilda foyda solig'ining o'rniga 12% miqdorida daromad solig'i amal qila boshladi.

3. 1995 yil yanvaridan esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'z Rda soliqlarni rag'batlantiruvchilik rolini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 38%li stavka bilan yuridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i joriy qilindi.

4. 2008 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi kuchga kirgani munosabati bilan daromad (foyda) solig'i – yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'iga o'zgartirildi.

5. 2018 yil 1 yanvardan boshlab, foyda solig'i va obodonlashtirish va ijtimoiy infratuimani rivojlantirish solig'ining birlashtirilishi munosabati bilan yuridik shaxslardan olinadigan fayda solig'ining yagona stavkalari belgilandi.

6. 2020 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan fayda solig'iga tortish tartibidagi o'zgarishlar.

Yagona ijtimoiy to'lov o'rniga ijtimoiy soliq, yagona soliq to'lovi o'rniga - aylanmadan soliq, qat'iy belgilangan soliq o'rniga - jismoniy shaxslarning daromadlariga, ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilgari berilgan imtiyoz va soliqni hisoblash xususiyatlarini saqlab qolgan holda, qat'iy belgilangan miqdorda soliq joriy etiladi.

Shuningdek, aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi korxonalar oboroti (tushumi)dan qat'iy nazar to'laydi

2019 yil 1-yanvardan boshlab o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik aylanma 1 milliard so'mdan oshgan yoki joriy yil davomida ushbu belgilangan chegaraviy miqdira etgan korxonalar umum belgilangan soliqlarni to'lashga o'tadilar. Yil davomida yalpi tushumning 1 milliard so'mdan oshdimi keying oydan boshlab korxona foyda solig'ini to'lashi lozim.

Quyidagilar uchun maxsus soliq rejimlari bekor qilindi:

CamScanner yordamida skanerlangan

bozorlar uchun, ularni umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tkazgan holda. 2020 yil 1 yanvardan boshlab bozorlar avvalgi soliq to‘lash tartibi (daromadning 50 foizi) o‘rniga quyidagilarni to‘laydi:

umumdavlat soliqlarini (agar realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 milliard so‘mdan oshgan bo‘lsa) - yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i va 20 foizli oshirilgan stavkada foyda solig‘ini;

aylanmadan soliqni (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 milliard so‘mdan kam bo‘lganda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni;

konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun, ularga jismoniy shaxslardan daromad solig‘ini to‘lashni joriy etgan holda;

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar uchun aylanmadan soliq (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 milliard so‘mdan kam bo‘lganda) yoki umumbelgilangan tartibda to‘lanadigan soliqlar (realizatsiya hajmi 2019 yilda 1 millard so‘mdan oshganda) kiritiladi.

Quyidagi imtiyozlar 2020 yil 1 apreldan bekor qilinadi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash bo‘linmalari uchun.

Quyidagi faoliyat turlari amalga oshirilganda olingan foyda qismi bo‘yicha:

Moddiy madaniy meros obyektlarini ta’mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan.

2. Shahar yo‘lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan;

1.Protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko‘rsatishdan, nogironlar uchun mo‘ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta’mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatishdan;

Quyidagi daromadlarga soliq imtiyozlari saqlanib qolinmoqda:

Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlar;

CamScanner yordamida skanerlangan

Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi. Endi ushbu daromadlarga nol stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

Choraklik soliq hisobotlari hisobot davridan keyingi oyning 20 kunidan kechiktirmay hamda yillik soliq hisoblari soliq davri o'tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay taqdim etiladi

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun 5 milliard so'mgacha bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan soliqni to'lash soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi, 5 milliard so'mdan oshadigan soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarini hisobot davri har bir oyining 23-kunidan kechiktirmay to'laydi.

Bunda bo'nak to'lovi summasi soliq organi tomonidan oldingi soliq davri uchun hisoblangan jami daromaddan kelib chiqqan holda hisoblanadi, birinchi chorakda to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi o'tgan soliq davrining oxirgi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovi summasiga teng etib qabul qilinadi. Bo'nak to'lovlari bo'yicha ma'lumotnoma taqdim etilmaydi.

Yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari bo'lishi uchun qo'yidagi shartlarga javob berishi kerak:

ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi (qonunchilik bilan ta'qiqlangan faoliyatdan tashqari);

o'zining mol-mulkiga ega bo'lishi;

mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;

bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;

identifikatsion raqamga ega bo'lishi.

mahalliy hokimiyat organlaridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi.

Soliq solinadigan baza borasida shuningdek, foyda solig'i ham eng murakkab hisob-kitoblardan biridir. **Foyda solig'i, uni kimlar to'laydi?**

1) O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar (bundan buyon ushbu bo'limda yuridik shaxslar deb yuritiladi);

2) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari (bundan buyon ushbu bo'limda faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezidentlar deb yuritiladi);

3) O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar (bundan buyon ushbu bo'limda norezidentlar deb yuritiladi);

CamScanner yordamida skanerlangan

4) soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslar;

5) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so'mdan ortiq bo'lgan yoki o'z ixtiyori bilan foyda solig'ini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

6) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

E'tibor berish lozimki, bu o'rinda "doimiy muassasalar" jumlasi faqat soliqqa tortish maqsadida foydalanilmoqda, chunki bu korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanmaydi.

Soliq to'lovchilar – Moliya yilida soliq solinadigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar foydani to'lovchilar hisoblanadi.

Soliqqa tortish obyekti – Soliq kodeksining 70-moddasida e'tirof etilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq jami daromad bilan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan, ko'rsatilgan Nizomga ilovalarda belgilangan xarajatlar so'mmasiga tuzatishlar kiritilgan foyda soliq obyekti hisoblanadi (banklar va sug'urta tashkilotlari o'z xususiyatlariga ega).

Soliq solish obyekti mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi.

Har bir soliq Soliq kodeksning Maxsus qismiga muvofiq belgilanadigan mustaqil soliq solish obyektiga ega bo'ladi.

Soliq to'lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig'i (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) bo'yicha soliq solish obyekti hisoblanadi.

Soliq kodeksida quyidagilar foyda deb e'tirof etiladi:

1) yuridik shaxs uchun – ushbu bo'limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq;

2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun – Soliq kodeksning 49-bobida belgilangan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jami daromad (shu jumladan, bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan,

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar) va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

3) norezident uchun – Soliq kodeksning 50-bobida belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar;

4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun – Soliq kodeksning 51-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun – birgalikda ishlab chiqarilgan tovarni (ko‘rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to‘g‘ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.

Foyda solig‘i quyidagi formula bilan hisoblanadi:

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan aniqlanadi va qo‘yidagi ketma-ketlikdagi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.

$$YAF=SST-IT,$$

bu yerda: YAF-yalpi foyda, SST-sotishdan olingan sof tushum, IT-sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda.

$$AFF=YAF-DX+BD-BZ,$$

bu yerda: AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX-davr xarajatlari, BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, B3-asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

3) umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

$$UF=AFF+MD-MX,$$

bunda: UF-umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda; MD-moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX-moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) soliq to‘languncha olingan foyda.

CamScanner yordamida skanerlangan

STF=UF+FP-F3,

bunda: STF-soliq to'laguncha olingan foyda; FP-favqulodda vaziyatdan olingan foyda; F3-favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

Foyda solig'i = Soliqqa tortiladigan baza x soliq stavkasi

Foyda solig'ini hisob-kitobning asosiy qiyinligi daromadni aniqlash, hisobga olinmaydigan xarajatlarning chegirib tashlanishi, norezidentlarning daromadiga aniqlik kiritishdadir.

Foyda solig'i bazasiga kiritilishi mumkin bo'lgan daromadlarga quyidagilar kiradi:

– tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan tushgan foyda. Odatda har bir faoliyat turini o'zining muayyan daromadlari bo'ladi;

– boshqa daromadlar;

– tannarxidan past yoki olingan bahosidan past realizatsiya qilinganda tannarxi bo'yicha yoki olingan bahosi bo'yicha sotilgan hisoblandi (bir necha eksport va davlat baholaridan tashqari).

– beg'araz olingan mulklar, xizmatlar.

Hisobga olinmaydigan xarajatlar – bu korxonaning o'zi shaxsiy tashabbusi bilan yoki noto'g'ri boshqarganligi sababli aniqlangan va moddiy javobgar shaxslardan undirilgan xarajatlar kiradi. Shuningdek:

– tovar, materiallar zahirasini me'yoridan ortiq sarflash va ularni ishdan chiqarish;

– homiylik va insonparvarlik yordami;

– zararlar va talon-taroj qilish;

– penya va jarimalar.

Faoliyat natijasi bo'yicha zararlar – agar korxona joriy yilda faoliyatni zarar bilan yakunlasa, u holda soliq solinadigan bazani zararning qismlari yoki to'liq hajmi miqdoriga kamaytirish huquqiga ega bo'ladi. Bunda soliq solinadigan bazani 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorga kamaytirishingiz mumkin.

E'tibor berish lozimki, foydaga solinadigan soliq faqat yil yakuniga o'tkazilishi mumkin bo'lgan zarar miqdoriga kamaytirilishi mumkin. Foyda solig'i soliq stavkalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Foyda solig'i soliq stavkalari

№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkasi, %
1	Yuridik shaxs, bundan 2-6-bandlarda ko'rsatilganlardan mustasno	15

CamScanner yordamida skanerlangan

2	Tijorat banklari	20
3	Yuridik shaxslar: Sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; Polietilenni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; Faoliyatlarining asosiy turi uyali aloqa xizmati ko'rsatishdan iborat bo'lganlar.	20
4	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda	20
5	Tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat subyektlarining milliy reyestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	7,5
6	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5

Dividendlar va foizlar soliq orqali to'lov manbalarida chegirib qolinadi va ularning hisob-kitobi va ushlab qolinishi borasidagi javobgarlik to'lov manbalari zimmasiga tushadi.

Agar jismoniy shaxslar boshqa tashkilotdan dividend va foizlar olsa, soliq solinadigan baza hisob-kitobida buni e'tiborga olish zarur bo'ladi.

Daromadlaridan dividend va foiz to'laydigan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga 5 foizlik (Soliq kodeksning 337-moddasi asosida) soliq solinadi.

Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda, norezident O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan, faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e'tirof etiladi.

Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda, O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma–ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida 183 kalendar kunidan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatlarini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezidentlar – yuridik shaxslarning foydalariga doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatlarini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezidentlar – yuridik shaxslarning xarajatlariga ular tomonidan O'zbekiston va uning atroflariga olib kelgan narsalardan qat'iy nazar, bevosita O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali daromad olish uchun aloqador barcha xarajatlari kiradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Agar norezident O‘zbekiston Respublikasida uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab, doimiy muassasa shakllanishiga olib keladigan tayyorgarlik va (yoki) yordamchi turdagi faoliyatni amalga oshirsa va bunda shunday faoliyatga nisbatan haq olish nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq solinadigan baza ushbu doimiy muassasaning bunday faoliyat bilan bog‘liq xarajatlari summasining 20 foizi miqdorida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasalar bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlari mana shu daromadlarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni chegirib tashlamasdan soliqqa tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan va to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadi:

T/r	Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Sug‘urta, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari	10
3	Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlar (fraxtdan olingan daromadlar)	6
4	Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb etilgan kreditlar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan chet el moliya institutlariga to‘lanadigan daromadlar	0
5	O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish	0
6	Boshqa daromadlar, bundan 1-5-bandlarda ko‘rsatilgan daromadlar mustasno	20

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kimlar yuridik shaxs hisoblanadi?
2. Yuridik shaxsning soliqqa tortiladigan daromadi xarajatlar miqdoriga qaraganda qanchadan kam bo‘lmasligi lozim?
3. O‘zbekistonda yuridik shaxslar nechta soliq to‘laydilar?
4. Kimlar yuridik shaxs hisoblanadi?
5. O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari kimlar?

CamScanner yordamida skanerlangan

6. O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb kimlarga aytiladi?
7. Yuridik shaxslarning jami daromadiga nimalar kiradi?
8. Korxonalarning asosiy va aylanma aktivlari nima?
9. Amortizatsiya ajratmalari qanday ajratiladi?
10. Amortizatsiya nima bu?
11. Kapitalning aylanishi nechta asosiy bosqichdan iborat?
12. Foyda solig‘i nima va uni kimlar to‘laydi?
13. Foyda solig‘i qaysi formula bilan aniqlanadi?
14. Foyda solig’i bo’yicha qanday imtiyozlar mavjud?
15. Sof foydani formulada ko’rsating?

CamScanner yordamida skanerlangan

21-MAVZU: QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I VA AKSIZ SOLIG‘I

REJA:

1. **Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS).**
2. **Aksiz solig‘i.**
3. **Soliq solinadigan oborotni belgilash.**

Kalit so‘zlar: qo‘shilgan qiymat solig‘ini ishlab chiqarilgan mahsulotlarga tovar, mahsulot, ko‘chmas mulk, binolar va inshootlar shu kabilar.

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)

Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan to‘ldirish g‘oyasi XX asr boshlarida vujudga kelgan. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor Germaniyada 1919 yilda Vilgelm fon Simens tomonidan nemischa mukammallashgan aylanma soliq nomi bilan («Veredelte Umsatzteuer») joriy etilgan.

Bu soliq turi ilk bor qo‘shilgan qiymat solig‘i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954 yilda taklif qilingan va 1960 yilda Kot–d–Ivuar Respublikasida joriy etilib, ushbu mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan.

Shundan so‘ng dunyo mamlakatlarida qo‘shilgan qiymat solig‘i undirish tartibi jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan.

Sharqiy Evropa mamlakatlari (Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Fransiya, Shvetsariya)da 60 – yillarning oxirida, Belgiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiyada 70 – yillarning boshlarida QQS joriy etilgan va hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. QQS Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlarning 35 tasida joriy etilgan bo‘lib, hozirgi kunda ham undirib kelinmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga (MDH) kirgan barcha davlatlarda 1992 yildan boshlab QQS joriy etilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng dastlabki yillik 1992 yil Davlat byudjetiga tashqaridan dotatsiya va subvensiya olmasdan tuzilishi bo‘yicha talablar qo‘yildi. Boshlang‘ich bosqichda soliq siyosati ijtimoiy iqtisodiy yo‘nalishga ega bo‘lgan byudjet daromad va xarajatlarining tengligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan edi. Uni mamlakatimizda ishlab chiqarish hajmi tushib ketgan bir sharoitda, yuqori inflyasiya paytida va davlat moliya tizimidagi o‘ta og‘ir bir vaziyatda amalga oshirishga to‘g‘ri keldi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Yuzaga kelgan vaziyatda bilvosita soliqlar asosan qo'shilgan qiymat solig'iga asoslangan soliq tizimining fiskal vazifani bajarishi zarurligini taqozo qildi.

Soliqlarni joriy etilishining bosh maqsadi bo'lib davlat taqdim etayotgan xizmatlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yilda joriy etilgan bo'lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo'lib 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992 yil 30 martdagi «Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi» yo'riqnoma hisoblangan. Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992 yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'ining rivojlanish bosqichlari1. O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonuniga va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992 yil 30 martdagi «Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi» yo'riqnomaga asosan 1992 yildan boshlab respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) joriy qilindi.

. Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992 yilda dastlab QQS stavkasi 30 % miqdorida belgilangan. Keyinchalik kiritilgan qo'shimchalar va o'zgarishlarga muvofiq 25% qilib belgilangandi

1993 yilning 1 sentyabridan boshlab 1994 yilning iyunigacha korxonalar ixtiyorida QQS stavkasining 6% miqdori qoladigan bo'ldi, QQSning qolgan 19% stavkasi byudjetga o'tkazila boshladi. Korxonalar 1994 yil 1 iyundan boshlab QQSni 20% miqdorida to'lay boshladilar va korxonalar ixtiyorida qoladigan QQSining 6%i bekor qilindi.

Vazirlar Maxkamasining Qaroriga binoan QQS stavkasi 1996 yilning 1 yanvaridan boshlab 17% qilib belgilandi. 1997 yilning 1 yanvariga kelib ayrim aholining birinchi navbatdagi iste'mol tovarlari bo'yicha ushbu soliq miqdori 10%, boshqa tovar va xizmatlar uchun 18% darajasida o'rnatiladi.

. 1998 yilning 1 yanvaridan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun 10%, boshqa tovar va xizmatlar uchun 20% darajada o'rnatiladi. 2002 yilning 1 yanvaridan esa eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun 15% o'rnatildi.

CamScanner yordamida skanerlangan

. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 26-dekabrdagi 610-sonli Qaroriga asosan 2005 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘ining stavkasi 18 %dan 15 % ga tushirildi va byudjet daromadlarini balansini ta’minlash uchun eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun QQS 2002 yildagi 15 foizlik stavkasini 2005 yil uchun 20 % qilib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasida 2019 yilning 1 yanvaridan boshlab Soliq kodeksiga asosan QQS stavkasi 15 foiz qilib belgilangan va bu stavka hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda

Barcha bilvosita soliqlar kabi qo‘shilgan qiymat solig‘i ham asosan soliqlarning fiskal funsiyasini bajaradi, uning joriy qilishdan asosiy maqsad davlat byudjetini mablag‘ bilan to‘ldirish bilan bog‘liq bo‘lgan. Qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq tushumlarini narx-navoning o‘sishi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lab turganligi uchun u byudjet mablag‘larini inflyasiya bo‘lishligidan saqlab qoluvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i O‘zbekistonda qo‘llanila boshlanishining asosiy sababi ushbu soliq bo‘yicha dunyo hamjamiyatining bu boradagi tajribasi bo‘ldi. Rivojlangan davlatlarning tajribasida bilvosita soliqlar rivojlanib borib, yagona qo‘llaniladigan soliqqa, ya’ni ushbu davlatlarda bir tekisda taqsimlanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘iga aylanishini ko‘rsatadi, shu bilan bir vaqtning o‘zida, biron bir tovarlar guruhini sotilishiga halaqit qilmaydi va iqtisodiyotda moliya taqsimlanishini o‘zgartirmaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining mamlakatimizda rivojlanish tarixi qisqa davrni o‘z ichiga olgani bilan ancha samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda va byudjet daromadlarini shakllantirishda mustahkam o‘rin egallagan. Buning asosiy sabablaridan biri qo‘shilgan qiymat solig‘ining ilgari amalda bo‘lgan soliqlardan bir necha afzalliklarga egaligidir.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining afzalliklari

QQS mahsulotning sotuv narxiga qo‘shilmay uning ustiga qo‘yilib, xaridor tomonidan to‘lab beriladi, bu esa o‘z vaqtida ishlab chiqarishning xarajatlariga va rentabelligiga ta’sir etmaydi;

Soliqqa tortish obyekti mahsulotning butun ishlab chiqarish jarayonida yagona soliq stavkasida aniqlanishi mahsulot sotishning oxirgi bosqichida soliq summasini yig‘ilib qolishidan saqlaydi va soliqqa tortish jarayonida qayta-qayta hisoblanishning oldini oladi;

Soliqqa tortish tizimining soddaligi soliq organi uchun hamda soliq to‘lovchilar uchun ham qulaylik yaratadi. QQSni hisoblash jarayonini o‘z-o‘zini tekshirish jarayoni desa ham bo‘ladi, chunki keyingi sotib

CamScanner yordamida skanerlangan

oluvchi avvalgi ta'minotchini hisobvaraq–fakturasida to'langan soliq summasini belgilashda to'g'ri qo'yilishini tekshirib boradi;

QQS tarmoq va korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlaridan, kapital jamg'armasidan, ishlab chiqarish turidan, katta-kichikligidan qat'iy nazar bir xilda soliqqa tortish darajasi qo'llaniladi;

QQSning hujjatlarda (schet-fakturada) alohida ko'rsatilib yozilishligi uni to'lashdan qochish holatlarini qiyinlashtiradi;

QQS bozor iqtisodiyotini soliqlar yordamida tartibga solishda foyda solig'i stavkasini pasaytirilishi natijasida byudjetning daromad qismidagi yo'qotishlarni qoplash uchun taktik vosita sifatida ishlatiladi;

Ko'pgina davlatlarda korxonaning o'zi ishlab chiqargan mahsulotini chetga eksport qiluvchi firmaga ularni qo'llab quvvatlash maqsadida eksport qilingan mahsulot sotuv narxiga kirgan QQSning bir qismini davlat tomonidan qaytarib beriladi. QQSning hisoblash mexanizmi esa eksport qilinayotgan mahsulotni firma tomonidan ishlab chiqarish uchun ketgan real xarajatlarini hisoblab chiqarish imkoniyatini beradi.

QQS har turdagi davlatlarning yagona soliq siyosatini yuritishi yordamida integratsiya funsiyasini ham bajaradi. Masalan, Evropa Ittifoqi davlatlarining soliq siyosatidan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'i ularning byudjetdagi asosiy manbai bo'lishi bilan birga milliy iqtisodiyotlarini yaqinlashishiga olib kelmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kamchiliklar

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qo'shilgan qiymat solig'ining kamchilik tomonlari ko'rina boshlaydi, ular faqatgina xaridorlargagina emas, balki ishlab chiqaruvchilarga ham ta'sir etadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: qo'shilgan qiymat solig'ining haqiqiy to'lash vaqti ya'ni moddiy boyliklar, xizmatlar va ishlarni sotib olish vaqtida ba'zi holatlarda soliqqa tortiladigan mahsulotning sotish vaqtidan ancha avval keladi. Soliq hisobini yuritishda hisoblash usulini qo'llanilishi vaziyatni yanada og'irlashtiradi. Chunki hisoblash usulida tovarni sotish vaqti korxona hisob raqamiga pul mablag'ining kelib tushgani emas, balki tovarning omborxonadan ortib yuborilgan vaqtiga to'g'ri keladi, shuning uchun korxona hisob raqamiga sotilgan tovar uchun pul mablag'i tushishidan qat'iy nazar qo'shilgan qiymat solig'i summasini byudjetga to'lashi shart.

Bizning mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'i bazasiga faqat qo'shilgan qiymatgina emas, balki unga umuman dahli bo'lmagan elementlar ham kiradi. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga

CamScanner yordamida skanerlangan

muvofiq aksiz tovarlarini respublika hududiga import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ida soliqqa tortish bazasiga to'langan aksiz solig'i va bojxona boji ham kiradi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining yuqori stavkalarining qo'llanilishi aholining sotib olish qobiliyatini kamaytiradi va ishlab chiqaruvchi uchun esa tovar sotish bozorini qisqartiradi. Qo'shilgan qiymat solig'ining yuqori qiymatda belgilanishi esa tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan minimal foyda rejalashtirilgan taqdirda ham, sotib oluvchilarning imkoniyatlari chegaralangan bo'lganligi uchun tovarlarni tez va o'z vaqtida sotish imkoniyatini bermaydi. Qo'shilgan qiymat solig'ining tartibga solib turuvchi imkoniyatlari rivojlangan bozor iqtisodiyoti va bozor uchun xos bo'lgan raqobatning mavjudligida namoyon bo'ladi.

Quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanmaydi:

notijorat tashkilotlar.

tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash usullari

Hisobdan chiqarish usuli. (Metod vьıchetaniya)

Ushbu usulga ko'ra korxona byujetga to'laydigan QQS summasini sotib olingan tovarlar qiymatini sotgan tovarlar qiymatidan chiqarib tashlab farqni aniqlaydi va bu farqga soliq stavkasini ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydi.

2. Hisobga olish usuli. (Metod zacheta) (O'zRda shu usul asosida QQS summasi aniqlanadi)

Hisobga olish usuli yoki schyot faktura usuli Evropa birligiga kiruvchi barcha davlatlarda va QQS joriy etilgan boshqa ko'pgina davlatlarda qo'llanib kelinmoqda.

Ushbu usulga ko'ra korxona byudjetga to'laydigan QQS summasini sotib olingan tovarlar (xizmatlar) uchun to'langan soliq summasini sotilgan tovarlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq summasidan chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlaydi.

3. Yig'ish usuli. (Metod slojeniya)

Ushbu usulga ko'ra korxona byudjetga to'laydigan QQS summasini yangidan hosil qilingan qiymatlar komponentlari, ish haqi, foizlar va sof foydalarni yig'ib, hosil bo'lgan summani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ushbu metodni aniq misolda ko'rib chiqamiz. Bu misolda uchta korxona ishtirok etadi va ular bir – biri bilan ishlab chiqarishning bo'g'inlarida aloqaga kirishadi. Birinchi korxona – rudnik, ya'ni temir moddalari qazib chiqaradi va uni ikkinchi – metallurgiya korxonasiga 200 ming so'mga sotadi, o'z navbatida metallurgiya korxonasi qazilmadan temir mahsulotini ishlab chiqaradi va uni uchinchi – avtomobil ishlab chiqarish korxonasiga 400 ming so'mga sotadi. Avtomobil ishlab chiqarish korxonasi temirdan avtomobil ishlab chiqaradi va uni aholiga 500 ming so'mga sotadi

Quyidagi jadvalda yuqorida keltirilgan misol bo'yicha QQS hisoblanishi ko'rsatilgan. (Qiymat hajmi ming so'mda).

	Ko'rsatkichlar	**Temir rudalarini qazib chiqarish korxonasi**	**Temir ishlab chiqarish korxonasi (yagona soliq to'lovchi)**	**Avtomobil ishlab chiqarish korxonasi**
	Sotish (QQS siz)	200	400	500
	Sotib olish (QQSsiz)	0	200	400
	QQS summasi (1*15%)	30	-	75
	Sotib olishda to'langan QQS uchun taqdim etiladigan hisob (2*15%)	0	-	-
	To'langan QQS (3 - 4 qator)	30	-	75

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, uchta korxona jami 75 ming so'm QQS to'laydi (30+30+15).

YAST to'lovchilar bo'yicha misol:

CamScanner yordamida skanerlangan

	Ko‘rsatkichlar	Temir rudalarini qazib chiqarish korxonasi	Temir ishlab chiqarish korxonasi (yagona soliq to‘lovchi)	Avtomobil ishlab chiqarish korxonasi
	Sotish (QQS siz)	200	400	500
	Sotib olish (QQSsiz)	0	200	400
	QQS summasi (1*15%)	30	-	75
	Sotib olishda to‘langan QQS uchun taqdim etiladigan hisob (2*15%)	0	-	-
	To‘langan QQS (3 - 4 qator)	30	-	75

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Sqqs = Say x S / 100; (1),

bunda: Sqqs - iste’molchilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘z ichiga olgan narxlar va tariflar bo‘yicha sotilganida - soliq quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Sqqs = Tq x S / (S + 100); (2),

bunda: Tq - qo‘shilgan qiymat solig‘i ham hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

Ya’ni tovarning QQSni hisobga olgan holda qat’iy narxi 360 ming so‘m bo‘lsa, u holda QQS summasi

360 * 15% / 115 = 46,96 ming so‘m

CamScanner yordamida skanerlangan

Yetkazib beruvchi:_____ Manzil:_____ Telefon:_____ Hisob-kitob hisobvaraq raqami: _____da _____shahri Yetkazib beruvchining identifikatsiya raqami (STIR):_____ XXTUT bo'yicha kod:_____	Sotib oluvchi:_____ Manzil: _____ Telefon:_____ Hisob-kitob hisobvaraq raqami: _____da _____shahri Sotib oluvchining identifikatsiya raqami (STIR):_____ XXTUTbo'yicha kod:_____

Tovar (ish, xizmat)lar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig'i		QQS		Yetkazib berishning QQS hisobga olingan qiymati
					Stavkasi	Summasi	Stavkasi	Summasi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Jami to'lashga:									

Rahbar _____ Bosh buxgalter _____ M. O'. Tovarni berdim: _____ (yetkazib beruvchining mas'ul shaxsi imzosi)	Oldim:_____ (sotib oluvchi yoki vakolatli vakilning imzosi) 20__yil "__"_____dagi ____-sonli ishonchnoma bo'yicha (Tovar oluvchining FISH)

2. Aksiz solig'i

Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati

Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan egri soliqlarning bir turidir.

CamScanner yordamida skanerlangan

Aksiz solig'ining QQSdan farqli tomoni - ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi.

"Aksiz" fransuzcha (accise) va lotincha (accidere) so'zlaridan olingan bo'lib, tarjima qilinganda «kesib olish» ma'nosini anglatadi.

Uning ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi.

Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati byudjet tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarini qondirishga, ko'proq mablag'larni jalb ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'molchilarning to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa aksiz solig'i obyektlari (aksiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi to'lov qobiliyatini o'sishida namoyon bo'ladi. SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, subyektlar aksiz solig'i iste'molchilari sifatida yuzaga kelishi tabiiydir.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda 1992 yilda joriy etilgan bo'lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo'lib 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonun hisoblanadi.

Aksiz solig'ining vazifalari

Aksiz solig'ini mohiyatini ochishda u bajaradigan quyidagi vazifalarni bilish muhimdir:

mamlakat byudjetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz orqali daromadlarni tez va oson yig'ish imkoniyatlari yuzaga keladi.

aksiz osti tovarlari iste'molini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayyan bozor doirasida talab va taklifni tartibga solish. Iqtisodiy o'sish doirasini boshqarishda aksizosti tovarlar ro'yxatini belgilash orqali davlat yalpi talab va taklifni egiluvchanligi ta'minlaydi;

davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi aksiz solig'i orqali ta'minlanadiki, bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniladi;

aksiz solig'i monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvchi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqqa tortish vazifasini o'taydi;

aksiz solig'i aholini boy badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqqa tortish usuli bo'lib hisoblanadi. Chunki aksiz solig'i asosan nufuzli (qiymati yuqori) tovarlarga qo'llaniladiki, bunday tovarlarni asosiy iste'molchilari boy-badavlat shaxslar hisoblanadi.

Aksiz solig'ining xususiyatlari

CamScanner yordamida skanerlangan

Aksizlar ko'pgina holatlarda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatga nisbatan unga bo'lgan talabning yuqoriligi va doimiyligi natijasida, uning sotilish narxi ancha yuqori bo'lganda paydo bo'ladi, masalan, aroq, tamaki, kofe, paxta yog'i va x.k. Agarda hukumat ushbu xususiyatlarini aksiz solig'i yordamida undirmasa, u holda aksiz tovarlarini ishlab chiqaruvchilar o'zlari bunga yarasha xizmat ko'rsatmagan holda yuqori daromadga ega bo'ladilar.

Aksizlar jamiyat tomonidan iste'mol qilish keraksiz deb topilgan tovarlarga - spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlar va benzinga qo'yiladi. Ular yordamida hukumat bir tomondan inson salomatligiga, jamiyat va atrof muhitga zarar keltiradigan tovarlarni (tamaki, vino, aroq, benzin va h.k.) sotilishini ushlab tursa, ikkinchi tomondan, ushbu tovarlarni sotish natijasida jamiyatda yetkaziladigan zararlarni moliyaviy qoplash uchun mablag' undiradi.

Barcha bilvosita soliqlar kabi aksiz ham soliqning fiskal funksiyasini to'liq bajaradi, ya'ni byudjetni juda ham yaxshi mablag' bilan ta'minlaydi.

Aksizlar tabiiy monopolistlarning narx belgilashlaridagi jarayonda ham foydalaniladi (gaz, neft va b.).

Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish, bundan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta'minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;

4) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to'lanadigan tovarlarni:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;

agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kirish;

CamScanner yordamida skanerlangan

5) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish. O'zbekiston Respublikasi hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirishning eng yuqori normalari qonunchilikda belgilanadi;

6) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

7) ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik yo'nalishlarda tashkil etilgan degustatsiya hududlarida (joylarida) realizatsiya qilinadigan tabiiy vino (shisha idishdagilardan tashqari) mahsulotlariga.

Soliq solinadigan baza

Soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan soliq stavkalari mutlaq (qat'iy) summada belgilangan bo'lsa, soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) soliq stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bo'lib realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan qiymati hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to'lash, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga bepul yoki boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallarning qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi, agar ushbu modda-

CamScanner yordamida skanerlangan

ning ikkinchi va uchinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq Chetdan olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan, aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to'lanadigan tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg'isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

bazasi bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan, aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to'lanadigan tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy

CamScanner yordamida skanerlangan

ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg'isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	360000 so'm/1000 dona + 10 foiz	2022 yil 1 yanvardan: 185 000 so'm/1000 dona + 10 foiz 2022 yil 1 iyundan: 203 500 so'm/1000 dona + 10 foiz
2.	Sigara	5 200 so'm/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki	310000 so'm/kg*	
4.	Chekiladigan, o'rama tamaki	310000 so'm/kg	
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan, shimiladigan tamaki	310000 so'm/kg	
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo'lgan o'xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	310000 so'm/kg	
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	125000 so'm/kg	
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik (kartridjlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)**	550 so'm/ml	

* Belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq chilim uchun tamakisiz aralashmani olib kirishda ham to'lanadi.

** Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlikni (nikotinni) uni iste'mol qilish tizimlarida (elektron va boshqalar) olib kirishda soliq mazkur suyuqlik tarkibidagi nikotin miqdoridan kelib chiqqan holda to'lanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari		
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan (1 dal tayyor mahsulot uchun)	
			2022 yil 1 yanvardan	2022 yil 1 iyundan
1.	Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroal-degidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi	70%	13500 so'm	14900 so'm
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	45000 so'm/1 litr uchun	125100 so'm	138000 so'm
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	63000 so'm/1 litr uchun	206700 so'm	228000 so'm
3.	Vino:			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	31500 so'm/1 litr uchun	1 so'm	
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	45000 so'm/1 litr uchun	18000 so'm	19800 so'm
4.	Pivo	50%, biroq 1 litr uchun/13 500 so'mdan kam bo'lmagan	12600 so'm	13800 so'm

Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkasi	
		2022 yil 1 yanvardan	2022 yil 1 iyundan

CamScanner yordamida skanerlangan

1.	Neft mahsulotlari:	so'm/tonna	
	Ai-80	240000	275000
	Ai-90 va undan yuqori	275000	275000
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	200000	220000
	dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	240000	264000
	EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	216000	237600
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	340000	374000
2.	Polietilen granulalar	10%	
3.	Tabiiy gaz, bundan O'zbekiston Respublikasiga olib kirilgan gaz mustasno	20%	
4.	Yakuniy iste'molchiga sotiladigan:		
	Benzin	1 litr uchun 350 so'm, 1 tonna uchun 465 530 so'm	1 litr uchun 385 so'm, 1 tonna uchun 512 000 so'm
	dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 350 so'm, 1 tonna uchun 425 918 so'm	1 litr uchun 385 so'm, 1 tonna uchun 468 000 so'm
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 350 so'm, 1 tonna uchun 665 493 so'm	1 litr uchun 385 so'm, 1 tonna uchun 730 000 so'm
	siqilgan gaz	1 kub metr uchun 500 so'm	1 kub metr uchun 550 so'm
5.	Mobil aloqa xizmatlari	15%	
6.	Xushbo'ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo'shimchalarsiz oq shakar	20%	

Ayrim rivojlangan davlatlarda, masalan, Fransiyada aksizlar tovarlarning natural birligiga nisbatan qat'iy stavkalarda belgilab qo'yilgan. Jumladan, 1 litr vino uchun aksiz solig'ining stavkasi 22

CamScanner yordamida skanerlangan

santimni, 1 litr shampan vinosi uchun 55 santimrni, 1 litr pivo uchun esa 19,5 santimni tashkil qiladi.

AQSHda aksiz soliqlari Federal ahamiyatga ega bo'lgan soliq hisoblanadi. Lekin ularning davlat byudjeti daromadlarining hajmidagi salmog'i nisbatan kichik. Aksiz solig'i tamaki va alkogolli mahsulotlarga, transport xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Aksiz solig'ining stavkasi 10 foizni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada aksiz soliqlari egri soliqlarning tarkibida salmog'iga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'idan keyingi o'rinni egallaydi. Aksiz solig'i yoqilg'i, alkogol va tamaki mahsulotlariga, transport vositalari va xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Uning stavkalari 10 foizdan 30 foizgacha oraliqda tebranadi.

Germaniyada aksiz solig'i bo'yicha tushumlarning asosiy qismi Federal byudjetga o'tkaziladi, faqat pivoga nisbatan joriy qilingan aksiz solig'i bo'yicha tushumlar federal byudjetga kelib tushmaydi. Aksiz solig'ining stavkalari tovarlarning noto'g'ri birligiga nisbatan foizlarda va "evro"da belgilangan. Masalan, sug'urta bitimlari bo'yicha aksiz solig'ining stavkasi sug'urta polisi summasining 12 foiz miqdorida belgilangan. Shampan vinosiga nisbatan belgilangan soliq stavkasi 0,75 litr uchun 2 evroni tashkil qiladi.

3. Soliq solinadigan oborotni belgilash

Soliq kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) to'lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Soliq kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Soliq kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshganda,

CamScanner yordamida skanerlangan

agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tadi.

Soliq kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida ko‘rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so‘mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi.

Bildirishnoma ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to‘laydi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida tanlangan soliq solish tartibini ko‘rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashni Soliq kodeksning 237-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun va bir vaqtning o‘zida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga ixtiyoriy ravishda o‘tgan soliq to‘lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo‘yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so‘mdan oshmagan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga kamida o‘n ikki oydan keyin qayta o‘tishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro‘y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo'lingan va ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo'lgan kunlar soniga ko'paytirilganda bir milliard so'mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro'yxatdan o'tilgan yildan keyingi yildan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi soliq to'lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provaydyerlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish bo'yicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo'yicha xulosa kiritilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi to'g'risida xulosa berishga vakolati bo'lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan obyektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta'mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma rasmiylashtirilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Soliqni to'lash soliq to'lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

Soliq kodeks bilan uning zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;

agar Soliq kodeksda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hisobvaraq-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

CamScanner yordamida skanerlangan

Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (bundan buyon ushbu bo'limda yuridik shaxslar deb yuritiladi);

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

2) aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

3) yuridik shaxslar – qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda ellik gektar va undan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni mavjud bo'lsa;

4) benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5) lotoreyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o'z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga – oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha;

7) bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo'yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta'mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga.

Soliq solish obyekti:

Soliq kodeksning 43-bobiga muvofiq aniqlanadigan jami daromad soliq solish obyektidir, bundan Soliq kodeksning 304-moddasiga muvofiq, ushbu moddada nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar

CamScanner yordamida skanerlangan

hisobga olingan holda soliq solish chog'ida inobatga olinmaydigan daromadlar mustasno.

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun – agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

notijorat tashkilotlarining Soliq kodeks 318-moddasining birinchi qismida ko'rsatilmagan daromadlari.

Soliq solish obyekti bo'lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

CamScanner yordamida skanerlangan

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

d) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to'lash hisobidan yoki dividend to'lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

4) ko'p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo'lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa, berish.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vauchyerlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha daromadlar Soliq kodeksning 303-moddasida nazarda tutilgan tartibda jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekti deb e'tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to'lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yoxud qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lash davrida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tguniga qadar olingan daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

Quyidagilar soliq solinadigan aylanma miqdoriga kiritilmaydi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati subyektlari uchun – turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga.

Xaridorlar hisob-kitob va yo'lda yurish hujjatlari haqini to'laganlaridan so'ng tovarlarni qaytargan, shuningdek, buyurtmachilar ilgari haqi to'langan ishlar yoki xizmatlardan voz kechgan taqdirda, da'vo

CamScanner yordamida skanerlangan

qilishning bir yillik muddatiga rioya qilingani holda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bo'yicha aylanmalarga shunday operatsiyalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi miqdorida o'zgarish kiritiladi.

Agar kafolatli xizmat muddati belgilangan tovarlar ushbu muddat doirasida ularni tayyorlagan korxonaga qaytarilsa, bunday tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining hisobga olinishi yoki qaytarilishi xaridorlarning hisob-kitob hujjatlariga dastlabki haq to'lashi va soliqning byudjetga tushish muddatidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan baza, agar boshqa tartib belgilanmagan bo'lsa, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar ham hisobga olingan holda) past narxlarda realizasiya qilingan taqdirda, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida, Soliq kodeksining 290-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek, obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Pudrat yoki ikkilamchi pudrat tashkilotlari tomonidan obyektlar qurish uchun qurilish pudrati shartnomasi tuzilgan taqdirda, bajarilgan va tasdiqlangan ishlarning pudratchi (yordamchi pudratchi) va buyurtmachining soliq solish maqsadida realizatsiya qilingan deb hisoblanadigan materiallari qiymati kiritilgan, ushbu bo'limda belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

CamScanner yordamida skanerlangan

Qurilish-montaj, ta'mirlash va ta'mirlash-qurilish ishlarini bajarish uchun shartnoma tuzilganda, agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash vazifasi buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar bo'lgan savdo korxona- lari import qilgan tovarlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig'ining so'mmasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliya ijarasiga, shu jumladan, lizingga berilgan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Tugallanmagan qurilish obyekti realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, tugallanmagan qurilish obyektini realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Transport ekspedisiyasi shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, mukofot tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmat uchun pul mukofoti (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan so'mmadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Vositachilik shartnomasiga, topshiriqqa binoan ishonchli shaxs yoki komitent O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlar- ning qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Garovga qo‘yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta’minlan- gan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo‘yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘shmagan holda mazkur garovga qo‘yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag‘lari summasidan kam bo‘lmagan miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo‘yicha garovga qo‘yuvchining soliq solinadigan bazasi qo‘shilgan qiymat solig‘ini ham o‘z ichiga oladigan, ularning realizasiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o‘rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Soliq to‘lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o‘zgarganda;

3) narxlar o‘zgarganda, sotib oluvchi arzonlashtirishdan foydalanganda;

4) bajarilgan ishlardan, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aksiz solig‘i to‘lovchilari kimlar hisoblabadi?
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining obyektlarini aytib bering.
3. Soliq to‘lovchining soliq solinadigan bazasiga qanday holatlarda tuzatish kiritiladi?

CamScanner yordamida skanerlangan

4. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor Germaniyada kim tomonidan o'ylab topilgan?
5. Fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan nechanchi yilda taklif qilingan?
6. 1960 yilda qaysi mamlakatda joriy etilgan?
7. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga qachon QQS joriy qilingan?
8. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari kimlar hisoblanmaydi?
9. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash usullari ko'rsatib bering?
10. O'zRda qaysi usul asosida QQS summasi aniqlanadi?
11. "Aksiz" fransuzcha qaysi ma'noni bildiradi?
12. Aksiz solig'ining vazifalari nimalardan iborat?
13. Aksiz solig'i kimlarga solinmaydi?
14. Aksiz solig'i obyekti nimalardan iborat?
15. Aksiz solig'ini hisoblash tartibini ko'rsating.

CamScanner yordamida skanerlangan

22-MAVZU: DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARIGA TO'LANADIGAN MAJBURIY TO'LOVLAR

Reja:

1. Byudjetdan tashqari fondlarning mohiyati va maqsadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi.

3. Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi.

4. Ijtimoiy soliq.

Kalit so'zlar: byudjetdan tashqari fondlar, pensiya fondi, ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi, yo'l fondi.

1. Byudjetdan tashqari fondlarning mohiyati va maqsadi

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni talab etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, byudjetdan tashqari jamg'armalar tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish bu shakllar ichida muhim o'rin tutadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar moliyaning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'larning markazlashtirilishini o'zida mujassam etadi. Ular asosan ikki muhim vazifani hal etadi, ya'ni:

– iqtisodiyotning muhim jabhalarini qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash;

– aholining ijtimoiy ta'minotini kengaytirish;

– Byudjetdan tashqari jamg'armalar shu o'rinda quyidagi xususiyatlarga ega;

– hokimiyat organlari tomonidan rejalashtiriladi va boshqariladi, hamda maqsadli yo'nalishga ega;

– byudjetdan tashqari jamg'armalarning pul mablag'lari davlat byudjeti tarkibiga kirmaydigan xarajatlarni moliyalashtirish uchun qo'llanadi;

– asosan jismoniy va yuridik shaxslar majburiy badallar tariflari davlat tomonidan belgilanadi va majburiy hisoblanadi;

CamScanner yordamida skanerlangan

– ularning pul mablag'lari davlat ixtiyorida bo'lib, ular davlat byudjeti tarkibiga kiritilmaydi, bu mablag'lar qonunda kuzda tutilmagan boshqa maqsadlar uchun jalb etilmaydi.

Byudjet vujudga kelganga qadar, byudjetdan tashqari jamg'armalar yoki alohida schyotlar shaklida vujudga kelgan. Davlat o'z faoliyatini kengaytirish doirasida shunday xarajatlarga duch kelganki, ularni qoplash uchun mablag' zarur bo'ladi. Bu mablag'lar maxsus maqsadlarda tashkil etilgan alohida jamg'armalarda yig'ilar edi. Bunday jamg'armalar qoida bo'yicha vaqtincha harakterga ega edi. Shuning uchun ham, bu kabi jamg'armalar soni muntazam o'zgarib turgan. Markazlashtirilgan hokimiyatning mustahkamlanishi munosabati bilan maxsus jamg'armalarning unifikatsiya (birlashish) jarayoni boshlanadi. Aynan turli jamg'armalarning birlashishidan davlat byudjeti yaratildi. Shu tarzda byudjet bilan bir qatorda byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati oshib bordi.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari jamg'armalari umummilliy harakterga ega bo'lib, ulardan asosan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda foydalanish lozim. Mamalakkat miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy muhim masalalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish;

– aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan (pensionerlar, nogironlar, ishsizlar va hokazo) va iqtisodiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;

– iqtisodiyotning ma'lum bir sohalarini ma'lum miqdordagi moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;

– yo'l xo'jaligi faoliyatini rivojlantirishga doir amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni moliyalashtirish va hokazo.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti milliy iqtisodiyoti tarmoqlarida bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Mamlakat xalq xo'jaligi tarmoqlari o'z o'rnida qayta ta'mirlash va asosiy ishlab chiqarish fondlarini kengaytirishni talab etadi. Bularning hammasi moliyaviy muhitda inqirozning o'sishi bilan kuzatiladi: inflyatsiya darajasi o'sadi, byudjet taqchilligi oshadi, mamlakat ichki va tashki qarzlari ko'payadi. Buning natijasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati pasayadi, bu esa uz navbatida aholining, ayniqsa, uning ijtimoiy himoyalangan qatlamlari hayot darajasining pasayishiga olib keladi. Shu tariqa, mamlakat miqyosida ma'lum miqdordagi maqsadli moliyaviy resurslarga bo'lgan

CamScanner yordamida skanerlangan

talab yuzaga keladi. Bu talabning qondirilishi davlat va milliy byudjet hamda byudjetdan tashqari jamg'armalar moliyaviy resurslar orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy resurslarning cheklanganligi har qanday vaqtda moliyaviy resurslarning qayta taqsimotini talab etadi. O'z o'rnida iqtisodiyotning og'ir moliyaviy holatida resurslarning qayta taqsimotiga bo'lgan talab ham oshib boradi. Shuni ta'kidlash lozimki, muayyan ko'rinishidagi xarajatlarga nisbatan daromadlarning mustahkamlanmaganligi mablag'larning samarasiz safarbar etilishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham, kelib tushayotgan mablag'larning maqsadli yo'nalishini va safarbar etilishini ta'minlash lozim. Ushbu masalaning hal etilishi ikki usulda amalga oshirilishi mumkin, ya'ni:

– davlat yoki mahalliy byudjet tomonidan ma'lum maqsadga yo'naltirilgan mablag'larning ajratilishi;

– qonun chiqaruvchi davlat organi tomonidan aniq maqsadga yo'naltirilgan yangi byudjetdan tashqari jamg'armani shakllantirish.

Iqtisodiy holatning dinamik o'zgarishi, shu o'rinda moliyaviy resurslarning qayta taqsimotini tezkor boshqaruv qarorlari orqali oldindan belgilash juda muhimdir. Ma'lumki, byudjet mablag'lari- ning tasarruf etilishi qonun chiqaruvchi organlar tomonidan, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari esa, mamlakat ijro organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar mohiyati jihatidan sof davlat jamg'armalari emas, chunki ular aralash xususiyatga ega. Ular shakllanish manbalariga ko'ra korxona va muassasalar ajratadigan mablag'lardan iborat bo'lib, markazlashgan holda va davlat nazorati ostida jamg'ariladi, davlat tomonidan o'rnatilgan qonun-qoidalarga muvofiq taqsimlanadi va foydalaniladi.

Byudjetdan tashqari tashkil etilishining zarurligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhim omil byudjet taqchilligidir. Xarajatlarning daromaddan o'sib ketishi moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishni emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruhlanishini ham talab etadi. Va nihoyat xo'jalikni va xususiylashtirishni kup kirrali shakllari, byudjet shakllari bilan bir qatorda jamiyatga pul mablag'larni qayta taqsimlashni yangi usullarini qo'llash zaruriyatini qat'iy talab etadi.

Shunday qilib byudjetdan tashqari jamg'armalar – jamiyatning ayrim maqsadli xarajatlarini moliyalashtirish va kompleks ravishda operativ mustaqillik asosida mablag'larni sarflash uchun, davlat orqali jalb

CamScanner yordamida skanerlangan

qilinadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va foydalanish usulidir.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarga tushadigan mablag'larning foydalanish yo'nalishlari, bu jamg'armaning maqsadlariga, konkret iqtisodiy sharoitga qarab ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan rejalar asosida belgilanadi. Mablag'larning bir qismi ta'sis faoliyatiga yo'naltiriladi hamda qimmatli qog'ozlarni olish uchun ham yo'naltirilishi mumkin. Byudjetdan tashqari jamg'armalar investorlar va moliyaviy bozorning qatnashchisi bo'lishi mumkin, chunki bu birinchidan, odatda pul mablag'lari bilan foydalanish vaqti ularning vujudga kelishi bilan to'g'ri kelmaydi, ikkinchidan, investitsion faoliyat natijasida daromadlar tegishli jamg'armalarning xarajatlarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha manba bo'ladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish huquqiga respublika va mahalliy organlar ega. Respublika darajasida tashkil etilgan byudjetdan tashqari jamg'armalar, odatda mahalliy organlar ixtiyoriga bir qismini ajratish bilan harakterlanadi.

Bu respublika va mahalliy byudjetdan tashqari jamg'armalarga tushadigan soliqlarning ulushini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi quyidagi byudjetdan tashqari jamg'armalar mavjud bo'lib, ularni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ijtimoiy jamg'armalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi.
2. Iqtisodiy jamg'armalar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Yo'l jamg'armasi, Davlat Mulki Qo'mitasining Maxsus hisob raqami.

2. O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi – pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar, ajratmalar va to'lovlarning to'liq yig'ilishini ta'minlash, aholini davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

Jamg'arma mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh

CamScanner yordamida skanerlangan

boshqarmalari ijtimoiy ta'minot tuman (shahar) bo'limlarining hisob raqamlarida jamlanadi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar va ajratmalar yig'ilishini ta'minlashni, shuningdek, ushbu mablag'larning jamg'armaga to'liq tushishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi soliq organlari amalga oshiradilar.

Jamg'armaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga va ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan davlat tomonidan kafolatlangan huquqlarini amalga oshirish;

– qonun hujjatlariga muvofiq pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, shuningdek, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar to'lashga xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash.

– davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy badallar va ajratmalarni O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari, ijtimoiy ta'minot tuman (shahar) bo'limlarining maxsus maqsadli byudjetdan tashqari hisob raqamlarida jamlash.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga ko'rsatmalar va uning joylardagi organlari:

– ishlamaydigan shaxslarga, yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga, shuningdek ular tomonidan ijtimoiy sug'urta badallari to'langan taqdirda dehqon xo'jaligi a'zolariga davlat pensiyalari, ijtimoiy nafaqalar, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar, dafn marosimi nafaqalarini o'z vaqtida tayinlaydilar, moliyalashtiradilar va Jamg'arma mablag'lari hisobidan to'laydilar;

– «Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladilar;

– yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslardan, shuningdek, ijtimoiy sug'urta bo'yicha ixtiyoriy badal to'lovchi dehqon xo'jaligi a'zolaridan badallar tushishining hisobini olib boradilar;

CamScanner yordamida skanerlangan

– yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning, shuningdek, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha ixtiyoriy badal to‘lovchi dehqon xo‘jaligi a’zolarining mehnat daftarchalarini yuritadilar va saqlaydilar;

– ish joyidan to‘lanadigan pensiyalar va ijtimoiy sug‘urta nafaqalarini to‘lash bo‘yicha yuridik shaxslar xarajatlarining yetmaydigan qismini qorlaydilar;

– Jamg‘arma mablag‘larini qonun hujjatlariga muvofiq qat’iy maqsadli sarflaydilar;

– yakka tartibdagi tadbirkorlarga va dehqon xo‘jaligi a’zolariga to‘lanadigan ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqa olish huquqini beruvchi hujjatlarning ishonchliligini tekshiradilar;

– davlat ijtimoiy sug‘urta tizimining barqarorligini ta’minlash va uni yanada takomillashtirish uchun oldini oluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida Jamg‘armaning moliyaviy ahvolini prognozlashtirish bo‘yicha aktual hisob-kitoblarni amalga oshiradilar;

– davlat ijtimoiy sug‘urtasi majburiy badallari miqdorlarini belgilash to‘g‘risida takliflar tayyorlaydilar;

– pensiyalar va nafaqalar barqaror va o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan zahira fondini tashkil etishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida takliflar tayyorlaydilar;

– Jamg‘armadan mablag‘ bilan ta’minlanadigan ijtimoiy to‘lovlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini amalga oshiradilar;

– kelgusi yil uchun Jamg‘arma daromadlari manbalari va xarajatlar yo‘nalishlari prognozi loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda ishlab chiqadilar va Moliya vazirligiga taqdim etadilar;

– Jamg‘arma byudjetining ijrosi to‘g‘risida tayyorlangan hisobotni, shuningdek, yiliga bir marta Jamg‘arma daromadlari va xarajatlarining holati to‘g‘risidagi mustaqil auditorlik tekshiruvi natijalarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan tartibda taqdim etadilar;

– o‘z vakolatlari doirasida Jamg‘arma vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yo‘riqnomalar va uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadilar;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh resurslarini O‘zbekiston Respublikasi

CamScanner yordamida skanerlangan

tijorat banklaridagi muddatli derozitlarga hamda qisqa muddatli davlat obligatsiyalariga joylashtiradilar;

– pensiyalar va ijtimoiy sug'urta nafaqalari o'z vaqtida hisoblanishi va to'lanishini ta'minlash masalalari bo'yicha joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladilar;

Davlat soliq xizmati organlari:

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan majburiy badallar, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha ajratmalar va to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi, Jamg'armaga to'liq va o'z vaqtida to'lanishining hisobini olib boradilar va nazorat qiladilar;

– Jamg'armaga majburiy to'lov to'lovchilarning to'liq hisobga olinishini va ular bo'yicha ma'lumotlar bazasi yuritilishini ta'minlaydilar;

– rejali tekshirishlarni amalga oshirishda (zarur bo'lganda, ijtimoiy ta'minot organlarining xodimlarini jalb qilgan holda) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Jamg'armaga sug'urta badallari, ajratmalar, to'lovlar va kompensasiya (tovon) to'lovlarining to'g'ri hisoblanishini, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma bilan o'zaro hisob-kitoblarning ahvolini tekshiradilar;

– hisoblash tartibi va to'lov muddatlarini buzganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarga qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy va ma'muriy choralar qo'llaydilar;

Ijtimoiy ta'minot bo'limlariga har chorakda quyidagilarni taqdim etadilar:

a) badallarning shaxslar bo'yicha hisobini va mehnat daftarchalarini yuritish uchun yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan to'langan badallarning miqdori to'g'risida ma'lumotlar;

b) Jamg'armaga tushgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar;

d) ilovaga muvofiq shakl bo'yicha Jamg'armaga badallar, ajratmalar va to'lovlar hisoblanishi va ulardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha badallar, ajratmalar va to'lovlarni mustaqil ravishda to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar:

– jamg'armaga ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallarni qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda hisoblaydilar va to'laydilar;

– ish joylarida to'lanadigan jamg'arma mablag'larining maqsadli yo'nalishda sarflanishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydilar;

CamScanner yordamida skanerlangan

– jamg‘arma mablag‘lari bo‘yicha belgilangan shakldagi hisobotlarning ishonchliligini va ularning davlat soliq xizmati organlariga o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlaydilar.

Jamg‘arma daromadlari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

– korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning sug‘urta badallari;

– fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari;

– dehqon xo‘jaliklari a’zolarining ixtiyoriy ravishda to‘lanadigan sug‘urta badallari;

– korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning belgilangan tartibda ajratiladigan majburiy ajratmalari;

– «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo‘lganlarga pensiya to‘lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da’volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag‘lar;

– «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun o‘tkaziladigan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish Jamg‘armasi mablag‘lari;

– «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to‘lash xarajatlarini qoplash uchun o‘tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag‘lari;

– hisoblangan jarimalar so‘mmalari, qonun hujjatlariga muvofiq soliq organlarini rivojlantirish Jamg‘armasiga undiriladigan so‘mmalardan tashqari, sug‘urta badallari va ajratmalarning o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun penyalar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;

– korxona tugatilganda, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayiblangan, kasb kasalligiga uchragan yoki sog‘lig‘iga boshqa shikast yetkazilgan xodimga zararni qoplash uchun to‘lanadigan summalar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Sug‘urta badallari, majburiy ajratmalar, hisoblangan jarimalar va penyalar miqdori va ularni to‘lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Jamg‘arma mablag‘lari:

– ijtimoiy ta’minot bo‘limlari tomonidan tayinlanadigan pensiyalarni;

– bolalikdan nogironlarga, davlat pensiya ta’minoti huquqiga ega bo‘lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalarni;

– bola tug‘ilganda beriladigan nafaqalarni;

– dafn marosimi nafaqalarini;

– korxona tugatilganda, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayiblangan, kasb kasalligiga uchragan yoki sog‘lig‘iga boshqa shikast yetkazilgan xodimga zararni qoplash uchun to‘lanadigan so‘mmalarni;

– 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaning ota-onalariga qo‘shimcha ta’til uchun to‘lovni;

– qonun hujjatlariga muvofiq Pensiya Jamg‘armasidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan boshqa ijtimoiy to‘lovlarni to‘lashga yo‘naltiriladi.

Ijtimoiy ta’minot bo‘limlarining xo‘jalik xarajatlari va ularda axborot texnologiyalarini yaratish xarajatlarini qoplash uchun majburiy badallar hamda ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha ajratmalarni to‘lash tartibini buzganlik uchun undirilgan penya va jarimalar so‘mmasining Jamg‘armaning maxsus hisobiga tushgan mablag‘idan 10 foizi yo‘naltiriladi.

Jamg‘arma mablag‘laridan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari moliyalash manbalaridan qat’iy nazar, soliq ushlanmalarini hisobga olishlarsiz, barcha ish haqi (daromad) turlariga hisoblanadi, bundan quyida ko‘rsatib o‘tilgan to‘lovlar mustasno:

1. Foydalanilmagan ta’til uchun kompensatsiya.

2. Ishdan bo‘shash chog‘idagi ishdan bo‘shash nafaqasi.

3. Moddiy yordam sifatida beriladigan pul nafaqalarining turli xillari.

4. Kompensatsiya to‘lovlari (xizmat safarlariga oid sutkalik pullar va sutkalik pul o‘rniga to‘lanadigan to‘lovlar, ish bilan bog‘liq shikastlanish yoki boshqa xildagi sog‘liqqa yetkazilgan zarar natijasida ko‘rilgan zararning qoplanishiga oid to‘lovlar).

CamScanner yordamida skanerlangan

5. Ayrim toifadagi xodimlarga tekinga beriladigan kvartiralar, kommunal xizmatlar, yoqilg'i, oylik yo'l chiptalari qiymati yoki ularni qoplash qiymati.

6. Berilgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal va yakka tartibdagi boshqa himoya vositalari, sovun, yog'sizlantirish vositalari, sut va davolash-profilaktika ovqatlanishining qiymati.

7. Tushliklarga oid dotatsiyalar, sanatoriy-kurortlarda davolanishga, dam olish uylariga yo'llanmalarning qiymati, stasionar va ambulatoriyada davolanish uchun to'lovlar.

8. Ishlash uchun boshqa hududga o'tkazish yoxud ko'chib o'tish chog'ida borish, mol-mulkni tashish va xonani ijaraga olish bo'yicha xarajatlarning qoplanishi.

9. Doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki sayyor tusga ega bo'lgan yoxud xizmat safarlari munosabati bilan bog'liq hollarda ish haqiga sutkalik to'lov puli o'rniga qo'shimcha to'lov va ustamalar.

10. Mehnat uchun taqdirlashlarsiz ishlangan kunlar (shanbaliklar, yakshanbaliklar va sh. k.) uchun tegishli byudjet yoki hayriya fondlari hisobiga o'tkaziladigan ish haqi.

11. Ish haqi fondi (mehnatga haq to'lash fondi) hisobidan o'tkaziladigan yubiley sanalari, tug'ilgan kunlar munosabati bilan, uzoq yillik va nuqsonsiz mehnat faoliyati, faol jamoatchilik ishi uchun va boshqa shunga o'xshash hollarda rag'batlantirish to'lovlari (bunga mukofotlar ham kiradi).

12. Musobaqalar, ko'riklarda, tanlovlar va shu kabilarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan pul mukofotlari.

13. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish uchun yuborilgan o'quvchilarga to'lanadigan stipendiyalar.

14. Korxona, muassasa va tashkilotlar hisobidan yosh mutaxassislarga oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun to'lanadigan nafaqalar.

15. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar.

Doimiy ravishda xorijda istiqomat qiluvchi, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi korxonalari (tashkilotlari, muassasalari)da fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishlovchi xorijiy davlatlar fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining daromadlaridan (ish haqlaridan)

CamScanner yordamida skanerlangan

yagona ijtimoiy to'lov va davlat ijtimoiy sug'urtasiga oid majburiy sug'urta badallari hisoblanmaydi.

3. Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi

O'zbekiston Respublikasi Ish bilan ta'minlashga ko'makla- shuvchi davlat jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Ish bilan ta'minlash jamg'armasi deb yuritiladi) aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish hamda mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) bo'limlarining (keyingi o'rinlarda mehnat bo'limlari deb ataladi) samarali faoliyat ko'rsatishi tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tarkibida tashkil etilgan.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi byudjetdan tashqari maqsadli davlat jamg'armasi hisoblanadi, mahalliy va respublika darajalarida tashkil etiladi va uning mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishning maqsadli yo'naltirilganligi saqlab qolingan holda Davlat byudjeti tarkibida jamlanadi hamda Jamg'armaning mustaqil balansida aks ettiriladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining byudjetdan tashqari maqsadli maxsus hisob raqamlarida jamlanadi. Bunda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning (keyingi o'rinlarda ish beruvchilar deb yuritiladi) ajratmalari hisobiga tashkil topadigan Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larining yetmish foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari ixtiyorida qoladi, keyinchalik tumanlar va shaharlar o'rtasida taqsimlanadi, o'ttiz foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, tegishli hududiy mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarining to'lov topshiriqnomalari bilan pul o'tkazish yo'li bilan respublika darajasida markazlashtiriladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larini tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari tasarruf etadilar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Quyidagilar Ish bilan ta'minlash jamg'armasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

– ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafolatlarini amalga oshirish;

– mehnat bo'limlari ta'minotini moliyalashtirish;

– tijorat banklarida kredit liniyalari ochish yo'li bilan ish o'rinlarini saqlab qolish va yangi ish o'rinlari tashkil etish uchun kreditlar berish;

– fuqarolarni ishga joylashtirish, mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, sotsiologik kuzatuvlar o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash.

Ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va uning joylardagi organlari:

– ish beruvchilarning majburiy ajratmalarini O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining byudjetdan tashqari maqsadli maxsus hisob raqamlarida jamlaydilar;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan ishsizlik nafaqalarini, ishsiz fuqarolarga moddiy yordamni va qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa to'lovlarni o'z vaqtida tayinlaydilar, moliyalashtiradilar va to'laydilar;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan qonun hujjatlariga muvofiq qat'iy maqsadli foydalanadilar;

– ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish uchun oldini oluvchi chora tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida Ish bilan ta'minlash jamg'armasining moliyaviy ahvolini prognozlash bo'yicha aktuar hisob-kitoblarni amalga oshiradilar;

– majburiy ajratmalar miqdorlarini belgilash to'g'risida takliflar tayyorlaydilar;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasining kelgusi yil uchun daromadlari manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari prognozi loyihasini ishlab chiqadilar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadilar;

CamScanner yordamida skanerlangan

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasi byudjetining ijrosi to'g'risidagi har oylik hisobotlarni, shuningdek, yiliga bir marta Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlari va ulardan foydala- nishning ahvoli to'g'risidagi mustaqil auditorlik tekshiruvi natijalarini tayyorlaydilar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan tartibda taqdim etadilar;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasi vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadilar;

– joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ish bilan ta'minlash hududiy dasturlarini amalga oshirishda, haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil etishda qatnashadilar;

– majburiy ajratmalar va to'lovlarning to'g'ri hisoblanishini va o'z vaqtida Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga to'liq to'lanishini hisobga oladilar va nazorat qiladilar;

– ish beruvchilar tomonidan majburiy ajratmalar va to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishini, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Ish bilan ta'minlash jamg'armasi bilan o'zaro hisob-kitoblarning ahvolini tekshiradilar;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasining to'lov subyektlari va moliyalashtirish obyektlari bo'yicha to'liq hisob-kitobni va elektron ma'lumotlar bazasi yuritilishini ta'minlaydilar. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga taalluqli masalalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda hamkorlik qiladi.

Ish beruvchilar:

– majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda hisoblab chiqarish va Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga to'lashga;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasining kreditlashga, haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil etishga, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ajratilgan mablag'larini sarflashning maqsadli yo'naltirilishiga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash bo'yicha belgilangan shakldagi hisobotlarning ishonchliligini va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashga majburdirlar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlarini shaklantirish va uning mablag'laridan foydalanishni ta'minlash jamg'armasi mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ish haqi fondidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdordagi majburiy ajratmalari, ushbu xarajatlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi;

– tegishli byudjet mablag'larini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadigan miqdorlarda respublika va mahalliy byudjet mablag'laridan dotatsiyalar;

– qo'shimcha va yangi ish o'rinlari yaratish uchun kichik biznes subyektlarini kreditlash uchun tijorat banklari tomonidan ochilgan kredit liniyalaridan foizlar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlar.

Quyidagilar Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga ajratmalar to'lashdan ozod etiladilar:

– nogironlar jamoat tashkilotlariga qarashli o'quv-ishlab chiqarish va ishlab chiqarish korxonalari;

– protez-ortopediya buyumlari ishlab chiqarishga, nogironlarga protez qo'yish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan korxonalar;

– tarbiya va ta'lim muassasalari huzuridagi o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va o'quv-ishlab chiqarish korxonalari;

– byudjet ta'minotidagi teatr-tomosha tashkilotlari.

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larini jamlash va ulardan foydalanish uchun banklarda hisob raqamlari ochiladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari hisobiga quyidagilar amalga oshiriladi:

– mehnat organlarida ishsizlik maqomi olgan va ish qidiruvchi sifatida ro'yxatda turgan shaxslarni kasbga tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini mablag' bilan ta'minlash;

– ishsizlik bo'yicha nafaqalar, mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish

CamScanner yordamida skanerlangan

uchun kompensatsiyalar to‘lash va qonun hujjatlariga muvofiq ishsizlarga moddiy yordam berish;

– ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi xarajatlarini qoplash;

– haq to‘lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag‘ bilan ta’minlash;

– nogironlar va fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlari (ishlab chiqarishlar) tashkil etish tadbirlarini mablag‘ bilan qisman ta’minlash;

– axborot-ma’lumotlar va reklama-noshirlik ishlarini amalga oshirish;

– demografiya, aholini ish bilan ta’minlash va ijtimoiy himoya qilish, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni normalash va unga haq to‘lash masalalari bo‘yicha normativ-uslubiy va yo‘riqnoma materiallar ishlab chiqishni mablag‘ bilan ta’minlash;

– belgilangan tartibda respublika darajasida va hududiy darajada ijtimoiy kuzatuvlarni tashkil etish va o‘tkazish, ish bilan ta’minlash masalalari bo‘yicha aholining ayrim guruhlari o‘rtasida anketa so‘rovlari o‘tkazish;

– respublika va hududiy mehnat bozori axborot tizimlarini yaratish va ularning dasturiy ta’minotini ishlab chiqish, shu jumladan, texnika vositalari sotib olish;

– ish bilan band bo‘lmagan aholiga yordam ko‘rsatish, shu jumladan, ishga joylashtirishga ko‘maklashish va maslahat xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlash;

– aholini ish bilan ta’minlashga doir muammolar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni mablag‘ bilan ta’minlash;

– ishchi kuchi eksport qilish masalalari bo‘yicha xalqaro loyiha va shartnomalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining chet ellarga ishga yuborilgan fuqarolarini ishga joylashtirishni tashkil etish, ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlash;

– Ish bilan ta’minlash jamg‘armasi mablag‘larini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan, aholini ish bilan ta’minlashga bevosita ko‘maklashuvchi tijorat va xo‘jalik hisobidagi faoliyatni amalga oshirish, mulkchilik va xo‘jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalar tashkil etish;

CamScanner yordamida skanerlangan

– tijorat banklari tomonidan ochiladigan kredit liniyalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shu jumladan kichik biznes subyektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga, oilaviy tadbirkorlik subyektlariga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lov, ta'minlash va qaytarish shartlarida yangi ish o'rinlari yaratish uchun qisqa muddatli va o'rta muddatli kreditlar berish.

Bunda Ish bilan ta'minlash jamg'armasidan kreditlar ustuvor tartibda va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning hududiy bosh boshqarmalari takliflariga ko'ra yangi ish o'rinlari ustuvor ravishda yaratiladigan hududlarda, uzoqda joylashgan, borish qiyin bo'lgan va chegara tumanlarda, murakkab vaziyatda va ekologik noqulay sharoitli mintaqalarda yangi ish o'rinlari yaratish, shuningdek «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida ko'rsatilgan aholining alohida toifalarini ish bilan ta'minlash bilan bog'liq maqsadlar uchun beriladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi hisob raqamlariga:

– tekshirishlar natijasida majburiy ajratmalarga qo'shimcha hisoblangan mablag'lar so'mmasidan;

– mehnat va aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi uchun undirilgan ma'muriy va moliyaviy sanksiyalar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining moddiy yordam jamg'armasiga yo'naltiriladi. Ushbu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari respublika va hududiy darajada ishlab chiqilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ish bilan ta'minlash dasturlari asosida belgilanadi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari hisob raqamlarida yetishmagan mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larining Respublika qismi hisobidan qoplanadi. Yil boshida zarur hollarda Ish bilan ta'minlash jamg'armasi hisob raqamidagi bo'sh mablag'lar Davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun yo'naltirilishi mumkin.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'laridan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4. Ijtimoiy soliq

Ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari;

Soliq kodeksning 408 va 409-moddalarida nazarda tutilgan tartibga muvofiq ijtimoiy soliq to'laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari.

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyektidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish obyektidir.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash tarzidagi, Soliq kodeks 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar.

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi Soliq kodeksning 371-moddasiga muvofiq to'lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga

CamScanner yordamida skanerlangan

kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O'zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to'lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Soliq kodeks 403-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnoma bo'yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo'lmagan summada belgilanadi.

Soliq stavkalari, agar Soliq kodeksning 408-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavka-lari, foizlarda
1.	Soliq to'lovchilar, bundan 2-4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2.	Budjet tashkilotlari	25
3.	"SOS - O'zbekiston Bolalar mahallalari" uyushmalari	7
4.	Ixtisoslashtirilgan tsexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Soliq soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari bo'yicha, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo'yicha soliqni to'lash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq hisoboti soliq hisobida turilgan joydagi soliq organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo'yicha soliqning hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 25-martiga qadar taqdim etiladi.

Soliqni to'lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Byudjetdan tashqari fondlarga ta'rif bering.
2. Byudjetdan tashqari ijtimoiy va iqtisodiy fondlar qanday maqsadlar uchun tashkil qilinadi?
3. Pensiya fondining maqsad va vazifalari hamda mavjud muammolarini yoritish.
4. Byudjetdan tashqari fondlarni shakllanish manbalari aytib bering?
5. Byudjetdan tashqari fondlarni foydalanish yo'nalishlari tavsiflab bering?
6. Davlat pensiya jamg'armasi daromad nimalardan iborat?
7. Davlat pensiya jamg'armasi xarajatlari nimalardan iborat?
8. Byudjetdan tashqari maktab ta'limini rivojlantirish asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
9. Ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari kimlar?
10. Byudjetdan tashqari jamg'armalarni sanab bering?
11. Jamg'armaning asosiy vazifalari nimalar hisoblanadi?
12. O'zbekiston Respublikasi Ish bilan ta'minlashga ko'makla- shuvchi davlat jamg'armasi daromadlarini sanab bering?
13. O'zbekiston Respublikasi Ish bilan ta'minlashga ko'makla- shuvchi davlat jamg'armasi harajatlarini sanab bering?
14. Ish bilan ta'minlash jamg'armasining asosiy vazifalari aytib bering?

CamScanner yordamida skanerlangan

23-MAVZU: JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I

Reja:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning shakllanishi va ularning ahamiyati.

2. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq.

3. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini deklaratsiya bo'yicha to'lash.

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqdan belgilangan soliq imtiyozlari.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslarning daromad solig'i, imtiyozlar, yer solig'i, soliq to'lovchilar.

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning shakllanishi va ularning ahamiyati

Soliq kodeksining 52-bob 364-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e'tirof etiladi.

Tegishli maqomi o'ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ket o'n ikki oylik davr davomida jami bir yuz sakson uch kalendar kundan ko'proq O'zbekiston Respublikasida haqiqatda bo'lgan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e'tirof etiladi.

Agar jismoniy shaxs tegishli soliq davrida O'zbekiston Respublikasida jami bir yuz sakson uch kundan kam bo'lib, biroq ushbu turish muddati uning boshqa biron-bir davlatda turgan muddatidan ko'proq bo'lsa ham, u O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi, soliq subyektlari nuqtai nazardan 3ta asosiy turkumga ajratiladi:

1. Jismoniy shaxslarni(rezident) soliqqa tortish tizimi;
2. Yakka tadbirkorlik faoliyatini shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi;
3. Norezident jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar asosan bevosita soliqlardir. Shuningdek, renta xususiyatiga ega bo'lgan soliqlarning ham ayrim turlarini to'laydilar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Jismoniy shaxslar olgan daromadlari, mulklaridan va iste'molda soliq to'laydilar. Ular tomonidan to'langan soliqlarning davlat byudjetini shakllantirishdagi ulushi yuqoridir. Ayniqsa, jismoniy shaxslar daromadlaridan to'lanaldigan soliqning davlat byudjetidagi ulushi yuqoridir. Shuningdek, jismoniy shaxslardan undirilgan soliqlar mahalliy byudjetlarning daromadlarida sezilarli ulushga egadir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'imlar:

Umumdavlat soliqlari:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
2. Yuridik shaxs tashkil etmasdan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;
3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar:

1. Mol-mulk solig'i;
2. Yer solig'i;

Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'I va yer soliqlarni keying mavzularimizda batafsil ko'rib chiqamiz.

2. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq to'lovchilari deb (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) quyidagilar e'tirof etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar;

CamScanner yordamida skanerlangan

2) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar.

Daromad solig‘ining obyekti soliq to‘lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (bundan keyin ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i so‘mmalari O‘zbekiston Respublikasida soliqni to‘lashda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan so‘mmalarning miqdori jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo‘yicha hisoblab chiqarilgan daromad solig‘i so‘mmasidan oshmasligi lozim.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to‘lovchi olishi lozim bo‘lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag‘lar, shu jumladan:

Quyidagilar jami daromadga kiradi:

- mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Mehnatga haq to‘lash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo‘yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo‘yicha oladigan daromadlari kiradi. Bundan tashqari mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan to‘lovlar (yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot, bir yo‘la beriladigan mukofotlar, maoshlarga ustamalar, ta’tilga har yilgi qo‘shimcha haqlar, ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va boshqalar), kompensatsiya to‘lovlari (tabiiy iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar, og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, dam olish kunlarida va bayram kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamala va boshqalar) hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash (xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to‘lash, mehnatga layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash, yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqti uchun haq to‘lash, oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqti uchun yuridik

CamScanner yordamida skanerlangan

shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar va boshqa shu kabilar) tarzidagi daromadlar ham kiradi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foizlar, dvidentlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar, royalti va shu kabi qonunchilikda ko‘zda tutilgan daromadlar kiradi

Moddiy naf tarzidagi daromadlar jumlasiga yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to‘lash, shu jumladan: jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qitish, tarbiyalash; kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash; oziq-ovqat, oylik yo‘l chiptalari yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash; sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash kabilar kiradi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga esa davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar; stipendiyalar; donorlik uchun pul mukofotlari; alimentlar; musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; yutuqlar; grantlar; jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo‘yicha olingan foizlar va boshqa daromadlar kiradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i O‘zbekistonda 2017 yilga qadar progressiv soliq hisoblanar edi, 2017 yildan boshlab prapartsianal stavkaga o’tdi. Ushbu soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kadeksida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

jismoniy shaxslarning ish xaqi, mukofotlar va boshqa daromadlariga solinadigan tabaqalashgan progressiv soliq stavkalari;

jismoniy shaxslarning divident va foiz tariqasida oladigan daromadiga soliq stavkasi;

norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to‘lov manbaida solinadigan soliq stavkalari;

imtiyozli soliq stavkalari.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq qonunchiligiga binoan 1998 yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya'ni 5 pog'onali qilib belgilangan edi. 2000 yildan boshlab 4 pog'onali, ya'ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001 yildan esa 3 pog'analiga o'tib, uning stavkasi 12, 25, 30 foizni, 2002 yildan 13, 23, 33 foiz qilib belgilangan edi. 2017 yildan boshlab asosiy stavka 12 foizli stavkada uundirilib kelinmoqda. Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

Chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq solinadi.

Rezident - chet ellik jismoniy shaxsdan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi singari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi.

Norezident - chet ellik jismoniy shaxslardan to'langan joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi.

Soliq solish maqsadida norezident jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident sifatida yoki doimiy muassasa bilan bog'liqlikda bo'lmagan norezident shaxs sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident jismoniy shaxs doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va yig'imlarni undirish tegishli chet davlatda O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslariga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan hollarda o'zaro kelishuv asosida to'xtatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida, bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga quyidagi soliq stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

CamScanner yordamida skanerlangan

T/r	Soliq obyekti	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlar	20

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va byudjetga o'tkazish uchun daromad to'lovchi yuridik shaxs javobgardir. Soliq so'mmasi ushlab qolinmaganda daromad to'lovchi yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarima va penyalarni byudjetga to'lashi shart. Yo'riqnomaning 36-bandida ko'rsatib o'tilgan yuridik shaxslar quyidagilarni bajarishi shart:

– ish haqini to'lash chog'ida jismoniy shaxsga uning talabiga ko'ra unga daromadi summasi va turi, ushlab qolingan soliq so'mmasi, shuningdek, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazilgan summa haqida ma'lumotnomani berish;

– jismoniy shaxsning ro'yxat raqami yoki pasport ma'lumotlari, familiyasi, ismi va otasining ismi, doimiy yashash manzili, hisobot yilida qilgan daromadining umumiy so'mmasi va ushlab qolingan soliqning umumiy summasi ko'rsatilgan asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotnomani moliya yili tugaganidan so'ng 30 kun ichida soliq organlariga taqdim etish;

– yilning har choragida, hisobot oyidan keyingi oyning 15 sanasidan kechikmay, yuridik shaxs soliq to'lash bo'yicha ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq organlariga yollanib ishlovchilarga ish haqi va boshqa daromadlar ko'rinishida hisoblangan va haqiqatda to'langan so'mmalar to'g'risida, shuningdek, ushbu daromadlarga solinadagan soliq summalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim qilish.

Yuridik shaxs soliq to'lash bo'yicha ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq organlariga yollanib ishlovchilarga ish haqi va boshqa

CamScanner yordamida skanerlangan

daromadlar ko‘rinishida hisoblangan va haqiqatda to‘langan summalar to‘g‘risida, shuningdek, ushbu daromadlarga solinadagan soliq summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni:

mikrofirmalar va kichik korxonalarga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslar tomonidan - hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan;

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan taqdim qilish.

Qat’iy belgilangan miqdorlarda soliqni to‘lovchi jismoniy shaxslar uchun soliq stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Faoliyat turi	Bir oylik soliq stavkalari (so‘mda)			
		Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari,	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1.	Chakana savdo:				
	oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	750 000	600 000	300 000	200 000
	dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan	250 000	150 000	100 000	50 000
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	250 000	150 000	100 000	50 000
2.	Maishiy xizmatlar	250 000	150 000	100 000	50 000
3.	Boshqa faoliyat turlari	225 000	150 000	100 000	50 000
4.	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:				
	3 tonnagacha yuk ko‘taradigan yuk avtomobillari uchun	150 000			
	3 tonnadan ortiq yuk ko‘taradigan yuk avtomobillari uchun	225 000			

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini deklaratsiya bo'yicha to'lash

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari kiradi:

mulkiy daromadlar, agar ushbu bo'limga muvofiq bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmasa;

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

moddiy naf tarzidagi daromadlar, agar bu daromadlarga soliq agentida soliq solinmagan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar;

Soliq kodeksi 385-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar, ular tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq to'lash tartibi tanlanganda;

soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolinmagan soliq solinadigan boshqa daromadlar.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya, agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan daromadlaridan soliq uning arizasi bo'yicha ushlab qolingan bo'lsa taqdim qilinmaydi, bundan ushbu modda birinchi qismining beshinchi xatboshisida ko'rsatilgan daromadlar mustasno.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yoki joriy yilning 1-apreligacha rezidentga aylangan chet el jismoniy shaxsi, ushbu modda birinchi va ikkinchi qismlarining qoidalaridan qat'i nazar, Soliq kodeksining 397-moddasida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etadi.

Soliq kodeksi 385-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq to'laydigan soliq to'lovchilar daromadlarni olish bilan bog'liq bo'lgan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan haqiqatda amalga oshirilgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirib tashlash huquqiga ega. Bunda soliq to'lovchilarning Soliq kodeksi 385-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan jami daromadi tovarlarni (xizmatlarni)

CamScanner yordamida skanerlangan

realizatsiya qilinishidan olingan daromadlardan, shuningdek, Soliq kodeksining 370-moddasida ko'rsatilgan boshqa daromadlardan iborat.

Ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tarzida daromad oluvchi soliq to'lovchilar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Ushbu moddaga muvofiq daromadlariga soliq solinadigan soliq to'lovchilar soliqni soliq organining yozma xabarnomasi asosida to'laydi.

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan soliq to'lovchi daromadlar olish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan, haqiqatda sarflangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, lekin chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish hamda ulardan foydalanish uchun zarur materiallar sotib olishga doir xarajatlar;

faqat ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga to'langan daromadlar va ushlab qolingan soliq summalari to'g'risida soliq agentining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnomasi ilova qilinadi.

Jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaning shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Soliq organi tomonidan soliq to'lovchi taqdim etgan jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, soliq organi jami yillik daromad haqidagi taqdim etilgan deklaratsiyada aniqlangan xatolar to'g'risida soliq to'lovchiga bildirish xati yuboradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq organining xabarnomasini olgan soliq to'lovchi o'n kun ichida jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga zarur bo'lgan o'zgartirishlarni kiritishi shart.

Agar jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza soliqni to'lash muddati o'tguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi Soliq kodeksida belgilangan javobgarlikdan ozod etiladi.

Agar jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza soliqni to'lash muddati o'tganidan keyin, lekin xatolar soliq organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Soliq to'lovchi soliq organining taqdim etilgan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xato to'g'risidagi bildirish xatini olgan kun soliq organi tomonidan xato aniqlangan kun, deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlariga ko'ra hisoblab chiqarilgan soliqni o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to'laydi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblab chiqarilgan soliqni chet davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda milliy valyutada ifodalangan soliq O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan soliq to'langan sanadagi kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqariladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar, shuningdek soliq kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soliqni taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya yoki soliq organining xabarnomasi asosida, daromad olingan oydan keyingi oyning o'n beshinchi kunigacha har oyda to'laydi. Yil tugagach, soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 1-iyunidan kechiktirmay soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi lozim.

Quyidagilar soliq to'langan sana deb hisoblanadi:

soliq soliq agentlari yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langan taqdirda — bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

CamScanner yordamida skanerlangan

jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda — bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan soliqni to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari O'zbekiston Respublikasida soliq to'lashda Soliq kodeksining 342-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Soliqni hisobga olish soliq davri yakuni bo'yicha jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilgan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solish to'lov manbaida to'lovlar O'zbekiston Respublikasining ichkarisida yoki tashqarisida qilinganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalarini hisobga olgan holda soliq solinadi, bundan soliqni undirish o'zarolik prinsipi bo'yicha tugatilishi yoki cheklanishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsga daromadlarni to'lash to'lov manbaida soliqni ushlab qolmasdan yoki Soliq kodeksining 6-moddasiga muvofiq ikkiyoqlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik masalalarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomasi qoidalariga va Xalqaro shartnomalar bo'yicha soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga doir maxsus qoidalarga muvofiq pasaytirilgan stavkani qo'llagan holda amalga oshiriladi.

Soliq summasi ushlab qolinmaganligi yoki O'zbekiston Respublikasi Xalqaro shartnomasining qoidalari g'ayriqonuniy tarzda qo'llanilishi mazkur soliq ushlab qolinmasligiga yoki to'liq ushlab qolinmasligiga sabab bo'lgan taqdirda, Kodeksning ushbu bo'limiga muvofiq soliq agenti deb e'tirof etilgan shaxslar tomonidan ushlab qolinmagan soliq summasini va u bilan bog'liq penya summasini qonun hujjatlariga muvofiq budjetga kiritilishi shart.

Soliq kodeksning qoidalariga muvofiq soliq agenti tomonidan O'zbekiston Respublikasining norezidenti daromadlaridan hisoblab chiqarilgan soliq summasi undan ushlanmasdan o'z mablag'lari

CamScanner yordamida skanerlangan

hisobidan to‘langanda, soliq agentining soliqni to‘lov manbaidan ushlab qolish va ko‘chirib berish majburiyati bajarilgan hisoblanadi.

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqdan belgilangan soliq imtiyozlari

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar 3 guruhga bo‘linadi:

1.Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari;

2.Soliq solishdan to‘liq ozod etiladigan jismoniy shaxslar;

3.Qisman, ya’ni daromad olingan har bir oy uchun bazaviy miqdorning to‘rt baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha soliq solishdan ozod qilinadigan jismoniy shaxslar.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

Quyidagilar jami daromad tarkibiga kiritilmaydi:

– 1) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan soliq to‘lovchi olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti va sovg‘alar;

– 2) donorlik uchun pul mukofotlari;

– 3) olingan alimentlar;

– 4) fuqarolar tomonidan olinadigan sug‘urta tovoni summalari;

– 5) stipendiyalar;

– 6) uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha har oylik kompensatsiya pul to‘lovlari;

– 7) davlat pensiyalari, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar;

– 8) majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallari

– 9) o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlar;

– 10) O‘zbekiston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha daromadlar.

– Soliq agentlarining Soliq kodeksining 386-moddasida nazarda tutilgan jismoniy shaxs foydasiga amalga oshiradigan quyidagi xarajatlariga soliq to‘lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

– 1) mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davo-

CamScanner yordamida skanerlangan

lash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlari;

– 2) kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno;

– 3) favqulodda holatlar munosabati bilan yetkazilgan zararlar summasi doirasida beriladigan moddiy yordam summalari;

– 4) xodimlarni ish joyiga olib borish va olib qaytish bo'yicha xarajatlari;

– 5) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo'lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo'l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlari;

– 6) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formali kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlar;

– 7) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

– 8) xizmat safarlariga oid quyidagi kompensatsiya to'lovlari:

– xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar;

– uy-joyni ijaraga olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar;

– uy-joyni band qilish uchun to'lovlar;

– xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

– qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to'lovlar;

CamScanner yordamida skanerlangan

– 9) xodimga to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar):

– doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan, shuningdek, vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar);

– xizmat ishlarida shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

– dala ta’minoti;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normalar bo‘yicha boshqa kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar), bundan soliq kodeksning 373 va 377-moddalarida ko‘rsatilganlari mustasno;

– 10) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

– jabrlanuvchi mehnatda mayib bo‘lguniga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to‘lovlar (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo‘lib qolgan taqdirda, zararning o‘rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,76 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda qoplanadi);

– maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘shimcha xarajatlar uchun oyiga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 70,3 foizi miqdoridagi to‘lovlar;

– jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘shimcha xarajatlar tariqasida har oyda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi miqdoridagi to‘lovlar;

– xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar;

– 11) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

– marhumning o‘rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlar;

CamScanner yordamida skanerlangan

– boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to‘lovlar;

– 12) talabalarning ta’lim olishi uchun O‘zbekiston Respublikasining oliy o‘quv yurti bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha pulli-kontrakt asosida o‘tkaziladigan to‘lovlar;

– 13) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

– 14) soliq to‘lovchining mijozlarning tovarlar va xizmatlarni sotib olish faolligini oshirishga qaratilgan va

Quyidagilarning daromadlariga soliq solinmaydi:

1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa — O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

2) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma’muriy-texnik xodimlari hamda ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

3) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

4) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) Xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari — agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha.

CamScanner yordamida skanerlangan

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun bazaviy miqdorning to‘rt baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) ozod qilinadi:

Quyidagi soliq to‘lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

1) “O‘zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishincha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar. Bu imtiyoz urush nogironining (ishtirokchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (ishtirokchilarga) nogironning (ishtirokchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari).;

5) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz onalar;

6) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor hamda boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar;

7) bolaligidan nogironligi bo‘lgan shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona.

CamScanner yordamida skanerlangan

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadga kiritiladigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo‘yicha to‘lovlar);

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

4) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek, bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan xodimlarning, shuningdek, doimiy ishi ishlarning vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘lanadigan ustamalar;

6) ish beruvchi joylashgan yerdan (yig‘ilish punktidan) ishlash joyigacha borish va u yerdan qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to‘lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo‘lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me’yoriy vaqti uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta’minoti;

9) xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

CamScanner yordamida skanerlangan

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to‘lovlar;

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to‘lovlar;

12) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash uchun soliq kodeks 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’til uchun to‘lov, shuningdek ushbu ta’tildan foydalanilmaganda, shu jumladan, xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lovi;

b) noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek, og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘shimcha ta’til uchun to‘lov;

v) o‘qish bilan bog‘liq ta’til va ijodiy ta’tillar uchun to‘lov;

g) o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo‘shimcha ta’til uchun to‘lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolingan holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

3) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to‘lov;

4) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to‘lov;

5) qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma’lum muddatga avvalgi ish joyi bo‘yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolingan holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to‘lovi;

CamScanner yordamida skanerlangan

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to'lov;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha to'lov;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqti uchun yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun to'lov;

11) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun to'lov;

12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to'lov;

13) ish beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar;

14) oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqti uchun ish beruvchi hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliq kodeksiga asosan kimlar jismoniy shaxslar hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i qanday hisoblanadi?
3. O'zbekistonda jismoniy shaxslar nechta turdagi soliq to'laydilar?
4. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi, soliq subyektlari nuqtai nazardan nechta asosiy turkumga ajratiladi?
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar qaysi soliqlar kiradi?
6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq to'lovchilari kimlar hisoblanadi?
7. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga qaysi daromadlar kiradi?
8. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga qanday daromadlar kiradi
9. Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlarga qanday daromadlar kiradi?
10. Jismoniy shaxslarning daromadini deklaratsiyaga asosan soliq tortish deganda nimani tushunasiz?

CamScanner yordamida skanerlangan

11. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar nechta guruhga bo'linadi?
12. Qaysi daromadlar jismoniy shaxslardan daromad tarkibiga kiritilmaydi?
13. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash jumlasiga nimalar kiradi?
14. Jismoniy shaxslarning qanday daromadlariga soliq solinmaydi?
15. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadga kiritiladigan kompensatsiyalar deganda nimalarni bilasiz?

CamScanner yordamida skanerlangan

24-MAVZU: MOL-MULK SOLIG'I

Reja:

1. **Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i**
2. **Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i.**

Kalit so'zlar: mol-mulk solig'i, yuridik shaxslar.

1. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i

Davlat byudjetini shakllantirishning eng optimal usuli soliqlar hisoblanib, ularning paydo bo'lishiga davlatchilikning vujudga kelishi sabab bo'lgan. Hozirgi kunda jahonda mavjud 230 ga yaqin mamlakatlarda davlat byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri bu – soliqlardir. Korxonalar mulk solig'i joriy qilinishidan asosiy maqsad ham davlat byudjetini doimiy va barqaror daromadini ta'minlash hisoblanadi. Mulk solig'i amal qiladigan barcha mamlakatlarda ushbu soliq mahalliy (shtat, shahar, tuman va shu kabilar) byudjetlarga kelib tushadi.

Mol-mulk solig'i soliq tizimida o'z o'rniga va boshqa soliqlarga nisbatan quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

mulk solig'i soliq obyekti bo'lgan mulkning soliqqa tortish maqsadida buxgalteriya balansida ko'rsatilgan aniq qiymati asosida undiriladi ya'ni unga nisbatan hech qanday chegirma yoki qo'shilmalar qo'shilmaydi;

mulk solig'i soliqqa tortiladigan mulklarga moliya-xo'jalik faoliyatida foydalanish yoki foydalanmasligidan qat'iy nazar soliq solinadi, hattoki ikki barobar miqdorida ham undirilishi mumkin.

Mamlakatimizda 1991 yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonun respublikamizda yangi soliq tizimi shakllanishini boshlab berdi. U birinchi bor soliq tizimining tuzilishini va ishlashining umumiy mexanizmini aniqlab berdi, soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar ro'yxatini, ularni hisoblash va undirish tartibini, soliq to'lovchilarning burchlari va javobgarligini ko'rsatdi.

Ushbu Qonunga ko'ra, 1992 yil 1 yanvardan e'tiboran korxonalar mulkiga soliq joriy qilindi va mamlakatimiz soliq tizimida yangi muhim mahalliy soliq amal qila boshladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ushbu soliqni undirish bo'yicha 1992 yil 25-martdagi 412-sonli «Korxonalar mol-mulkiga soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomasi qabul qilindi.

Ushbu Yo'riqnomaga muvofiq soliq to'lovchi bo'lib soliqqa tortiladigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi va soliq obyekti sifatida ular mulkining qiymatdagi ifodasi sifatida qaraldi.

1993 yil 1-yanvargacha soliq korxona ixtiyorida qoladigan daromaddan to'landi. Bu esa korxona oxir-oqibat o'zida qoladigan foydaning kamayishiga olib kelardi. SHu sababli bu soliqni korxona moliya faoliyatiga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida soliq summasi mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibiga qo'shiladigan bo'ldi. Soliq summasining bu tarzda mahsulot tannnarxiga kiritilishi ham ilmiy asosga ega emas, chunki soliq summasining mahsulot tannarxiga qo'shilishi mahsulot tannarxining oshishiga va korxona mahsulotining bozorda sotilishini biroz bo'lsada cheklaydi. Shu bilan birgalikda 1993 yildan boshlab korxonalar tomonidan asosiy vositalariga hisoblangan eskirish summalari ham soliqqa tortiladigan bo'ldi. Bularning soliqqa tortilishiga sabab, o'tish davrida Davlat byudjetini mablag' bilan to'ldirish maqsadi ko'zda tutildi. Lekin bu bozor iqtisodiyoti qonun qoidalariga zid hisoblanadi, eskirish summasi korxona foydasi hisobidan eskirish hisoblanayotgan obyekt o'rniga yangisini kiritish maqsadida amalga oshiriladi. Bu summaga soliq solinishi esa korxonalarda yangi texnologiyalardan foydalanilishini rag'batlantirmaydi. Shu sababli bu qoida bir yilchagina amalda bo'ldi va bekor qilindi.

1994 yil 1-yanvardan boshlab, korxonalar va tashkilotlar balansidagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki qiymati bo'yicha soliqqa tortish obyekti etib belgilandi. Soliq asosiy vositalar dastlabki qiymatidan undirilishiga o'tilishi o'sha yillarda kuzatilgan yuqori darajadagi inflyasiya sur'atlari hisoblanadi. Yuqori darajadagi inflyasiya sur'ati mulklar qiymatining bozor qiymati o'rtasidagi tafovutning vujudga kelishi va uning yildan-yilga oshib borishi sabab bo'ladi. Buning natijasida ulardan undiriladigan soliq hech qanday ta'sir doirasiga ega bo'lmay qoladi.

Xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar 1997 yilgacha alohida mol-mulk solig'ini va transport vositalari uchun soliqni to'lardilar. Bunda korxona balansida turuvchi asosiy ishlab chiqarish fondlarining balans (eskirish hisobga olinmagan) qiymati soliq obyekti hisoblanardi. Soliqlarni unifikatsiyalash qoidasiga asosan 1997 yildan

CamScanner yordamida skanerlangan

boshlab yuqoridagi ikkita soliq o‘rniga yagona – korxonalar mol-mulk solig‘i undirila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasida Soliq kodeksining qabul qilinishi mulk solig‘ini yanada takomillashishida muhim omil bo‘ldi. Soliq kodeksi qabul qilinishi bilan korxonalar mol-mulk solig‘ini undirish tartibini belgilab beruvchi Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 1997 yil 10 noyabrdagi 34/97-90 son qarori bilan «Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqni hisoblash va byudjetga o‘tkazish tartibi to‘g‘risidag»gi Yo‘riqnomasi qayta taxrirda qabul qilindi. Soliq kodeksi amalga kiritilishi bilan mulk solig‘iga tortish obyekti kengaydi. Asosiy vositalar (qonun xujjatlariga muvofiq, mulk qilib olingan yer qiymati bundan mustasno)ning, jumladan, lizing shartnomasi bo‘yicha sotib olingan asosiy vositalarning hamda korxona balansida eskirishi chegirilmasdan turgan nomoddiy aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati soliqqa tortish obyekti qilib belgilandi.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi.

Soliq solish obyektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik qiymatlarini) qo‘shishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot yilining 1 yanvaridagi va hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi mol-mulk qoldiq qiymatining yarmini qo‘shishdan olingan summani hamda hisobot davri qolgan barcha oylari har bir dastlabki kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati summasini 12 ga bo‘lishdan olingan son sifatida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\text{Mol-mulkning o‘rtacha qoldiq qiymati} = \frac{\frac{\text{1 yanv.ga}}{2} + \text{1 Fe.} + \ldots + \text{1 de.ga} + \frac{\text{1 yanv.ga}}{2}}{12}$$

CamScanner yordamida skanerlangan

Yuridik shaxs 20 oktyabrda ta'sis etilgan:

202 __ yil uchun hisoblab chiqarishga yuridik shaxs mol-mulki o'rtacha yillik qoldiq qiymatining hisob-kitobi

Balans moddalari nomi	Balans kodi satri	Balans moddalari bo'yicha summalar				
		01.01		01.11	01.12	01.01
Asosiy vositalar	010	-	-	845	845	835
Nomoddiy aktivlar	020					
Asosiy vositalarning eskirishi	011, 021			100	110	120
Soliq solinadigan mol- mulkning qoldiq qiymati	012, 022			745	735	715

2) hisobot yilining I-choragi uchun:

1-chorak uchun soliqni hisoblab chiqarishga mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati	1 yanv.	+	1 fev.	+...+	1 mart	+	1 apr.
	2						2
	= 12						

3) 13 martdan mol-mulk solig'ini to'lovchi bo'lgan yuridik shaxs uchun:

I chorak uchun soliqni hisoblab chiqarishga mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati	1 martga	+	1 aprelga
	2		2
	= 12		

CamScanner yordamida skanerlangan

Korxonaga 1400 ming so'mlik mulk 10 yanvarda qilingan. Ushbu mol-mulkka soliq to'lash uchun uning o'rtacha qoldiq qiymati quyidagicha hisoblanadi.

1-chorak uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymatini belgilash

Balans moddalari nomi	Balans satr kodi	Balans moddalari bo'yicha summalar			
		1.01	1.02	1.03	1.04
Asosiy vositalar	0100	1400	1400	1400	1400
Nomoddiy aktivlar	0400				
Asosiy vositalarning eskirishi	0200	20	40	60	80
Soliq solinadigan mol-mulkning qoldiq qiymati		1380	1360	1340	1320

$$\text{Mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati} = \frac{1380/2+1360+1340+1320/2}{12} = 373.3$$

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Soliq imtiyozlari soliq kodeksining 414 moddasida keltirilgan unga ko'ra, soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga kamaytiriladi:

1) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot obyektlarining;

CamScanner yordamida skanerlangan

2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning;

3) yangi neft va gaz quduqlarining — ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab ikki yil muddatga.

Yangi neft va gaz quduqlariga nisbatan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati tugagandan keyin uch yil davomida belgilangan soliq stavkasining 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladi.

Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga.

Soliq stavkasi 1,5 foiz miqdorida belgilanadi.

Qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 3 foiz miqdorida belgilanadi.

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,5 foiz miqdorida belgilanadi:

1) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

Kalendar yil soliq davridir.

2. Jismoniy shaxslar undiriladigan mol-mulk solig'i.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari, kvartiralari, chorbog' va bog' uylari, garajlar va

CamScanner yordamida skanerlangan

boshqa imoratlari, binolar va inshootlari qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi qirq ikki million so'mdan kam bo'lishi mumkin emas.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning shartli qiymati Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida — ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan summaning besh baravari miqdorida, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa — ikki baravari miqdorida soliq bazasi hisoblanadi.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha soliq to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq bazasi har bir obyekt bo'yicha alohida hisoblab chiqiladi

Soliq imtiyozlari:

Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning; 2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar; 3) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoxud harbiy xizmatning yoki ichki ishlar organlaridagi va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo'lganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining ota-onalari hamda beva xotinlari (beva erlari); 4) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga; 5) yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar. Mazkur imtiyoz yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga davlat

CamScanner yordamida skanerlangan

tomonidan ajratiladigan uy-joy uchun ular yigirma uch yoshga to'lguniga qadar amal qiladi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:

1) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining;

2) pensionerlarning;

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning.

Yuqoridagi soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish obyekti joylashgan erdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Ushbu belgilangan soliq imtiyozlari mulkdorning tanloviga ko'ra faqat bitta yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk obyektiga tatbiq etiladi.

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

/r	Soliq solish obyektlari	Soliq stavkalari, foizlarda
.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,25 0,18
.	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:	
	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,33 0,37
	500 kv.m dan ortiq bo'lgan	0,44 0,49
.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,33 0,37
.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari	1,5

CamScanner yordamida skanerlangan

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro‘yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan soliq stavkasi ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorida qo‘llaniladi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilashga haqli.

Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi, 3 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchining yashash joyidan qat’i nazar, soliq solish obyekti joylashgan erdagi soliq organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq summasi mol-mulkning 1-yanvardagi holatiga ko‘ra bo‘lgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir necha mulkdorlarining umumiy ulushli mulki bo‘lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to‘lanadi.

Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o‘tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1-yanvaridan e’tiboran u mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa, unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha soliq mulk huquqi yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun soliq merosxo'rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran tugatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga imzo qo'ydirilgan holda yoki to'lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1-martdan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash teng ulushlarda 15-aprelga va 15-oktabrga qadar amalga oshiriladi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilari kimlar?
2. Qanday bino va inshootlar, qurilish obyektlari jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i obyekti hisoblanadi?
3. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovidan kimlar ozod qilinadi?
4. Ulushli mulk obyektlari bo'yicha mol-mulk solig'i qanday to'lanadi?
5. Yuridik shaxslarni mol-mulk solig'i soliq to'lovchilari kimlar hisoblanadi?
6. Yuridik shaxslarni mol-mulk solig'i obyekti nimalar hisoblanadi?
7. Mol-mulk solig'i boshqa soliqlarga nisbatan qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
8. Yuridik shaxslarni mol-mulk solig'idan kimlar ozod qilinadi?
9. Jismoniy shaxslarning mol-mulk soliq solish obyekti nimalar hisoblanadi?
10. Jismoniy shaxslarning mol-mulk soliq solish bazasi nima hisoblanadi?
11. Jismoniy shaxslarning mol-mulk soliq solish bazasi qancha so'mdan kam bo'lishi mumkin emas?

CamScanner yordamida skanerlangan

12. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash tartibini ko'rsating?
13. Kimlar jismoniy shaxslarning mol-mulk soliq solishdan ozod qilinadi?
14. Yuridik shaxslarni mol-mulk solig'ini hisoblash tartibini ko'rsatib bering?
15. Yuridik shaxslarni mol-mulk solig'ini to'lash tartibi?

CamScanner yordamida skanerlangan

25-MAVZU: YER SOLIG'I

Reja:

1.Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.

Kalit so'zlar: yet solig'i, ball bonitet yuridik shaxslar.

1.Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

1990 yilda O'zbekistonda "Yer to'g'risida" qonun qabul qilindi va ushbu qonunga ko'ra yerga egalik qilish va erdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig'i sifatida undiriladigan bo'ldi.

1991 yilda "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida", 1993 yilda "Yer solig'i to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda yer solig'ini undirishda soliqqa tortish obyekti, subyektlari, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartiblari ko'rsatib berildi.

Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga hos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad – yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Agarda soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, unda ular shu faoliyatda foydalaniladigan yerlari uchun yer solig'ini to'lovchilari hisoblanishadi.

Ko'chmas mulk ijaraga berilganda ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchisi hisoblanadi. Qonun hujjatlariga muvofiq yer uchastkalarini

CamScanner yordamida skanerlangan

ijaraga olgan yuridik shaxslar yer solig'i o'rniga byudjetga ijara haqi to'laydilar. Ijara haqi taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmasligi, yerlardan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa - bir stavkasi miqdorida bo'lishi lozim.

Soliq kodeksiga ko'ra mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyekti hisoblanadi. Soliq kodeksining 426-moddasiga ko'ra quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yerlari;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar;

5) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarning, tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog'larning yerlari;

6) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bog'lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo'lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy, qurilish va boshqa chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va

CamScanner yordamida skanerlangan

saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko'p kvartirali uylar egallagan yerlar;

13) suv fondi;

14) zaxiralar;

15) geologiya-qidiruv va (yoki) izlanish ishlarini o'tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari.

Agar ko'rsatilgan yer uchastkalari xo'jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular ushbu belgilangan tartibda soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yer solig'i stavkalari jahon amaliyotida qabul qilinganidek, yer qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida yerning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi.

Jahon soliq amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho'rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o'tkazaolishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi. 100 ball 10 ta klassga bo'linadi, ya'ni 1 klass yerlar nol balldan 10 ballgacha, 2 klass yerlar 11 balldan 20 ballgacha, 3 klass yerlar 21 balldan 30 ballgacha va h.k. 10 klass yerlar 91 balldan 100 ballgacha baholanadi. Bunda yerning ball boniteti qancha yuqori bo'lsa soliq stavkasi ham shuncha yuqori belgilanadi.

Quyidagilar soliq bazasidir:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha —soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha —soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Soliq imtiyozlari

Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MVt va

CamScanner yordamida skanerlangan

ko'proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot obyektlari egallagan yerlar;

sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, o'quv-mashq bazalari va bolalar-sog'lomlashtirish oromgohlari egallagan yerlar;

shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari;

magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar.

suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg'irlatib, diskret va boshqa) sug'orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar — suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan e'tiboran besh yil muddatga.

qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga.

Ushbu belgilangan soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkalari

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq o'lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

CamScanner yordamida skanerlangan

Respublika hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln. so‘mda)
Toshkent shahri:	
1 zona	220
2 zona	175
3 zona	135
4 zona	90
5 zona	45
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	28
Andijon viloyati	35
Buxoro viloyati	29
Jizzax viloyati	29
Qashqadaryo viloyati	29
Navoiy viloyati	29
Namangan viloyati	35
Samarqand viloyati	35
Surxondaryo viloyati	25
Sirdaryo viloyati	22
Toshkent viloyati	30
Farg‘ona viloyati	29
Xorazm viloyati	29

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda, belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa — belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining

CamScanner yordamida skanerlangan

31-dekabriga qadar qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi. Yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlari ushbu soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to'lovchilarga ma'lumot uchun yetkazishlari kerak.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar uchun soliq stavkalari qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalaridan iborat bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan egallangan yer uchastkalariga nisbatan soliq stavkalariga 0,25 koeffitsiyent qo'llaniladi.

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,3 koeffitsiyent qo'llaniladi:

elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

umumdavlat aloqa liniyalari egallagan yerlar;

umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat. temir yo'l stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariyaga qarshi stansiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar;

samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;

O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar — qurilishning normativ muddati davrida;

CamScanner yordamida skanerlangan

konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar — ularning konservatsiyasi davrida.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo'lgan bonitent balidan kelib chiqkan holda to'lanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o'tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati bo'yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq ikki baravar soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining to'rt baravari miqdorida belgilanadi.

Konlar va karyerlar band etgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,1 koeffitsiyent, lalmi-yaylov zonada joylashgan yerlar uchun esa — 0,05 koeffitsiyent qo'llanilgan holda to'lanadi.

Lalmi-yaylov zonada joylashgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,3 koeffitsiyent qo'llanilgan holda to'lanadi, bundan ushbu moddaning o'n to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Kalendar yil soliq davridir.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

aylanmadan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining to'rtdan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;

CamScanner yordamida skanerlangan

aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun – yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1-sentabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1-dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi.Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solish obyektidir:

1) dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

CamScanner yordamida skanerlangan

6) qonunchilikda belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining maydoni soliq bazasidir.

Dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq bazasi soliq solinmaydigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari bo'yicha soliq bazasi ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan yer maydonlari bo'yicha soliq bazasi o'z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar.

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar.

3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar.;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi.;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota va onadan biri yoxud ota-ona vafot etgan ko'p bolali oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ushbu ko‘rsatilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan erdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Respublika hududlari kesimida bazaviy soliq stavkalari 1 kv. m uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari mustasno):

Respublika hududlari	1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)
Toshkent shahri:	
1 zona	1280 1408
2 zona	1085 1194
3 zona	890 979
4 zona	700 770
5 zona	500 550
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	260 286
Andijon viloyati	320 352
Buxoro viloyati	260 286
Jizzax viloyati	260 286
Qashqadaryo viloyati	260 286
Navoiy viloyati	260 286
Namangan viloyati	320 352
Samarqand viloyati	320 352
Surxondaryo viloyati	234 269
Sirdaryo viloyati	205 226
Toshkent viloyati	270 297
Farg‘ona viloyati	260 297
Xorazm viloyati	260 286

Soliq stavkalarini aniq miqdori quyidagi tartibda belgilanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga Toshkent shahri uchun esa

CamScanner yordamida skanerlangan

—bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida kiritadi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining 31-dekabriga qadar qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi.

Dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarga soliq stavkasi qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo'yicha undiriladi hamda ushbu ko'rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek normativ muddatida qurilishi tugallanmagan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to'lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

Jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi turar joy qurish va obodonlashtirishga berilgan tomorqa yer uchastkalariga yakka tartibdagi

CamScanner yordamida skanerlangan

uy-joy qurishga berilgan yer uchastkalari uchun belgilangan stavka qo'llaniladi.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan erdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida, dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar bo'yicha esa — qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning normativ qiymatini aniqlovchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari har yili 1-martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirib yoki to'lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to'lovchiga soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e'tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Soliq bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash jismoniy shaxslar tomonidan 15-aprel va 15-oktabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1.Ko'chmas mulk ijaraga berilganda kim yer solig'ini to'lovchisi hisoblanadi?

2.Yer soliq solish obyekti nima hisoblanadi?

3.Yer soliq bazasi nima hisoblanadi?

4.Yer solig'i bo'yicha kimlar imtiyozlarga ega?

5.Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga qaysi yerlar kiradi?

CamScanner yordamida skanerlangan

6. Soliq stavkalarini belgilashda nimaga asoslanib hisoblab chiqariladi?
7. Yer solig'i stavkalari nimaga asosan belgilanadi?
8. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliqni to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?
9. Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq yer solig'i qanday hisoblanadi?
10. Yer solig'idan kimlar ozod qilinadi?
11. Yer solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
12. Jismoniy shaxslar yer solig'ini to'lash muddati?
13. Yuridik shaxslar yer solig'ini to'lash muddati?
14. Aylanmadan soliq to'lovchilar uchun to'lash muddatlari?
15. Yer solig'i qaysi tashkiliy nuqtai nazardan qaysi soliq turkumiga kiradi?

CamScanner yordamida skanerlangan

26-MAVZU: RESURS SOLIQLARI

Reja:

1.Suv resurslaridanfoydalanganlik uchun soliq.
2.Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.
3.Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i

Kalit so'zlar: yer osti, yer usti manbalari.

1.Suv resurslaridanfoydalanganlik uchun soliq.

O'zbekiston sharoitida suv qadrli hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq ho'jaligi asosan sug'oriladigan yerlardan iborat. Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

1982 yildan 1998 yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar "suv uchun to'lov" to'lashar edi. Iste'molchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra 1998 yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir.

Soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan to'lovchilar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak.

Yuridik shaxslar suvdan foydalanish joyida davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydilar.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar o'z faoliyatida ishlatiladigan suv uchungina soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

CamScanner yordamida skanerlangan

1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;

2) sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektrostansiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;

6) issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;

7) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari.

8) kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari.

Mulkchilik va bo'ysunish shaklidan qat'i nazar issiq suv va bug' uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ular tomonidan yuzadagi va yer osti manbalaridan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan suv resurslari hajmi uchun to'laydilar.

Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar kiradi.

Yer osti manbalariga artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog'i kiradi.

Foydalanilgan suv resurslarining xajmi soliq solish bazasi hisoblanadi.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suv o'lchagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suvdan foydalanish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish

CamScanner yordamida skanerlangan

normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq bazasi soliq organlari tomonidan suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ taqdim etgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun'iy suv obyektlaridan olingan va ushbu suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladiganlar mustasno, o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkoni bo'lmagan taqdirda, soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste'molining normativlariga ko'ra aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to'lovchilar soliq bazasini tabiiy suv obyektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi.

Soliq to'lovchi soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq bazasi qaysi faoliyat bo'yicha soliq to'lash sof tushumning umumiy

CamScanner yordamida skanerlangan

hajmida nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘sha faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste’mol idishidagi tayyor mahsulotga to‘g‘ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari	1 kub. metr uchun soliq stavkasi, (so‘mda):	
		yer usti	yer osti
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, (bundan 2 va 3-bandlarda ko‘rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	265 240	320 290
2.	Sanoat korxonalari	570 520	680 620
3.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	90 80	110 100
4.	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni o‘stirish (yetishtirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari	45 40	45 40
5.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	2410 2 190	2410 2 190
6.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	30500 27 700	30500 27 700

CamScanner yordamida skanerlangan

Ushbu 4-bandida nazarda tutilgan soliq stavkasi 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyentni hisobga olgan holda, suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo'llaniladi.

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo'yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida.belgilanadi.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari mustasno — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15-dekabrigacha;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 20-yanvarigacha.

Soliq organlari soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasini dehqon xo'jaliklariga soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiradi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'laydi, bundan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek dehqon xo'jaliklari mustasno.

Bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 20-yanvarigacha, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz

CamScanner yordamida skanerlangan

kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga mo'ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Hisoblab chiqarilgan bo'nak to'lovlar:

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko'proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mustasno) — har oyning 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmagan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to'rtdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Soliq davri davomida mo'ljallanayotgan soliq bazasi o'zgarganda, soliq to'lovchi soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo'nak to'lovlarga soliqning o'zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar summasi soliq hisobotida ko'rsatilgan budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo'nak to'lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan soliqni to'lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.

2.Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Yer osti boyliklari davlat mulki bo'lib, iqtisodiy jihatdan qimmatli, hajmi cheklangan va qayta tiklanmaydigan resursdir. byudjet tizimining

CamScanner yordamida skanerlangan

byudjet daromadlari tarkibida mineral xom ashyoni qazib olish, qayta ishlash va sotishdan olingan daromadlar muhim rol o'ynaydi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lovlar deganda byudjet daromadlarini shakllantirish manbalaridan biri bo'lgan, yer qa'ridan foydalanuvchi deb e'tirof etilgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mablag'larni begonalashtirish shaklida to'lanadigan majburiy davlat-huquqiy to'lov tushunilishi kerak. yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini olishning zarur sharti sifatida pul mablag'lariga egalik (yoki boshqa mulk huquqi) asosida ularga tegishli bo'lishi va ushbu huquqni belgilangan tartibda keyinchalik amalga oshirish, joriy etilishi maxsus chora-tadbirlar bilan ta'minlanadi. yer qa'ridan foydalanishga berilgan huquqni tugatish tarzidagi davlat majburlovi, shuningdek jarima tariqasidagi ma'muriy javobgarlik choralari.

Qayd etilishicha, yer qa'ridan foydalanganlik uchun bir martalik va muntazam to'lovlar ijara xarakteriga ega bo'lib, ular tog' regaliyasining "g'aznaning foydali imtiyozi (fiskus)" sifatidagi zamonaviy namoyon bo'lishining ikkita mustaqil shakli ekanligi to'g'risida xulosa tuzilgan. , daromad-ijarani davlat foydasiga qaytarib olishga qaratilgan va davlat hokimiyatining har qanday xarajatlarini qoplamaslik.

O'zbekiston Respublikasi hududida yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib olishni va) texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Foydali qazilmani qazib olish hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Qazib olingan foydali qazilmaning hajmi qazib olish, birlamchi ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashishning butun texnologik sikli doirasida yuzaga keladigan texnologik yo'qotishlarni hisobga olgan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa — soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida aniqlanadi.

Foydali qazilmalarni qazib olishning va foydali qazilmalarga birlamchi ishlov berishning texnologik sikli doirasidagi yo'qotishlar texnologik yo'qotishlar deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyekti foydali qazilmaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

CamScanner yordamida skanerlangan

soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan hamda shaxsiy xo'jalik va maishiy ehtiyojlari uchun foydalanilgan, keng tarqalgan foydali qazilmalar.

qonunchilikda belgilangan tartibda daryo o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan noruda foydali qazilmalar, bundan realizatsiya qilingan foydali qazilmaning hajmi mustasno.

Soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan foydali qazilmaga nisbatan aniqlanadi.

Agar qazib olingan foydali qazilmadan shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun qisman foydalanilsa, soliq bazasi qazib olingan foydali qazilmaning butun hajmi hisobida, ushbu foydali qazilmaning o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Energiya manbalari	Neft, tabiiy gaz, gaz kondensati	10
		Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha	5
		Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
		Ko'mir, yonuvchi slanslar	4
2.	Qimmatbaho metallar	Oltin, kumush, palladiy, platina va platina guruhi, osmiy va boshqa qimmatbaho metallar	7
3.	Rangli metallar	Mis, qo'rg'oshin, rux, molibden, nikel, kobalt, qalay, surma, simob, alyuminiy	7
		Boshqa rangli metallar	10
4.	Radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari	Uran, toriy, radiy	8
		Volfram	2,7
		Reniy, selen, tellur, indiy, vismut, tantal, niobiy, berilliy, litiy, rubidiy, seziy, galiy, titan, sirkoniy, gafniy, talliy, kadmiy	8
		Lantan va lantanoidlar, ittriy, skandiy	8
		Boshqa radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari	8

CamScanner yordamida skanerlangan

5.	Nodir tosh xomashyosi	Feruza, listvenit, rodonit, zmeyevik, marmar yo'l-yo'l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedon, aqiq, gematit va boshqa qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	10
6.	Qora metallar	Temir	5 2
		Titan, marganets, xrom, vanadiy va boshqa qora metallar	4
7.	Kon-kimyo xomashyosi	Mineral pigmentlar	5,5
		Yod	4,8
		Mineral tuzlar (tosh tuz (ovqatga ishlatiladigani), kaliy tuzi, sulfat tuzi), karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar), mineral o'g'itlar (glaukonit, fosforitlar va boshqalar) hamda boshqa kon-kimyo xomashyosi	3,5, biroq 5 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
8.	Kon-ruda xomashyosi	Eruvchan shpat, dala shpati xomashyosi, kvars va kvarsit, kaolin (realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha), tabiiy grafit	7,9
		Shisha xomashyosi, kvars qum, brusit marmar	3
		Talk va talk toshi, talkli magnezit, vollastonit, asbest, barit, vermikulit, qoliplash xomashyosi, felzit	4
		Serpentinit va boshqa kon-ruda xomashyosi	5
9.	Noruda qurilish materiallari	Sement ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari tsement xomashyosi	5
		Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	22 500 so'm/tonna*
		Tabiiy bezaktoshdan bloklar, arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, gips toshi, gips va angidrid, ganch, marmar, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan	5, biroq 5000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan

CamScanner yordamida skanerlangan

		mayda toshlar, bazalt, granitlar, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xomashyosi, travertin	
		G'isht-cherepitsa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag'al aralashmasi	5, biroq 3750 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
		Ohak ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh, farfor xomashyosi, keramzit xomashyosi, mergel, argillitlar, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt, diabaz, gliyej, andezibazalt, temir tarkibli qo'shimchalar, magnetit — gematitli jinslar va boshqa noruda qurilish materiallari hamda keng tarqalgan foydali qazilmalar	5
10.	Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar		Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun soliq stavkasining 50 foizi

* Belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek ularga sement xomashyosi — ohaktoshni realizatsiya qiladigan soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadi. Sement ishlab chiqarish uchun faqat ko'mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

Yuridik shaxslar uchun soliq davri — chorak, jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

Yuridik shaxslar uchun hisobot davri— bir oy; jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

Soliq to'lovchilar soliqni aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda, mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Yuridik shaxslar tomonidan soliqni to'lash — har oyda keyingi oyning 20 sanasidan kechiktirmay amalga oshiriladi, jismoniy shaxslar tomonidan — soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

3.Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i

Qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib oluvchi va ularni texnogen mineral hosilalardan ajratib oluvchi, shuningdek uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslar foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Ushbu qazilmalar jumlasiga qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari va tabiiy gaz, gaz kondensati va neft uglevodorod xomashyosi jumlasiga kiradi.

Ushbu qazib olingan metallni yoki uglevodorod xomashyosini realizatsiya qilishdan olingan renta daromadi foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'ini solish obyektidir.

Qazib olingan metallarni yoki uglevodorod xomashyosini realizatsiya qilishdan olingan, holda bahoga qo'shimcha qiymat solig'ini va aksiz solig'ini kiritmay aniqlanadigan, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan bahodan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan daromadlar hamda ularni qazib olish bilan bevosita bog'liq xarajatlar o'rtasidagi farq renta daromadi deb e'tirof etiladi.

Renta daromadi birlamchi ishlov berishdan o'tgan va realizatsiya qilish uchun yaroqli bo'lgan metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish faoliyati doirasida aniqlanadi.

Operatsion xarajatlar deganda hujjatlar bilan tasdiqlangan va asoslantirilgan barcha xarajatlar tushuniladi, bunda ushbu xarajatlarni amalga oshirmay turib, metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olishga va ularni birlamchi qayta ishlashga doir ishlab chiqarish jarayoni imkonsiz yoki qiyin bo'ladi.

Operatsion xarajatlar jumlasiga, xususan, quyidagilarga doir xarajatlar kiradi:

1) zarur xomashyoni, materiallarni, issiqlik va boshqa energiya resurslarini sotib olishga;

2) inventarga, xo'jalik buyumlariga, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'lmagan boshqa mol-mulkka;

3) soliq to'lovchining texnologik, transportga oid, boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan yoqilg'i, energiyaning barcha turlari, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun energiyaning barcha turlarini

CamScanner yordamida skanerlangan

ishlab chiqish, shu jumladan soliq to'lovchining o'zi tomonidan ishlab chiqish, shuningdek energiyani transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari;

4) litsenziyalar uchun haq va ijara to'lovlarini to'lashga;

5) xodimlar mehnatiga haq to'lashga;

6) qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan xarajatlarga;

7) metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish operatsiyalari doirasida to'langan soliqlar va yig'imlarga haq to'lashga;

8) chetdan jalb qilingan yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan ishlar va xizmatlarga haq to'lashga.

Operatsion xarajatlar jumlasiga, xususan; quyidagilarga doir xarajatlar kirmaydi:

1) amortizatsiyaga, shu jumladan investitsion chegirmaga (obyektning tugatish qiymati chegirilgan holda);

2) marketing va reklama tadbirlariga;

3) ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga;

4) yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki shunga o'xshash boshqa organi) a'zolari, ma'muriy xodimlar va maslahatchilar mehnatiga haq to'lashga;

5) soliq to'lovchining aybi bilan yuzaga kelgan favqulodda holatlarni bartaraf etishga;

6) xodimlarning malakasini oshirishga, mobil aloqa va internetga;

7) zaxiralarni tashkil etishga va sug'urta qilishning ixtiyoriy turlariga;

8) moliyaviy faoliyat bo'yicha foizlarni yoki boshqa xarajatlarni, shu jumladan kapital xarajatlar qiymatiga kiritilgan foizlarni to'lashga.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi metallarni va uglevodorod xomashyolarini qazib olish bo'yicha alohida investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida mazkur xarajatlar qilingan, soliq davrida chegirib tashlanishi lozim bo'lgan, kapital va operatsion xarajatlar jumlasiga kiradigan xarajatlar ro'yxatini to'ldirishga haqli.

Renta daromadini aniqlashda metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, xususan moliya bozorlaridagi operatsiyalardan, shu jumladan xedjirlash operatsiyalaridan olinadigan, shuningdek foizlar va dividendlar tarzidagi, shu jumladan kapital xarajatlar qiymatiga kapitalizatsiya qilinadigan foizlar tarzidagi daromadlar va xarajatlar hisobga olinmaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Renta daromadini aniqlash chog'ida uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar ham hisobga olinmaydi, har qanday turdagi budjet subsidiyalari esa renta daromadiga kiritiladi.

Bir necha litsenziyalangan uchastkada metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchi har bir bunday uchastkaga nisbatan renta daromadini alohida aniqlashi shart.

Soliq to'lovchi ilgari ro'yxatga kiritilgan, litsenziyalangan uchastkada foydali qazilmalarni qazib olish va texnogen mineral hosilalardan foydalanish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga doir ruxsatnomani qaytargan, undan o'zganing foydasiga voz kechgan yoki uni sotgan taqdirda, bunday uchastka ushbu ro'yxatdan chiqarilishi lozim, bunday realizatsiya qilishdan olingan daromadlar esa uning renta daromadini oshiradi.

Soliq to'lovchi renta daromadini har bir litsenziyalangan uchastkaga nisbatan metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olgan kundan e'tiboran har bir soliq davri natijalari bo'yicha mustaqil ravishda aniqlaydi.

Renta daromadining summasi soliq bazasi hisoblanadi, renta zarari mavjud bo'lganda esa soliq bazasi nolga teng deb e'tirof etiladi.

Soliq bazasi yer qa'rining har bir litsenziyalangan uchastkasi bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi.

Soliq bazasi soliq davri boshlanganidan e'tiboran o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Metallarni va uglevodorod xomashyosini qazib olishni amalga oshiruvchi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq bazasini AQSh dollarida aniqlash huquqiga ega.

Agar birinchi soliq davri yakunlariga ko'ra renta zarari olingan bo'lsa, soliq to'lovchi bunday zarar miqdorini keyinchalik "jamg'arilgan renta zarari" maxsus hisobvarag'ida AQSh dollarida, ushbu moddaning oltinchi qismiga muvofiq belgilanadigan valyutaning o'rtacha yillik almashuv kursi bo'yicha hisobga olishga haqli. Bunda har bir keyingi soliq davrida ushbu hisobvaraqda hisobga olinadigan summa joriy yilning 31-dekabr holatiga ko'ra AQSh dollarida nominatsiya qilingan, 2 foizlik punktga oshirilgan, to'lanish muddati o'n yil (2031-yilgacha) bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro obligatsiyalarining daromadliligidan kelib chiqib aniqlanadigan koeffitsiyentga oshiriladi.

Soliq davri uchun o'rtacha yillik kurs soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining joriy

CamScanner yordamida skanerlangan

soliq davrida 1-yanvar va 31-dekabr uchun belgilangan kurslarini qo'shish chog'ida olingan summani 2 ga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olingan kundan e'tiboran boshlanadigan soliq davri soliq to'lovchi litsenziyalangan muayyan uchastkaga nisbatan soliq bazasini aniqlashi shart bo'lgan birinchi soliq davri deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchi tomonidan metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish huquqi uchun ruxsatnoma (litsenziya) olingan sanaga qadar haqiqatda amalga oshirilgan va tegishli litsenziyalangan uchastka bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar, xususan, quyidagilarga doir xarajatlar tarixiy xarajatlar jumlasiga kiradi:

1) geologik o'rganish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnoma olishga va metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish uchun ruxsatnoma olishga, shuningdek metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish huquqini olishga;

2) yer qa'rini geologik jihatdan o'rganishga;

3) metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish uchun tayyorgarlik ishlariga.

Agar soliq davri yakunlari bo'yicha renta daromadi olingan bo'lsa, soliq bazasi jamg'arilgan renta zarari summasiga kamaytiriladi, renta daromadi jamg'arilgan renta zararining to'liq summasi o'rnini qoplash uchun yetarli bo'lmaganda esa — renta daromadi summasiga kamaytiriladi. Bunda jamg'arilgan renta zarari summasi renta daromadini kamaytirishga qaratilgan summaga kamaytiriladi.

Minimal soliq stavkasi soliq bazasiga nisbatan 25 foiz miqdorida belgilanadi.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Yilning choragi hisobot davridir.

Soliq to'lovchilar soliqni mustaqil ravishda, ushbu aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi. Bunda chet el valyutasida ifodalangan soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining soliq hisobotini taqdim etish sanasida belgilangan kursi bo'yicha milliy valyutada qayta hisob-kitob qilinadi.

Soliq hisoboti soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga soliq to'lovchi tomonidan har bir hisobot va soliq davri tugaganidan keyin quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

renta zarari mavjud bo'lgan davrda — yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay;

CamScanner yordamida skanerlangan

soliq bazasi mavjud bo'lgan davrda — har chorakda, ortib boruvchi yakun bilan hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay.

Soliqni to'lash har chorakda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Yer usti manbalariga qanday resurslar kiradi?
2. Nimalar suv resurslari soliq solish obyekti hisoblanadi?
3. Yer osti manbalariga nimalar kiradi?
4. Soliq solish bazasi hisoblanadi?
5. Soliq solish obyekti hisoblanadi?
6. Resurs solig'i to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
7. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar resurs solig'i to'lovchisi hisoblanadimi?
8. Nimalar resurs solig'i obyekti bo'la olmaydi?
9. Shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida foydalaniladigan suv resurslar soliq obyekti bo'ladimi?
10. Issiq suv va bug' uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni nimaga asosan to'laydilar?
11. Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda suv resurs solig'i nimaga asosan hisoblanadi?
12. Dehqon xo'jaliklari suv resurs solig'i qanday hisoblanadi?
13. Sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq to'laydimi?
14. Baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkoni bo'lmagan taqdirda qanday hisoblanadi?
15. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilganlar qanday hisoblanadi?

CamScanner yordamida skanerlangan

27-MAVZU. SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Aylanmadan olinadigan soliq

2. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

3. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

4. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

5. Advokatlar hay'atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

6. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

7. Yig'imlar

1. Aylanmadan olinadigan soliq

Soliq davridagi jami daromadi bir milliard so'mdan oshmaydigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari, shuningdek soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olingan daromadlari yuz million so'mdan ortiq bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanma soliq to'lovchilari hisoblanadi, lekin milliarddan ortiq emas.

Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilar hisoblanadi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslari;

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

2) aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

CamScanner yordamida skanerlangan

3) yuridik shaxslar — qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda yigirma besh gektar va undan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni mavjud bo'lsa;

4) benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5) lotoreyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o'z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga — oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha;

7) bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shasxlarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo'yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta'mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga;

9) alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shaxobchalariga;

10) bozorlarga va savdo komplekslariga;

11) soliq maslahatchilarining tashkilotlariga;

12) auditorlik tashkilotlariga;

13) notijorat tashkilotlariga, shu jumladan byudjet tashkilotlariga.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslari qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq to'lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslari aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to'lash o'rniga qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so'mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to'lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashni qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun va bir vaqtning o'zida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan soliq to'lovchilar, joriy soliq davri yakunlari bo'yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so'mdan oshmagan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga kamida o'n ikki oydan keyin qayta o'tishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro'y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo'lingan va ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo'lgan kunlar soniga ko'paytirilganda bir milliard so'mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro'yxatdan o'tilgan yildan keyingi yildan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari

CamScanner yordamida skanerlangan

ko‘rsatuvchi soliq to‘lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish bo‘yicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo‘yicha xulosa chiqarilgan oydan keyingi oyning sanasidan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo‘lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi to‘g‘risida xulosa berishga vakolati bo‘lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan obyektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta’mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma tuzilgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qaysi sana oldinroq kelishiga qarab import shartnomasi tuzilgan yoki tovarlar olib kirilgan (import qilingan) sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Qishloq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarda yigirma besh gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari mavjud bo‘lgan taqdirda, ular ko‘rsatilgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni yoki ushbu yer uchastkasining maydoni o‘zgarganligini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs bo‘lgan oddiy shirkat ishtirokchisi oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha oddiy sheriklik

CamScanner yordamida skanerlangan

shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Bozorlar va savdo komplekslari, notijorat tashkilotlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran, byudjet tashkilotlari esa tashkil topgan sanadan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik xizmatlari ko'rsatish uchun shartnoma tuzilgan sanadan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini hamda foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Jami daromad soliq solish obyektidir, bundan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish chog'ida inobatga olinmaydigan daromadlar mustasno.

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun — agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda);

Soliq solish obyekti bo'lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

CamScanner yordamida skanerlangan

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to'lash hisobidan yoki dividend to'lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

4) ko'p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo'lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa, berish.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha daromadlar jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekti deb e'tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

1) O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning Xalqaro obligatsiyalari bo'yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo'lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko'p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo'lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo'shimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar.

6) tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar umumiy daromadning 15 foizidan ko'prog'ini tashkil etsa.

Soliq solinadigan baza O'zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan

CamScanner yordamida skanerlangan

yuridik shaxslarning Xalqaro obligatsiyalari bo'yicha daromadlar chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati subyektlari uchun — turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasi bo'lib hisoblab chiqilgan, uning tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan jami daromadi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs o'z tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni tuzishda o'zining yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko'rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o'zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko'rsatishi shart.

Soliq solishda yakka tartibdagi tadbirkorning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingan daromadlari hisobga olinmaydi.

Hisobot soliq davrida soliq bazasini ko'paytirish yoki kamaytirish daromadlarga tuzatish kiritish deb e'tirof etiladi.

Daromadlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o'zgarganda;

3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovlardan foydalanganda;

4) ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	**Soliq to'lovchilar**	**Soliq stavkalari, foizlarda**
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to'lovchilar, bundan 2 — 14-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	4
2.	Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5

CamScanner yordamida skanerlangan

3.	Lombardlar	25
4.	Konsert-tomosha ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo‘li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar	5
5.	Brokerlik idoralari (6-bandda ko‘rsatilganlar bundan mustasno), shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga doir y: boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar, shu jumladan telekommunikatsiya operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar	25
6.	Sug‘urta agentlari, shuningdek sug‘urta, qimmatli qog‘ozlar bozori va tovar-xomashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar, shuningdek rieltorlik faoliyatini amalga oshiruvchi ko‘rsatuvchi shaxslar	13
7.	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	8
8.	Umumiy ovqatlanish korxonalari	
	joylashgan joyiga qarab:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	8
	boshqa aholi punktlarida	6
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	4
	Shundan	
	umumta’lim maktablari, maktab-internatlar, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlariga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	Joylashgan joyiga qarab belgilangan soliq stavkasining 75%i
9.	Chakana savdo sohasidagi soliq to‘lovchilar	
9.1.	joylashgan joyiga qarab:	

CamScanner yordamida skanerlangan

	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
9.2.	joylashgan joyidan qat'i nazar, tamaki mahsulotlari realizatsiyasidan tovar aylanmasi bo'yicha:	4
10.	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari (11-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	4
11.	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
12.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari	tovar aylanmasining 4%i yoki yalpi daromadning 25%i
13.	Elektron tijorat subyektlarining Milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	2
14.	Yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilari» assotsiatsiyasi bo'lgan va umumiy sonida nogironlar, urush va 1941 — 1945 yillar mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo'lmagan va nogironlar, urush va 1941 — 1945 yillar mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining 50 foizidan kam bo'lmagan soliq to'lovchilar	0

Turli soliq solish obyektlari va (yoki) soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanadigan soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq

CamScanner yordamida skanerlangan

to‘lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha soliqni to‘lashi shart.

Kalendar yil soliq davridir.

Bir oy hisobot davridir.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil aniqlanadi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha — soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay;

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliqni to‘lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonunchilikda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari deganda chet davlatning fuqarolari bo‘lgan jismoniy shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining kafolatini taqdim etmasdan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi.

Yuridik shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari hajmiga qarab, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlardan foydalanishga haqli.

Soliq imtiyozlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda qo‘llaniladi:

CamScanner yordamida skanerlangan

1) yuridik shaxslar qonunchilikda belgilanadigan hududlarga joylashtirilganda;

2) chet ellik investorlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari O‘zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda;

3) yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) chet ellik ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foiz, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa kamida 15 foiz bo‘lganda;

4) chet el investitsiyalari erkin ayirboshlanadigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda;

5) Soliq imtiyozlari berilganligi natijasida ularning qo‘llanilishi muddati mobaynida olingan daromadlarning kamida 50 foizi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida reinvestitsiyaga yo‘naltirilganda.

Soliq imtiyozlarini olgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat o‘tganidan keyin bir yil o‘tmasidan oldin faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o‘z mamlakatiga o‘tkazish va kapitalini xorijga olib chiqib ketish faqat berilgan soliq imtiyozlari summalarining o‘rni byudjetga qoplanganidan keyin amalga oshiriladi.

3. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig‘idan, yer solig‘idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari beriladi.

Soliq imtiyozlari faqat investor (investorlar) va Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o‘rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investitsiya kiritish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan Kodeksga muvofiq foydalaniladilar.

Soliq imtiyozlarining amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan e’tiboran hisoblab chiqariladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik subyekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oyning birinchi kunidan e'tiboran foydalanishga haqli emas.

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investitsiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqli.

4. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mahsulot taqsimotiga oid bitim shartnoma bo'lib, bu shartnomaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida hamda muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish uchun mutlaq huquqlar beradi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitimda quyidagilar nazarda tutiladi:

hisob yuritish va hisobot berish tartibi;

soliq solish va boshqa to'lovlarni to'lash shartlari;

chet ellik investorning ulushini olib chiqish tartibi.

Soliqlar, agar mahsulot taqsimotiga oid bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Chet ellik investorga soliq solish quyidagi o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

1) foyda solig'i mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarish chog'ida olingan daromad bo'yicha va faoliyatning boshqa turlari bo'yicha olingan daromad bo'yicha alohida-alohida to'lanadi.;

2) mineral xom ashyoni kavlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlariga muvofiq belgilanadigan va pul shaklida yoki kavlab olingan mineral xom ashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Agar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo'lsa, bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biri yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajaruvchi operator soliq majburiyatlarini bajaruvchi bo'ladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

5. Advokatlar hay'atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Advokatlar hay'ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari faoliyatning notijorat tashkilotlar sifatida advokatlar tomonidan huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq qismi bo'yicha soliqlar va yig'imlar to'lashdan ozod qilinadi, bundan quyidagilar mustasno:

bojxona to'lovlari;

ijtimoiy soliq;

to'lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar.

Advokatlar hay'ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tomonidan tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilganda (yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan) soliqlar va yig'imlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda to'lanadi.

Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatganlik uchun olinadigan gonorarlar summalariga belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Advokatning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solish obyektidir.

Advokatning daromadi advokat tomonidan yuridik yordam ko'rsatilganligi uchun olingan summa bilan advokatlar hay'atlarini, advokatlik firmalarini va advokatlik byurolarini saqlab turish uchun o'tkaziladigan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi advokatning daromadidan uning daromadida hisobga olinadigan ijtimoiy to'lov chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

6. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar mehnatga haq to'lash tarzida olinadigan daromadlar bo'yicha belgilangan stavkalar bo'yicha ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'laydi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius zimmasiga xodimlarning mehnatiga haq to'lash bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini va ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash majburiyati yuklatiladi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar notarial xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar foyda solig'ini belgilangan stavka bo'yicha to'laydi. Bunda foyda solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va to'lash yiliga bir marta, hisobot davridan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Notarial faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar chegiriladigan xarajatlar jumlasiga kiritiladi. Bunda chegirilmaydigan xarajatlar aniqlanadi.

Foyda solig'i to'langanidan keyin xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning tasarrufida qolgan foyda soliq solish maqsadida dividendlarga tenglashtiriladi.

7. Yig'imlar

Yig'imlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'im;

2) alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlar, jumladan:

alkogol mahsulotlarini chakana sotish huquqi uchun yig'im;

umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig'im.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki ulardan foydalanuvchilar ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imning soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish korxonalari hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish boshlanganligi haqida vakolatli davlat organi xabardor qilinganligi to'g'risidagi tasdiqnomaga ega bo'lgan yuridik shaxslar alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imning soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti yig'imlarning soliq solish obyektidir.

Chet davlatlarning avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganda va uning hududi orqali tranzit o'tayotganda soliq bazasi hisoblanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im chet davlatning avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganda undiriladi.

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish boshlanganligi to‘g‘risida xabarnoma yuborilgan paytdan e’tiboran to‘lanadi. Bunda xabarnoma joriy oyning yigirmanchi sanasiga qadar yuborilganda yig‘im ushbu oy uchun to‘liq hajmda, xabarnoma joriy oyning yigirmanchi sanasidan keyin yuborilganda esa keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab hisoblab chiqariladi.

Agar alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish, shu jumladan umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan realizatsiya qilish bir nechta statsionar savdo va (yoki) umumiy ovqatlanish punktlari orqali amalga oshirilsa, alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlar belgilangan stavkalar doirasida statsionar savdo va (yoki) umumiy ovqatlanish punktlarining soniga, shuningdek ularning har biri joylashgan hudud o‘lchamlariga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi hamda undiriladi.

Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish faoliyati to‘xtatib turilganda yoki tugatilganda yig‘imni hisoblab chiqarish keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab to‘xtatib turiladi.

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im har oyda oldindan to‘lov tarzida, joriy oyning o‘ninchi sanasiga qadar to‘lanadi.

Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlar qonunchilikda belgilangan tartibda taqsimlanadi.

O‘z-o‘zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Soliq davridagi jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmaydigan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari qanday soliq to’laydi?
2. Yuridik shaxslar sotishdan olingan daromadlari yuz million so‘mdan ortiq bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qanday soliq to’laydi?
3. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar kimlar hisoblanadi?
4. Aylanmadan olinadigan soliq kimlarga tatbiq etilmaydi?
5. Yuridik shaxslar qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lash o‘rniga qanday soliq rejimini tanlashga haqli?
6. Aylanmadan olinidaigan soliq obyekti bo‘lib nima hisoblanadi?

CamScanner yordamida skanerlangan

7. Aylanmadan olinidaigan soliq bazasi bo‘lib nima hisoblanadi?
8. Yuridik shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari
9. Soliq imtiyozlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda qo‘llaniladi:
10.Advokatlar hay’ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari faoliyati bo’yicha qanday soliqlarni amalga oshiradi?
11.Advokatning daromadlari qaysi soliq solish obyektidir?
12.Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar qanday soliq to’lovchilaro hisoblanadi?
13.Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi uchun qanday to’lov amalga oshiradi?
14.Alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun qanday to’lov amalga oshiradi?
15.Alkogol mahsulotlarini chakana sotish huquqi uchun qanday to’lov amalga oshiradi?

CamScanner yordamida skanerlangan

GLOSSARIY

Aksiz solig'i (акцизные налог/excise tax) – aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan soliq turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri (bilvosita) soliq sifatida byudjetga undirish shakli.

Bevosita soliqlar (прямые налоги/direct taxes)– soliq to'lovchi tomonidan bevosita to'lanadigan soliqlar.

Byudjet (бюджет/budget) – 1) qonunchilik yo'li bilan tasdiqlangan va muayyan muddatga mo'ljallangan davlat daromadlari va xarajatlari ro'yxati; 2) davlat, korxona yoki fuqaro- ning muayyan davrdagi kutilayotgan daromadlari va xarajatlari. Davlat byudjet daromadlarining asosiy manbai soliqlar sanaladi.

Byudjetdan tashqari fondlar (внебюджетные фонды/ Off-budget funds) – bu davlat hukumati va mahalliy hokimiyatlarning byudjet ga kiritilmaydigan xarajatlarni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan mablag'lar.

Byudjet daromadlari (бюджетные доходы/Budgetary incomes) – qonunchilikda belgilangan tartibga binoan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, mahalliy organlar, ixtiyoriga beg'araz va qaytarib bermaslik shartlari bo'yicha kelib tushayotgan pul mablag' lari.

Byudjet dotatsiyalari (бюджетные дотация/Budgetary grants) – o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet jarayoni (бюджетный процесс/Budgetary process) – hokimiyat ijro va vakillik organlarining fiskal siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish va byudjet tizimini boshqarish faoliyatining majmui.

Byudjet yili (бюджетный год/Budgetary years) – davlat ini tuzish, tasdiqlash va ijro qilish yuzasidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan yillik muddat.

Byudjet profisiti (Бюджетный профицит/Budgetary proficiency) – byudjet daromadlarining xarajatlaridan oshib ketishi (byudjetning ijobiy saldosi).

Byudjet ssudalari (Бюджетная ссуда/budgetary loan) – yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarish sharti bilan yoki respublika

CamScanner yordamida skanerlangan

byudjetidan yuridik shaxs-rezidentga yoki xori-jiy davlatga ajratiladigan mablag‘.

Byudjet subvensiyalari (Бюджетная субвенция/Budgetary subvention) – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga ajratiladigan pul mablag‘ lari.

Byudjet taqchilligi (бюджетный дефицит/Budgetary deficiency) – byudjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi (byudjetning salbiy saldosi).

Byudjet tashkiloti (бюджетная организация/budgetary organisation) – davlat byudjetida byudjet ajratmalari nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti, va bu uning o‘z vazifa va funksiyalarini bajarish bilan bog‘liq faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Byudjet tizimi (бюджетная система/Budgetary system)- turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchilar yig‘ indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek, byudjetlar hamda byudjet mablag‘ lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi (O‘zRning “Byudjet tizimi to‘g‘ risida”gi Qonuni).

Byudjet transfertlari (бюджетный трансферт/Budgetary transfer) – byudjetdan bevosita yoki vakolatli organ orqali yuridik yoki jismoniy shaxsga beg‘araz ajartiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet tuzilishi (составление бюджета/Budget drawing)– byudjet tizimini tashkil etish, uni tuzish prinsiplari. Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, byudjet tizimiga kiruvchi byudjetlarning faoliyat yuritishi huquqiy asoslarini, byudjetlarning tarkibiy tuzilishini, byudjet mablag‘ larini shakllantirish va foydalanish tartib-taomillarini va boshqalarni belgilaydi.

Byudjet xarajatlari (бюджетные расходы/Budgetary expenses) – davlat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vazifa va funksiyalarini bajarish uchun yo‘naltirilayotgan pul mablag‘lari; davlat pul mablag‘lari fondini taqsimlash va uni tarmoq, maqsadli va hududiy yo‘nalishlarda foydalanish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Byudjetdan moliyalashtirish (бюджетное финансирование/Budgetary financing) – korxona, muassasa,

CamScanner yordamida skanerlangan

tashkilotlarga ularning xarajatlarini to'liq yoki qisman qoplash uchun davlat byudjetidan qaytarilmaydigan mablag' larni ajratish.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar (внебюджетные фонды/nonbudget funds) – byudjetdan alohida tashkil etiladigan, maqsadli xususiyatga ega bo'lgan, umumdavlat yoki mahalliy ahamiyatga molik tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan mustaqil moliya muassasalari tizimi; davlat tomonidan ba'zi ijtimoiy ehtiyojlar uchun mustaqil ravishda kompleks sarflanadigan jalb etilayotgan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va ishlatish shakli.

Byudjetni tartibga solish (регулирование бюджета/Budget regulation) – bu turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromadlar manbasining qonun bilan biriktirilgan taqsimlanishi, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini taqsimlash tartibi (turli darajadagi byudjetlar o'rtasida moliyaviy resurslar qisman qayta taqsimlanishi).

Valyuta birjasi (валютная биржа/stock exchange) – milliy valyutalarning uyushgan bozori. U yerda valyutalar o'rtasida talab va taklifga ko'ra shakllangan qadrlanish kursi (kotirovka) bo'yicha valyutalarning oldi-sotdisi amalga oshiriladi.

Valyuta bozori (валютный рынок/currency market)– chet el valyutasi va chet el pul birliklarida ifodalangan to'lov xizmatlarini sotib olish, sotish, ayirboshlash operatsiyalari amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi.

G'aznachilik (казначейство/Exchequer) – davlat byudjetining ijrosini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli moliyaviy organ.

Davlat byudjeti (государственный бюджет/state budget) – davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag' lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat zayomlari (госзаёмы/Public debts) – kredit munosabatlarining turi bo'lib, unda davlat (yoki uning mahalliy organlari) zayom beruvchi yoki kreditor rolida namoyon bo'ladi.

Davlat qarzini boshqarish (управление государственными долгами/Management of public debts) – davlat boshqaruv organlarining davlatning qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish, davlat qimmatli qog'ozlari bozorini tartibga solish, davlat qarziga xizmat ko'rsatish va to'lash, ssudalar va kafolatlar bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yig'indisi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Davlat krediti (государственный кредит/state credit) – bu bir tomondan davlat va ikkinchi tomondan jismoniy va huquqiy shaxslar o'rtasidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ularni davlat xarajatlarini moliyalashtirishga sarflash hamda korxonalar va tashkilotlarga muddatlilik, to'lovlilik va qaytaruvchanlik asosida moliyaviy yordamlar berish bo'yicha pul munosabatlari yig'indisi.

Davlat maqsadli jamg'armalari (государственные целевые фонды/state trust funds) – Davlat byudjeti tarkibida jam-lanadigan jamg'armalar bo'lib, ularning har bin uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek, shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari: bilan belgilanadi.

Davlat xarajatlari (государственные расходы/State expenditure) – markazlashgan va markazlashmagan davlat daromadlarini foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlar.

Direktiv (ma'muriy) moliya mexanizmi (административный финансовый механизм/administrative financial mechanism) – davlat ishtirok etadigan moliya munosabatlari soliqlar, davlat krediti, byudjet xarajatlari, byudjet dan moliyalashtirish, byudjet qurilmasi va byudjet jarayonini tashkil qilish, moliyaviy rejalashtirishni tashkil etishning barcha tizimlarini batafsil ishlab chiqilish

Dotatsiya (дотация/grant) – yuqori byudjet bo'g'inidan quyi byudjet bo'g'iniga yoki byudjetdan yuridik va jismoiny shaxslarga qaytarib bermaslik sharti bilan berilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari.

Jamoat birlashmalari (общественные союзы/public unions) – ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari.

Jamoat fondlari (Публичные фонд\fonds) – fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, hayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

Zayom (заём/debts) – davlat byudjetiga yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etish yo'li bilan byudjet taqchilligi o'rnini to'ldirish, ulkan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash maqsadida davlat tomonidan chiqariladigan qimmatbaho qog'ozlar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Zahira (резерв/Reserve) – muayyan maqsadlar uchun, ayrim hollarda esa kutilmagan hollarning oldini olish uchun saqlab qo'yilgan moddiy, moliyaviy va boshqa resurslar.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari – maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjet dan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalar.

Iqtisodiy siyosat (экономическая политика/Economic policy) – davlat tomonidan mamlakat oldida turgan yaqin va uzoq kelajakdagi vazifalarga muvofiq ravishda amalga oshirilayotgan hamda amalga oshrilishi mo'ljallanayotgan iqtisodiy, siyosiy va boshqa tadbirlar yig'indisi.

Investitsiya krediti (инвестиционный кредит/investment credit) – investitsiya maqsadlariga yo'naltirilgan turli xildagi bank kreditlari.

Yig'im (сбор/Gathering) – ayrim tovar turlari bilan chakana savdoni amalga oshirish huquqini olish uchun to'lanadi. Tovar turlari bilan chakana savdo qilish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi.

Qayta moliyalashtirish (рефинансирование/Refinancing) – 1) yangi zayomlar chiqarish orqali davlat qar- zini qoplash, bunda asosan qisqa muddatli majburiyatlar yoki qoplash muddati tugayotgan majburiyatlar, uzoq muddatli qimmatli qog' ozlar almashtiriladi; 2) qarz, zayom muddatini uzaytirish va (yoki) uning so'mmasini oshirish; 3) kredit shartlarini o'zgartirish (qoplash grafigi, foiz stavkasi).

Kapital qo'yilma (капитальные вложение/Capital an investment) – ma'lum maqsad uchun, ko'pchilik hollarda muayyan obyektlar qurilishi yoki ta'mirlanishi, yangi quvvatlarni o'zlashtirilishi uchun davlat markaziy yoki mahalliy mablag'lari, korxona mablag'lari hisobidan moliyaviy fondlarning ajratilishi. Asosiy fondlar, binolar, uskunalarni sotib olish yoki takomillashtirish uchun pul mablag' lari xarajatlari.

Qarz (долг/debts) – jismoniy yoki yuridik shaxsning shartnomada ko'zda tutilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra vujudga keluvchi majburiyati bo'lib, unga muvofiq qarzdor pul yoki natura holidagi muayyan mulkni shartnomada yoki qonunda nazarda tutilgan muddatda ikkinchi tomon (jismoniy yoki yuridik shaxsga yoxud davlat)ga topshirishi lozim bo'ladi.

Qarzli moliyalashtirish (долговые финансирование/Debt financing) – turli manbalardan, obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarishdan olingan kreditlar va qarzlar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Qarzni to'lashga qobiliyatsizlik (неплатежоспособность/ Insolvency) – qarz majburiyatlarini bajarishlik uchun qarzdor to'lov qobiliyatining yo'qolishi.

Kasaba uyushmalari (профсоюзы/Trade unions) - ishlab chiqarishda, xizmat ko'rsatish va madaniyat sohasida faoliyatining umumiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlarni birlashtiruvchi ommaviy tashkilotlar.

Qimmatli qog'ozlar bozori (рынок ценных бумаг/ Securities market) – qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar) bilan savdo-sotiq amalga oshiriladigan bozor. Ssuda kapitali bozorining tarkibiy qismlaridan, u yerda qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya) bilan savdo-sotiq operatsiyalari amalga oshiriladi.

Korxonani moliyalashtirish (финансирование предприятий/Financing of the enterprises) – korxonalarni zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir.

Qo'shilgan qiymat solig'i (НДС / VAT) – qo'shimcha sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatidan to'lanadigan soliq

Mahalliy byudjet (местные бюджеты/Local budgets) – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag' lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi (O'zRning "Byudjet tizimi to'g' risida"gi Qonuni).

Mahalliy soliqlar hamda majburiy to'lovlar (местные налоги и сборы/Local taxes and tax collections) – yuridik va jismoniy shaxslar daromadlaridan mahalliy davlat idoralari ehtiyoji uchun qonunda belgilangan miqdorda va tartibda muntazam ravishda to'lab boriladigan to'lov turi.

Moliya (финансы/Finance) – bu davlat tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalarni bajarish uchun mo'ljallangan umumdavlat pul fondlarini shakllantirish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari yig'indisi.

Moliya bozori (финансовый рынок/financial market) – moliyaviy (pul) resurslari va investision qiymatliklarni (moliyaviy resurslarni tashkil qilish vositalarini) sotuvchilari va xaridorlari o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Moliya mexanizmi (финансовый механизм/financial mechanism) – taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarining keng tizimini amalga oshirish, daromad va jamg'armalarni tashkil qilish, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini tuzishni taominlovchi shakl va usullar yig'indisi.

Moliya siyosati (финансовая политика/financial policy) – bu davlatning iqtisodiy siyosatini tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy resurslarni (manbalarni) jalb etish, ularni taqsimlash, ishga solish va foydalanishga davlat orqali yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlar yig'indisi.

Moliya tizimi (финансовая система/Financial system) – moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o'z ichiga olib, har qaysi sohalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar majmui.

Moliyaviy nazorat (финансовый контроль/Financial control) – moliyaning nazorat funksiyasini amalga oshirish ko'rinishida namoyon bo'lib, u moliyaviy nazoratning mazmuni va yo'nalishini belgilab beradi.

Moliyaviy strategiya (Financial strategy/finansovaya strategiya) – moliya siyosatining istiqbolga mo'ljallangan va ijtimoiy hamda iqtisodiy strategiya orqali belgilangan keng ko'lamli masalalarni xal etishga yo'naltirilgan uzoq muddatli rejasi.

Moliyaviy taktika (финансовая тактика/Financial tactics) – moliyaviy strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish usullari.

Moliyani boshqarish (управление финансами/financial management) – subyektlarning moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish, yo'lga qo'yish va takomillashtirish usullari yig'indisi.

Muassasalar (учреждения/Establishment) – boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot.

Mulk (недвижимость/real estate) – iqtisodiy kategoriya sifatida moddiy boyliklarni o'zlashtirishning huquqiy shakli.

Nazorat (контроль/control)– jamiyat iqtisodiy hayotidagi obyektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo'g'ini.

Noishlab chiqarish sohasi (сфера производства/ Manufacture sphere) – bu iqtisodiyotning moddiy boyliklar ishlab chiqarmaydigan tarmoqlari majmui.

Pensiya fondi (пенсионный фонд/Pension fund) – bu pensiya bilan ta'minlovchi davlat moliya boshqaruvining organi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Penya (Пеня/penalty) – aybnoma turlaridan biri. Unga ko‘ra, turli moliyaviy majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarmagan shaxslarga qo‘llaniladigan jazo (sanksiya). Kechiktirilgan har bir kun uchun to‘lanmagan qarz so‘mmasiga nisbatan muayyan foizlarga qo‘llaniladi.

Progressiv soliq stavkasi (прогрессивная налоговая ставка/progressive tax rate) – soliq bazasining ortishi bilan soliq stavkasi ortib boradi;

Proporsional soliq stavkasi (пропорциональная налоговая ставка/proportional tax rate) – hamma soliq to‘lovchilar uchun teng soliq stavkasi qo‘llanadi (qqs, aksiz, foyda solig‘i);

Pul-kredit siyosati (денежно-кредитная система/ Monetary and credit system) – markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit orqali muvofiqlashtirish vositalarining davlat tomonidan ishlab chiqilgan va qonuniy tasdiqlangan mexanizm

Regressiv soliq stavkasi (регрессивная налоговая ставка/regressive tax rate) – soliq bazasining ortishi bilan soliq stavkasi kamayadi (umumiy sotilgan mahsulot hajmida eksport ulushi ortib borishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi).

Reinvestisiya (Реинвестиция/Reinvestment) – turli korxonalarga takroran yoki qo‘shimcha sarmoya sarflash. Bunday tarzda qo‘shimcha mablag‘ sarflash olingan foyda hisobiga qo‘lga kiritilgan qog‘ozlar va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Respublika byudjeti (республиканский бюджет/republican budget) – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi (O‘zRning “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi Qonuni).

Soliq (налог/tax) – 1) byudjetga majburiy badal bo‘lib, qonunchilikda belgi-langan tartibda soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi; 2) soliqlar, o‘z moddiy mazmuniga ko‘ra, milliy daromadning xo‘jalik subyektlari va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undirilgan qismidir.

Soliq (налог/tax) – muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari (O‘zRning Soliq kodeksi).

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq bazasi (налоговая база/Tax base) – soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlar (налог и объязательные платежи/tax and obligatory payments) – davlat tomonidan joriy qilingan va jismoniy hamda yuridik shaxslar tomonidan to'lanishi majburiy bo'lgan, doimiy tavsifdagi, miqdori avvaldan belgilangan to'lov turlari.

Soliq manbai (налоговый/tax) – bu subyektning daromadidir. Ba'zi soliqlarda daromad va foyda ham soliq obyekti, ham soliq manbai bo'ladi. Lekin boshqa soliqlarda obyektlar har xil, manba esa - daromad bo'ladi.

Soliq obyekti (налоговый объект/Tax object) – soliq solinadigan daromad, oborot yoki mulkdir. Uning foyda, ish haqi, yer, imorat, jami xarajat kabi turlari mavjud.

Soliq salohiyati (налоговый потенциал/Tax potential) – amaldagi qonunchilikka binoan soliq bazalarining tarkibi va tuzilishi kelib chiqqan byudjetning maksimal soliq daromad-lari so'mmasi. Soliq salohiyatini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: faktik (haqiqiy) soliq tushumlari, soliq to'lovlari bo'yicha qarzdorlikni qo'shimcha o'sishi, soliq imtiyozlari qismidagi tushib qolayotgan daromadlar, soliq organlarining nazorat ishlari natijasi bo'yicha qo'shimcha hisoblab chiqilgan soliqlar, iqtisodiyotning yashirin sektori bo'yicha soliq daromadlarini yo'qotish, ya'ni yashirin iqtisodiyot resurslari.

Soliq siyosati strategiyasi (стратегия налоговой политики/Tax policy strategy) – muayyan muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari majmui.

Soliq solinadigan baza (налогооблагаемая база/Taxable base) – soliqqa tortish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi (O'zRning Soliq kodeksi).

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi (упрощенный налогооблажение/Simplified taxation) – soliqqa tortishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim tur-dagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Soliq stavkasi (налоговая ставка/tax rate) – obyektning har birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir, ya'ni davlatning soliq obyektidagi ulushi, hissasidir.

Soliq subyekti (налоговый субъект/tax subject) – soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar.

Soliq tizimi (налоговая система/tax system) – bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig' im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig' indisi.

Soliqqa tortish birligi (налогооблагаемая единица/Taxable unit) – bu obyektning o'lchov birligi. Bu daromad solig' ida so'm, yer solig' ida kv. metr, suv solig' ida kub. metr va boshqalar.

Soliqli daromadlar (налоговые доходы/Tax incomes)– soliq salohiyatining qismi bo'lib, milliy daromadning xo'jalik subyektlaridan va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undiriladi

Stavka (ставка/rate) – soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq so'mmadagi miqdor (O'zRning Soliq kodeksi).

Subvensiya (Субвенция/Subvention) – yuqori byudjet organidan quyi byudjet organiga muayyan maqsadlar uchun beriladigan va maqsadli foydalaniladigan pul mablag'lari.

Sug'urta (страхование/Insurance) – ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementi sifatidi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liq munosabatlardir.

Sug'urta (страхование/Insurance) – ishtirokchilarm o'rtasida ko'rilishi mumkin ibo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi.

Sug'urta bozori (страховой рынок/ Insurance market) – bu sug'urta holatlari ro'y berganda jismoniy va huquqiy shaxslarni mulkiy mafaatlarini sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari hisobidan himoya qilishda aks etuvchi sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Sug'urtalanuvchi – o'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar, sug'urtadan manfaatdor bo'lgan va sug'urtalovchi bilan qonun yoki shartnoma asosida munosabatga kiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Sug'urtalovchi (страховшик/The insurer) – sug'urta qiluvchi tashkilot, sug'urta xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar, sug'

CamScanner yordamida skanerlangan

urta fondini tashkil qilish, amllash va nug' urta operatsiyalarini o'tkazish uchun davlat lisenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

Tartibga soluvchi daromadlar (регулируемые доходы/ Adjustable incomes) bu yuqori byudjet lardan quyi byudjet ga, ularning daromad va xarajatlarini boshqarib turish (balanslashtirish) maqsadida beriladigan pul mablag'lari majmuasi.

Tezkor boshqarish (оперативное управление/Operative managements) mavjud moliyaviy holatni tezkor (operativ) tahlil qilish asosida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash yordamida minimal xarajat qilib maksimal samaraga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tekshirish (проверка/Checking) – hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatining alohida masalalariga baho berish, moliya intizomining buzilgan nuqsonlarini aniqlash, mavjud muammolarni bartaraf etish va salbiy holatlarni takrorlanmasligi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilishini ko'zda tutuvchi nazorat usuli.

Uy xo'jaligi byudjeti (бюджет домохозяйств/budjet) – bu uy xo'jaligi pul mablag'lari fondini shakllantirish va foydalanish shaklidir

Uy xo'jaligi moliyasi (финансы домохозяйств/finance) – bu uy xo'jaligi a'zolarining moddiy va ijtimoiy hayot sharoitlarini ta'minlash maqsadida pul mablag' lari fondini shakllantirish va foydalanish bo'yicha vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlarining ifodasidir.

O'rganish (изучение/Studying) – korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatining alohida tomonlarini qamrab oluvchi, ko'rsatkichlarning keng ko'lamini qamrab olish va xo'jalik subyektining moliyaviy holatini, uni rivojlanish istiqbollarini, ishlab chiqarishni qayta tashkil qilish yoki qayta ixtisoslashuvining zarurligini aniqlab berish.

Fiskal siyosat (фискальная политика/fiscal policy) – 1) hukumat tomonidan qo'yilgan makroiqtisodiy maqsadlarga erishish uchun hukumatning xarajat va soliq funksiyalarini ongli ravishda qo'llash; 2) byudjet, soliq va boshqa moliyaviy imkoniyatlarni boshqarish sohasidagi chora-tadbirlar yordamida hukumat tomonidan tadbir- korlik faolligini tartibga solish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (органы самоуправления граждан/Self-government institutions) – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilari.

CamScanner yordamida skanerlangan

Xarajatlar smetasi (смета расходов/estimate of expenses) – tashkilot tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilot uchun mo'ljallangan byudjet ajratmalari (xarajatlar rejasi) xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladi.

Xususiylashtirish (приватизация/privatisation) – davlat qo'lida markazlashgan mol-mulklarni davlat egaligidan chiqarish.

Erkin bojxona hududi (свободная томоженная зона/free customs area)– bojxona nazoratisiz va boj to'lovlari undirilmagan holda mahsulotlarni erkin olib kirish mumkin bo'lgan hudud.

Erkin iqtisodiy hudud (свободная экономическая зона/ Free economic zone) – davlat bojxona chegaralarining alohida ajratilgan qismi. Erkin iqtisodiy hudud deb e'lon qilingan joy xo'jalik masalalarini hal etishda to'la erkin, alohida tartibda boshqariladi, mahalliy va chet el firmalari uchun faoliyat yuritishning imtiyozli tartibi joriy etilgan bo'ladi.

Yalpi ichki mahsulot (ЯИМ/ВВП/Gross national product) – yil davomida mamlakat hududidagi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida pirovard natijada (ya'ni bevosita iste'mol uchun), foydalanilgan ishlab chiqarish omillarining qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar iste'mol, eksport va jamg' arish maqsadida yaratilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatida hisoblangan miqdoridir.

Yalpi milliy mahsulot (ЯММ/ВНП/GNP) – yil davomida ishlab chiqarilgan pulda ifodalangan pirovard mahsulot va xizmatlarning yalpi hajmi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarishning milliy hajmini xarakterlaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: “O‘zbekiston”, 2016.–76 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi - T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.-496 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi - T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2017.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimcha kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida 601-son Qonuni. 2020-yil 7-yanvar. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, - T.: (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.01.2020-y., 03/20/601/0025-son)

7. O‘zbekiston Respublikasi «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son)

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-iyundagi “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi 177-son Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30- dekabrdagi «2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2270-son Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020- y., 50-son.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-son Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son.

11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (yangi tahriri) // qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019-y., 02/19/sk/4256-son; 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son.

CamScanner yordamida skanerlangan

12. S.K.Xudoyqulov. Soliq tizimi. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2013. 279 b.

13. V.S.Nuritdinova, M.A.Sharapova. Moliyaviy nazorat. -T.: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2014. –380 b.

14. X.Shennayev, I.K.Ochilov, I.G‘.Kenjayev, S.E.Shirinov. Sug‘urta ishi. -T.: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2014. –248 b.

15. Yoldoshev. Soliq va soliqqa tortish. –T.: «Fan va texnologiya», 2007. 128 bet.

16. Alimardonov M.I., Toxsonov Q.N. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma, – T.: O‘zbyokiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. 168 b.

17. Gadoyev E.F., Qurbonov X.A. Moliya. - T. O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005.- 189 b

18. Tuxliyev B.K., Qurbonov X.A., Bauyetdinov M.J., Bijanova M.B., Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2010, 199 b.

19. Vaxabov A.V. va boshq. Xorijiy investitsiyalar. -T.: “Moliya”, 2010. -328 b.

20. Agzamov A.T., Shomansurova Z.A. «Moliya va soliqlar» fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi. «Iqtisodiy ta’limdagi o‘qitish texnologiyasi» seriyasidan. –T.: TDIU, 2010. 268.

21. Vahobov A.V, Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.”Sharq”, 2009. - 448 b.

22. Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2009. – 556 bet.

23. Vahabov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: ““IQTISOD-MOLIYA»” nashriyoti, 2007. – 309 b.

24. Vaxobov A., Kosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yahlitligi, O‘quv qo‘llanma, - T.: “Iqtisod va moliya”, 2005.

25. Сердюков А. Э., Вылкова Е. С., Тарасевич А. Л. Налоги и налогообложение. - СПб: Питер, 2008.

26. Taniyev A.B Innavatsion iqtisodiyot. Darslik.S.: SamDU 2020 460 b

27. Taniyev A.B., Parsaev G.M. Internet marketing. Darslik. S.: SamDU 2021 182 b

28. Taniyev A., Zenchenko S., Kushatov R., Xaitov O. Biznes asoslari o’quv qo’llanma SamDU 2022 199 b.

CamScanner yordamida skanerlangan

29. Safarov B.Sh., Ayubov I.I. Moliya va soliqlar //Darslik//. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot uyi", 2020. 512 b.

30. Ayubov I.I. Moliya va kredit. // O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot uyi", 2020. 360 b.

31.Tuxliyev B.K., Aliyeva L.K., Aliyev S.K. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi: O'quv qo'llanma – T.:TDIU., 2007. –144 b.

32. Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T.: 2007. -320 b.

33. Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008.

34. A. Vahobov, Z. Sirojiddinova. Ɵ'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. -T., TMI, 2002.

35. Финансовая математика. Математическое моделирование финансовых операций: Учеб пособ. Под ред. В.А. Половникова и А.И. Пилипенко. – М.: ИНФРА-М, 2010 – С.360.

36. Yahyoyev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik. –T.: "Fan va texnologiyalar", 2003. – 247 b.

37. Алан Гринспен. Эпоха потрясений. Проблемы и перспективы мировой финансовой системы.-М.: Альпина Бизнес Букс, 2008. – 528 с.

38. Bekmurodov A. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 1,2,3,4,5-qismlar. Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida.- T.: TDIU, 2006. – 66 b.

39. Бочаров В.В. Корпоративные финансы.- Спб.: Питер, 2008.-С.272.

40. В.В.Ковалева. Финансы. Учебник. -М.: Проспект, 2008.-С. 478.

41. Ван Хорн Дж.К., Вахович Дж.М. Основы финансового менеджмента. 12-е изд. - М.: "И.Д. Вильямс", 2008. — 1232 с.

42. Vaxobov A. va boshqalar. Chet mamlakatlar moliyasi. –T.: "Yangi asr avlodi", 2003.

43. Вахобов А., Жамолов Х. Согласование межбюджетных отношений. Учеб.пос.-Т.: "Иктисод-молия", 2003.

44. Гаврилина Н.Е., Дербенева Е.Н. Основы финансов и кредита (Учебное пособие). -М.:Феникс, 2007.

45. Галанов В. А. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник. –М.: ФОРУМ: ИНФРА, 2008. – С.416.

CamScanner yordamida skanerlangan

46. Касымов Ю.Ф. Финансы и инвестици. -М.:АНКИЛ, 2008.-С.232.

47. Кирсанов С.А., Борисоглебская Л.Н. Государственные и муниципальные финансы: Финансирование социальных услуг: Учебник для вузов. -М.:Андреевский издательский дом, 2008.

48. Хўжаев Й. Ташқи иқтисодий фаолиятда суғурта. Ўқув қўлланма. - Т.: Солиқ академияси, 2005.

49. Климова М.А. Страхование. Учеб. пособие. - М.: Издательство РИОР, 2004. - 137 с.

50. Ковалева А.М. Финансы: Учебное пособие.– М.: Финансы и статистика, 2008. – С.416.

51. Корпоративные финансы. Учебник для Вузов. Под ред. Бочарова В.В –М.: ФБК-ПРЕСС, 2004.

52. Купцов М.М Финансы: Учеб. пособие.- 4-е изд., - М.: РИОР, 2008.- С.113.

53. Лушина С.И., Слепова В.А. Государственные и муниципальные финансы: Учебник, Москва: Экономистъ, 2006.

54. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение: Учебник. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. - 520 с.

55. Модели финансирования вузов: анализ и оценка. / Под ред. С.А. Белякова. - М.: ИЭПП, 2005, - С.282.

56. Никулкина И.В. Общая тсория налогообложения: учеб.пособ. – М.: Эксмо, 2010. – 176 с.

57. Общая теория финансов: Учебник/ Под ред. Л.А. Дробозиной. М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1995.

58. Пайк Р., Нил Б. Корпоративные финансы и инвестирование.-СПб.: Питер, 2005. -784 с.

59. Поляк Г.Б. Бюджетная система России: Учебник. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.

60. Романовский М.В., Врублевский О.В. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. – М.: «ИД Юрайт», 2010. – С.714 с.

61. Страховое дело: Учебник. В 2 т. (пер. с нем. О.И. Крюгер и Т.А. Федоровой). - т. 1: Основы страхования / под ред. О.И. Крюгера. - М.: Экономист, 2004. - 447 с.

62. Тиницкий В.М. Казначейское дело: Учебное пособие.-М.: КНОРУС, 2010

63. Федоров А.В. Анализ финансовых рынков и торговля финансовыми активами.- СПб.: Питер,2007.- 240 с.

CamScanner yordamida skanerlangan

64. Финансы бюджетных организаций: Учебник / под ред. проф. Поляка Г.Б. – М.: Вузовский учебник, 2006. - 363с.

65. Финансы и кредит : учебное пособие / кол. авторов ; под ред. О.И. Лаврушина. - М. : КНОРУС, 2008. – С.304.

66. Финансы предприятий. Учебник для Вузов. Под ред. Поляка Г.Б. М.: ФиС, 2003.

67. Юлдашев Р.Т. "Страховой бизнес": Словарь-справочник Р.Т.Юлдашев – М., Анкел, 2005.

68. Юткина Г.Ф. Налоги и налогообложения. Учебник. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 509 с.

69. Яндиев М.И. Финансы регионов.-М.:Финансы и статистика, 2002.- С.240.

70. Д. Рикардо. Сочинения. Т.1. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с анг. -М., «Госполитиздат», 1990. стр. 360.

71. Инвестиции Республики Узбекистан 2009. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2009. – С.148.

72. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali. 2006-2011- yillar sonlari.

Ilmiy maqola va monografiyalar

73. M. Ostonaqulov. G'aznachilikka o'tish sharoitida davlat qarzlarini boshqarish//IQTISOD VA MOLIYA/ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ №5, 2010. 41-51 bb.

74. E.F.Gadoyev. Soliqqa tortish tartib-taomillarini soddalashtirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili//iqtisod va moliya /экономика и финансы 2015/1.

75. K.S. Ismaylov, M.S.Abishov. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari// iqtisod va moliya/ экономика и финансы 2012/2. 68-71 bb.

76. T.S.Malikov, P.T.Jalilov. Byudjet-soliq siyosati / Monografiya – T.: «Akademnashr», 2011. - 472 b.

77. Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli / Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2008. - 204 b.

78. Toshmatov Sh.A. Komilov M.M. Qo'shilgan qiymat solig'i / Monografiya. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyoti, 2004. –180 b.

Internet saytlari:

79. http://www.gov.uz

CamScanner yordamida skanerlangan

80. http://www.press-service.uz
81. http://www.mineconomy.cc.uz
82. http://www.mf.uz
83. http://www.stat.uz
84. http://www.soliq.uz
85. http://www.edu.uz
86. http://www.tsue.uz
87. http://www.tfi.uz
88. http://www.glossary.ru
89. http://www.lex.uz

CamScanner yordamida skanerlangan

MUNDARIJA:

KIRISH.....3
1-MAVZU:MOLIYANING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI.....5
1. Moliyaning mohiyati va zarurati.....5
2. Moliyaning funksiyalari.....6
3. Moliyaviy bozorlar va institutlar.....12
2-MAVZU: MOLIYAVIY SIYOSAT.....15
1. Moliyaviy siyosat.....15
2. Byudjet va pul-kredit siyosati.....18
3. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari.....20
4. Xalqaro moliya siyosati.....21
5.Moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari.....23
3-MAVZU: MOLIYA TIZIMI VA UNING BO'G'INLARI.....26
1. Moliya tizimi.....26
2. Moliya tizimi bo'g'inlari.....28
3. Moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlar.....29
4-MAVZU. MOLIYA BOZORI VA INSTRUMENTLARI.....32
1. Qimmatli qog'ozlar bozorining turlari va ularning turkumlanishi.....32
2. Ulushga egalik qilish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozlar.....37
3. Aksiya bilan bog'liq bo'lgan hosilaviy qimmatli qog'ozlarlar.....41
5-MAVZU: MOLIYAVIY BOSHQARUV.....48
1.Moliyaviy boshqaruv.....48
2.Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik prinsiplari, aniq usullari va shakllari.....51
3.Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari.....53
4.Korxonani moliyaviy boshqaruv tizimida rejalashtirish va tahlil.....55
6-MAVZU: MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISH...59
1. Moliyaviy rejalashtirish haqida tushuncha.....59
2. Moliyaviy bashoratlash.....64
3.Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari.....65
7-MAVZU: MOLIYAVIY NAZORAT.....69
1. Moliyaviy nazoratning mohiyati.....69
2. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar.....74
3. Moliyaviy nazoratning turlari.....77
4.Nodavlat moliyaviy nazorat.....80
8-MAVZU: MULKCHILIKNING TURLI SHAKLLARIDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYASI.....83
1. Faoliyatning turli sohalarida moliyaning amal qilish xususiyatlari.....83
2. Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar moliyasi.....86
3. Notijorat faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar moliyasi.....92
4. Jamoat tashkilotlari moliyasi.....94
9-MAVZU: SUG'URTA TASHKILOTLAR MOLIYASI.....106
1. Sug'urtaning mohiyati, funksiyalari va turlari.....106
2. Sug'urta bozori.....112

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Ijtimoiy sug'urtaning turlari....114
4. Tibbiy sug'urta....119
5.Sug'urta tshkilotlarida moliyaviy natijani shakllanishi....122
10-MAVZU: DAVLAT MOLIYASI....125
1. Davlat moliyasi....125
2. Davlat daromadlari....128
3. Davlat xarajatlari....130
4. Davlat qarzlarining mohiyati va ahamiyati....133
5. Davlat kreditining shakllari va tasniflanishi....135
6. Davlat qarzlarini boshqarish....139
11-MAVZU: MAHALLIY MOLIYA....143
1. Mahalliy moliyaning mohiyati va tarkibi. Mahalliy byudjet....143
2.Hududlarni rivojlantirishda mahalliy byudjetning moliyaviy imkoniyatlari....147
3. Mahalliy byudjetdan tashqari fondlar....150
12-MAVZU: DAVLAT BYUDJETI....152
1. Davlat byudjetining mohiyati va ahamiyati....152
2. Davlat byudjetining daromadlari tarkibi....154
3. Davlat byudjetining xarajatlari....158
4. Byudjet taqchilligi va uni boshqarish....166
5. Byudjet tizimi va qurilishi....170
6. Byudjet jarayoni....173
13-MAVZU: UY XO'JALIKLARI MOLIYASI....179
1.Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi va uning ta'rifi....179
2. Uy xo'jaliklari moliyasining davlat moliya tizimida tutgan o'rni va uning moliyaviy ahamiyati....181
14-MAVZU: XALQARO MOLIYA....187
1. Xalqaro moliya: mazmuni va tashkiliy tamoyillari....187
2. Xalqaro moliya(ning) asoslari va rivojlanish tendensiyalari....190
3. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi....194
15-MAVZU: SOLIQLARNING MOHIYATI VA AHAMIYATI....200
1. Soliqlar va soliqqa tortish amaliyotining paydo bo'lish sabablari....200
2. Soliq va to'lovlar tushunchasi....202
3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati....203
4. Soliqlarning funksiyalari va tamoyillari....208
16-MAVZU: SOLIQ VA BOSHQA YIG'IMLAR TO'LOVCHILARI VA ULARNING VAKILLARI....214
1. Soliq va majburiy yig'im to'lovchilarining huquqlari....214
2. Soliq va majburiy yig'im to'lovchilarining majburiyatlari....215
3. Soliq va boshqa yig'imlar to'lovchilarining vakillari....216
4.Bank muassasalarining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'tkazishga doir majburiyatlari....218

CamScanner yordamida skanerlangan

17-MAVZU:SOLIQ VA YIG'IMLARNI BELGILASH VA TO'LASH TARTIBI.....223
1. Soliq elementlari va ularning tavsifi.....223
2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati.....228
3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini o'zgartirish.....232
4. Soliq hisoboti.....233
18-MAVZU:O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ MA'MURCHILIGI.....235
1. Soliq ma'murchiligi: maqsad va vazifalari.....235
2. Soliq ma'muriyatchiligi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari.....237
3. Soliq ma'muriyatchiligi organlarining vazifalari, huquq va majburiyatlari.....239
4. Soliq organlarining tarkibi, tuzilishi va vakolatlari.....243
19-MAVZU: SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ SIYOSATI.....247
1. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining o'ziga xosligi.....247
2. Soliq mexanizmi.....248
3. Soliq munosabatlarining ishtirokchilari.....250
4. Davlatning soliq siyosati.....251
5. Zamonaviy sharoitlarda tashqi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.....253
20-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN TO'LAYDIGAN SOLIQLAR VA YIG'IMLAR.....261
1. Yuridik shaxs va ulardan undiriladigan soliqlar, yig'imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to'lovlar. 261
2.Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi tutgan o'rni.....264
3. Korxonalarning daromadlari va xarajatlari.....264
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i.....278
21-MAVZU: QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA AKSIZ SOLIG'I.....287
1. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS).....287
2. Aksiz solig'i.....294
3. Soliq solinadigan oborotni belgilash.....302
22-MAVZU: DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARIGA TO'LANADIGAN MAJBURIY TO'LOVLAR.....312
1. Byudjetdan tashqari fondlarning mohiyati va maqsadi.....312
2.O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Pensiya Jamg'armasi.....315
3. Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi.....322
4. Ijtimoiy soliq.....328
23-MAVZU: JISMONIY SHAXSLARNING OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I.....331

CamScanner yordamida skanerlangan

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning shakllanishi va ularning ahamiyati.....331
2. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq.....332
3. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini deklaratsiya bo'yicha to'lash..... 338
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqdan belgilangan soliq imtiyozlari.....342
24-MAVZU: MOL-MULK SOLIG'.....351
1. Jismoniy shaxslar undiriladigan mol-mulk solig'i.....351
2. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i 356
25-MAVZU: YER SOLIG'I.....362
1.Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.....362
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.....369
26-MAVZU: RESURS SOLIG'I.....375
1.Suv resurslaridanfoydalanganlik uchun soliq.....375
2.Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.....381
3.Foydali qazilmani qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i.....385
27-MAVZU: SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....390
1. Aylanmadan olinadigan soliq.....390
2. To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....399
3. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....400
4. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....401
5. Advokatlar hay'atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....402
6. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....402
7. Yig'imlar.....403
GLOSSARIY.....406
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....418

CamScanner yordamida skanerlangan

Larisa Dimetrovna Petrenko
Safarov Bahodirxon Shahriyorovich
Taniyev Axmadjon Baxromovich
Ayubov Ilyosxon Ilxomovich

MOLIYA VA SOLIQLAR

Darslik

Muharrir — O. Sharapova
Musahhih — X. Raximova
Texnik muharrir — O. Shukurov

ISBN 978-9943-8180-3-3

2022-yil 08 oktyabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2022-yil 13 oktyabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 60x84.1/16. "Times New Roman" garniturasi.
Offset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i – 28,5.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 274

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



CamScanner yordamida skanerlangan



ISBN 978-9943-8180-3-3

CamScanner yordamida skanerlangan